

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
VAZIRLIGI**

**SH.NORMATOVA
M.ABDURAXMANOVA**

O'ZBEK TILI

Bakalavriat yo'naliishi: 5120700–Jahon siyosati
5240100–Yurisprudensiya
5231100–Jahon iqtisodiyoti va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar

TOSHKENT – 2016

Ushbu o‘quv qo‘llanma Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti O‘quv-uslubiy kengashida tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Mualliflar: **Shoira Normatova** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Mehribon Abduraxmanova – dotsent

Taqrizchilar: **Sh. Rahmatullayev** – filologiya fanlari doktori, profesor;

A.Aripova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining rusiyabon talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, ularning o‘zbek tili grammatikasi bo‘yicha asos bilimlarini mustahkamlash, takomillashtirishni ko‘zda tutadi. Unda xorijiy tillarni o‘qitish tajribalaridan ijodiy foydalanildi hamda o‘zbek tilini rusiyabonlarga o‘qitishning noan’ananaviy usullari qo‘llandi. O‘quv qo‘llanma alohida nutqiy bo‘limlardan iborat bo‘lib, grammatik mavzu nutqiy mavzuga singdirib yuborildi. Har bir mashg‘ulot o‘qish, tinglash, so‘zlash va tarima uchun materiallarr hamda mavzu va matn yuzasidan topshiriqlar bilan ta’minlandi. Har bir bo‘lim yakunida namunaviy test savollari berilgan Matnlar mavzusi ijtimoiy hamda madaniy hayotning turli jahbalarini qamrab olgan. Tinglash uchun matn diskiga ilova qilingan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tilini o‘rganayotgan talabalari uchun mo‘ljallangan.

Данное учебное пособие предназначено для русскоязычных студентов высших учебных заведений. Оно ставит перед собой цель укрепление и усовершенствование базовых знаний студентов. В ней был использован современный опыт преподавания иностранных языков, а также нетрадиционные методы обучения узбекско языка русскоговорящим. Пособие состоит из отдельных частей, грамматический материал осваивается через речевой. Каждое занятие обеспечено с материалами для чтения, слушания, говорения и перевода, а также с упражнениями и заданиями над текстом. В завершении каждого раздела даются образцовые тесты. Темы текстов охватывают различные сферы социальной и культурной жизни, прилагаются аудио диски.

This tutorial is intended for Russian-speaking academic students. It aims at strengthening and improvement of basic knowledge of students. It was developed based on modern practice of teaching, as well as on non-traditional methods of teaching Uzbek language to Russian-speaking. The book consists of separate parts, grammar mastered through speech. Each class is supported by materials for reading, listening, speaking and translation, as well as exercises and text tasks. At the end of each section are given exemplary tests. Topics of tests cover various spheres of social and cultural life; audio discs are attached.

MUNDARIJA

KIRISH.....	5
MUSTAHKAM OILA – JAMIYAT POYDEVORI.....	8
FONETIKA	11
SHAXS VA NARSANI IFODALOVCHI SO‘ZLAR	18
OTLARNING KICHRAYTIRISH, HURMATLASH VA ERKALASH SHAKLLARI	19
QARASHLILIK MA’NOSINI IFODALASH YO‘LLARI	28
PREDMET HARAKATINI O‘ZIGA TO‘LA OLISHINI, PREDMETNING O‘RNINI, HARAKATNING YO‘NALISHINI, BUTUNNING QISMINI QO‘SHIMCHALAR ORQALI IFODALASH	29
TARIXSIZ KELAJAK YO‘Q	40
O‘ZBEK TILIDA BUYRUQ, ILTIMOS MA’NOLARINING IFODALANISHI.	43
O‘ZBEK TILIDA HARAKATNING NOANIQ SHAKLINI IFODALOVCHI FE’LLARNING XUSUSIYATLARI.....	45
O‘ZBEK TILIDA ISH-HARAKATNING BAJARILISH PAYTINI IFODALASH	50
O‘ZBEK TILIDA MAQSAD MA’NOSINI IFODALASHNING BOSHQA SHAKLLARI	65
SOG‘LOM AVLOD – KELAJAK POYDEVORI.....	73
HARAKAT-HOLAT SHARTINING IFODALANISHI	76
O‘ZBEK TILIDA NARSA-BUYUMNING BELGISINI IFODALASH.....	82
NARSA-BUYUM, SHAXS BELGISINING HARAKAT YORDAMIDA IFODALANISHI	92
KUCH BILIM VA TAFAKKURDA	102
O‘ZBEK TLIDA NARSA-BUYUMNING SON-SANOГ‘I.....	106
VA TARTIBINING IFODALANISHI	106
O‘ZBEK TILIDA NARSA-BUYUMGA, SHAXSGA, BELGIGA VA MIQDORGA ISHORANI BILDIRUVCHI SO‘ZLAR	117
MA’NAVIY KAMOLOT SARI	129
O‘ZBEK TILIDA HARAKATNI BAJARUVCHINING HARAKAT-HOLAT JARAYONIDA QAY DARAJADA ISHTIROK ETISHINI KO‘RSATUVCHI SHAKLLAR.....	133
O‘ZBEK TILIDA BIR HARAKATNING TURLI SHAKLLARINI KO‘RSATISH USULLARI	148
O‘ZBEKİSTON VATANIM MANIM	158
O‘ZBEK TILIDA HARAKAT VA HOLAT BELGISINING IFODALANISHI.	161

HARAKAT BELGISINING HARAKAT YORDAMIDA.....	168
IFODALANISHI	168
INSON VA TABIAT	174
SO‘Z YOKI GAPLARNI BIR-BIRIGA BOG‘LOVCHI VOSITALAR	176
BIRGALIK, VOSITA, MAQSAD, O‘RIN, JO‘NALISH, DAVOMIYLIK	
MA’NOLARINI IFODALOVCHI YORDAMCHI SO‘ZLAR	183
SO‘Z YOKI GAPGA QO‘SHIMCHA MA’NO BERUVCHI.....	190
YORDAMCHI SO‘ZLAR	190
FIKRGA SUBYEKTIV MUNOSABAT BILDIRISH UCHUN QO‘LLANUCHI	
SO‘ZLAR	191
I ILOVA	198
II ILOVA	228
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	240

KIRISH

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganidan buyon yigirma yildan ortiq muddat o‘tdi. Bu davr ichida barcha boshqa fan sohalarida bo‘lganidek, o‘zbek tili bo‘yicha o‘rta maktab hamda oliy o‘quv yurti uchun tubdan yangilangan dastur asosida darslik yaratish borasida katta ishlar qilindi. Jumladan, rusiyabon talabalar hamda xorijliklar uchun o‘zbek tili bo‘yicha ham qator yangi so‘zlashgich, qo‘llanma va darsliklar yaratildi. Hozirgi kunda o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda yangi bosqich boshlandi, endi o‘zbek tilini shunchaki uy-ro‘zg‘or, kundalik muloqot tili sufatida bilish yetarli emas. Davr, taraqqiyot har bir soha egasidan davlat tilini mukammal bilishni, ilm-fan, kasbi doirasida erkin muloqotga kirisha bilish, ayni paytda yuqori darajadagi yozma savodxonlikni talab qilmoqda. Bu esa rusiyabon talabalarga mo‘ljallangan darsliklarda ixtisoslik yo‘nalishlariga e‘tiborning kuchaytirilishini talab qilmoqda. Rus va xorijiy tillarni o‘qitish borasidagi tajribalarga tayangan holda biz mazkur darslikda quyidagilarga e‘tibor qaratdik.

An’anaviy darsliklarda grammatik mavzu birinchi o‘ringa qo‘yilgan bo‘lsa, tilni ikkinchi til sifatida o‘qitishda esa matn bilan tanishuvdan boshlash usuli ma’qullanadi. Shu sababli darslikning tuzilishida ham eng avvalo grammatik mavzular emas, balki nutqiy, ma’rifiy mavzular asosida grammatik mavzu taqsimlanadi. Ushbu mavzular jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy hamda ma’naviy jabhalarini qamrab olishi, ham ta’lim, ham tarbiyaviy-ma’rifiy maqsadlarga xizmat qilishiga e‘tibor berildi. O‘zbek tili bo‘yicha yaratilgan ba’zi darsliklarda bu shakl mavjud, lekin matn ko‘pincha faqat o‘qish va tarjima uchun beriladi, topshiriqlar ham shu bilan cheklanadi. Grammatik mavzu esa keng izohlanadi. Holbuki, hozir o‘rta maktablarda o‘zbek tili boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘rgatiladi, grammatik mavzuni yana batafsil takrorlashga hojat yo‘q.

Shu sababli ikkinchi til o‘qitishning jahon tajribalariga tayangan holda, ushbu darslik bo‘limlarga ajratilib, har bir bo‘lim o‘z ichiga ma‘lim nutqiy mavzu bilan bog‘liq matnlar hamda grammatik materialni qamrab oldi. Har bir mashg‘ulot quyidagi shaklda tashkil qilindi:



Oldin talaba uchun nisbatan yangi bo'lgan so'zlar berilib, ular tarjima yoki izohlash yordamida tushuntiriladi, keyin matn bilan tanishtiriladi va matn yuzasidan kamida 5-6ta savol hamda topshiriqlar beriladi. Talaba bu matn mazmunining taxminan 80-90 foizini tushunadi. So'ng grammatik mavzuga o'tiladi. Grammatik mavzu ixcham chizmalar shaklida berilib, eng muhim jihatlarigina eslatib o'tiladi. Grammatik mavzuni mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqildi.

Tinglash uchun audio material matn tarzida diskda darslikka ilova qilingan.

Darslikda ushbu matn bo'yicha savol va topshiriqlar keltirildi.

Keyingi bosqichda tarjima uchun matn beriladi. Tarjima matnga lug'at ilova qilinmaydi (yangi so'zlar, odatda, mavzuning boshlanishida tayanch so'z va iboralar shaklida taqdim qilinadi). Talabalar mustaqil ravishda lug'at bilan ishlashlari lozim.

Mavzu oxirida o‘tilganlar yuzasidan topshiriqlar beriladi. Uy ishi odatda o‘tilgan mavzuni mustahkamlashga qaratiladi, ayni paytda talabaning mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida, albatta, boshda berilgan mavzu bo‘yicha qisqa esse yozish, yoki ijodiy ish topshiriladi.

Mavzular tanlashda ilk darslarda an‘anaviy “Mening oilam”, “Tarjimayi holim” singari matnlardan butunlay voz kechish shart emas deb topdik. Mumkin qadar ularga ijodiy yondashish, yangi qurilmalardan foydalanishga harakat qildik. Oila, oiladagi munosabatlar haqida uncha murakkab bo‘lmagan ilmiy, publitsistik matnlardan, badiiy matnlardan foydalanildi. Matnlar uslub juhatdan rang-barang bo‘lishiga e’tibor berildi, zero bu talabalarda turli xarakterdagi matnlarni tushunish ko‘nikmasi shakllanishiga, shu bilan birga ularning lug‘at boyligi turli uslubiy qatlamga oid so‘zlar bilan boyib borishiga xizmat qiladi hamda ularning keyingi bosqichda sohasiga oid matnlarni o‘zlashtirishi uchun zamin hozirlaydi.

Ushbu tartibda tuzilgan darslik talabalarga quruq grammatik materialni yodlatishdan qochish imkonini beradi, talabaning tildan erkin foydalana bilishi, og‘zaki va yozma savodxonligining yuqori darajada bo‘lishi, o‘z mutaxassisligi tilini mukammal egallashiga xizmat qiladi degan umiddamiz.

1-DARS

MUSTAHKAM OILA – JAMIYAT POYDEVORI

IA

Tayanch so‘z va iboralar: oila, jamiyat, inoqlik, turmush qurmoq, nikoh, uylanmoq, hayot kechirmoq, o‘z o‘rnini topmoq, xizmat qilmoq, dono, maslahat, hamshira, uyushma, qadriyat, ijtimoiy, iqtisodiy, maqom, bosqich, muhit, mulkiy, moddiy

? Savollarga javob bering:

1. Oila deganda nimani tushunasiz? Siz uchun oila nima?
2. Odamlar nima uchun oila quradilar?
3. Oilaviy munosabatlarga jamiyatdagi o‘zgarishlarning ta’siri bormi?
4. Oila bolalar uchun qanday vazifani bajaradi?
5. Kattalar uchun oila nimaga kerak deb o‘ylaysiz?

 *Matnni o‘qing.*

O I L A

Oila har bir inson hayotida muhim o‘rin tutuvchi yuksak qadiratlardandir.

Oila – murakkab ijtimoiy uyushma. Olimlar uni er-xotin, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalar tizimi deb ta’riflaydilar. Oila bu kichik guruh bo‘lib, uning a’zolari nikoh yoki qarindoshlik aloqalari bilan bog‘langan bo‘ladilar. Oila jamiyatning aholini vujudga keltirish ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan.

Jamiyatda har bir inson ma’lum mavqega, millatga, mulkka va moddiy boyliklarga, shular qatorida, tug‘ilgandan boshlab to umrining oxiriga qadar “oilaviy holati” degan tavsifga ega bo‘ladi.

Bola uchun oila uning jismoniy, ruhiy, hissiy va aqliy rivojlanishining shart-sharoitlari shakllanadigan muhitdir.

Katta yoshli kishi uchun oila kichik uyushmadir. U bu yerda o‘zining qator ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga bu uyushma uning oldiga har xil, ancha murakkab talablar qo‘yadi. Inson hayotining turli bosqichlarida uning oiladagi vazifalari hamda maqomi o‘zgarib turadi.

Bir qarashda oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa, lekin, aslida, ular jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq va ular ta’sirida o‘zgarib boradi.

? Matn bo‘yicha topshiriqlar

1. O‘z javoblarining matndagi ma’lumot bilan qiyoslang.
2. “Inson hayotida oilaning o‘rni” haqidagi fikr qaysi ustunda berilgan?
3. “Inson hayotining turli bosqichlarida uning oiladagi vazifalari hamda maqomi o‘zgarib turadi” – jumlasini tushuntirib bering.

4. Quyida berilgan ta’riflarga mos so‘zlarni matndan toping.

1. Narsa, voqeа-hodisa yoki tushunchaning ma’nosini aniq ifodalash, tushuntirish.
2. Biror narsa, tushunchaning o‘rni, mavqeyi, martabasi.
3. Biror narsaga bo‘lgan talab yoki muhtojlik.
4. Yechilib ketmaydigan qilib, mustahkam....
5. Ma’lum bir shaklga solmoq.

5. Berilgan gaplarning mazmuniga mos gaplarni matndan toping.

1. Oila bir tuzilma bo‘lib, u oila a’zolari orasidagi munosabatlarga asoslanadi.
2. Oila qurishdan maqsad o‘zidan keyin avlod qoldirib, odamlar sonini oshirish bo‘lgan.
3. Odamlarni turlicha tavsiflaydilar, ulardan biri uning oilaviy maqomi.
4. Oila inson uchun juda kerak, lekin uning o‘ziga yarasha qiyinchiliklari ko‘p.
5. Iqtisodiy islohotlar yoki butun bir tizimning o‘zgarishi oila a’zolariga ta’sir qilmay qolmaydi.

6. So‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashga o‘rganing. Ta’rifga mos so‘zni tanlang.

Kishilar yoki narsalar, voqealar yoki tushunchalar o‘rtasidagi o‘zaro uzviy bog‘liqlik. Kishilar o‘rtasidagi muomala. Kishilarning biror hodisa yoki narsaga qarashi (yondashishi).	aloqa munosabat
--	--------------------

Yer yuzidan yoki boshqa biror joydan tepada joylashgan. Kuchli ma’nosida. Yetakchi tashkilot, rahbar ma’nosida. Biror narsaning eng ustki qismi.	baland yuqori
--	------------------

Bajarilishi lozim bo‘lgan qoida. Biror narsaga bo‘lgan muhtojlik Istak ma’nosida. Qat’iyat bilan qilingan iltimos.	ehtiyoj talab
---	------------------

Nuqtalar o‘rniga mosini qo‘ying.

1. Oilada ota-onal bilan farzand o‘rtasidagi(aloqa, munosabat)larda o‘ziga yarasha muammolarning kelib chiqish sababi nimada?
2. Har bir insonda oila qurishga..... (talab, ehtiyoj) paydo bo‘ladi.
3. Ota-onal necha yoshgacha bolaning har bir..... (talab, ehtiyoj)ini bajarishi kerak, deb hisoblaysiz?
- 4.....(Yuqori, baland) madaniyatli oilaga qanday ta’rif bergan bo‘lardingiz?

FONETIKA

O'ZBEK ALIFBOSI

O'zbek alifbosida 29 ta harf bor.

Aa (1), Bb(2) Dd(3), Ee (4), Ff(5), Gg(6), Hh(7), Ii(8), Jj(9), Kk(10), Ll(11), Mm (12), Nn (13), Oo (14), Pp (15), Qq (16), Rr(17), Ss(18), Tt(19), Uu(20), Vv(21), Xx(22), Yy(23), Zz(24), O'o' (25), G'g' (26), Shsh (27), Chch (28), Ngng (29).

Ba'zi harflar talaffuzi va imlosi (orfoepiyasi va orfografiyasi)

O'o' – rus tilidagi o va y tovushlari ortasida talaffuz qilinadi. O'n, o'ng, o't, o'rmon .

O' tovushi rus tilidagiga nisbatan yopiqroq (o'rta keng), **u** va **o** o'rtasidagi unli hisoblanadi. Rus tilida o'zbek tilidan o'tgan so'zlarda o' u deb talaffuz qilinadi. Masalan, **o'sma – усьма**, **o'rik – урюк**, lekin o'zbek tilida bunday so'zlar **o'** harfi bilan yoziladi.

Chuqur til orqa **q** tovushi rus tilida til orqa **k** kabi talaffuz qilinsa ham **q** yoziladi: **qishloq – кишлак**, **dehqon – дихкан**.

G' hosil bo'lish o'rniga ko'ra q va g' tovushlariga yaqin turadi. Rus tilining shevalariga yaqin talaffuz qilinadi. Rus tilida ko'pincha **g** tarzida talaffuz qilinadi, lekin **g'** yoziladi: **g 'alaba, g'alla, bog', sog'liq**.

Chuqur til orqa sirg'aluvchi **x** tovushi rus tilidagi xrap, xrost so'zlarga nisbatan chuqurroq. Masalan: **xudo, xato**.

H h bo'giz undosh tovushi **x** ga nisbatan yumshoqroq talaffuz qilinadi: **muhr, muhim, bahor, baho, hozir, hid**.

Rus tilida ba'zi geografik nomlarda **r** kabi talaffuz qilinadi. Гемолай-Himolay, Герат – Hirot...

Odatda e harfidan keyin **h** yoziladi. Masalan, **sehr, behi, mehnat, ehtirom**.

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga o yoki o‘ harflarini qo‘yib so‘zlarni qo‘yib so‘zlarni ko‘chiring.

...na, ...ta, ...lma, k..l, ...sha, k...cha, s...n, b...b..., t...rt, ...qi, s...at, ...g‘il.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga o‘ yoki u harflarini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chirib yozing.

...rik, ...sma, ...zum, ...rtoq, d...kon, k...p, q...l, s...m, k...k, n...xot, x...roz, ...zbek, k...ch...k, uz...n, t...n, ...rdak, ...lim.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga q yoki k harflarini qo‘yib so‘zlarni ko‘chiring.

...og ‘oz, ...un,... ora, ...ovun, ...o‘l, oyo..., ...iz, ...atta, ...alpoq, ...ir, ...iyim, ...alit, chu...ur, ...ul.

4-mashq. Nuqtalar o‘rniga g‘ yoki g harflarini qo‘yib so‘zlarni ko‘chiring.

To..., ...ul, bo..., so..., ...oz, so..., sov...a, qar...a, ...ilam, ...ilos, ...ap, bu..., ...uruch, tu..ilgan, to‘...ri.

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga x yoki h harflarini qo‘yib so‘zlarni ko‘chiring.

...ola, ...ayot, ...ba...t, ...isob, tari..., tu...um, ...ato, be...i, mash...ur, ...unuk, ...okim, mi..., ...itoy, ...indiston, ...irot, ...imolay, ...ech kim, ...avo, ...amma, ...ozir, ...iyobon.

Tinglang . Suhbat

*turmushga chiqmoq, uylanmoq, uy bekasi, xizmat qilmoq,
sog‘inmoq, dono, maslahat*

I. *Gapni to‘ldiring.*

1. Mening oilam katta.....
2. Otam –, onam esa.....
3. Mening buvim bilan bobom esa.....
4. Ukam askar, hozir u
5. Buvi va bobo bilan yashash, chunki.....

II. Matn mazmuniga mos kelmaydigan gaplarni to‘g‘rilang.

Nargizaning oilasi katta.

1. Nargiza hali turmush qurmagan.
2. Rustamning otasi – O‘zbekiston Milliy universitetida professor, onasi esa – uy bekasi.
3. Nargiza buvisi va bobosi bilan yashashni orzu qiladi.
4. Rustamning oilasida qizlar yo‘q.
5. Rustamning buvisi va bobosi juda mehribon insonlar bo‘lib, doimo unga to‘g‘ri maslahatlar berishadi.

III. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zning o‘zakdosh so‘z (shu so‘zdan yasalgan so‘z)ni qo‘ying.

Namuna: Men va Nigora bir shahardanmiz – Men va Nigora hamshaharmiz.

1. Oila a’zolari kichik guruhga **uyushadi**. Oila – bu kichik
2. Odam o‘z ota-onasi, yaqinlarini **qadrlashi** kerak, chunki oila yuksak.....
3. **Iqtisod** juda zarur fan. – O‘zbekistonning chet ellar bilan madaniy vamunosabatlari rivojlanyapti.
4. Olmada temir **moddası** bor. –muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam berildi.
5. Bizning oila a’zolari juda **inoq**. O‘zbekiston va Turkmaniston ortasidagi munosabatlar do‘stlik va -ga asoslangandir.

IV. Qavs ichidadi so‘z ishtirokida gap tuzing.

1. Oila murakkab (sodda) ijtimoiy uyushmadir.
2. Oila sevgi va o‘zaro hurmat asosiga qurilishi (buzilmoq) kerak.
3. Yoshlar (keksalar) oila va nikoh masalasiga jiddiy qarashalri lozim.
4. Baxtli (baxtsiz) oilalar ko‘p bo‘lsa, jamiyat ham rivojlanadi.
5. Oila – yuksak (past) qadriyat.
6. Nozimlarning oila a’zolari juda inoq (noahil).

Tarjima qiling.

Family

In human context, a family (from Latin: *familia*) is a group of people affiliated by consanguinity, affinity, or co-residence. In most societies it is the principal

institution for the socialization of children. Anthropologists most generally classify family organization as matrilocal (a mother and her children); conjugal (a wife, husband, and children, also called nuclear family; and consanguinal (also called an extended family) in which parents and children co-reside with other members of one parent's family.

There are also concepts of family that break with tradition within particular societies, or those that are transplanted via migration to flourish or else cease within their new societies. As a unit of socialization the family is the object of analysis for sociologists of the family. Genealogy is a field which aims to trace family lineages through history. In science, the term “family” has come to be used as a means to classify groups of objects as being closely and exclusively related. In the study of animals it has been found that many species form groups that have similarities to human “family”—often called “packs.” Sexual relations among family members are regulated by rules concerning incest such as the incest taboo.

Extended from the human “family unit” by affinity and consanguinity are concepts of family that are physical and metaphorical, or that grow increasingly inclusive extending to community, village, city, region, nationhood, global village and humanism.

O‘tilganlar yuzasidan topshiriqlar:

1. “Mening oilam” mavzusida matn tuzing.
2. o va o‘ tovushlari, q va k tovushlari, x va h tovushlari, g‘ va q tovushlarining farqlanishiga 10 tadan so‘z yozing.

IB

Tayanch so‘z va iboralar: iqtisodchi, huquqshunos, siyosatchi, harbiy, hisobchi, shifokor, sir, sevgi, go‘zallik, kelinchak, ayol, odam, inson, ko‘ngil, parishonlik, dunyo, olam, kasallik, odamovi, yer yuzi, ohang, faylasuf, nomzod, olim, o‘kinch, bola, buvi, qarindosh-urug‘, tog‘a, jiyan, kelinoiyi, yor-birodar, birov, urush, chehra, to‘y, buloq boshi, ipak ro‘mol, egin, dil, ma’yus, iliq, his, yoz kuni, uyalmoq,

qochmoq, muloyim, baxt, sevinch, ro'y bermoq, eslamoq, payqamoq, to'lmoq, xushhollik, soxta, yonbag'ir, kekkaygan, ahd qilmoq, bo'zchi belboqqa yolchimaydi, afsuslanmoq.

? Savollarga javob bering:

1. Oila va sevgi tushunchalarini qanday tushunasiz?
2. Nikoh uchun qiz va yigitning dunyoqarashi, bilim darajasi teng bo'lishi shartmi yoki shart emasmi?
3. Siz baxtli oilani qanday tasavvur qilasiz?

 **Matnni o'qing.**

DUNYONING SIRI

Uch kun burun u yigitni gapga solmoqchi bo'ldi. Ancha vaqt ro'parasida allanimalarni atay yozib-chizib o'tirdi. Muzaffar bir payt kaftini og'ziga tutib uzoq esnadi. O'z go'zalligining kuchiga ishongan har qanday ayol kabi Qunduz ham qattiq ranjidi (xafa bo'ldi). "Kekkaygan student" haqida "Odamovi" (odamlarni yoqtirmaydigan) deb hukm chiqarib, bundan keyin unga gapirmaslikka ahd qildi (qaror qildi).

Biroq bugun ertalab beixtiyor "Nima kasalsiz?" – deb so'radi va keyin afsuslandi.

Muzaffar jilmayishga harakat qildi, ozg'in, qonsiz yuzida parishonlik paydo bo'ldi.

- Shunaqa... Yer yuzida yetti milliard odamga yetgan havo menga yetmaydi.
- Qunduz unga ajablanib (hayron bo'lib) qaradi.
- Men astmaman-da, – dedi yigit xo'rsinib.

Uning soxta xushholligini (xursandligini) ko'rib, Qunduzning rahmi keldi.

- Tuzalib qoldingizmi, axir? – deb so'radi atayin tetik ohangda.

Shifokorning gapiga ko'ra, tuzalishim kerak. Lekin... doim doktorlarning gapi to'g'ri bo'lsa, olamda (dunyoda) kasallik qolmas edi.

Qunduz tasalli berishga shoshildi:

- Siz, albatta, tuzalasiz.
- Yigit bosh chayqadi:

 - Qaydam (Bilmadim)...
 - Bu yerda qancha odam davolangan! Tog‘ havosi...
 - ...Xuddi doktorga o‘xshaysiz-a... Menga qarang, tag‘in shifokor bo‘lmang?
 - Yo‘q, – Qunduz ma’yus kului. – Farmatsevt bo‘lmoqchi edim...
 - Kira olmadingizmi?
 - Ha.
 - E-e – dedi yigit. – Yana harakat qilib ko‘ring.
 - O‘qish endi... – kelinchak kului. – Otasiz o‘sganman. Shuning uchun amakim nima desa, shu bo‘ladi.
 - Ha –a, – dedi bosh irg‘ab Muzaffar...

* * *

Tog‘dan tushib kelyapman, – dedi Muzaffar ertasi kuni Qunduzni ko‘rgan zahoti. Egnida qalin sviter, eshikka suyanib, hansirab turardi.

- Qalay?
- Tog‘lar o‘ksik mening ko‘nglimdek... – dedi yigit. – So‘z yo‘q! Balandroqqa chiqa olmadim-da, nafas qisib qoldi.
- Nega... o‘ksik? – so‘radi Qunduz deraza pardalarini surib.
- Chiqsangiz ko‘rasiz.
- Men hali chiqmaganman.
- Qo‘ying-e?!
- Ishonmaysiz-a? Bir marta 9 – sinfda lola tergani yonbag‘irgacha borganmiz. Keyin vaqt bo‘lmadi.
 - Yopiray!
 - Bo‘zchi belboqqa yolchimaydi. – Qunduz xijolat bo‘lib kulimsiradi. – Bahorda chiqmoqchimiz. Chiroyli joylar...
- Muzaffarni yo‘tal tutdi. Mushtini og‘ziga tutib yotaldi, yuzlari qizarib, yelkalari silkinar edi.

– La’nati-ey... – dedi xuruj bosilgach va yoshlangan ko‘zlarini artdi.– Sahardan (ertalabdan) boshlanyapti-ya! Ha-a, chiroyli joylar...Kiroyi joylar... – Javondan qora muqovali qalin kitobni oldi va o‘qishga kirishdi...

Qunduz zerikdi. Muzaffar bilan gaplashish qandaydir maroqli (yoqimli). Ammo yigit berilib o‘qir, go‘yo uning olamda borligini unutgan edi. Qunduz qat’iyat bilan qimtilgan qalin lablariga, qiz bolaniki singari uzun ingichka barmoqlariga bir-bir tikildi.

– Nima o‘qiyapsiz? – deb so‘radi nihoyat jur’at qilib.

Yigit bosh ko‘tardi.

– Gegel.

Qunduz Gegelning kimligini so‘rashga iymandi (uyaldi), tushungan kabi bosh silkib qo‘ydi.

– Qiziqmi?

– Nima desam ekan? Har narsa ham qiziqsang qiziq. Faylasuf u.

– Kecha televizorda ham bir faylasuf chiqdi.

– Kim?

– Sharipovmi, Sharopovmi, shunaqa fan nomzodi bor ekan-ku?

– Bilmadim, bo‘lsa bordir, – dedi yigit. – Bilasizmi, dunyoda nomzodlar, bakalavrilar, doktorlar, magistrler, professorlar ko‘p – olimlar kam.

Kelinchak angrayib o‘tirar, g‘ayrioddiy tuyulgan bu so‘zlarni idrok etishga (tushunishga) qiynalar edi.

O‘qimaganiga o‘ksindi. Agar o‘qiganda, u ham shunaqa chiroyli gapirarmidi...

(Xayriddin Sultonovdan)

? Matn bo‘yicha topshiriqlar

1. Matnni ro‘llarga bo‘lib o‘qing va tarjima qiling.

2. Berilgan holatlarni ko‘rsatib bering.

1. So‘zlashishga undash.

2. Iymanish.

3. Hayratlanish, tushunmaslik.

4. O‘zini kamsitilgan his qilish.
5. Ezilgan kishini yupatish.
6. Angrayib o’tirish.
7. Mushtini og‘ziga qo‘yib yo’talmoq.
8. Bosh silkib qo’yish.
9. Jilmayishga harakat qilish.
10. Kekkayib o’tirish.

3. *Berilgan ta’riflarga mos so‘zni matndan toping.*

1. Jamiyat qonuniyatlari ustida fikr yurituvchi odam.
2. O‘zini boshqalardan yuqori qo‘yadigan kishi.
3. Tushunish, tushuntirish qiyin bo‘lgan odatdan tashqari holat.
4. Biror narsani aql bilan tushunib yetish.
5. Odamlarga qo‘shilmaydigan, yolg‘izlikni yoqtiradigan kishi.

4. *Qunduz va Muzaffarga ta’rif bering.*

5. *Sizingcha, hikoya qanday yakun topadi? Fikringizni yozma bayon qiling.*

6. *Matndan kim? va nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zlarni toping.*

G R A M M A T I K A

SHAXS VA NARSANI IFODALOVCHI SO‘ZLAR

O‘zbek tilida **kim?** so‘rog‘i faqat odamlarga nisbatan qo‘llanadi. Masalan: – Sen kim bo‘lmoqchisan?

– Men huquqshunos bo‘lmoqchiman.

Predmet, hayvon va parrandalarga nisbatan **nima?** so‘rog ‘i ishlataladi.

O‘zbek tilida **-lik, -chilik, -garchilik, -ch** qo‘shimchalari bilan yasalgan otlar, odatda, mavhum otlar hisoblanadi: *yaxshilik, do’stlik, odamgarchilik, yog‘ingarchilik, qo‘shnichilik, quvonch, dehqonchilik;*

-dosh qo‘shimchasi bilan yasalgan otlar birgalik ma’nosini bildiradi: *kursdosh, vatandosh, safdosh.*

ham shakli bilan yasalgan otlar ham shunday ma’noni bildiradi: *hamxona, hamshahar, hamqishloq, hamfikr.*

-chi kasb-hunar, mutaxassislik ma’nosini ifodalaydi: *ishchi, haydovchi, tilchi, tarixchi*.

-shunos – fan sohasi mutaxassisini bildiradi: *tilshunos, adabiyotshunos, o’lkashunos*.

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. *Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.*

Искусствовед, зло, веселье, грусть, собеседник, текстолог, экономист, правовед, посол, сотрудник, представитель, помощник, продавец.

2-mashq. *Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘sishimchalarni qo‘yib gaplarni ko‘chiring.*

1. Shaharda obodon...ishlari olib borilyapti. 2. Quruv...lar binoni bayramga qurib bitkazdilar. 3. O‘zbekiston paxta... sanoati bo‘yicha dunyoning yetakchi davlatlari qatorida turadi. 4. Aziz yurt...! Navro‘z bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin! 5. Alisher Navoiy buyuk shoir, davlat arbobi, adabiyot...va til...dir. 6. Ulug‘ yozuvchi F. Dostoyevskiy shunday yozadi: “Go‘zal... dunyoni qutqaradi”.

3-mashq. *Bu kim? So‘zlarni izohlang.*

Muhandis, manqurt, pragmatik, dallol, da’vogar, dinshunos, voiz, kotib, safsataboz, tashabbuskor, ig‘vogar, mutafakkir, musavvir, muhaddis, sohib, namoyanda, alloma.

4-mashq. *Shaxs otlari yasang.*

Savdo, iqtisod, talab, ta’minot, iste’mol, ruh, giyoh, soat, mahalla, adabiyot, zar, siyosat, do‘ppi.

G R A M M A T I K A

OTLARNING KICHRAYTIRISH, HURMATLASH VA ERKALASH SHAKLLARI

O‘zbek tilida munosabat ifodalovchi kichraytirish, erkalash , hurmatlash otlari mavjud bo‘lib, hurmat, erkalash, kichraytirish kabi ma’nolarni bildiradi. Ular quyidagi qo‘srimchalar bilan yasaladi:

- cha:** kuchukcha, uycha
- choq,-chak, -chiq:** – toychoq, kelinchak, qopchiq
- (a)loq:** qizaloq, bo‘taloq
- jon:** onajon, Rustamjon
- xon:** Lolaxon, akaxon
- oy:** Hulkaroy
- begin:** Xonzodabegin
- nisa:** Zaynabnisa
- bonu:** Xurshidabonu
- bibi:** Kumushbibi
- bek:** Otabek, Azizbek
- boy:** Mirzakarimboy, Tursunboy
- gina:** qizgina, bolagina
- vachcha:** amakivachcha

Otlarda son

O‘zbek tilida ko‘plik – **lar** qo‘srimchasi yordamida hosil qilinadi.

Odam – odamlar, mashq – mashqlar, qiz – qizlar.

◊ **Eslab qoling:** son+ot shaklida **-lar** qo‘srimchasi ishlatilmaydi: ikki o‘quvchi (ikki o‘quvchilar emas), uch kun (uch kunlar emas).

-lar qo‘srimchasi ko‘plikdan tashqari hurmat ma’nosini ham bildiradi. Otamlar, buvimlar.

◊ **Eslab qoling:** hurmat ma’nosini ifodalash uchun ko‘plikdan oldin egalik qo‘srimchasi bo‘lishi **kerak**. Oyi+m+lar. Ota+ng+lar. Uchinchi shaxs bundan mustasno: Nigoraning buvi+**lar+i**.

O‘zbek tilida ko‘plikdagi otlarda quyidagi hollarda –**lar** ishlatilmaydi:

1. *Donalab sanalmaydigan predmetlarga nisbatan – tuz, suv, choy, guruch*
2. *Odam tanasining juft a’zolari – oyoq, qo‘l, ko‘z, lab, qosh*
3. *Mavhum (abstrakt) otlar – sevgi, mehr, yaxshilik, yomonlik, kuch*

Ba’zan bunday otlarga -**lar** qo‘shimchasi qo‘shilishi mumkin, bunda quyidagi ma’nolar tushuniladi:

1. *Donalab sanalmaydigan otlarga qo‘shilganda tur, har xillk, nav ma’nolari: Supermarketda choylar ko‘p (qora choy, ko‘k choy, “Ahmad”choy).*
2. *Odam tanasi a’zolariga qo‘shilganda ma’no kuchayadi: ko‘zlari chiroyli, qoshlari qora.*
3. *Mavhum otlarga qo‘shilganda ma’no kuchayadi: yaxshiliklar, ko‘p yomonliklar.*
4. *Vaqt bildiruvchi otlarga qo‘shilganda taxmin ma’nosini bildiradi: Dushanbalari men bo‘shman. Tunlari uxlamayman. (Qaysi dushanba va qaysi tun ekanligi noma’lum).*
5. *Atoqli otlarga qo‘shilganda, ma’noni umumlashtiradi: Bugun Sevaralar kelishmadi-ya (Sevara va uning do’stлari ma’nosida) .*

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

5-mashq. –lar qo‘shimchasini qo‘shish mumkin bo‘lgan so‘zlarni toping.

Ko‘p daraxt, bir gala qush, to‘rt yigit, qo‘g‘oz, quyosh, oy, yurak, til, qo‘rquv, sog‘inch, jahl, ko‘cha, oyoq, tish, shim, kuch, baxt, tarix, fan, bayram, din, xudo, meva.

6-mashq. So‘zlarga -lar qo‘shimchasini qo‘shing va ma’nosini tushuntiring.

Qiz, uyqu, orzu, yog‘, un, xayol, maqsad, ish, dars, vaqt, fan, qiyinchilik, yutuq, muvaffaqiyat.

Tinglang. (“Munavvar kelinoyi hikoyasini tinglang”)

I. Berilgan gaplardam matn mazmuniga mos keladigan gaplarni ajrating.

1. Tog‘am Munavvar kelinoyim bilan bolalikdan do‘st edi.
2. Munavvar kelinoyimni eslaganimda yuragimda g‘amgin hislar paydo bo‘ladi.
3. Bu ajoyib voqea hech qachon yodimdan chiqmaydi.
4. Hovliga o‘choq qurish uchun odamlar kelishgandi.
5. To‘y tayyorgarligi juda qizg‘in edi.
6. Buvimning bog‘i salqin bo‘lgani uchun hamma bog‘ga yig‘ilgandi.
7. Kechqurun to‘y, shuning uchun birov hovli supuryapti, birov joy qilyapti.
8. To‘yda kelinni ko‘rish mumkin bo‘lmagani uchun uni ko‘rolmadim.
9. Suv bo‘yida kelinoyimni uchratdim.
- 10.U juda go‘zal, nozikkina, kichkinagina edi.
- 11.Tog‘am kelinoyimdan pastroq edi.
12. Men ularni ko‘rib, oldilariga yugurib bordim.
- 13.Men ular ko‘rib qolmasliklari uchun bildirmay o‘tib ketdim.
- 14.Uning mehr to‘la ko‘zlari menga juda yoqdi.
- 15.Men uning qandaydir g‘amli ko‘zlarini yoqtirib qoldim.
- 16.U kelinlardek kiyangan edi.
- 17.Tog‘am menga uni himoya qilib yurishimni buyurdi.
- 18.Tog‘am meni kelinoyimga jiyanim deb tanishtirdi.
- 19.Tog‘am urushga ketayotgan edi.
- 20.Tog‘amning gaplaridan rosa uyalib ketdim.

II. Savollarga javob yozing.

1. Birinchi marta Mansurjon kelinoyisini qayerda ko‘rdi?
2. Mansurjon tog‘asining oldiga borishni xohladimi?
3. Tog‘asi Mansurjonga qanday “topshiriq berdi?”
4. Mansurjonga kelinoyisi yoqdimi?
5. Mansurjon kelinoyisini qanday tasvirlaydi?

6. Nima uchun kelinoyisi tog‘asini zo‘ravonlikda “aybladi”?
7. Nima uchun Mansurjon bu hikoyasini “og‘ir voqea” deb aytadi?
8. Voqea qaysi davrda bo‘lib o‘tyapti?
9. Hikoyaning davomini qanday tasavvur qilasiz?

? Matn bo‘yicha topshiriqlar:

1. Matnda Mansurjon, yigitcha, Munavvarxon so‘zlarida qo‘llangan -jon, -xon, -cha qo‘sishimchalari nimani bildiradi?
- 2.“Buvimlarning sersoya bog‘i” birikmasidagi -lar qo‘sishimchasi qanday ma’no anglatyapti?

Tarjima uchun matn. Matnni lug‘at yordamida tarjima qiling.

Я живу в современном доме. Моя квартира на пятом этаже. В квартире две комнаты и кухня. В центре гостиной стоит обеденный стол. Рядом со столом диван. На стене над диваном висит картина. Напротив дивана телевизор. Перед телевизором видеомагнитофон.

Недалеко от моего дома находится река. За рекой большой парк. Каждые выходные я хожу в этот парк. Обычно я хожу пешком и дохожу до парка за полчаса. Но иногда я езжу на автобусе. Остановка автобуса перед моим домом. Автобус идёт от моего дома к парку и останавливается прямо у входа в парк. Я гуляю по аллеям парка, иногда хожу к реке. Напротив парка находится маленько кафе. Когда я возвращаюсь после прогулки из парка домой, я часто захожу в это кафе. Летом перед кафе стоят столики. За этими столиками очень приятно сидеть с чашечкой кофе и смотреть на реку.

 *O‘tilganlar yuzasidan topshiriqlar:*

1. *Qarindoshlik, kasb-hunar, faoliyat, mavhum tushunchalarni bildiruvchi so‘zlarga 5 tadan misol yozing.*
2. *“Baxtli oilani qanday tasavvur qilaman” mavzusida matn tuzing.*

3. “Munavvar kelinoyi” hikoyasining to’liq matnini topib o‘qing (O.Yoqubov. Yaxshilik. – Saylanma. Uchinchi jild. Adabiyot va san’at nashriyoti. – T., 1987).

4. *Hikoyadan olgan taassurotingizni yozma bayon qiling.*

ID

Tayanch so‘z va iboralar: xotira, favqulodda, aql-zakovat, mujassam, yaratmoq, faxrlanmoq, zehn, ayon bo‘lmoq, ma’qul ko‘rmoq, kechmish, loysuvoq uylar, saqlanmoq, xat-savodli, dag‘dag‘a, olomon, tag-tomiri bilan yo‘q qilmoq, farahbaxsh, shu taxlit, ezib tashlamoq, jonsarak, chiniqtirmoq, otamning huzuriga bormoq, chayqalmoq, ulug‘vorlik, ko‘lmak, ayni zamonda, to‘qay, ko‘nikmoq, faxrlanmoq, ta’qib, kom, qiyofa, g‘amgin.

? *Savollarga javob bering:*

1. Chingiz Aytmatov haqida nimalarni bilasiz?
2. Yozuvchining qanday asarlarini o‘qigansiz?

 *Matnni o‘qing.*

BOLALIGIM

I. Bolaligim haqidagi ilk xotiralarimni rahmatli katta buvim Oyimxонни eslash bilan boshlamoq burchimdir. Buvimda favqulodda bir insoniy sifatlar mujassam edi. Ovulda aql-zakovati, obro‘-e’tibori bilan ajralib turardi. Xudo uni tabiatan dono qilib yaratgan edi. Undan juda ko‘p narsani o‘rgangan otam ham onasi bilan faxrlanardi.

Katta buvim besh farzand ko‘rgan – uch qiz va ikki o‘g‘il. Uchinchi farzand mening otam – To‘raqul. Eng kenjası esa – Risqulbek

amakim. Risqulbek amakim o‘tkir zehnli, bilimli kishi bo‘lgan. Aytishlaricha, menga “Chingiz” deb ism qo‘yishni ham u kishi taklif etgan ekan. Kechmish tarixni yaxshi bilgani shundan ham ayon – bundaylar bolalariga tarixdagi buyuk shaxslar nomini qo‘yishni ma’qul ko‘radi.

II. Otamni eslashim bilan Farg‘ona tarafdagи loysuvoq uylar ko‘z oldimga keladi. Farg‘onaning turmush tarzi bir boshqacha. El birlashib ahil, inoq yashaydi. Qishloqlarda ayol-erkak ittifoqdosh, oqsoqolning so‘zini yerga

tashlamaydi. Ular yaxshi-yomon kunlarda doimo birga bo‘ladi. Bunday ahillik bugungi kunga qadar O‘zbekistonda saqlanib qolgan.

Ming to‘qqiz yuz o‘ttiz to‘rtinch yilning boshi. Mening olti yoshli bolalik kezim. Otam To‘raqul o‘z elining taniqli insonlaridan biri bo‘lgan. Xat-savodi erta chiqqan. Jambuldagi Avliyoota nomli rus maktabini bitirgan, o‘ttizga yetar-yetmas davlat idorasida ishlagan otam edi. ... yangi siyosatga o‘zini urgan, hukumat to‘p-to‘p qilib o‘qitib, odamlarning xat-savodini chiqarish chorasi ko‘rar, o‘zicha ozodlikka chiqqan olomon boy va qulqlarni tag-tomiridan yo‘q qilamiz degan shior ostida yashar, shu taxlit keljakning farahbaxsh kunlarini kutar edi.

III. Aravon tumani Farg‘ona vodiysining paxta ekiladigan mintaqasi hisoblanadi. Paxta qora ter bilan ko‘karib, mehnat bilan oqaradigan bir o‘simplikdir. Otam shu ishlarga bosh-qosh edi. U tun-u kun aravada yurar, har doim el orasida edi.

Bolaligim ocharchilikda o‘tdi. Bir kuni otam ikkimiz Andijonga bordik. Uzoq yo‘l yurdik. Yo‘l bo‘yi

uchragan odamlar otam bilan salomlashar, allanimalarni so‘rardi. Xalqning yashash sharoiti og‘ir edi. Qanchalik qayg‘uli savol bermasin, otam umidlantiruvchi qaytarardi. Yolg‘iz umid shu kollektivlashtirishda bo‘lsa-da, og‘ir hayot xalqning belini bukib, ezib tashlagan edi. Ana shu tashvishlarning barchasi bir otamga – aqli, har doim jonsarak, toliqmay ishlaydigan otamga bog‘lanib qolgan edi.

Bir oz fursat o‘tgach, otamni Moskvaga yuborishdi. Buning sababini bilmas edim. Men faqat bir narsani bilardim – biz Frunze (hozirgi Bishkek)ga qaytib kelgan bo‘lsak-da, otam uyga deyarli qadam bosmasdi. Keyin bilsam, Moskvaga o‘qishga ketibdi. Yuqori tashkilotlar davlat ishidagi taniqli arboblarni siyosiy jihatdan yanada chiniqtirish uchun Qizil professorlar institutiga o‘qishga jo‘natayotgan ekan. Ular orasida otam ham bor edi. Biz bir otadan uch farzand edik: men, opam va ukam.

IV. Shunday qilib, onamiz bizni otamiz huzuriga – Moskvaga olib boradigan kun ham yetib keldi. ... Poyezdda roppa-posa besh kun

yurdik. Umrimda ilk bor Moskvaga boryapmiz. Moskvaga – otajonim huzuriga boryapman. Onam o'sha yerda o'qishimizni orzu qilardi. Otam ham Moskvada so'qqabosh bo'lib yashayotganini rahbarlarga arz qilib, bola-chaqasini olib kelishga ruxsat olgan ekan.

O'sha safar-sayohatning esdan chiqmas xotiralari Orol ko'li sohillarida qolib ketdi. Bu ko'l u paytlarda bepayon sahroning o'rtasida chayqalib yotgan ko'm-ko'k dengiz edi. Hayotimda ilk bor ko'rgan dengizim ham Orol edi. Uning zalvorli to'lqinlari temir yo'l izlariga kelib urilishi hali-hanuz ko'z o'ngimda turibdi.

Hozir esa dengizning na o'sha ulug'vorligi, na sehri qolgan. Suvi qurib, o'lib borayotgan bir ko'lmakka o'xshaydi. Dunyo ahlining ayni

V.

Birinchi va ikkinchi sinfni Moskvada o'qidim.

1935-yilning mart yoki aprel oylarida bu azim shaharga keldik-da, 1937-yilning avgustigacha yashadik. Otam yaxshi o'qishim uchun astoydil jon kuydirardi.

Ota-onam oddiy kishilar edi, olis bir o'lkadan poytaxt Moskvaga – davlat markaziga kelib o'qib, yashayotganlari uchun nihoyatda faxrlanardi.

Biroq... Biroq ularning Moskvadagi hayoti fojeaviy ravishda tugagan. 1937-yil kelgan, siyosiy ta'qib otamning ham yoqasidan olib, o'z komiga tortayotgandek edi...

zamondagi ekologik vazifasi – Orolning qadimiyligi holatini tiklashdan iboratdir.

Orol ko'lidan keyin ulug' Volga daryosiga duch keldik. Yam-yashil vodiylar-u cheksiz to'qaylar oralab Rossiyaga kirib bordik.

Moskvaning qadimiyligi va tarixiy Vorovcskiy ko'chasi hozir ham bor. Bu ko'chada keyinchalik menga qadrdon bo'lib qolgan Yozuvchilar uyushmasi joylashgan. Shu ko'chadagi beshinchi uyda biz yashaganmiz.


Moskvaga kelib, bu yerning shart-sharoitiga asta-sekin ko'nikdik.

1937-yil avgustining oxirgi kunlarida ro‘zg‘or buyumlarimizning ko‘pini sotib, olti oylik singlim Rozani opichlab, to‘rt kishi yo‘lga chiqdik. Otam bizni Qozon vokzalidan kuzatdi. Xayrlashdik. Onamning yum-yum yig‘layotgan holati, otamning g‘amgin qiyofasi xuddi kechagidek ko‘z oldimda turibdi...

Chingiz Aytmatov

? Matn bo‘yicha topshiriqlar

1. Matnning har bir qismidagi asosiy axborotni ajratib yozing.
2. Quyidagi savollarga javob bering:
 - Yozuvchi Farg‘onani qanday tasvirlaydi?
 - Yozuvchi otasi haqida qanday ma’lumotlar beradi?
 - O‘scha davr haqida qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldingiz?
 - Moskvaga safar xotiralari nima bilan bog‘liq?
 - „1937-yil kelgan siyosiy ta’qib otamni ham o‘z komiga tortayotgan edi...“ deganda qanday ta’qib haqida gapirilgan? Ma’lumot bering.
3. Quyidagi so‘zlar yordamida birikmalar tuzing:



insoniy, haqiqiy, ulug‘, taniqli, asriy, xat-savod, farahbaxsh, uzluksiz, qayg‘uli, jo‘yali, jonsarak, zalvorli, cheksiz, mutlaqo, fojiaviy.

4. Quyidagi fe’l va iboralar ishtirokida qavs ichidagi savollarga javob bergen holda gaplar tuzing.

(nima bilan) birlashmoq, (qanday, qayerda) saqlanib qolmoq, (nimani) hal qilmoq, (nima) tashvishlantirmoq, (nimani, qanday) chiniqtirmoq, (nima) hayratga solmoq, (nimani, qanday) tiklamoq, (nimaga) duch kelmoq, (qayerda) muhrlanmoq, (nima) komiga tortmoq, (nima) ko‘z oldida turmoq, (nimadan) faxrlanmoq.

GRAMMATIKA

QARASHLILIK MA’NOSINI IFODALASH YO‘LLARI

(Egalik qo'shimchalari)

O‘zbek tilida qarashlilik ma’nosи maxsus qo‘srimchalar yordamida ifodalananadi. Ular *egalik qo‘srimchalari* deb ataladi. Egalik qo‘srimchalari narsa-buyumning (yoki shaxsning) uch shaxsdan biriga birlik va ko‘plik sonda qarashliligini ko‘rsatadi:

Shaxs	Birlik		Ko‘plik	
	Unlidan keyin	Undoshdan keyin	Unlidan keyin	Undoshdan keyin
I	-m	-im	-miz	-imiz
II	-ng	-ing	-ngiz	-ingiz
III	-si	-i	-si (-lari)	-i (-lari)

Namuna:

akam, kitobim **akamiz, kitobimiz**

akang, kitobing **akangiz, kitobingiz**

akasi, kitobi **akasi, kitobi**

Eslab qoling:

Egalik qo'shimchasi qo'shilganda uchraydigan o'zgarishlar:

k va **q** tovushlari **g** va **g'** ga aylanadi: yurak+im – yuragim, qishloq+i – qishlog‘i;

a,i,u tovushlari tushadi: shahar+i-shahri, o‘rin+i-o‘rni, burun+i – burni, o‘g‘il + -i o‘g‘li

Ba’zan o‘zgarish bo‘lmaydi: *huquq, ravnaq, ittifoq, ishtirok, ishtiyoyq, idrok, axloq* kabi so‘zlarda va bir bo‘g‘inli so‘zlarda: nok+i – noki, huquq+im – huquqim

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. *Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘srimchalarni qo‘ying.*

Mening ona..., sening...xona..., uyning eshik..., bizning mifik..., sizning daftar..., ularning ko‘cha..., bizning huquq..., inson idrok...., mamlakat ravnaq..., qo‘srimning akasining o‘g‘il..., insonning ko‘ngil....

2-mashq. *Nuqtalar o‘rniga egalik qo‘srimchalaridan birini qo‘ying. Qanday o‘zgarish bo‘ldi?*

Shahar..., qishloq..., taroq..., singil..., o‘g‘il..., kuchuk..., qalpoq..., qorin..., pichoq..., burun..., ittifoq...., axloq...., yarim..., egin..., yo‘q..., idrok..., ishtiyoyq..., ravnaq...

3-mashq. *So‘z birikmalarini to‘g‘ri tarjima qiling.*

Мой университет, моя подруга, дружба народов, радость детей, рост экономики, твой долг, наша задача, их жизнь, вопросы семинара, преподаватель узбекского языка, конец урока, тема урока, правовое государство, основы государства, дом моего отца, вкус яблока, право голоса.

4-mashq. *Qavslarni oching.*

Universitet (kengash), do‘stim (aka), tanaffus (payt), mehnat (ta’til), Anvar (kasb), mahsulot (sifat), bilim (dargoh), Hamza (teatr), tinchlik (posbon), xalq (so‘z), uyushma (yig‘ilish).

G R A M M A T I K A

**PREDMET HARAKATINI O‘ZIGA TO‘LA OLISHINI, PREDMETNING
O‘RNINI, HARAKATNING YO‘NALISHINI, BUTUNNING QISMINI
QO‘SHIMCHALAR ORQALI IFODALASH**

(Kelishiklar)

Kelishiklar ot turkumidagi so‘zlarni boshqa turkumdagи so‘zlarga bog‘lash uchun xizmat qiladi. O‘zbek tilida 6 ta kelishik bor. Ular maxsus qo‘shimchalar bilan ifodalanadi.

Bosh kelishik – именительный падеж (shaxs va narsa-buyumni bildiradi).

Qaratqich kelishigi – *ning* –родительный (buyumga qarashlilikni bildiradi).

Tushum kelishigi – *ni* – винительный падеж (fikrning obyektini bildiradi).

Jo‘nalish kelishigi – *ga*– дательный падеж (harakat yo‘nalishini bildiradi).

O‘rin-payt kelishigi – *da* местный падеж (harakatning o‘rnini bildiradi).

Chiqish kelishigi – *dan*– исходный падеж (harakatning chiqish o‘rnini bildiradi).

⌚ *Eslab qoling*

Qaratqich kelishigi belgili (*-ning* qo‘shimchasi bilan) va belgisiz (*-ning* qo‘shimchasisiz) ishlatilishi mumkin. Universitet binosi – universitetning binosi.

Quyidagi hollarda qaratqichkelishigi belgili qo‘llanadi:

Qaratqich va qaralmish o‘rtasida so‘z bo‘lsa: kuzning **iliq** kunlari.

Qaratqish kelishigidagi so‘z olmosh bo‘lsa: **mening** vazifam.

Aniq narsa ustida gap ketganda: qiyoslang: surat muallifi – Ro‘zi Choriyev.

Bu suratning muallifi kim?

✓ **-ning** o‘rnida **-niki** shaklidan ham foydalanish mumkin. Bu **Nigoranining** kitobi. – Bu kitob **Nigoraniki**.

Tushum kelishigi ham belgili (*-ni* qo‘shimchasi bilan) va belgisiz (*-ni* qo‘shimchasisiz ishlatilishi mumkin.

Kitob o‘qi. – Bu kitobni o‘qi.

Tushum kelishigi quyidagi hollarda belgili qo‘llanadi:

Aniq narsa ustida gap ketganda: kitobni bugun o‘qib tugataman.

Ko‘rsatish olmoshidan keyin: bu binoni akam qurgan.

Atoqli otlar: Azizani chaqiring.

Olmoshlar: sizni unutmayman.

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar

5-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli kelishik qo'shimchalarini qo'ying.

1. Biz...oilamiz katta emas.
2. Dars... o'z vaqtida bajarish kerak.
3. Biz yozda "Piramida"... dam oldik.
4. Aziza o'qish uchun Samarqand... Toshkent... keldi.
5. Kecha do'stim... xat oldim.
6. Bugun dars... uy... kech qaytaman.
6. Bu kitob... qayer... topish mimkin?
7. Uy vazifa... bajardingmi?
8. Bu kim... kitobi?
9. Amerika elchixonasi qayerda? Menimcha, Yunusobod...
10. Iltimos, men... yordam bering.

6-mashq. Qavslarni oching.

Kuz (meva), yoz issiq (kun), tabiyat (manzara), odam (xarakter), sevgi achchiq (dard),adolat (tushuncha), maktab katta (bog‘), O'zbekiston havo (yo'l), shu bino (tom).

7-mashq. –ning qo'shimchasining qo'llanishiga e'tibor bering va ularni izohlang. Yangi so'zlarni daftaringizga ko'chiring va tarjima qiling.

Mening nuqtayi nazarim, prezident asarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi, davlat siyosati, davrning dolzarb masalalari, jahon ahli, dunyoning azaliy va abadiy muammolari, adabiy til qoidalari, xalqimizning ma'naviy mulki, davlat tili maqomi, davlatimizning siyosati, hayot sinovlari, islom madaniyatining ezgu g'oyalari, xalqimizning kelajagi, davlatimizning siyosati, xalq ruhi, bozor qonuni, matbuot erkinligi, o'zbek xalqining milliy an'analari, jamiyat a'zosi, davlat mustaqilligi.

8-mashq. Birikmalarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Демократические институты, особенности культуры нашего народа, правовые основы развития, фундаментальные принципы демократии, формирование демократического мировоззрения ее членов общества, обеспечение приоритета интересов человека, повышение социальной активности населения, законы общественного развития, государственные

границы, конституционный статус, равноправный член общества, правовая культура.

9-mashq. *Kelishik qo ‘shimchalari yordamida so ‘z birikmalari tuzing:*

Mustaqillik	o‘tmoq
ko‘prik	kun
xabar	qiyinchilik
vatan	unutmoq
va’da	daraja
iqtisod	ehtiyojlar
huquq	o‘rnatmoq
bilim	asos
muzokara	qadrsizlanmoq
munosabat	chiqmoq
qashshoqlik	tinglamoq
o‘tish davri	(eshitmoq)
inqiroz	sevmoq
inson	rivojlantirmoq
pul	unutmoq
	olib bormoq

10-mashq. *Barcha gap qurilmalaridan foydalanib, so‘z birikmalari va gaplar tuzing.*

huquq	dunyo
imkoniyat	o‘qituvchi
kalit	men
xona	jahon
tillar	yoz
xabar	yoshlar
yomg’ir	O‘zbekiston
kuch	xalq

 **Tinglang. “Surat” hikoyasi**

I. *So‘zlarni tarjima qiling:* birpas, g‘amgin, nashriyot, o‘tmoq, kutilmaganda, rasmga tushmoq, birdan, hayron bo‘lmoq, yaqinda, topmoq, xuddi, kirib chiqmoq, uyg‘onmoq, o‘ylamoq, kino yulduzi, mashhur.

II. Savollarga javob bering:

1. Hikoyaning qahramonlari kimlar?
2. Sizga bu hikoyani kim so‘zlab berdi?
3. Onaning bunday g‘alati iltimosiga sabab nima edi, deb o‘ylaysiz?
4. Nima uchun muallif ona bu gapni xuddi **“Qo‘sнимнинг uyiga kirib chiqaman”, degandek aytdi**, deb yozadi?
5. Farzandning onasiga munosabati qanday edi?
6. Nima uchun hikoya “Surat” deb nomlanadi?
7. O‘g‘il nimadan qattiq afsuslanib o‘zini kechira olmadi?
8. E’tiborsizlikning asosiy sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Tarjima qiling

ПИСЬМО СЫНУ

Дорогой сын!



Я всегда любил собирать сведения о своих предках...

Я был младшим сыном и самым младшим из всех детей, кроме двух дочерей.

Я родился в Бостоне, в Новой Англии...

Все мои старшие братья обучались какому-либо ремеслу. Меня в возрасте восьми лет отдали в грамматическую школу, так как мой отец намеревался посвятить меня, как десятого из своих сыновей, служению церкви. Рано проявившаяся у меня охота к чтению (должно быть, в весьма

раннем возрасте, так как я не помню времени, когда бы я не умел читать) и мнение всех его друзей, утверждавших, что я обязательно буду хорошим учеником, поддерживали его в этом намерении...

Однако мне довелось посещать грамматическую школу менее года, хотя за это время я постепенно передвинулся из середины класса на первое место и меня перевели в следующий класс, откуда должны были к концу года перевести в третий...

Но для моего отца, обремененного многочисленным семейством, было бы затруднительно оказывать мне материальную поддержку, необходимую для получения высшего образования, а, кроме того, как он сказал одному из своих друзей в моем присутствии, эта профессия давала мало преимуществ. Он отказался от своего первоначального плана, взял меня из грамматической школы и поместил в школу, где обучали письму и арифметике. Эту школу содержал знаменитый тогда господин Джордж Браунелл. Браунелл был превосходным педагогом, достигавшим больших успехов с помощью самых мягких и стимулирующих методов. Под его руководством я быстро научился хорошо писать, но арифметика мне не давалась и я в ней недалеко ушел. Когда мне исполнилось десять лет, отец забрал меня домой, чтобы я помогал ему в мастерской — отец занимался тогда изготовлением сальных свечей и варкой мыла. Это не было его первоначальным занятием, но он принялся за это дело по прибытии в Новую Англию, когда обнаружил, что его ремесло красильщика не было здесь особенно нужным и не давало ему возможности прокормить семью. И вот я стал нарезать фитили, заливал формы для отливки свечей, помогал в лавке, был на посыпках и т. п.

Мне это ремесло было не по душе, и меня очень тянуло к морю, отец же мой решительно высказался против такого плана; но, живя у воды, я много времени проводил в ней и на ней. Я научился хорошо плавать и управлять лодкой; я обычно верховодил среди мальчишек, а иногда и возглавлял некоторые проделки, из которых расскажу об одной в качестве примера того,

как рано во мне обнаружился дух общественных начинаний, хотя он тогда и не нашел правильного применения.

Около мельничного пруда был солончак, на краю которого мы во время паводка удили пескарей. Мы там столько топтались, что место превратилось в настоящее болото. Я предложил соорудить там нечто вроде пристани, на которой мы могли бы стоять. Я показал своим товарищам на большую груду камней, предназначавшихся на строительство нового дома около солончака; эти камни прекрасно подходили для нашей цели. И вот вечером, когда рабочие ушли, я собрал несколько своих приятелей, и мы старательно взялись за работу, перетаскивая камни, как муравьи, иногда берясь вдвоем или втроем за каждый камень, пока не соорудили нашу маленькую пристань. На следующее утро рабочие с удивлением обнаружили пропажу камней, которые пошли на постройку нашей пристани. Они разыскали и пожаловались родителям; некоторые из нас получили от своих отцов соответствующее внушение, и хотя я доказывал полезность нашей работы, мой отец убедил меня, что ничто нечестное не может быть действительно благодетельным.

(Бенжамин Франклин)

O‘tilganlar yuzasidan topshiriqlar:

- 1.“Mening ○ + -m, -im bor” va “ menda○ bor” shakllarini farqlovchi 4ta gap yozing.
- 2.Qaratqich va tushum kelishiklarini belgili va belgisiz ifodalanishiga 4 tadan misol yozing.
- 3.○ + -dan qo‘rqmoq, ○ + -dan foydalanmoq, ○ + -dan xafa bo‘lmoq shaklini qo‘llab gap tuzing.
- 4.“Mening kunim” mavzusida matn tuzing.

O‘zingizni tekshiring

- 1.Qaysi qatordagi gapda -ni tushib qolishi mumkin?

A. Men bu asarni qiziqib o‘qidim.

B. Siz topshirgan hujjatlarni tekshirdik.

C. Darsda ma’ruzani eshitdik va videofilmni ko‘rdik.

D. Bu kishini hamma taniydi.

2. Qaysi qatorda nuqtalar o‘rniga do‘st so‘zini qo‘yish mumkin?

A. Bu meniki.

B. Bu-ga tegishli.

C. Menda bor.

D. Mening-im bor.

3. Nuqtalar o‘rniga tegishli kelishik qo‘shimchalarni qo‘ying.

1. Men siz... fikringiz..... tushuna olmadim.

2. Taklifingiz.... juda xursand bo‘ldim.

3. Yana bir marta fikrim... tushuntirish... harakat qilaman.

A. –ning; -ga; -dan; ni; -ga;

B. –ni; -ga; -ni; -ni; -ga;

C. –ning; ni; -ga; -ni; -ni;

D. –ning; -ga; -ga; ni; -ni;

4. Nuqtalar o‘rniga qaysi qatordagi so‘zni qo‘yish mumkin emas?

Men.....-ga egaman.

imkoniyat

axborot

huquq

farzand

5. Qaysi qatordagi birikmalarda –ning belgisiz qo‘llanilgan?

A. Talabalar..... shaharchasi, biz..... tariximiz

B. Kuz.....issiq kunlari, tabiat mo‘jizasi

C. Jamiyat.....qonuni, xona.... eshigi

D. Dunyo.....yangiliklari, ular.....talabi

6. Qaysi qatordagi gapda -ni tushib qolishi mumkin?

Men bu asarni qiziqib o‘qidim.

Siz topshirgan hujjatlarni tekshirdik.

Darsda ma'ruzani eshitdik va videofilmni ko'rdik.

Bu kishini hamma taniydi.

7. Qaysi qatordagi olmoshlarga kelishik qo'shimchalari qo'shilsa, n tovushi ortadi?

Bu, men, u; - -da; -ning; -ga;

U; o'sha; shu - da; -dan; ga;

Sen; u, bu; - -ni; -dan; -da;

Men, sen, bu, shu - -da; -ga; -ning;

8. Qaysi qatorda egalik qo'shimchasini qo'yish kerak?

1

2

3

Inson huquq..., yozgi ta'til..., kitob do'kon...,

4

5

6

seminar savol..., iqtisodiy soha..., mehnat daftarcha.....

1, 2, 4, 6.

1, 3, 4, 5.

1, 2, 3, 4, 5.

1, 3, 4, 6.

9. Nuqtalar o'rniغا kelishik qo'shimchasini qo'ying.

Men bu ishni bajarish....qo'rqedim.

Siz bu ma'lumotlar.... foydalanishingiz mumkin.

Hammasi yaxshi bo'lishi.... ishonaman.

@ -dan; -dan; -ga;

@ -ni; -dan; -ga;

@ -dan ; -ni ; -ni ;

@ -ni ; -dan ; -ni ;

10. Qaysi qatorda -ning yoki -ni qo'shimchalari noto'g'ri ishlatilgan ?

1. Xalqni manfaatini o'ylab yashash har bir kishining qo'lidan kelavermaydi.

2. Ular bu loyihalarning o'zлari uchun tayyorladilar.

3. Qushlarni parvozini ko'rishni yaxshi ko'raman.

1 va 2

1va 3

barcha gaplarda

2 va 3

11. Kelishik qo'shimchasni to'g'ri qo'ying.

1. Chumchuq.... qo'rqsang, tariq... ekma.
2. Nima... xafa bo'lsangiz, shu... tezroq unuting
 - A. -dan; -Q ; -dan; -ni
 - B. -dan ;-ni; -ni; -ni;
 - C. -dan; -ni ;-ni; -da;
 - D. -dan -ni; -dan; -ni

Mustaqil ta'lim

1. Bola nima uchun buvisi va bobosi bilan yashaydi?
2. Bolaning bobosini ta'riflang.
3. Bolaning buvisi va bobosi qanday odamlar?

BOBOM, BUVIM VA MEN

Otam olamdan o'tgach, yigirma yoshda beva qolgan onam ikki-uch yildan so'ng turmushga chiqib, mening tarbiyam bobomning ixtiyorida qolgan edi. Bobom yoshi yetmishlarga borib qolgan, novcha bo'yli, tik qomatli, qotma, cho'ziq yuzli, serzarda, muhimi, tinib-tinchimas bir kishi edi. O'ziyam tinmasdi, buvim ikkalamizni ham tinchitmasdi. Hatto ishonsangiz, og'ilxonadagi qo'y-u mollarni ham tinch qo'ymas, mol yotganda emas, yeganda semiradi, deb ularni ham turtkilagani turtkilagan edi.

Sutga to'ymagan qo'zichoq onasining orqasidan qolmaganidek, erta-kech bobomning ortidan ergashib yurardim. Hatto tunda ham bur o'rinda yotardik. Yotishim bilan barmoqlarim bilan soqollarini tarab, ertak aytib berasiz der edim. Ko'pincha hassasini yoki taqillab yuradigan kavushini bekitib qo'yib hukmimni

o‘tkazishga, so‘ragan narsamni undirib olishga harakat qilardim. Bobomning, jon o‘g‘lim, topib bersang, senga bir narsa beraman, deb yalinishini yaxshi ko‘rardim.

Hali-hali esimda. Erta bahor...bobom ko‘chat ekyapti.

– Kel endi, mana bu ko‘chatni ushlab tur, – deydi ba’zan bobom.

Ushlab turaman...

– Bobojon, bog‘imizda o‘rik ko‘p-ku, endi qolganini ekmay qo‘ya qolaylik, qishloqqa qaytgim kelyapti, enamni sog‘indim.

– Yo‘q, bo‘talog‘im, hammasini ekib ketganim yaxshi. Katta bo‘lsa, meva qiladi, mevasini odamlar yeb, sen bilan meni duo qilishadi.

– Duo qilishsa, nima bo‘ladi?

– Savob bo‘ladi-da, buncha ezmalik qilding.

– Savob bo‘lmasa-chi, unda nima bo‘ladi?

– Yo‘q, endi aytmayman.

– Aytasiz, jon bobojon, ayta qoling. Aytmasangiz, ko‘knori xaltangizni berkitib qo‘yaman.

– Berkitmaysan.

– Allaqachon berkitib qo‘yganman, hech ham topolmaydigan joyga berkitganman.

– Ha mayli, aytsam aytaqolay, savob olgan kishi narigi dunyoga borganda jannatda yashaydi.

– Bobojon jannat yaxshimi?

– Yaxshi, o‘g‘lim.

– Biz uyoqqa qachon boramiz?

– Qo‘y, bo‘tam, bunaqa gaplarni aytma.

* * *

Har galgidek, bugun ham meni enajonim (buvijonim) uyg‘otdi.

– Qulunim, yur, sigirni sog‘ib olaylik, – dedi.

– Mayli, sog‘ib ola qolaylik, – dedim men ham.

Enam sigir sog‘ayotganda buzoqchasini ushlab turishni yaxshi ko‘raman. Nega desangiz, u judayam yuvosh, iliqqina tili bilan betlarimni yalab-yalab turadi. U yalayotganida men yumshoq junlarini ohista-ohista (sekin-sekin) silab qo‘yaman. Betimni issiqliqina badaniga bosib, “buzoqcham, shirinim”, deb erkalayman...

(*Xudoyberdi To ‘xtaboyevdan*)

❓ Matn bo‘yicha topshiriqlar

1. Savob deganda nimani tushunasiz?
2. Matndan kichraytirish-erkalash otlarini toping.

2-DARS

TARIXSIZ KELAJAK YO‘Q

2A

Tayanch so‘z va iboralar:

Davlat arbobi, sarkarda, chop etmoq, nishonlamoq, ilk ajdodlar, yaratmoq, ma’naviy, meros, tolmas, istibdod, siyosat, qadam qo‘ymoq, mislsiz, yuksalmoq, parokanda, mahalliy, qarama-qarshilik, avj olmoq, ustiga-ustak, uyushtirmoq, istibdod, alam, din peshvolari, dohiy, taqdir taqozosi, xaloskor, yo‘lboshchi, sahna, paydo bo‘lmoq, birlashtirmoq, xaroba, barpo qilmoq, surib yubormoq, kengaytirmoq, qarash, aks etmoq.

▣ Matnni o‘qing.

AMIR TEMUR

2006-yil 9-aprel kuni O‘zbekistonda buyuk davlat arbobi va sarkarda, Yevropada “Tamerlan” nomi bilan mashhur bo‘lgan Amir Temurning tug‘ilganiga 670 yil to‘lishi keng nishonlandi. 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ilk kunlardanoq, ko‘p asrlar davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan ulug‘, beba ho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mashhur davlat arbobi, O‘rta asrlar islohotchisi, sarkarda,adolat uchun **tolmas** kurashchi, ilm-fan va madaniyat **rahnamosi** Amir Temur davrida ilm-fan, madaniyat va ta’lim **mislsiz** darajada yuksaldi.

Siyosiy maydonga qadam qo‘yganida Amir Temur endigina 24 yoshga kirgandi. Mamlakat **parokanda**, mahalliy siyosiy kuchlar o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshiliklar **avj olgandi**. Ustiga-ustak, Chingizzon avlodlari Movarounnahrga tez-tez bosqin uyunshirib turardi. Taxminan bir asr davom etgan bu davrda Movarounnahrning **istibdod** alamini tortgan oddiy fuqarolaridan to yirik siyosiy arboblari-yu **din peshvolarigacha** juda ham og‘ir **kun kechirdilar**. Jamiyatga ozodlikka va taraqqiyotga bo‘lgan intilishlarni o‘zida **mujassam etgan** xaloskor, dunyuoqarashi keng dohiy zarur edi. Taqdir taqozosi bilan Amir Temur ana shunday kuchli salohiyat egasi bo‘lgan qudratli xaloskor va yo‘lboshchi sifatida tarix sahnasida paydo bo‘ldi.

1370-yilda Amir Temur Balxda bo‘lib o‘tgan qurultoyda Movarounnahrning ulug‘ amiri deb e’lon qilindi. Tarqoqlikni **bartaraf etib**, ayrim o‘lkalarni yagona davlatga birlashtirish Amir Temurning asosiy maqsadi edi. U davlatning poytaxti qilib So‘g‘diyonaning qadimiy poytaxti bo‘lgan Afrosiyob xarobalari yonidagi Samarqandni belgiladi va yangi shaharga asos soldi. Amudaryo bilan Sirdaryo oralig‘i, shuningdek, Farg‘ona va Shosh viloyatlarini birlashtirib o‘ziga bo‘ysundirgandan keyin Amir Temur boshqa mamlakatlar sari harbiy yurishlarga kirishdi.

Amir Temur sultanati Markaziy Osiyoda 35 yil (1370-1405) **hukm surdi**. U Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Sirdaryo va Zarafshongacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi. Amir Temur harbiy yurishlarining bilvosita oqibatlari ulkan ahamiyatga ega: u Xitoyda Min sulolasи davlat boshiga kelganda mo‘g‘ullarning Xitoga solayotgan xavfining oldini oldi; Oltin O‘rdani yengib Moskva Rusi uchun ham xuddi shunday yordam ko‘rsatdi. 1402-yilda usmonlilar sultonii Boyazid ustidan Yevropa uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan **g‘alabani qozonib**, usmonlilarning Konstantinopolni istilo etishlarini yarim asrga surib yubordi. Fransuz tarixchisi R.Grusse XX asr boshlarida “Amir Temurning Boyazid ustidan g‘alabasi xristian olamini asrab qoldi”, deb yozgan edi. Tarix Amir Temurni makedoniyalik Iskandar, Doro I, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir

qatorga qo‘yadi. Amir Temur mingta jang o‘tkazib, birontasida ham yengilmagan mashhuri zamon sarkarda sifatida, davlat tuzilishi ishlariga, ilm-fan, ma’rifat, madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan siyosiy arbob sifatida tarixga kirdi. Amir Temur tarafidan tarqoq viloyatlar yagona davlatga birlashtirilib, markaziy hokimiyat tuzilib barqarorlashgandan keyin, mamlakat iqtisodiyoti mustahkamlandi, savdo va hunarmandchilik ishlab chiqarishi rivojlana boshladi, qo‘shni va uzoqdagi mamlakatlar bilan savdo-xo‘jalik aloqalari kengaydi. Amir Temur hayotlik paytida davlat boshqaruvi haqida “Temur tuzuklari” nomi bilan mashhur bo‘lgan kitob yozgan edi. Unda bu mashhur davlat arbobi va sarkardaning harbiy san’atga, davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarishga **oid qarashlari** aks etdi.

(Italiyaning Marko Polo instituti tomonidan nashr etiladigan “Marko Polo” jurnalining 2006-yil 2-sonida bosib chiqarilgan maqoladan)

?Matn bo‘yicha topshiriqlar

I. Savollarga javob bering.

1. Nima uchun Amir Temur Yevropada “Tamerlan” nomi bilan mashhur bo‘lgan?
2. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ma’naviy va madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganining boisi nimada?
3. Nima sababdan Amir Temur davrida ilm-fan, madaniyat va ta’lim mislsiz darajada yuksalgan ?
4. Amir Temur siyosiy maydonga qadam qo‘yganida mamlakatda vaziyat qanday edi?
5. Nima uchun uni “xaloskor yo‘lboshchi sifatida paydo bo‘ldi”, – deb ta’riflaydilar?
6. R. Grussening “Amir Temurning Boyazid ustidan g‘alabasi xristian olamini asrab qoldi”, degan fikrini izohlab bering.
7. Tarix Amir Temurni makedoniyalik Iskandar, Doro1, Yuliy Sezar kabi yirik sarkardalar bilan bir qatorga qo‘yishiga sabab nima?

I. *Matndagi ajratilgan so‘zlarni quyidagi mos keladigan so‘zlar bilan almashtiring: charchamas, yashamoq, yutmoq, kuchaymoq, doir fikrlar, yo‘q qilmoq, boshqarmoq, haddan ziyod, yo‘lboshchi.*

II. *Tagiga chizilgan birikmalarning sinonimini (ma’nodosh shaklini) toping.*

III. *Matndan Amir Temurga berilgan ta’riflarni ajratib yozing va ularni tushuntirib bering.*

IV. *Qaysi abzasda Amir Temurning taxtga kelishi tasvirlangan?*

V. *Matndan quyidagi fikrga mos jumlanı toping:*

“Amir Temur jahon tarixidagi jarayonlarga ta’sir ko‘rsatgan”.

Г Р А М М А Т И К А

O‘ZBEK TILIDA BUYRUQ, ILTIMOS MA’NOLARINING IFODALANISHI **(Buyruq mayli)**

Buyruq maylidagi fe’l biror harakatni bajarishga undash, iltimos, maslahat, buyurish, istak, tashviq ma’nolarini bildiradi. O‘zbek tilida buyruq maylidagi fe’l tuslanganda quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: birinchi shaxs istak, iltimos mazmunini (Biz endi boraylik), ikkinchi shaxs sof buyruqni (Qo‘lingni yuv), uchinchi shaxs boshqa bir subyekt orqali beriladigan buyruq, iltimos ma’nolarnini bildiradi (Ayting, kirsin).

Buyruq maylidagi fe’llarning tuslanishi

Birlik	Ko‘plik
1-shaxs. Aytay, o‘qiy	Aytaylik, o‘qiylik
2-shaxs. Ayt(gin), o‘qi(gin)	Ayting, o‘qing
3-shaxs. Aytsin, o‘qisin	Aytsinlar, o‘qisinlar

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar

1- mashq. Mos fe'llarni tanlang:

1. Siz topshiriqlarni o'z vaqtida	maqtama
2. Yakshanba kuni botanika bog'iga	hurmat qiling
3. Siz ota-onangizni	maqtasin
4. Sen o'zingni birov seni	urma
5. O'zing o'tirgan shoxga bolta	asrang
6. O'z uyingizni o'zingiz	boramiz
	bajaring

2- mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlarni kerakli shaklda qo'ying.

Namuna: Juda charchagansan. Yotib ozgina dam (olmoq). – Juda charchagansan. Yotib ozgina dam ol.

1. Juda kech bo'ldi. Men uyimga (bormoq) 2. Oyi, men bugun uyga kech boraman. Do'stim bilan birga oshxonada ovqatlanaman. Shuning uchun meni kechki ovqatga (kutmaslik) 3. Sardorga aytинг, u ertaga Baxtiyor bilan (uchrashmoq). 4. Men sizlarni mehmonga taklif qilmoqchiman, kechqurun soat oltida biznikiga (kelmoq). 5. Bugun kechqurun bo'shmisan? Agar bo'sh vaqting bo'lsa, ikkalamiz tungi Toshkentni (aylanmoq). 6. Shifokor: Sizning do'stingiz kasal, uning isitmasi bor. Bugun ishga (bormaslik), (yotmoq), (dori ichmoq). Siz unga ko'proq suyuqlik (bermoq).

GRAMMATIKA

O‘ZBEK TILIDA HARAKATNING NOANIQ SHAKLINI IFODALOVCHI FE’LLARNING XUSUSIYATLARI

(Harakat nomi)

Harakat nomi harakatning noaniq shaklini ifodalaydi. Ot kabi egalik, kelishik qo‘sishchalarini oladi, zamonni bildirmaydi:

Hosil bo‘lishi:

Fe’l+-sh/-ish- o‘qish, kutish

Fe’l+-moq – bilmoq, gapirmoq (lug‘atlardagi shakl)

Fe’l+-v,-uv – tikuv

-sh-, -ish shakli ko‘p ishlatiladi.

Fe ‘l + – maslik bo‘lishsizlik ma’nosini bildiradi.

Harakat nomi shakli modal so‘zlar bilan birgalikda qo‘llanadi.

	kerak
	shart
O‘qi + sh (egalik qo‘sh.)	mumkin (emas)
	lozim
	zarur

yoki	kerak
	shart
O‘qi+ maslik (e. q.)	mumkin
	lozim

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga *-sh(-ish), -maslik + -im, -ing, -i(-lari)*, qo‘sishchalarini qo‘yib gaplarni ko‘chiring.

1.Men bu vazifani qachon (topshirmoq) kerak. 2.Siz bu gapni unga (gapirmoq) kerak edi, u qattiq xafa bo'ldi. 3.Ertaga siz bilan (uchrashmoq) mumkinmi? 4. Agar bugun ishingizni yakunlasangiz, ertaga (kelmoq) shart emas. 5.Har ishda me'yorni (bilmoq) kerak. Bu haqida hamma biladi-ku! 6.Siz (ulgurmoq) kerak. Har bir vazifani o'z vaqtida (bajarmoq) lozim.

Tinglang. Amir Temur o'gitlari.

kengash	shunchaki	dilimga joylamoq	sipohiy
boqiy	foniy dunyo	qurbon qilmoq	halokat
qurbon qilmoq	g'anim	valine'mat	sidqidil
lutf-marhamatlar	qadrlamoq	o'ch olmoq	tuz totmoq
parvardigor	sofdil	dargoh	himmat
qo'rqoq	asli toza	qulog'iga quymoq	vafo qilmoq

I. Quyidagi birikmalarni tushuntirib bering:

Yurakdan chiqqan, til uchida aytmoq, qulorra quymoq, dilga joylamoq, boqiy mato bo'lган jon, foniyl dunyo, sidqidildan xizmat qilmoq, lutf-marhamat ko'rsatmoq, ko'ngli buzuq odam, nasli pok kishi, nafsi yomon odam.

II. Berilgan gaplardan matn mazmuniga mos keladigan gaplarni belgilang.

1. Maslahat ikki xil bo'ladi: biri – samimi, ikkinchisi – bema'ni.
2. Yurakdan aytilgan samimi maslahatni diqqat bilan eshitib unga rioya qilishga harakat qilaman.
3. Men sipohiylarni doimo hurmat qilib keldim, chunki ular hech qachon seni sotmaydilar.
4. Dushman sipohini ham kechirib, unga imkon berdim.
5. G'animlarni hech qachon kechirmadim.
6. Menga qarshi qilich ko'targan dushman sipohilariga ham iltifot ko'rsatib, ularni o'z lashkarlarim qatorida xizmat qilishlariga ishonch bildirdim.
7. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni o'lim qo'liga topshirdim.

8. Sofdil kishilarga qalbimni doim ochdim. Nafsi yomon ochko‘zlarni, qo‘rqoqlarni hech qachon yonimga yaqinlashtirmadim.
9. Ochko‘z odam hech qachon vafo qilmaydi.
10. Asli toza odam hech qachon noto‘g‘ri ish qilmaydi.

III. Matnni o‘z so‘zlaringiz bilan so‘zlab berishga tayyorlaning.

BENJAMIN FRANKLIN MASLAHATLARI

Не желай прожить долгую жизнь—желай прожить жизнь прекрасно.

Любишь ли ты жизнь? Тогда не теряй времени; ибо жизнь состоит из чепухи.

Нет такого дурного человека, который втайне не уважал бы добро.

Самый быстрый путь к славе – делать ради совести то, что мы делаем для славы.

Если ты оскорбляешь совесть, она осуществит свое возмездие.

Если ты не хочешь, чтобы тебя забыли, как только ты умрешь и сгниешь, пиши достойные книги или совершай поступки, достойные того, чтобы о них писали в книгах.

Самый благородный в мире вопрос звучит так: «Какое доброе дело я могу совершить?»

Я никогда не буду говорить дурно о человеке и всегда выскажу все хорошее, что мне известно о ком-либо.

Остерегайтесь незначительных расходов; маленькая течь потопит большой корабль.

Богатство главным образом зависит от двух вещей: от трудолюбия и умеренности, иначе говоря – не теряй ни времени, ни денег, и используй и то и другое наилучшим образом.

Выбирай друга не спеша, еще меньше торопись променять его.

Будь вежлив со всеми, общителен с многими, фамильярен с некоторыми.

Время – деньги.

Восторг – дитя невежества.

В каком бы положении люди не находились, они всегда могут найти удобства и неудобства.

O‘tilganlar yuzasidan topshriqlar:

1. *O‘zingiz uchun buyruq mayli shaklida kundalik rejangizni tuzing.*
2. *“1-kurs talabalariga foydali yo‘riqnomasi” mavzusida 10 ta maslahat yozing.*
3. *Buyruq mayli shaklida 10 ta o‘zbek xalq maqolini yozing va sharhlab bering.*

2B

Tayanch so‘z va iboralar: oanubi-sharq, janubi-g’arb, chegaradosh, davlat hududi, davlat, mahalliy aholi, istilochilar, davr, qadimgi, hukmdor, uylanmoq, kesib o‘tmoq, ilk, qo‘lga olmoq, bosib olmoq, kengaytirmoq, qarshilik, egallamoq, gullab-yashnamoq, jumladan.

? Savollarga javob bering

1. Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) kim bo‘lgan?
2. Amir Temur haqida nimalarni bilasiz?
3. Temuriylar davri haqida qisqacha axborot bering.

Matnni o‘qing.

TARIXINGDIR MING ASRLAR...

(XV asrgacha bo‘lgan O‘zbekiston tarixi)

O‘zbekiston Respublikasi – Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan **davlat**. Janubi-sharqda Qirg‘iziston, shimolda va shimoli-g‘arbda – Qozog‘iston, janubi-g‘arbda – Turkmaniston, janubi-sharqda – Tojikiston, janubda – Afg‘oniston bilan chegaradosh.

O‘zbekiston – dengizga chiqish yo‘li yo‘q davlatdir. Jahon okeaniga chiqish uchun Respublikamiz ikki davlat hududini kesib o‘tishi kerak. Bunday mamlakatlar dunyoda kam uchraydi (masalan, Lixtenshteyn).

O‘zbekiston hududida ilk davlatlar miloddan oldingi VIII-VII asrlarda **paydo bo‘lgan**. Xorazm va Baqtriya davlatlari shu davrda **vujudga kelgan**. Hozirgi O‘zbekiston hududidagi eng **qadimgi** shaharlar Toshkent, Xiva, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Qarshi, Termiz va Marg‘ilon hisoblanadi.

Miloddan oldingi 329–327 – yillarda Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) So‘g‘diyona va Baqriyani **bosib olgan** va Baqriya hukmdorining qizi Ravshanakka uylangan. Mahalliy **aholi** istilochilarga **qattiq** qarshilik ko‘rsatgan, Makedonskiyning qo‘smini bu viloyatda ancha vaqt turib qolgan.

IV asrdan qadimiy Xorazm **gullab-yashnay boshlaydi**. 305–995-yillardan Xorazmda xorazmshohlar sulolasiga (dinastiyasi) hukmronlikni o‘z qo‘liga oladi.

VI-VII asrlarda hozirgi O‘zbekistonning katta qismi Turk xoqonligi tarkibiga, keyinchalik esa G‘arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kirgan.

999-yildan qoraxoniylar hukmronligi boshlangan.

XII-XIII asrlarda O‘zbekistonning hozirgi hududi xorazmshohlar davlati tarkibiga kirgan.

XIV asrda davlat tepasiga Amir Temur (Temurlang) keladi. Amir Temur o‘z davlatining hududini ancha kengaytiradi, ko‘plab qo‘sni hududlarni, **jumladan**, Eron, Kichik Osiyo, Shimoliy Hindiston, Kavkazorti, Sharqiy Dashti Qipchoq va boshqa joylarni **egallab oladi**. Amir Temur davlatining poytaxti Samarqand shahri edi. Temuriylar davrida fan va madaniyat gullab-yashnagan.

? Matn bo‘yicha topshiriqlar

I. Savollarga javob bering:

1. O‘zbekiston Respublikasi nechta davlat bilan chegaradosh?
2. O‘zbekistonning Lixtenshteyn davlati bilan qanday o‘xshashlik jihatiga bor?
3. Makedonskiy qachon Baqriyani bosib olgan?
4. VI-VII asrlarda hozirgi O‘zbekiston hududida kim hukmronlik qilgan?
5. Amir Temurga qadar O‘zbekiston hududi qaysi davlat tarkibiga kirgan?

II. Ajratilgan so‘zlarning sinonimlarini toping.

III. Matnning har bir abzasiga qo‘sishimcha ma’lumot tayyorlab, daftaringizga yozing.

IV. “XIV asrda davlat tepasiga Amir Temur (Temurlang) keladi. Amir Temur o‘z davlatining hududini ancha kengaytiradi “. Ushbu gapda fe'l zamonining qo'llanishini tushuntirib bering.

V. “Temuriylar davrida fan va madaniyat gullab-yashnagan” (gullab yashnagan edi, gullab-yashnagan ekan); “Xorazm va Baqtriya davlati shu davrda vujudga kelgan.” (vujudga kelgan va vujudga keldi) fe'l shakllarining ma'no farqi bormi?

VI. Matndan quyida berilgan so'zlarning ma'nosiga yaqin so'zlarni toping. Ularni almashtirib qo'llash mumkinmi?

Birinchi, bosqinchi, tarixiy, yo'liqmoq, kattalashtirmoq, yerlar, qo'shni

G R A M M A T I K A

O'ZBEK TILIDA ISH-HARAKATNING BAJARILISH PAYTINI IFODALASH (Fe'l zamonlari)

NUTQ JARAYONIDAN OLDIN RO'Y BERGAN HARAKATNING IFODALANISHI (O'TGAN ZAMON FE'LII)

O'tgan zamon fe'li nutqdan oldin ro'y bergan harakatni ifodalaydi. Quyidagi turlarga bo'linadi:

1. ***Yaqin o'tgan zamon fe'li.*** Nutq jarayonidan oldin ro'y bergan yoki nutq jarayonida tugallangan harakatni ifodalaydi. Hosil bo'lishi:

Bo'lishli shakli:

Fe'l + di+ m, -ng, -k, -ngiz, -lar

Bo'lishsiz shakli:

Fe'l +ma+di + m, -ng, -k, -ngiz, -lar

2. Uzoq o'tgan zamon fe'li. Nutq jarayonidan ancha oldin bo'lib o'tgan yoki umuman o'tgan zamonda sodir bo'lган harakatni bildiradi.

Bo'lishli shakli:

Fe'l + gan+-man,-san,-miz, -siz

Bo'lishsiz shakli:

Fe'l +ma-gan+-man,-san,-miz, -siz

Nutq jarayonidan ancha oldin yoki so'zlovchi uchun ancha oldin sodir bo'lган harakatni bildiradi:

Bo'lishli shakli:

Fe'l +gan edi + -m, -ng, -k, -ngiz, -lar

Bo'lishsiz shakli:

Fe'l +ma +gan edi+m,-ng,-k,-ngiz,-lar

O'zbek tilida **edi** (**ekan**, **emish**) to'liqsiz fe'li bor bo'lib, fe'llar bilan va fe'l bo'lмаган so'zлар bilan ishlataladi. Masalan: *Men oldin Samarqandda yashar edim (fe'lдан keyin).* *Kecha havo sovuq edi* (sifatdan keyin). **Edi** fe'l bo'lмаган so'z (ot kesim) ning zamonini bildiradi;

ekan shakli o'zgalardan eshitganlik yoki xabar topish, bilib olish ma'nosini bildiradi: *Havo sovuq ekan. Ertaga seminar bo'lar ekan. Kutubxonada bu kitob yo'q ekan;*

emish taxmin, o'zgalarning fikrini bildiradi: *Bu yil yoz issiq bo'lar emish.*

Emas shakli bo'lishsizlik ma'nosini bildiradi: *Havo sovuq emas.* Emas shaklidan keyin **edi**, **ekan** to'liqsiz fe'llari qo'llanishi mumkin: *Kecha havo sovuq emas edi.*

3. O'tgan zamon hikoya fe'li.

Nutqdan oldin ro'y bergen harakatni hikoya qilib berish yo'li bilan ifodalaydi. Bunday shakl odatda boshqa bir shaxsdan eshitilgan harakat haqidagi xabarni bildiradi.

Bo'lishli shakli:

Fe'l + -b, -ib + -man, -san, -di, -miz, -siz, -di(lar)

Bo'lishsiz shakli:

Fe'l + -mab + -man, -san, -di, -miz, -siz, -di(lar)

4. O'tgan zamon davom fe'li.

Nutqdan oldin ro'y berib, ma'lum muddat davom etib turgan harakatni bildiradi:

Bo'lishli shakli:

Fe'l + -r, -ar edi+-m, -ng, -k, -ngiz, -lar

Bo'lishsiz shakli:

Fe'l + -mas edi+-m, -ng, -k, -ngiz, -lar

5. O'tgan zamon maqsad fe'li.

Nutqdan oldin maqsad qilib qo'yilgan harakatni bildiradi.

Bo'lishli shakli:

Fe'l + -moqchi edi+-m, -ng, -k, -ngiz, -lar

Bo'lishsiz shakli:

Fe'l + -moqchi emas +edi+-m, -ng, -k, -ngiz, -lar

Grammatika bo'yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o'rniga -di, -ar/-r+ edi, -moqchi edi, -gan, -r(-ar) ekan kabi zamon qo'shimchalarini hamda shaxs-son qo'shimchalarini qo'ying.

1. Men Toshkentda bankda ishla...
2. Do'stim Samarqand haqida eshitgan bo'lsa ham, bu shaharni ko'rma...
3. Koreyadagi do'stim men bilan O'zbekistonga kel...., lekin uning rejası o'zgardi va O'zbekistonga kelmadi.
4. Dekan aytdi, darsdan keyin hammamiz faollar zaliga bor...
5. Siz bu uyga yaqinda ko'ch...mi?
- Oldin qayerda yasha...
6. Qiz menga ko'p qavatli binoni ko'rsatdi: u shu binoning 4-qavatida yasha...
7. Sinoptiklar bergen ma'lumotga ko'ra, ertaga yomg'ir yog'...
8. Kecha universitetga borma..., meni dekan so'ra...

2-mashq. *Nuqtalar o‘rniga o‘tgan zamон shaklining mos qo‘shimchasini qо‘yib, ularning ma’no farqlarini tushuntirib bering.*

1. Kecha o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni bizdan so‘ra... 2. Oldin undan so‘ra...sizmi? 3. Biz bu filmni oldin ham ko‘r...dik. 4. Ikki yil oldin men ularnikiga bor.... 5. Ilgarilari sizni hech ko‘r..... 6. Kecha meni boshlig‘im so‘ra..., men yo‘q edim. 7. Oldinlari sizni har doim shu vaqtida bekatda ko‘r... 8. Kechirasiz, siz kecha meni so‘ra..... (menga aytishdi). 9. Xonaga kirganimda, u o‘qituvchidan javob so‘r.... 10. O‘qituvchining aytishicha, u ertaga bu mavzuni hammadan so‘r...

3- mashq. *Matnni o‘qib, sarlavha qo‘ying. Lug‘at yordamida tarjima qiling. Matnni birovdan eshitgan hikoya sifatida so‘zlab bering.*

Temurbek o‘z xotiralarida yoshlik yillarida boshidan kechirgan voqealarni hikoya qilar ekan, siz buni nasrda yozilgan qahramonlik dostonidek ta’sirlanib o‘qiysiz. Amir Temur yigirma olti yoshida, ya’ni 1362 – yili Samarqandda mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurash bayrog‘ini ko‘tarib chiqqanda, hali ko‘pchilik odamlar xalq ozodlik harakatiga tayyor emas edi. Shafqatsiz mo‘gul qo‘shinlariga qarshi jang maydoniga chiquvchilar juda kam edi. Amir Temur oltmish yigit bilan Tug‘luq Temurxonning o‘ttiz ming kishilik lashkariga bas kelolmasligini sezib, tog‘larda yashirinib yuradi, keyin Xorazmga borib panoh topmoqchi bo‘ladi. Ammo mo‘g‘ul xoni Amir Temurni o‘ldirganlarga yoki tirik tutib bergenlarga katta mukofotlar va’da qilgan edi. Shu mukofotdan umidvor bo‘lgan xivalik Tavakkal degan bek Qoraqum sahrosida Amir Temurga qarshi ming kishilik qo‘shin bilan jang qiladi. Bu jangda Amir Temur qahramonlik ko‘rsatib, ko‘p sonli g‘animni (dushmani) yengadi. Lekin uning o‘ntagina odami tirik qoladi. Shulardan yettitasi otliq. Qolgan otlar ham jang maydonida halok bo‘lgan.

Amir Temurning yoshgina rafiqasi O‘ljay Turkon ham safarda birga ekan. Amir Temur otiga rafiqasini mindirib, o‘zi piyoda qum barxanlarni oshib janubga – Xuroson tomonga yo‘l oladi.

Moxon degan joyda, qadimgi Marv shahri yaqinida ularni Alibek Jonqurbaniy degan bir hokim o‘z navkarlariga tuttirib, burgaxona bo‘lgan uyga qamab qo‘yadi. Amir Temur bundayadolatsizlikka ko‘nikib bo‘yin egadigan odam emas edi.

“Tutqunlikdan qutulish chorasi ni izlab, o‘z-o‘zim bilan kengashdim, – deyiladi “Temur tuzuklari”da. – Tangrining inoyati bilan, bahodirligim tutdi. Bor kuchim va chapdastligimni ishga solib, soqchilardan birining qo‘lidagi qilichini tortib oldim. Soqchilarga hamla qilgan edim, barisi qo‘rqib qochdi.

Qilich ko‘targancha to‘g‘ri Alibekning ustiga bositrib bordim. Qilich tutganimni (ushlaganimni) ko‘rib qo‘rqdi. Qilgan nomunosib ishidan pushaymon bo‘lib, mendan uzr so‘radi”.

(Pirimqul Qodirov dan)

4-mashq. Quyidagi fe’llar ishtirokida gaplar tuzing.

Tasvirlamoq, bezovtalanmoq, joylashmoq, to‘xtamoq, to‘xtatmoq, yashirmoq, ega bo‘lmoq, egallamoq, o‘zgarmoq, o‘zgartirmoq, qabul qilmoq, maslahatlashmoq, boshqarmoq, afsuslanmoq, asabiylashmoq, asoslamoq, birlashtirmoq, fikrlamoq, gumonsiramoq, ixtisoslashmoq, ishontirmoq, kuzatmoq.

⌚ Tinglang.(Amir Temur shaxsi haqida)

I. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini tushuntirib bering: sohibqiron, muxlis, qutsiz, manfur, nuqson, yangroq ovoz, ko‘zi xira tortmoq, irq, unsur, makruh, kigiz bo‘rk, qadamoq, ziynat, kiborlik, ruhoni imomlar, talqin, tasavvuf, ulamo, talon-taroj, shafqat qilmoq, hadya, murid, siymo, jangovar ruh, hukmronlik hissi, nochorlik, keskin munozara, hadya, noyob o‘lja, marhamatsiz, moyil bo‘lmoq.

II. Berilgan gaplardan matn mazmuniga mos keladigan gaplarni toping.

- ✓ Amir Temurning vatandoshlari u haqida turli fikrda edilar.
- ✓ Amir Temurni dushmanlari juda baxtsiz odam deb ta’riflaydilar.
- ✓ U juda ko‘rkam bo‘lgan.

- ✓ Ovozi juda baland va jarangdor edi.
 - ✓ U o'sha davrda makruh hisoblanadigan kiyimlarni kiygan.
 - ✓ U salsa o'ramagan.
 - ✓ U zeb-ziynatlarni taqishni yaxshi ko'rgan.
 - ✓ U juda sodda inson bo'lgani uchun ko'p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan.
 - ✓ U mo'gul va xitoyliklarga taqlid qilib kiyingan.
 - ✓ U ruhoniy imomlar qo'lida va ta'sirida ulg'aygan.
 - ✓ Uning jangovar ruhi bilan islomiy qarashlari bir-birini inkor qilardi.
 - ✓ U hokimiyatni faqat qilich bilan ushlab turish kerakligini ta'kidlagan.
 - ✓ U ulamolarni hurmat qilib, ularga izzat-ikrom ko'rsatgan.
 - ✓ U qaysi mamlakatni bosib olsa, u yerdagi rassom va ustalarni asirga olgan.
 - ✓ Uni Chingizzon bilan bir qatorga qo'yish noto'g'ri, chunki Amor Temur juda marhamatli hukmdor bo'lgan.
- III. *Quyidagi savollarga javob bering.***
1. Amir Temur haqida qanday fikrlar bor?
 2. Uning tashqi ko'rinishini qanday tasvirlashgan?
 3. Nima uchun u ispaniyalik elchilarni tanimagan?
 4. Nima sababli Amir Temurning yuz tuzilishida mog'ullik belgilari kuchli edi?
 5. U qanday kiyimlarni kiyishni yoqtirgan?
 6. Uning ruhoniy ulamolarga munosabati qanday bo'lgan?
 7. Sharafiddin Halabiy va uning muridlarini hadyalar bilan siylashining sababi nima?
 8. U o'zi bosib olgan mamlakatlarda nimalarga e'tibor berardi?
 9. Nima uchun uni marhamatsiz deb atash xato?
 10. Amir Temurni Chingizzon bilan bir qatorga qo'yish to'g'rimi?

?Matn bo‘yicha topshiriqlar

Quyidagi gaplarda fe'l-zamon qo‘shimchalarining qo‘llanishini tushuntirib bering va ularni muqobil shakli bilan almashtiring.

Namuna: *Garchi uning bir oyog‘i oqsasa ham, urush paytida bu nuqson uncha sezilmas edi (sezilmagan).*

1. Sohibqironni chiroyli inson sifatida tasvirlaydilar.
2. U tanasining ko‘rkamligini saqlay olgan.
3. Uning ovozi juda uzoqqa eshitilardi.
4. U Samarqandda Ispaniya elchilarini qabul qilgan vaqtida, ular yaqin kelgachgina tanigan ekan.
5. U shunday deydi: “Hokimiyatni qo‘lda qilich bilangina ushlab turish mumkin”.
6. U Halabiy bilan nihoyatda keskin munozara qilgan.

Tarjima qiling:

ALEXANDER THE GREAT



Alexander III of Macedon (20/21 July 356 – 10/11

June 323BC), commonly known as Alexander the Great was a Greek king of Macedon, a state in northern ancient Greece. Born in Pella in 356BC, Alexander was tutored by Aristotle until the age of 16. By the age of thirty, he had created one of the largest empires of the ancient world, stretching from the Ionian Sea to the Himalayas. He was undefeated in battle and is considered one of history's most successful commanders. His empire stretched from Greece to modern-day Pakistan.

Alexander succeeded his father, Philip II of Macedon, to the throne in 336 BC after Philip was assassinated. Upon Philip's death, Alexander inherited a strong kingdom and an experienced army. He had been awarded the generalship of Greece and used this authority to launch his father's military expansion plans. In 334BC, he invaded the Achaemenid empire, ruled Asia Minor, and began a series of campaigns that lasted ten years. Alexander broke the power of Persia in a series of decisive battles, most notably the battles of Issus and Gaugamela. He subsequently overthrew the Persian King Darius III and conquered the entirety of the Persian Empire. At that point, his empire stretched from the Adriatic Sea to the Indus River.

Seeking to reach the "ends of the world and the Great Outer Sea", he invaded India in 326BC, but was eventually forced to turn back at the demand of his troops. Alexander died in Babylon in 323BC, the city he planned to establish as his capital, without executing a series of planned campaigns that would have begun with an invasion of Arabia. In the years following his death, a series of civil wars tore his empire apart, resulting in several states ruled by the Diadochi, Alexander's surviving generals and heirs.

Alexander's legacy includes the cultural diffusion his conquests engendered. He founded some twenty cities that bore his name, most notably Alexandria in Egypt. Alexander's settlement of Greek colonists and the resulting spread of Greek culture in the east resulted in a new Hellenistic civilization, aspects of which were still evident in the traditions of the Byzantine Empire in the mid-15th century. Alexander became legendary as a classical hero in the mold of Achilles, and he features prominently in the history and myth of Greek and non-Greek cultures. He became the measure against which military leaders compared themselves, and military academies throughout the world still teach his tactics.

O'tilganlar yuzasidan topshiriqlar:

"Tarix sahifalaridan" mavzusida hikoya tayyorlang.

Quyida berilgan rasm yuzasidan ma'lumot tayyorlang.



2D

Tayanch so‘zlar va iboralar: mo‘tabar, ziyoratgoh, nasroniy, yahudiy, avliyo, tabarruk, qo‘nimgoh, xok, qabr, keng ko‘lamda, obodonlashtirish, ta’mirlash, ziyoratchi, qulaylik, e’tirof etilmoq, sajdagoh, otashparastlik, ibodatxona, majmua, ishora, ayvon, xonaqoh, ta’mirlanmoq, quduq.

Matnni o‘qing.

Tarixiy-madaniy obidalar

Xoja Doniyor maqbarasi

Xoja Doniyor maqbarasi Samarqanddagi eng mo‘tabar va mashhur ziyoratgohlardan hisoblanadi. Doniyor, Daniil, Daniyel – musulmon, nasroniy va yahudiy adabiyotlaridagi aziz -avliyoning nomidir.

Doniyor Quddusda eramizdan avvalgi 603-yilda tug‘ilgan bo‘lib, shoh Dovud va Sulaymon (Solomon)larning avlodiga mansubdir.

Rivoyatlarga ko‘ra, Amir Temur o‘zining (1397-1404 yillar) Kichik Osiyoga yetti yillik yurishi vaqtida Suza shahridagi avliyo Doniyorning tabarruk qo‘nimgohidan bir qism xokini (o‘rnatilgan tartib-qoidalar talabini amalga oshirib) Samarqandga olib kelgan.

Maqbarada dunyodagi eng uzun – 18 metrlik qabр mavjud. Maqbara binosi XX asr boshlarida qurilgan. Shunga qadar bu yerda Xoja Doniyorning qabri va masjid bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar bor.

Mustaqillik yillarda ushbu ziyoratgohda keng ko‘lamda obodonlashtirish, ta’mirlash, qurilish va ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratish ishlari olib borilmoqda.

Hazrati Xizr masjidi

Hazrati Xizr masjidi Samarqand shahrining muqaddas ziyoratgohlaridan biridir. U Samarqanddagi birinchi musulmon masjidi va me’moriy obidasи sifatida e’tirof etiladi.

Masjid Qutayba ibn Muslim tomonidan qurilib, Hazrati Xizr nomi bilan atalgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, dastlab sajdagohi mavjud bo‘lgan. VIII asrda arablar tomonidan otashparastlarning ibodatxonalarini buzib tashlanadi. Shu tepalikdagi ibodatxona o‘rniga Qutayba ibn Muslim tomonidan birinchi masjid binosi quriladi va Hazrati Xizr nomi bilan ataladi.

Hoja Doniyor, Qusam ibn Abbos va Hazrati Xizr ziyoratgohlari aslida bitta majmua bo‘lgan. Masjidga kiraverishdagi marmar toshda ko‘rsatilgan “ **1854-yil** ” yozuvi uning Buxoro amiri Amir Muzaffarxon tomonidan tiklanganiga ishoradir.

1899-yilda masjidning ayvon va darvozaxona qismi qayta qurilgan. Darvoza yuzasiga yozilgan hijriy 1336-yil (milodiy 1916-1917 yillar) yozuvi darvozaxona va minoraning qayta tiklangan vaqtini anglatadi. Fikrimizni xonaqoh mehrobidagi 1274 – yil hijriy (1854-milodiy yil), 1302-hijriy yil (1884-milodiy yil) degan yozuvlar isbotlaydi.

Mustaqillik yillarda Hazrati Xizr masjidi mamlakat rahbariyatining qo‘llab-quvvatlashi bilan bir necha bor mukammal ta’mirlandi, masjid yonida joylashgan Arzis qudug‘i qayta tozalanib, qadimiy holiga qaytarildi.

?Matn bo‘yicha topshiriqlar

I. Savollarga javob bering:

1. Doniyor kim bo‘lgan?
2. Xoja Doniyor maqbarasi qanday qilib Samarqandda barpo etilgan?
3. Birinchi musulmon masjidi deb qaysi masjid e’tirof etiladi?
4. Hazrati Xizr masjidi qanday qilib barpo etilgan?
5. “1854-yil” yozuvi nimaga ishora qiladi?
6. Nima uchun butun dunyoda qadimiy obidalarning ta’mirlanishi va obodonlashtirilishiga katta ahamiyat beriladi?

II. Obida, maqbara, masjid, ziyoratgoh, ibodatxona, sajdagoh, qo‘nimgoh, qabr, xonaqoh, darvozaxona kabi so‘zlarning ma’nosini tushuntiring.

III. „-ga mansub“, „-ni amalgा oshirmoq“, „... sifatida e’tirof etilmoq“, „-ni anglatmoq“ qurilmalari ishtirokida gaplar tuzing.

G R A M M A T I K A

Nutq jarayonida ro‘y berayotgan harakatning ifodalanishi

(Hozirgi zamon fe’li)

Hozirgi zamon davom fe’li: nutq paytida ro‘y berib, hozir davom etayotgan harakatni bildiradi. Hosil bo‘lishi:

Bo‘lishli shakli:

Fe’l +-yap+ -man, -san, -ti, -miz, -siz, -ti(lar)

Bo‘lishsiz shakli:

Fe’l + -ma +-yap+-man, -san, -ti, -miz, -siz, -ti (lar)

Quyidagi fe’llarda hozirgi zamon shakli –ib qo‘shimchasi bilan yasaladi.

yur + -ib + -man, -san, -di, -miz, -siz, -dilar

tur + ib + -man, -san, -di, -miz, -siz, -dilar

o ‘tir + -ib + -di

yot + -ib + -di.....

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli fe'llarni kerakli zamonda qo'ying.

1. Ukang o'qishga kirdimi? Hozir qayerda...? 2. Kompyuterim ..., ustani chaqirishim kerak. 3. Men Zumradga kitobimni bergen edim, u negadir ... 4. U seni ..., tezroq uyga kel. 5. Hozir dars...: sen bilan gaplashish uchun vaqtim yo'q. 6. U nimagadir ..., mobil telefoniga qo'ng'iroq qilib, sababini bil. 7. Ovozingizni...! Iltimos, qattiqroq gapiring. 8. Oyim mazali ovqat ..., bugun biznikiga kel.

qaytarmoq, ishlarimoq, o'qimoq, pishirmoq, kutmoq, kechikmoq, tayyorlanmoq, eshitmoq.

2-mashq. 1-ustundagi gaplarni mazmunan moslashtirib hozirgi zamon shakliga aylantiring.

Namuna: Men mакtabda nemis tilini o'rganganman. – Hozir ingliz **tilini o'rganyapman.**

1. Mustaqillik yillarda Samarqandga Hozir....
ko'п sayohatchilar keldi.
2. Keyingi yillarda Toshkentda ko'п yangi inshootlar qurildi.
3. Men koreys tilini o'rgandim.
4. Siz uyingizni ta'mirladingizmi?
5. Bu kutubxona talabalar uchun qurildi.
6. Kecha havo juda sovuq edi.

G R A M M A T I K A

*Nutq jarayonidan keyin ro'y beradigan harakatning ifodalanishi
(Kelasi zamon fe'li)*

1. Kelasi zamon davom fe'li.

Nutq jarayonidan keyin ro'y beradigan yoki takrorlanib turadigan harakatni bildiradi.

Bo 'lishli shakli:

Fe'l +-a /-y+-man,-san,-di, -miz,-siz,-di(lar)

Bo 'lishsiz shakli:

Fe'l +-may+-man,-san,-di, -miz,-siz,-di(lar)

Ertaga soat 5da uchrashamiz. Universitetda darslar soat 9.00da boshlanadi.

2. Kelasi zamon maqsad fe'li.

Kelgusida bajarilishi maqsad qilib qo'yilgan harakatni bildiradi.

Bo 'lishli shakli:

Fe'l + -moqchi + -man, -san, -miz, -siz, -lar

Darsdan keyin kutubxonaga bormoqchiman.

Bo 'lishsiz shakli:

Fe'l + -moqchi +-emas+-man, -san, -miz, -siz, -lar

Bugun hech qayoqqa bormoqchi emasman.

3. Kelasi zamon guman fe'li.

Bajarilishi noaniq bo'lgan harakatni bildiradi.

Bo 'lishli shakli:

Fe'l + -r/-ar+-man, -san, -miz, -siz, -lar

Ertaga vaqtim bo'lsa, kelarmen.

Bo 'lishsiz shakli:

Fe'l + -mas+ -man, -san, -miz, -siz, -lar

Anvarning kecha mazasi yo'q edi, **balki** u bugun darsga kelmas.

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar.

8-mashq. Berilgan gaplarni o'zbek tiliga tarjima qilib, ular ishtirokida "Vatanimning yuragi" mavzusida matn tuzing.

1. В каждом государстве есть священные места, где учащается пульс. В независимой стране с названием Узбекистан таким местом,

бесспорно, является столичная площадь Мустакиллик – сердце нашей Родины.

2. Находясь, на площади Мустакиллик, проникаешься ощущением, что Родина начинается именно отсюда.

3. С чего начинается Родина? Конечно же, с самого простого – с родного дома, где вырос, или улочки, по которой ежедневно ходил в школу.

4. Здесь сердце республики, здесь ровно бьется ее пульс...

Tinglang. (AmirTemur maqbarasi)

I. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini lug‘at yordamida tarjima qiling:

Noyob asar, me’morchilik, taxt vorisi, dafn qilinmoq, sakkiz burchakli gumbaz, o‘ychanlik bilan fikrlash, mo‘tadil harorat, undamoq, qurilish uslubi, el ardog‘ida bo‘lmoq, bejirim bezaklar, lol qoldirmoq, abadiy qo‘nim topmoq, vasiyatni bajarmoq, tilla suvi yugurtirilgan bo‘rtma qog‘oz naqsh, bezak, handasaviy naqshlar, arabiylar xattotlik san’ati, temuriylar xilxonasi, zar qubba, tashrif buyurmoq.

II. Berilgan gaplardan matn mazmuniga mos keladigan gaplarni toping.

1. Amir Temur maqbarasi 1336-yilda qurildi.
2. Ushbu maqbara sohibqironning nabirasi uchun qurilgan.
3. Muhammad Sulton kasal bo‘lib, vafot etadi.
4. Uni Samarcandda, masjid xonaqosida dafn qiladilar.
5. Maqbaraning sakkiz burchakli gumbazi hozirgi kunda ham juda ko‘p mutaxassislarni lol qoldirmoqda.
6. Bino ichida mo‘tadil havo saqlanib turadi.
7. Amir Temurning og‘li Shohruh Mirzo otasining vasiyatini bajaradi.
8. Shohruh Mirzo ham shu yerga dafn etilgan.
9. Mir Said Baraka – Shohruh Mirzoning ma’naviy piri.

10. Mirzo Ulug‘bek tilla gumbazli galereya qurdirdi.
11. Uning Bezaklarda Qur’oni karim oyatlari yozilgan.
12. Mironshoh Mirzodan tashqari Mirzo Ulug‘bek ham shu maqbaraga dafn etilgan.
13. Ushbu maqbaraning buzilgan joylari XIX asr oxirlarida qayta tiklandi.

III. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Amir Temur maqbarasi qurilishi qanday voqeа bilan bog‘liq?
2. Nima uchun maqbaraning qurilish uslubi hozirgi kunda ham mutaxassislarni o‘ylantiradi?
3. Amir Temur nimani vasiyat qilgan edi?
4. Mirzo Ulug‘bek maqbarani qanday o‘zgartiradi?
5. Arabiy xattotlik san’atining kalligrafik naqshlari bilan nimalar bitilgan?
6. Nima uchun ushbu maqbara temuriylar xilxonasi deyiladi?
7. Qachon maqbara qayta ta’mirlandi?

IV. Fikrni davom ettiring.

1. 1403-yilda **Muhammad Sulton** bevaqt vafot etib,
2. Binoning mo‘tadil haroratini saqlash.....
3. Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo otasining vasiyatini bajarish uchun.....
4. Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan....

Gaplarni tarjima qiling.

1. Amir Temur maqbarasini ziyorat qilish uchun keldim. 2. Samarqandga borib, Amir Temur maqbarasini ziyorat qilmoqchiman. 3. Samarqandga borgim keladi. 4. Do‘stlarim bilan Samarqandga borib, tarixiy maqbaralarni ziyorat qilmoqchi edim, lekin vaqtim bo‘lmadi.

GRAMMATIKA

O'ZBEK TILIDA MAQSAD MA'NOSINI IFODALASHNING BOSHQA SHAKLLARI

O'zbek tilida maqsad ma'nosi kelasi zamon maqsad fe'lidan tashqari quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1. *-gani ravishdosh qo 'shimchasi yordamida:*

Men dam olgani keldim. Biz dam olgani keldik.

Sen dam olgani kelding. Siz dam olgani keldingizmi?

U dam olgani ketdi. Ular dam olgani keldilar.

2. *Harakat nomi shaklidagi fe'lidan keyin uchun ko 'makchisini keltirish yordamida:*

Fe'l+ -sh/-ish + uchun

O'zbek tilini o'rganish uchun lug'at sotib oldim.

3. *Buyruq maylidagi fe'lidan keyin deb so 'zini keltirish yo 'li bilan:*

Fe'l + -ay,-gin,-sin, -aylik, -ing, -sinlar deb

ko'ray deb ko'raylik deb

ko'rgin deb ko'ring deb

ko'rsin deb ko'rsinlar deb

Gazeta olay deb ko'chaga chiqdim. U tinch uxlasin deb biz sekin gaplashdik.

4. *"Istayman", "xohlayman" so 'zlari yordamida:*

Sport bilan shug'ullanishni xohlayman. Mustaqil yashashni istayman.

Bu shaklda istash ma'nosi kuchliroq bo'ladi.

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar

4-mashq. Nuqtalar o'rniغا kerakli qo'shimchalarni qo'ying: -y, -ay, -aylik, -gin, -ing, -sin + deb.

1. Sizni bezovta qilma....., tunda telefon qilmadim. 2. Sen ham ko‘r... , yangi rasmlarni olib keldim. 3. O‘zbek tilini yaxshiroq o‘rgan...ataylab uzoq Koreyadan O‘zbekistonga keldik. 4. . U sayohatga ketayotganida onasi havo sovuq bo‘lsa kiy.... deb issiq kiyim berdi. 5. Hech kim xalaqit berma... deb, eshikni ichidan qulflab oldim. 6. Siz yeb ko‘r...., bog‘imdagi mevalardan olib keldim. 7. Havo sovuq. Shamollama.... deb, derazani yopib qo‘ydim. 8. Vaqt ni bekorga sarflama... deb, chet tilini o‘rgana boshladim.

5-mashq. *Nuqtalar o‘rniga kerakli fe’llarni kelasi zamon shaklida qo‘ying.*

1. Bugun kechqurun konsertga ..., sen ham biz bilan borasanmi? 2. Balki, men kelasi yili Amerikaga o‘qishga...3. Tushlikda qayerda ..., men ham sen bilan o‘sha yerga boraman. 4. Mening sizga taklifim bor: siz bilan birga bu loyiha ustida ... 5. Vaqt juda kech bo‘ldi. Balki mening uyimda ...? 6. Men direktor bilan... U qachon keladi? 7.Havo bulut. Balki yomg‘ir... Mening soyabonim yo‘q. Tezroq uuga ketish kerak. 8.Yaxshiroq ish..., hozir menga ko‘p pul kerak. 9. Bizning universitetda dars soat 9.00da ... 10. Ertaga menejment fanidan seminar..., shuning uchun kechqurun kinoga...

ketmoq, qolmoq, kutmoq, uchrashmoq, yog‘moq, topmoq, ishlaromoq, ovqatlanmoq, bormoq(bormaslik), boshlanmoq, ishlaromoq, bo‘lmoq

6-mashq. *Tegishli zamon qo‘shimchasini qo‘ying.*

Kunlardan bir kun Xudo yerga tush.... va qil (волосок)ga jon (душа, жизнь) ber..... Buni ko‘rgan Odam: “Nima uchun Xudo hamma narsani qila ol...? Agar xohlasa jon ber...., xohlasa jonne ol....”, – deb o‘yla.... Shunda odamning qalb (сердце)ida hasad (зависть) paydo bo‘l.... Xudo hasad qilgan odamlarni do‘zax (ад)ga yubor....Lekin hasad qiladigan odamlar ko‘payaver...., do‘zaxda ham hali joy ko‘p bo‘lsa kerak....

Matnni tarjima qiling.



Эйфелева башня — металлическая башня в центре г. Парижа, самая узнаваемая его архитектурная достопримечательность; также всемирно известна как символ Франции. Этот (впоследствии) символ Парижа был построен в 1889 году и первоначально задумывался как временное сооружение — башня служила входной аркой парижской Всемирной выставки 1889 года. От планировавшегося сноса (через 20 лет после выставки) башню спасли радиоантенны, установленные на самом верху, — пришла эпоха внедрения радио. Названа в честь своего конструктора Гюстава Эйфеля; сам Эйфель называл её просто — 300 метровой башней.

В 2006 году на башне побывало 6 719 200 человек, а за всю её историю, до 31 декабря 2007 года — 236 445 812 человек . Таким образом, башня является самой посещаемой и самой фотографируемой достопримечательностью мира.

Французские власти решили устроить всемирную выставку в память столетнего юбилея Французской революции (1789 год). Парижская городская администрация попросила известного инженера Гюстава Эйфеля внести соответствующее предложение. Вначале Эйфель был немного озадачен, но затем, порывшись в своих бумагах, внес на рассмотрение чертежи 300-метровой железной башни, которым он до этого почти не уделял внимания. 18 сентября 1884 года Гюстав Эйфель получает совместный со своими

сотрудниками патент на проект, а впоследствии выкупает у них же и исключительное право.

Сооружение имело потрясающий и незамедлительный успех. За шесть месяцев работы выставки посмотреть «железную даму» пришли более 2 млн посетителей. К концу года удалось возместить три четверти всех затрат на строительство.

Однако творческая интеллигенция Парижа и Франции была возмущена дерзким проектом Эйфеля, и, начиная с самого начала строительства, посыпала в мэрию Парижа негодования и требования прекратить постройку башни. Писатели и художники опасались, что металлическая конструкция будет подавлять архитектуру города, нарушать неповторимый стиль столицы, складывавшийся на протяжении веков. Известно, что в 1887 году 300 писателей и художников (среди них Александр Дюма-сын, Ги де Мопассан и композитор Шарль Гуно) направили протест в адрес муниципалитета, характеризуя конструкцию как «бесполезную и чудовищную», как «смехотворную башню, доминирующую над Парижем, как гигантская фабричная дымовая труба», добавляя: *На протяжении 20 лет мы будем вынуждены смотреть на отвратительную тень ненавистной колонны из железа и винтов, простирающейся над городом, как чернильная клякса.*

Ги де Мопассан регулярно обедал в ресторане на первом уровне башни (ныне ресторан «Жюль Верн»). На вопрос, зачем он это делает, если башня ему не по душе, писатель отвечал: «Это единственное место во всём огромном Париже, откуда её не видно».

O‘tilganlar yuzasidan topshriqlar:

1. Quyidagi ma’lumotlar qaysi buyuk shaxs haqida? Ma’lumotni to‘ldiring.

- ✓ O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim.
- ✓ U dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilanda sulolasiga asos solgan.
- ✓ U dunyoga kelgan davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, amakivachchalar o‘rtasida hokimiyatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.
- ✓ U ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga –Farg‘onaning yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o‘zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi.

2. “O‘zbek tilida zamon shakllari va ularning ma’no jihatdan farqlanishi” mavzusi bo‘yicha dars taqdimotini tayyorlash.

⊕ *O‘zingizni tekshiring*

1. *O‘tgan zamon fe’li qaysi qatorda berilgan?*

- A. kelarman
- B. ketmoqchi
- C. kelishdi
- D. olmoqdaman

2. *Berilgan birikmalardagi fe’llar to‘g‘ri tarjima qilingan qatorni aniqlang.*

Хочу поговорить, прочитал книгу, я раньше занимался спортом, может придет, всегда приходит вовремя.

- A. Gaplashmoqchiman, o‘qib chiqdim, shug‘ullanaredim, kelar, doim o‘z vaqtida keladi.
- B. Gaplashishni xohlayman, o‘qib bo‘ldi, shug‘ullanaman, keladi, keladi.
- C. Gaplashmoqchi edim, o‘qiganman, shug‘ullanardim, keldi, kelyapti.
- D. Gaplashmoqchiman, o‘qidi, shug‘ullanganman, kelishi mumkin, kelyapti.

3. *Nuqtalar o‘rniga mos zamon qo‘sishimchasini qo‘ying.*

Men kasal edim, shuning uchun darsga kelma, shu kuni esa test bo'l..., o'qituvchi meni so'ra

- A. -dim, -ibdi, -bdi
- B. -dim, -di, -di
- C. -dim, -gan, -gan
- D. -yapman, -di, -di

4. Я хочу поговорить с ним, поэтому его жду.

- A. U bilan gaplashmoqchiman, shuning uchun uni kutyapman.
- B. U bilan gaplashishni xohlayman, shuning uchun uni kutyapman.
- C. U bilan gaplashgim kelyapti, shuning uchun uni kutyapman.
- D. U bilan gaplashishni orzu qilaman, shuning uchun uni kutyapman.

5. Nuqtalar o'rniga kerakli zamon qo'shimchasini qo'ying.

Ilgari men har kuni sport bilan shug'ullan.....

- A. -di+m
- B. -ar+di+m
- C. -moqchi+man
- D. -ib+man

6. Fe'l zamonlarining mosini qo'ying.

Kecha xonada yo'q edim, suzish havzasiga ketgan..., meni kimdir qidir...

va menga xat tashlab ket...

- A. -dim; -ibdi; -ibdi;
- B. -dim; -di; -di;
- C. -dim; -gan; -gan;
- D. -ganman; -di; -di;

BOBUR VA KABUTARLAR

Qadimda Andijon degan mamlakatda Umarshayx degan podsho bo‘lib, uning aql-farosatda yagona bo‘lgan Bobur Mirzo ismli o‘g‘li bor edi. Bir kun Umarshayx kitob o‘qib o‘tirgan edi, yasovulboshi qo‘l-oyog‘i bog‘langan yigit va qizni sudrab olib kiribdi. Podsho yasovulboshidan ularning gunohi nimaligini so‘rabdi. Yasovulboshi: “Bu yaramaslar sizning kabutarlaringizni o‘zlariga o‘rgatib olmoqchi bo‘ldilar, ularning gunohi – shu”, – debdi. Kabutarlarning ashaddiy ishqibozи bo‘lgan podsho boshini kitobdan ko‘tarmasdan: “Unday bo‘lsa ularning boshini olib...”, – deganda uni qattiq yo‘tal tutib qolib, gapini tugata olmabdi. Podshoning oldida qo‘l qovushtirib turgan vazir yasovulboshiga qarab, anavilarni yo‘qot degandek ishora qilibdi. Yasovulboshi yigit bilan qizni turtib-turtib tashqariga olib chiqib ketibdi. Bu paytda podshoning o‘g‘li Bobur bir chetda nimanidir yozib o‘tirgan ekan. U jallod yigit-qizni boshini olish uchun olib ketayotganini sezib, yasovulboshining orqasidan chiqibdi. Yigit bilan qiz : “Bizning hech bir gunohimiz yo‘q. Biz hazrati oliylarining kabutarlari osmonda uchayotganini ko‘rib, ularning o‘yinini tomosha qildik, xolos. Nahotki kabutarlar o‘yinini tomosha qilish gunoh bo‘lsa?” – deya yalinib-yolvorishsa-da, jallodlar ularning boshini kundaga qo‘yibdilar. Shunda ular bilan izma-iz kelayotgan Bobur Mirzo yasovulboshi va jallodlarga qarab: “To‘xtanglar, bularni o‘ldirmanglar, otam axir ularning boshini olinglar, demadilar-ku”, – debdi. Yasovulboshi esa: “Xo‘s, unda otangiz nima demoqchi edilar, shahzodam?” – debdi. Bobur Mirzo esa: “Oliy hazrat ular boshlarini olib bu yurtdan chiqib ketishsin, demoqchi edilar, gaplarimga shubha qilsangiz, o‘zlaridan so‘rashingiz mumkin”, – debdi.

Yasovulboshi podshoning arzanda o‘g‘li bilan tortishib o‘tiramanmi, debdi-da, podshoning oldiga kirib, bo‘lgan voqeani so‘zlabdi.

Podsho o‘g‘lini chaqirib, undan nima uchun gunohkorlarni himoya qilganligini so‘rabdi. Bobur Mirzo shunday javob beribdi: “Men ularning birortasini ham tanimayman. Demak, ularni taniganim uchun himoya qilayotganim yo‘q. Men olampanohning so‘zлari, aksincha, bo‘lishini hecham istamayman. Men faqat: “Padari buzrukvor kabutarlar o‘yinini tomosha qilayotganlar bu yurtdan boshini olib chiqib ketsin demoqchi edilar, lekin yo‘tallari tutib, gaplarini oxiriga yetkaza olmadilar, dedim xolos”, – debdi.

Shunda Umarshayx o‘zining o‘rniga podsho bo‘ladigan o‘g‘lini qo‘llab-quvvatlash uchun: “Mirzo haq gapni aytibdi. Men haqiqatan ham, ularning boshini tanidan judo qilinglar demoqchi emas edim”, – debdi.

Shunday qilib, yigit bilan qiz Bobur Mirzoning aql-farosati tufayli omon qolgan ekan.

Matn bo‘yicha topshiriqlar.

1. Hikoya kim haqida. Bu qahramon haqida nima bilasiz?
2. Podsho huzuriga olib kelgingan qiz va yigitning aybi nima edi?
3. **Boshini olmoq** bilan **boshini olib chiqib ketmoq** so‘zlarining farqi nimada?
4. Bobur qanday qilib otasining aytgan gapini o‘zgartirdi?
5. Bobur bu yigit va qizni oldin ham ko‘rgan edimi?
6. Umarshayx bu yigit va qizni rostdan ham o‘ldirmoqchi edimi?
7. Qiz va yigit o‘z harakatlarini qanday oqladilar?
8. Nima uchun Umarshayx fikrini o‘zgartirdi?

3-DARS

SOG'LOM AVLOD – KELAJAK POYDEVORI

3A

Tayanch so‘z va iboralar: giyohvand moddalar, giyohvandlik, karaxtlik, jismoniy va ruhiy qaramlik, tobelik, sarxush qiluvchi, insoniyatga qarshi jinoyat, ma'lumot, qo‘zg‘atuvchi, iste'mol qilish, tushkunlik, xumor, xotira, bangilikka mubtalo kishilar, tadqiqot, xavfli, oqibat, miqdor, nobud bo‘lmoq, imkoniyat, mijoz, zaiflik, azob, tatib ko‘rmoq, tadqiqot, voz kechmoq.

I.Qavsni ochib, birikmalar ishtirokida gaplar tuzing.

Aholi (tarqalmoq), giyohvandlik (muammo), dunyo (tarqalmoq), tobe qilish (foydalanmoq), giyohvand moddalar (o‘rganmoq), farzand (voz kechmoq), modda (odatlanmoq), og‘ir jinoyat (tan olmoq), mijoz (ega bo‘lmoq), o‘lim (sabab bo‘lmoq), oqibat (xayolga keltirmoq), ta’sir ko‘rsatmoq (moddalar), zaiflik (foydalanmoq), ma'lumot (imkoniyat bo‘lmoq).

 **Matnni o‘qing.**

BIZ GIYOHVAND MODDALARGA QARSHI “YO‘Q! KERAK EMAS”

DEYMIZ!

Narkotik yunoncha **narkotikos** – “qotib qolish, karaxtlik” so‘zidan olingan. (Tilimizda giyohvand modda deb ham yuritiladi). Giyohvandlik va giyohvand moddalar to‘g‘risidagi ilk ma'lumotlar eng qadimgi tarixiy hujjatlarda ham uchraydi. Aleksandr Makedonskiyning miloddan oldingi IV asrdagi harbiy yurishlari natijasida giyohvand moddalar O‘rtayer dengizi mamlakatlari aholisi o‘rtasida, keyinchalik esa butun dunyo bo‘ylab tarqala boshlaydi. Tarixda butun bir davlatlar giyohvand moddalarning odamda jismoniy va ruhiy qaramlik qo‘zg‘ash xususiyatidan xalqlarni tobe qilish maqsadida foydalanganliklari to‘g‘risida ma'lumotlar mavjud. Masalan, Yaponiya, Xitoy va Koreya aholisi orasida

ushbu sarxush qiluvchi vositalar kishilarni giyohvand moddalarga o‘rgatib qo‘yish, keyin esa ularni katta pulga sotish, shu tariqa bu xalqlarni o‘ziga qaram qilib olish maqsadida tekinga tarqatilgan. BMT tomonidan bu holat insoniyatga qarshi eng og‘ir jinoyatlardan biri deb tan olingan.

Psixotrop, ya’ni ruhiyatga ta’sir ko‘rsatuvchi moddalar (giyohvand moddalar)ni 3 guruhga bo‘lish mumkin: 1. Depressantlar – asab tizimi faoliyatiga og‘ir ta’sir ko‘rsatuvchi moddalar. Ularga ko‘knori va undan tayyorlangan: morfin, omnopon, pantopon, promedol, fentanil kiradi. 2. Stimulyatorlar (rag‘batlantiruvchilar) – qo‘zg‘atuvchi moddalar. Ular sirasiga kokain, efedrin, «ekstazi» sidnofek, kofein va boshqalar kiradi.

3.Gallyutsinogenlar – miyaga ta’sir ko‘rsatuvchi va gallyutsinatsiya qo‘zg‘ovchi moddalar. Ularga nasha, marixuana, LSD va boshqalar kiradi.

Giyohvand moddalar faqat organizmga tushganidan keyin ta’sir ko‘rsata boshlaydi. Giyohvand modda iste’mol qiluvchilarning xotirasi yomonlashadi, ularning yagona maqsadi – giyohvand modda topish va qabul qilish. Ular boshqa biror narsa haqida o‘ylash qobiliyatini yo‘qotadilar, ota-onalari, do‘sqli, farzandlaridan voz kechadilar. Giyohvand modda iste’mol qiluvchi kishi istagan paytida bundan voz kecha olaman deb o‘ylaydi. Aslida, organizm giyohvand moddaga juda tez odatlanadi, agar uni vaqtida qabul qilmasa, qattiq xumor tutadigan bo‘lib qoladi. Xumor – abstinent sindromidir. Bu alohida organlar bilan birga butun organizm ham yemirila boshlaganining alomatidir.

Giyohvand moddalar savdosi juda katta daromad manbayi hisoblanadi va bu ish bilan shug‘ullanuvchilar o‘z daromadlarini oshirish uchun hech narsadan qaytmaydilar. Ular agar giyohvand moddaga o‘rgatib qo‘yilsa, mo‘may daromad manbayiga ega bo‘lishlarini yaxshi biladilar. Shuning uchun kishini giyohvand moddalarga o‘rgatib qo‘yish va doimiy mijozga ega bo‘lish uchun turli usullardan foydalanadilar: giyohvand moddani bepul tatib ko‘rishni taklif qiladilar, ko‘ndirishga urinadilar, kishilarning zaifliklaridan foydalanadilar. Agar kishi ma’nан zaif va ojiz bo‘lsa, juda tez tushkunlikka tushib qoladi. Mana shunday insonlar ba’zan osongina ularning mijozlariga aylanadilar. Shu sababdan ham

giyohvandlik dunyo bo‘ylab tez tarqalmoqda. Giyohvand moddalar ko‘plab iste’dodli kishilarning azobli o‘limiga sabab bo‘lmoqda. Giyohvand moddalar qabul qiluvchilarning asosiy qismi o‘zlari istamagan holda giyohvand bo‘lib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, giyohvand moddalarni tatib ko‘rganlarning 90 foizi ularni iste’mol qilishning xavfli oqibatlarini hatto xayollariga ham keltirmaganlar. Ularda giyohvand moddalar va ularning zararli ta’siri haqida yetarli ma’lumot olish imkoniyati bo‘lman!

?Matn bo‘yicha topshiriqlar

I. Savollarga javob bering:

1. *Nima uchun giyohvand moddalarni “qora og‘u” deb ataydilar?*
2. *Giyohvand moddalarning inson organizmiga qanday zararli ta’siri mavjud?*
3. *BMT giyohvand moddalar bilan bog‘liq qanday harakatlarni “insoniyatga qarshi jinoyat” deb atagan?*
4. *Giyohvand moddalarga qaram bo‘lib qolishning asosiy sabablari nima?*

II. Ajratilgan so‘z va birikmalarni ma’no jihatdan mos keladigan so‘zlar bilan almashtiring.

III. Matndan “agar” va “...–sa” yordamida bog‘langan gaplarni toping va tarjima qiling.

IV. Fikrni to‘ldiring.

Agar....., biz giyohvandlik tarqalishining oldini olishimiz mumkin.

Agar....., yoshlar giyohvandlik qanday fojiaviy oqibatlarga olib kelishini tushunadilar.

Agar, insoniyat kelajagi xavf ostida qoladi.

Agar....., yoshlar giyohvand moddalarning zararli ta’sirini tushunib yetadilar.

HARAKAT-HOLAT SHARTINING IFODALANISHI
(Shart mayli)

Biror harakatning bajarilishi uchun qo‘yiladigan shartni bildiradi. Shart mayli ma’nosи **agar** bog‘lovchisi va **-sa** qo‘shimchasi bilan hosil bo‘ladi: **Agar havo ochiq bo‘lsa, ertaga Samarqandga sayohatga boramiz.** “Agar” bog‘lovchisi ishlatilmasligi ham mumkin: **Bo‘sh vaqtin bo‘lsa,biznikiga kel.**

O‘tgan zamon ma’nosи **-ganda edi** shakli orqali ifodalanadi:

Testga yaxshiroq tayyorlanganingda **edi**, ko‘proq ball yig‘**ar eding**.

Chizmasi: fe’l+**gan+im,-ing,-i,-imiz,+ingiz+lari+da** **edi**,.....fe’l+-**ar edi+m,-ng,-i,-ik,+ingiz+lar**

Shart maylidagi fe’llarning tuslanishi

Kelasi zamon shart mayli

Birlik: *bo‘lishli //bo‘lishsiz*

1-shaxs aytsam, aytmasam

2-shaxs aytsang, aytmasang

3-shaxs aytsa, aytmasa

Ko‘plik: *bo‘lishli // bo‘lishsiz*

aytsak, aytmasak

aytsangiz, aytmasangiz

aytsalar, aytmasalar

⌚ **Eslab qoling:** **-sa** shart mayli qo‘shimchasi **kerak** so‘zi bilan qo‘llansa,

faraz, taxmin ma’nosini bildiradi. Masalan: *Bu yil qish sovuq bo‘lsa kerak.*

-sa shart mayli qo‘shimchasi **bo‘ladi** so‘zi bilan qo‘llansa, mumkinlik, imkoniyat borligi ma’nosи ifodalanadi. Masalan: *Bu ishni bir kunda qilsa bo‘ladi.*

-sa shart mayli qochimchasi **mayli** so‘zi blan qo‘llansa, ruxsat so‘rash ma’nosini bildiradi. Masalan: *Ketsam maylimi*

Grammatika bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli fe’llarni shart maylida qo‘ying.

1. Agar u bizning shartlarimizga, biz u bilan shartnomal tuzamiz. 2. Sen ..., biz birga ishlashimiz mumkin. 3. Agar ertaga bo‘sh vaqtingiz ..., ikkalamiz shaharni aylanaylik. 4. Uni yana yarim soat kutamiz, agar..., ketamiz. 5. Mashina haydaganda, ko‘cha harakati qoidasini buzish mumkin emas. Agar, to‘laysiz. 5. Men ertaga juda erta turishim kerak, iltimos, agar erta..., meni ham soat 6 da uyg‘oting. 6. Agar imtihonlarga yaxshiroq, universitetga kirar eding.

(rozi bo‘lmoq, bor bo‘lmoq, buzmoq, tayyorlanmoq, kelmoq/kelmaslik, turmoq)

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘ying.

1. Agar sening bo‘sh vaqting bo‘l...., biznikiga kel. 2. Agar siz menga o‘zbek tilida sekin gapir...., men gapingizni tushunaman. 3. Men testlarni yaxshi topshir...., ota-onam juda xursand bo‘ladi. 4. Inson giyohvand moddalarni ko‘p iste’mol qil...., ularga nisbatan tobe bo‘lib qoladi. 5. U har kuni sport bilan shug‘ullan...., sog‘lom bo‘ladi. 6. Agar sizga giyohvand modda taklif qil....lar, “Yo‘q! Kerak emas” deb javob bering. 7. Biz o‘z maqsadimizga erishsishni juda qattiq xohla....va unga erishish uchun juda qattiq harakat qil...., albatta, o‘z maqsadimizga erishamiz. 8. Ular soat uchgacha kelma...., biz boshqa kutmaymiz.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘ying va -sa shart mayli qo‘shimchasi qaysi gapda faraz, qaysi gapda imkoniyat, qaysi gapda shart ma’nolarini ifodalayotganini aniqlang.

1. Dars tugadi. Biz ket....maylimi? 2. Sog‘lom bo‘lishni ista....., sport bilan shug‘ullan. 3. Bu masalani boshqacha yo‘l bilan yech....bo‘ladi. 4. Sen har kuni ertalab yugur...., keyin hech ham charchamaysan. 5. Men o‘zbek tilini yanada chuqurroq o‘rganmoqchiman. Qayerdan yaxshi lug‘at top.... bo‘ladi? 6. Bu yil yoz juda issiq bol.... kerak. 7. Vaqt juda kech bo‘ldi. Endi u kelma....kerak. 8. Yaxshilab o‘ylab ko‘ril..., bu muammoni hal qil... bo‘ladi.

4-mashq. Matnni o‘qib, sarlavha qo‘ying. Tarjima qiling. Ajratilgan gaplarda -sa qo‘shimchasining ma’nosini tushuntiring.

TO‘G‘RI YO‘L

Bankey haftalab meditatsiya bilan shug‘ullanar edi. Shunday kunlarda uning yoniga butun Yaponiyadan shogirdlari kelar edi.

Mashg‘ulotlar vaqtida bir o‘quvchi o‘g‘rilik ustida qo‘lga tushdi. Shogirdlari Bankeydan “uni haydab yuboring” deb iltimos qildilar. Muallim rozi bo‘lmadi. O‘sha bola yana o‘g‘rilik bilan ushlandi. Bankey bu gal ham hech qanday chora ko‘rmadi. O‘qituvchilarining parvosizligidan xafa bo‘lgan o‘quvchilar endi unga **“agar o‘g‘rini haydamasangiz, biz ketamiz”**, deb yozma ravishda arz qildilar. Bankey arznomani o‘qib chiqib, shogirdlarini bir yerga to‘pladi-da, ularga shunday dedi: “Hammangiz aqlisiz, nima yaxshi va nima yomon ekanini yaxshi bilasiz. **Xohlagan joyingizga borib o‘qisangiz bo‘ladi**. Ammo hali nima yaxshi va nima yomon ekanligini farqlamaydigan bu bolaga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish mening burchim emasmi? **Hammangiz ketsangiz ham, u shu yerda qoladi**”.


Bu gaplar bolaga qattiq ta’sir qildi, uning ko‘zlarida yosh paydo bo‘ldi. Shu-shu u o‘g‘rilik qilmagan ekan.

(“Dzenga oid 101 hikoyat”dan)

Tinglang. Abu Ali Ibn Sino

I. So‘zlarni tarjima qiling va misollar yordamida ma’nosini tushuntiring.

Murojaat qilmoq, zehn, qo‘lga kiritmoq, ko‘zdan kechirmoq, serqirra, oid, o‘chmas, ramziy, majoziy, da’vat qilmoq, intilmoq, chaqirmaq, tadqiq qilmoq, atoqli, bayon qilmoq, vazn.



II. Savollarga javob yozing.

1. Ibn Sino qayerda tug‘ilgan?
2. U qanday fanlar bilan shug‘ullangan?
3. Ibn Sino kimning qo‘lida ta’lim olgan?
4. Ibn Sino necha yoshda tabib sifatida tanilgan?
5. Ibn Sinoni Sharqda qanday nom bilan ataydilar?
6. Ibn Sino G‘arbda qanday nom bilan mashhur?
7. Ibn Sino qayerda va qachon vafot etgan?
8. Ibn Sino qanday asarlar yozgan?
9. Urjuzalar nima degani?
10. Ibn Sinoning she’riyat nazariyasini haqidagi asarining nomi nima?

III. Berilgan gaplardan matn mazmuniga mos keladigan gaplarni ajrating.

1. Tibbiyot bilan shug‘ullanadiganlar Avitsenna kimligini yaxshi biladilar.
2. U Buxoroda tug‘ilgan.
3. U matematika, tibbiyot, astronomiya, mantiq, san’at, musiqa fanlari bilan shug‘ullangan.
4. 16 yoshida u tabib sifatida tanilgan edi.
5. U el orasida juda mashhur bo‘lgani uchun Buxoro amiri unga saroy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat berdi.
6. U har tomonlama juda iste’dodli edi.
7. Bizgacha allomaning ikki yuzdan ortiq asari yetib kelgan.
8. Sharq va g‘arbda u “Avitsenna” nomi bilan tanilgan.
9. Uning birinchi asari Qur’on syujeti asosida yaratilgan.
10. “Uyg‘oq o‘g‘li Tirik”, “Yusuf qissasi” kabi asarlari majoziy yo‘lda yaratilgan.
11. U o‘z asarlarida axloqiy xislatlarni egallashga chaqiradi.
12. U she’riyat nazariyasini juda yaxshi bilgani uchun tibbiy ko‘rsatmalarini she’riy yo‘l bilan ham ifodalagan.

Tarjima qiling.

HIPPOCRATES

Hippocrates of Cos or Hippokrates of Kos was an ancient Greek physician of the Age of Pericles (Classical Greece), and is considered one of the most outstanding figures in the history of medicine. He is referred to as the father of western medicine in recognition of his lasting contributions to the field as the founder of the Hippocratic School of Medicine. This intellectual school revolutionized medicine in ancient Greece, establishing it as a discipline distinct from other fields that it had traditionally been associated with (notably theurgy and philosophy), thus establishing medicine as a profession. However, the achievements of the writers of the Corpus, the practitioners of Hippocratic medicine, and the actions of Hippocrates himself were often commingled; thus very little is known about what Hippocrates actually thought, wrote, and did. Hippocrates is commonly portrayed as the paragon of the ancient physician, credited with coining the Hippocratic Oath, still relevant and in use today. He is also credited with greatly advancing the systematic study of clinical medicine, summing up the medical knowledge of previous schools, and prescribing practices for physicians through the Hippocratic Corpus and other works.



O'tilganlar vuzasidan topshirialar:

1. “*Qora og‘uning qora ishlari*” mavzusida esse yozing.(Matnda shart mayli konstruksiyalarini qo‘llang).

2. “-sa shart maylining qo‘llanishi” mavzusida dars-taqdimoti tayyorlang.

3B

Tayanch so‘z va iboralar: daxlsiz, ijtimoiy, e’tiqod, omil, irq, millat, shaxsiy, sog‘liqni saqlash, kamsitilish, javobgar, xotirjam, oqilona, muvofiqlik, tizim, tibbiy-irsiy, huquq, maslahatlar, qonun, aybdor, yashash hududi, xushfe’l,

kamtar, yuvosh, sho‘x, samimiy, tashqi, ichki, tonggi, himoya qilmoq, kafolatlamoq.

I. Ajratilgan so‘zlearning sinonimlarini yozing.

Sog‘lijni saqlash ***borasida***, ijtimoiy ***mavqeidan qat’i nazar***, ovqatlanishning ***oqilona*** normalari, axborot olish huquqiga ***ega***, oilaga ***taalluqli*** masalalar, oila munosabatlarining tibbiy-ruhiy ***jihatlari***, himoya qilinishi ***kafolatlanadi***, qonunda ***belgilangan tartibda***, sog‘liqqa ta’sir etuvchi ***omillar***, normalar ***xususida***, sanitariya qoidalariga ***muvofigligi*** to‘g‘risida, sog‘lijni saqlash ***ta’minlanadi***.

Matnni o‘qing.

SALOMATLIK VA HUQUQ

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari sog‘lijni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar.

Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar fuqarolarning sog‘lig‘i saqlanishini ta’minalaydi.

Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat’i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Fuqarolar sog‘liqqa ta’sir etuvchi omillar haqida, shu jumladan, yashash hududining sanitariya-epidemiologiya jihatidan xotirjamligi to‘g‘risida, ovqatlanishning oqilona normalari xususida, tovarlar, ishlar, xizmatlar, ularning xavfsizligi, sanitariya normalari va qoidalariga muvofigligi to‘g‘risida o‘z vaqtida va aniq axborot olish huquqiga ega.

Har bir fuqaro davlat sog‘lijni saqlash tizimi muassasalarida oilaga taalluqli masalalar, o‘zida ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavfli bo‘lgan kasalliklar bor-yo‘qligi yuzasidan, nikoh va oila munosabatlarining tibbiy-ruhiy jihatlari yuzasidan bepul maslahatlar olish, shuningdek, tibbiy-irsiy hamda boshqa masalalar yuzasidan maslahatlar olish va tekshiruvdan o‘tish huquqiga ega.

Har bir oila o‘ziga oilaviy shifokor tanlash huquqiga ega.

“Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”

O‘zbekiston Respublikasining qonuni

?Matn bo‘yicha topshiriqlar

I. Savollarga javob bering:

1. Nimalarni e’tiborga olmagan holda fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash davlat tomonidan ta’minlanishi zarur?

2. Davlat fuqarolarni nimadan himoya qilishi zarur?

3. Kimlar javobgarlikka tortiladi?

4. Fuqarolar qanday axborotlarni olish huquqiga egalar?

II. Matndagi Qanday? savoliga javob beruvchi so‘zlarni toping .

III. “*Daxlsiz*”, “*aybdor*”, “*oqilona*”, “*xavfsiz*” so‘zlarining antonimini toping.

IV. “*tib*”, “*irs*”, “*millat*”, “*huquq*”, “*xavf*”, “*oila*” so‘zlaridan sifat hosil qiling.

V. Matnning oxirgi abzasi bo‘yicha ikkita savol tuzing.

G R A M M A T I K A

O‘ZBEK TILIDA NARSA-BUYUMNING BELGISINI IFODALASH (Sifat)

Sifatlarning quyidagi ma’no guruhlari bor:

Xususiyat bildiruvchi sifatlat	Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Maza-ta’m bildiruvchi sifatlar	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlar	Hid bildiruvchi sifatlar	Makonzamon bildiruvchi sifatlar
xushfe'l kamtar yuvosh sho'x samimiyl ayyor rostgo'y iste'dodli nozik kasal	pushti moviy yashil zangori siyohrang sabzirang kulrang safsatrang moshrang	mazali bemaza sho'r achchiq nordon shirin sho'r ta'msiz	ulkan yirik mitti behisob uzun qisqa keng tor baland	xushbo'y muattar sassiq badbo'y	bahorgi yozgi kuzgi qishki tashqi ichki tonggi tungi bugungi hozirgi

Belgining ortiq-kamligi jihatidan farqlanish usullari (Sifat darajalari)

O‘zbek tilida belgining ortiq yoki kamligi darajasini ifodalash maxsus qo‘shimcha yoki so‘zlar vositasida ifodalanadi. Sifatlarda quyidagi darajalar mavjud:

oddiy daraja: qimmat, arzon, kechki, qishki, bahorgi, ommaviy, madaniy

qiyosiy daraja: arzonroq, aqlliroq, qorong‘iroq

orttirma daraja: juda arzon, juda(o‘ta) aqlli, girt ahmoq, qop-qorong‘i

Eslab qoling.

Sifatlarda belgining ozligini bildiruvchi *ozaytirma daraja* ham mavjud. Ushbu daraja quyidagicha hosil bo‘ladi:

- a) rang bildiruvchi sifat + ***sh (-ish), -mtir(-imtir)***: oqish, ko‘kimir, qizg‘ish, qoramtilr.
- b) rang bildiruvchi sufatdan oldin ***nim, och*** so‘zlarini keltirish bilan: nim pushti, och yashil.
- c) sifat + ***gina (-qina, -kina)*** shaklida: yaxshigina, kattagina, yumshoqqina, tetikkina.

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Matnni o‘qing. Yangi so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.
Sifatlarni topib, ularni tarjima qiling.

MUSTAQILLIK ME’MORI

Men Islom Karimovning asarlarini o‘qib, uning turli vaziyatlardagi fe'l-atvorini kizatib, qilgan ishlarini ko‘rib shunday xulosaga keldimki, bu inson hech qanday qolipni tan olmaydi, har qanday vaziyatda samimiyligini saqlab qolishga intiladi, rasmiyatçilikni jinidan battar yomon ko‘radi va har qanday sharoitda ham insoniy mantiq asosida fikr yuritib ish tutishga odatlangan. U nihoyatda zakovatli, zehni o‘tkir, har qanday chigal muammoning ham tub mohiyatini ko‘ra biladi. Xullas, ulkan siyosatchi uchun zarur bo‘lgan barcha noyob fazilatlarga ega.

Bularning yoniga jasurlik va dadillik qo'shilib, uni benihoya qat'iyatlari insonga aylantirgan. Ayni chog'da, odamlarning tabiatini yaxhi his qiladigan, ularga ishonadigan, ulardagi yashirin kuch va imkoniyatlarni kashf eta oladigan rahbar...

Men o'tgan tahlikali kunlar to'g'risida o'ylasam, Islom Karimov tabiatidagi tug'ma kurashchanlik, tug'ma qahramonlik sifatlari borligiga amin bo'laman. U yeng shimarib kurash maydoniga chiqishdan cho'chimaydi. U mag'lubiyatni yoqtirmaydi va hamisha g'alabaga intiladi. Aftidan, Prezident o'zidagi bu sifatlarni yaxshi biladi va ularni tarbiyalab, kamolga yetkazishga harakat qiladi. Men uning muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishidan xabardor edim. Yaqinda bir odam uning jismoniy mashqlarni nechog'li qunt bilan astoydil bajarishini aytib berdi. U haftada to'rt marta ikki soatdan tennis o'ynaydi, o'ynaganda ham o'zini ayamay, rosa holdan to'yguncha o'ynaydi. Raqibi bo'shashibroq harakat qilsa, "Koptokni silash emas, mana bunday urish kerak!" deb tanbeh beradi...

(Ozod Sharafiddinovdan)

2-mashq. *Nuqtalar o'rniqa qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'ying.*

1. Men hovlida yashayman. Hovlimda (kechki, yozgi,) mevalar bor. 2. Men har xil odamlar bilan suhbatlashganman. Ular ichida (aqli, kerakli, katta) odamlar ham (kuchsiz, ahmoq, tuzsiz), ... odamlar ham bor. 3. Ukam ertalab (shakarli, sutli, shakarsiz) choy ichishni yaxshi ko'radi. 4. Doktor kasalga(foydali, chiroyl, keraksiz) maslahatlar berdi. 5. Bu shartnomadan ikkala tomon ham..... (boy, manfaatdor, kuchli) 6. Shohruh universitetda juda yaxshi o'qigan, iqtisodiyot fanini juda yaxshi biladi, u kelajakda ... (foydali, ilmiy, harbiy) ish yozmoqchi.

3-mashq. *Nuqtalar o'rniqa berilgan so'zlardan mosini qo'ying:*

madaniy, sho'r, boy, kambag'al, aqli, ahmoq, milliy

1. Ovqatga tuzni ko'p solibsan, ovqating bo'libdi. 2. Do'ppi va chopon o'zbeklarning..... kiyimi. 3. O'zbekiston va Koreya o'rtasida iqtisodiy va aloqalar rivojlanyapti. 4. Amerika dunyodagi eng mamlakatdir. 5. Agar odamda muammo paydo bo'lsa, kishi muammoning sababini o'zidan izlaydi, ...

.... kishi boshqa odamlardan qidiradi. 6. Afrika mamlakatlarida aholiningqismi ko‘pchilikni tashkil qiladi.

4-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos sifatlarni qo‘ying.

Namuna: Dunyodagiyozuvlardan biri mixxat yozuvidir. – Dunyodagi **eng qadimgi** yozuvlardan biri muxxat yozuvidir.

1.Go‘dak uchun oziq ko‘krak sutidir. 2. Inson uchun hayotda salomatlik narsa yo‘q. 3. Giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish.....oqibatlarga olib kelishi mumkin. 4. Giyohvand moddalar savdosi daromad manbai hisoblanadi va bu ish bilan shug‘ullanuvchilar o‘z daromadlarini oshirish uchun hech narsadan qaytmaydilar. 5. Xiyobondaatirgullar ochilib yotibdi. 6. Akam mendan uch yosh katta bo‘lsa, ham bo‘yi menikidan..... 7. Everest dunyodagi..... cho‘qqidir. 8. Kishilarni giyohvand moddalarga o‘rgatib qo‘yish, xalqlarni o‘ziga qaram qilib olish maqsadida tekinga tarqatish BMT tomonidan insoniyatga qarshi jinoyatlardan biri deb tan olingan.

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos sifatni qo‘yib, maqollarni izohlab bering.

1. Mard bir o‘lar, – yuz o‘lar. 2. gapning to‘qmog‘i bor. 3. ...siz yangi bo‘lmas, ...siz yaxshi bo‘lmas. 4. ... odam til bilan kuydiradi. 5. daraxtning shoxi tikka. 6. toshning og‘irligi yo‘q. 7. pichoq qo‘l kesar. 8..... boydan yurt qolmas, boydan cho‘p qolmas. 9. g‘azab – o‘zingga azob. 10. o‘rtoq ham oshingni yer, ham boshingni.

6-mashq. Birikma tuzing:

Qobiliyatli	ko‘cha
baland	bo‘y
keng	ayol
tor	shim
semiz	urf-odat
ozg‘in	soch
uzun	vaqt

qisqa	vazir
kuchli	maslahat
iqtisodiy	siyosatchi
milliy	qiz
harbiy	manfaat
foyDALI	talaba

7-mashq. Insonning tashqi qiyofasini va fe'l-atvorini ifodalovchi sifatlarni yozing.

- Namuna: 1. Yuz (co'zinchoq, dumaloq, kichkina).
 2. Ijobiy xislatlar: samimiy, yumshoq, sodda; salbiy xislatlar: ayyor, xudbin.

8-mashq. Berilgan sifatlarni orttirma daraja hosil qiluvchi so'zlar qo'llamasdan belgi darajasi kuchli sinonimi bilan almashtiring.

Namuna : Baland tog‘lar – azim tog‘lar.
 katta daromad, chiroqli manzara, kichkina bola, ozg‘in yigit, yechimi qiyin muammo, kuchsiz bola, toza osmon, kuchli organizm, yomon oqibat.

🎧 Tinglang. Ibn Sino haqida rivoyatlar.

I. *So‘z va birikmalarni yozib oling va tarjima qiling. Ular ishtirokida birikmalar tuzing.*

Tizilmoq, hol-ahvol so‘ramoq, falon narsa, lom-mim demoq, umid uzmoq, loyiq ko‘rmoq, kutib yotmoq, burchak, zaharli, o‘rmalamoq, ichiga tortmoq, qayt qilmoq, darak yo‘q, o‘lsam o‘lay, simirmoq, tobora, e’tiroz bildirmoq, yegulik, iloj, qoyil qolmoq, batafsil.

II. *Savollarga javob bering.*

1. Hikoyada Ibn Sino bemorga maslahat beradimi?
2. Bemor nimalarni o‘ylaydi?
3. Bemor qanday tuzaladi?
4. Bemorning tuzalishida Ibn Sino yordam berdimi?

III. Berilgan gaplardan matn mazmuniga mos keladigan gaplarni ajrating.

- ✓ Ibn Sino uydan chiqqanda bir tomonda o‘tirgan bemorlar bilan so‘rashar edi, ikkinchi tomonda o‘tirganlarga esa qaramasdi.
- ✓ U bir bemorga kasalini aytmay o‘tib ketdi.
- ✓ Ibn Sino unga e’tibor bermagani uchun bemor juda ezildi.
- ✓ U ilon ichgan kosadan sut ichib tuzaldi.
- ✓ Ibn Sino bemorning tuzalib ketishini bilgan edi.
- ✓ Ibn Sino kasalning davosi yo‘qligi uchun uni davolamagan edi.
- ✓ Ibn Sino bemorning tuzalib ketganidan qoyil qoldi.

Tarjima qiling.

КЛЯТВА ГИППОКРАТА



Клятва Гиппократа – врачебная клятва, выражающая основополагающие морально-этические принципы поведения врача, а также общеупотребительное название клятвы.

Клятвы, формулирующие моральные нормы поведения врача, существовали ещё в Египте.

Возникновение клятвы значительно древнее времени жизни Гиппократа: согласно преданию, клятва восходит к прямым потомкам Асклепия, она переходила в устном виде как семейная традиция из рода в род. Записаная Гиппократом клятва была впервые в эллинистической Александрии при Герофиле и Эразистрате.

Первоначальный вариант был написан Гиппократом в III веке до н. э. на ионийском диалекте древнегреческого языка. Первоначальный вариант клятвы запрещал врачу содействовать аборту (“я не вручу никакой женщине abortивного пессария”) и самоубийству (“Я не дам никому просимого у меня смертельного средства и не покажу пути для подобного замысла...”).

С тех пор текст клятвы многократно переводился на новые языки, подвергался редактированию, существенно меняющим его смысл.

Для своего времени она была очень большим достижением, задавая высокую нравственную планку. Поэтому не случайно, что в христианском мире она все-таки была принята – с поправками и изменениями. Начало меняется: “Да будет благословен Бог, Отец Господа нашего Иисуса Христа, который благословен во веки веков; я не лгу”.

По сообщениям прессы, в Северной Америке и Европе в 2006 г. текст клятвы заменён “профессиональным кодексом”. По мнению авторов нового документа, текст, предложенный греческим врачом ещё две с половиной тысячи лет назад, совершенно не отражает реалий сегодняшнего дня. “Во времена Гиппократа не было таких важных принципов работы медиков, как уважение к другим специалистам и право пациента на собственный выбор. Кроме того, врачи того времени не сталкивались с постоянными подозрениями в непрофессионализме со стороны общества,ластей и журналистов”. В новом тексте исключены требования по неучастию в abortах, хирургическом лечении каменной болезни и корректному обращению с рабами.

“Клятва” содержит 9 этических принципов или обязательств:

- обязательства перед учителями, коллегами и учениками;
- принцип непричинения вреда;
- обязательства оказания помощи больному (принцип милосердия);
- принцип заботы о пользе больного и доминанты интересов больного;
- принцип уважения к жизни и отрицательного отношения к эвтаназии и abortам;

обязательство об отказе от хирургического вмешательства;
обязательство об отказе от интимных связей с пациентами;
обязательство личного совершенствования;
врачебная тайна (принцип конфиденциальности).

Начиная со Средневековья из оригинала клятвы Гиппократа вырезают 10-й принцип, запрещающий врачевание раба без согласия хозяина.

O‘tilganlar yuzasidan topshriqlar:

“*Sog‘ tanda sog‘lom aql*” mavzusida matn yozing.

“*Mening qahramonim*” mavzusida badiiy asar qahramonini tavsiflab va tasvirlab bering. (*Masalan, Otabek, Kumush, Onegin, Bolkonskiy kabi*).

3D

Tayanch so‘z va iboralar: kurash, yakkama-yakka olishuv, o‘zbek turmush tarzi, halol, harom, chala, g‘irrom, polvon, ko‘rkam, yutmoq, yengilmoq, chil bermoq, shiddat, bellashmoq, so‘rashmoq, sakramoq, sapchimoq, olishmoq, hayqirmoq, chalmoq, noyob topilmalar, ommalashgan, dovrug‘, xalqaro musobaqa, o‘zbek kurashi, murabbiy, g‘olib chiqmoq, sovrindor.

Qavsni ochib, birikmalar tuzing.

Qoida (muvofig) bellashmoq, qadim zamon (beri/buyon) ma’lum, irodali (qilmoq) tarbiyalash, kurash (shug‘ullanmoq) ruxsat etmoq, shu davr (mansub) topilmalar, raqib (qutulmoq) chorasi.

Matnni o‘qing.

O‘ZBEK KURASHI

Kurash — sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish san’ati ko‘p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma’lum.

Keyingi yillarda o‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqqosida tan olina boshladi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug‘ullanishga ruxsat etiladi. Kurashazaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganidan dalolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo‘yish yo‘li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo‘lgan. Bunga o‘zbek xalq qahramonlik dostoni – "Alpomish"dagi Barchin shartlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yozgan: "Kurashning turlari ham bir necha xil. Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi...". Bu ta’rif zamonaviy kurash qoidalariga yaqindir.

Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk", Alisher Navoiyning "Hamsa", "Holoti Pahlavon Muhammad", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'", Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomayi sultoniy", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida kurash haqida qimmatli ma'lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalq o‘rtasida keng ommalashgan. Shu davrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon kabilar kurash dovrug‘ini oshirishgan.

2000-yilda O‘zbekistonda kurash oyligi o‘tkazildi. Bu oylik davomida 2 mln.ga yaqin kishi kurash gilamiga chiqdi. Buyuk Britaniyada IKA faxriy prezidenti Islom Karimov nomidagi an'anaviy xalqaro musobaqaga asos solindi. 2001-yildan Xalqaro kurash instituti (Toshkentda) faoliyat ko‘rsata boshladi. IKA ga 66 ta milliy federatsiya a’zo bo‘lib kirdi. Yevropa, Osiyo, Panamerika va Okeaniya

kurash konfederatsiyalari tuzildi. Hozirgi paytda o‘zbek kurashi bilan xorijiy mamlakatlarda 600 mingdan ziyod kishi shug‘ullanadi. Kurashning bu turi bo‘yicha jahon, qit’a va mamlakatlar championatlari hamda birinchiliklari, O‘zbekistonda at-Termiziy, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlangan va boshqa ko‘plab xalqaro musobaqalar muntazam o‘tkaziladi. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda 22 ta olimpiyada o‘rinbosarlari maktabi, 37 ta bolalar va o‘smirlar sport maktabi hamda 206 ta kurash maktabida o‘quvchilar sportning bu turi bo‘yicha tahsil oladilar. Oliy o‘quv yurtlarida 100 dan ortiq kurash to‘garaklari faoliyat ko‘rsatadi. Kurashchilar bilan 851 nafar murabbiy shug‘ullanadi. Osiyo Olimpiya Kengashi 2003-yilda kurashning bu turini Osiyo o‘yinlari dasturiga kiritdi.

? Matn bo‘yicha topshiriqlar:

Savollarga javob bering:

Kurash nima uchun dunyo miqyosida tan olindi?

Arxeologik topilmalar orqali qanday ma’lumotlar olindi?

Qadimda kurashning ahamiyati katta bo‘lganligini isbotlovchi qanday dalillar bor?

Hozirgi kunda kurash sportining dunyo miqyosida ommalashib borayotganiga qanday dalillar keltirish mimkin?

Berilgan so‘zlarning sinonimini topib birikmalar tuzing:

Epchil, chidamli, ruxsat etmoq, topilmalar, oid, chalmoq, aks ettirmoq, umr kechirmoq, raqib, dovrug‘ni oshirmoq, asos solmoq, muntazam, tahsil olmoq, faoliyat ko‘rsatmoq.

Berilgan gaplarni alohida ikkita gaplarga ajrating.

Namuna: Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. – ***Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lgan. Bu ma’lumotni arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar ham tasdiqlaydi.***

Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganidan dalolat beradi.

Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar.

**NARSA-BUYUM, SHAXS BELGISINING HARAKAT YORDAMIDA
IFODALANISHI**
(Sifatdosh)

Sifatdosh otning belgisini harakat yordamida bildiradi, zamonni ifodalash xususiyatiga ega:

1. O‘tgan zamon sifatdoshi quyidagi shaklda bo‘ladi:

Fe’l + -gan (-kan, -qan)

Masalan: *kelgan mehmon, so ‘zlagan yigit.*

2. Hozirgi zamon sifatdoshi:

Fe’l + – (a)/yotgan

Masalan: *Yog ‘ayotgan yomg‘ir, oqiyotgan bola.*

3. Kelasi zamon sifatdoshi:

Fe’l + -(a/y)digan// -r/ar

Masalan: *Boradigan joy, ishlaydigan xona, turar joy.*

Sifatdoshning zamon ko‘rinishi

O‘tgan zamon

Men o‘qigan kitob – o‘qigan kitobim

Sen o‘qigan kitob – o‘qigan kitobing

U o‘qigan kitob – o‘qigan kitobi

Biz o‘qigan kitob – o‘qigan kitobimiz

Siz o‘qigan kitob – o‘qigan kitobingiz

Ular oq’igan kitob – o‘qigan kitobi

Hozirgi zamon

Men o‘qiyotgan kitob – o‘qiyotgan kitobim

Sen o‘qiyotgan kitob – o‘qiyotgan kitobing

U o‘qiyotgan kitob – o‘qiyotgan kitobi
Biz o‘qiyotgan kitob – o‘qiyotgan kitobimiz
Siz o‘qiyotgan kitob – o‘qiyotgan kitobingiz
Ular o‘qiyotgan kitob – o‘qiyotgan kitobi

Kelasi zamon

Men o‘qiydigan kitob – o‘qiydigan kitobim
Sen o‘qiydigan kitob – o‘qiydigan kitobing
U o‘qiydigan kitob – o‘qiydigan kitobi
Biz o‘qiydigan kitob – o‘qiydigan kitobimiz
Siz o‘qiydigan kitob – o‘qiydigan kitobingiz
Ular o‘qiydigan kitob – o‘qiydigan kitobi

Sifatdosh otlashadi: **O‘qigan** hamma narsani biladi. Bu holatda sifatdosh bog‘langan ot gapda tushib qoladi. Masalan: **O‘qigan (narsa)laringizni** gapiring.
Otlashgan sifatdosh egalik va kelishik qo‘shimchalarini oladi:

Fe’l +**gan-im, -ing,-miz,-imiz,-ingiz,-lari+ning,-ni, -ga,-da, -dan**

Namuna:

Kirganimni hech kim sezmadni.
Kirganingni men sezmadim.
Do‘stim kelayotganini eshitdim.
Kirganimizni hamma sezdi.
Kirganingizni hamma sezdi.
Ularning kirganini sezmadim.
Sizni ko‘rganimdan xursandman.

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar

1-mashq. *Qavs ichidagi harakatni belgiga aylantiring.*

Namuna: (ko'rsatilmoq) faoliyat – ko'rsatilgan faoliyat (topmoq) sopol idishlar, (ommaviy lashmoq) sport turi, (kurashmoq) ikki polvon, (hayot kechirmoq) sak qabilasi, (XXV asrda yaratmoq) asar, (prezident asos solmoq) musobaqa, (sport məktəbida təhsil olmoq) sportçular, (muntazam o'tkazilmoq) musobaqalar, (faoliyat ko'rsatmoq) to'garaklar.

2-mashq. *Qavs ichidagi fe'llarni kerakli sifatdosh shaklida yozing.*

Namuna: **Men (oqi) kitob qiziq ekan.** **Men o'qigan kitob qiziq ekan.**

1. (Yog') yomg'ir kechqurun to'xtadi. 2. Ko'p (o'qi) odam ko'p biladi. 3. Bu shaharga birinchi marta keldim. Tanishlarim, (yasha) joyim yo'q. 4. Men senga hozir biz oldin (yasha) uyni ko'rsataman. 5. (Tuz) gaplaringizni o'qing. 7. Men va do'stim ustida (ishla) loyiha juda qiziqarli. 8. Siz meni tanishtirmoqchi (bo'l) odam shumi? 9.(Ishla) joyingni menga ayt, men bilishni istayman. 10. Iltimos, men senga o'tgan hafta (ber) kitobimni qaytarib ber.

3-mashq. *Qavs ichidagi sifatdoshlarni zarur kelishik qo'shimchalari bilan yozing.*

Namuna. *Kechiring, siz (kir) sezmabman.* *Kechiring, siz kirganingizni sezmabman.*

1.U bir oyda qancha (pul sarfla) hozir unutdi. 2. Siz bilan yana (uchrash) juda xursandman. 3. O'zbekistonga mashhur fransiyalik estrada qo'shiqchisi (kel) eshitdingmi? 4. Testga yaxshi (tayyorlan) uchun juda xotirjamman. 5. Boshliq buyurgan ishni vaqtida (bajarma) uchun u xayfsan oldi. 6. Uydan (chiq) soat endi 7.30 bo'lgan edi.7. Ibn Sino badiiy asarlar ham (yozi) bilasizmi? 8. Bemor (tuzal) juda xursand edi.

4-mashq. *Matnni o'qing. Qavslarni ochib, fe'llarni sifatdosh shaklida qo'llang.*

CHEMIONNI YUTDI

Shaxmat bo'yicha jahon championi Steynis Angliyada yashaganida pulsizlikdan (qiynalmoq) uchun "Gambit" qahvaxonasida shaxmat o'ynab pul topar edi. Bir kuni u har bir (yutqazmoq) partiya uchun bir funt sterling (to'lamoq) saxiy raqibni topib oldi. Bu odam shaxmatni juda yaxshi ko'rardi va jahon championi bilan shaxmat (o'ynamoq) xursand edi. Steynis unga oldindan otni tekinga berar va har gal yutar edi. Evaziga esa yaxshi haq olardi.

Steynisning do'stlaridan biri unga shunday dedi: "Agar har gal (yutavermoq), bunday foydali raqibdan ajrab qolishing mumkin, shuning uchun ba'zan yutqazish ham zarar qilmaydi". Bu gap Steynisga yoqdi. "Ha, do'stim tog'ri maslahat berdi" deb o'yladi.

Navbatdagi o'yinlardan birida jo'rttaga farzinni tekinga berdi va (yutqazmoq) tan oldi. Keyin yana o'ynash uchun shaxmat donalarini tera boshladi. Lekin shu payt uni(yutmoq) raqibi o'rnidan sakrab turib, xursand qichqirdi:

– Men championni yutdim! Niyatimga yetdim!

U shunday deb ko'chaga yugurib chiqib ketdi va boshqa hech qachon "Gambit" qahvaxonasiga qaytib kelmadi.

("Sharq yulduzi" jurnaldan)

5-mashq. Birinchi ustundagi gaplarni ikkinchisiga qo'shing va sifatdoshli birikmalarga aylantirib yozing.

Namina: O'qituvchi vazifa berdi. Bu vazifa qiyin ekan. – O'qituvchi bergen vazifa qiyin ekan.

1. Sen menga bu kitobni o'qishni maslahat bergen eding.	1. Kitob qiziq ekan.
2. Biz oldin shu uyda yashaganmiz.	2. Uy katta edi.
3. Amir Temur buyuk kuchli sultanatga asos soldi.	3. Bu sultanat 35 yil yashadi. 4. Bunday yoshlar sog'lom bo'ladilar.

4. Yoshlar spori bilan shug‘ullanishlari kerak.	5. Stadion uning uyiga yaqin.
5. Zuhra ertaga stadionga bormoqchi.	6. Ulardan foydalanish kerak.
6. Mustaqillik yoshlarga katta imkoniyatlar berdi.	7. Ular mening kursdoshlarim.
7. Sahnada qizlar raqs tushyaptilar.	8. Ularni qaytarishim kerak.
8. Kutubxonadan kitoblar olganman.	9. Bunday odamning xotirasi kuchsiz bo‘lib qiladi.
9. Giyohvand modda iste’mol qilish xotira uchun xavfli.	10. Bu ko‘cha keng.
10. Universitetimiz Istiqlol shohko‘chasida joylashgan.	

⌚ *Tinglang. Qahramonlik qo‘shig‘i.*

I. Quyidagi sifatdoshli birikmalarga mos sifatlarni yozing:

Namuna : Sevib ardoqlaydigan pahlavonlarimiz – sevimli, ardoqli

El-yurt uchun jonini ayamaydigan qahramonlar -.....

Odamgarchiligi baland bo‘lgan inson –

Qo‘rqishni bilmaydigan, aytganining ustidan chiqadigan odam -.....

G‘irromlikka o‘rganmagan, qing‘ir yo‘lga kirmaydigan, birovni aldamaydigan, o‘z mehnati bilan yashaydigan inson -.....

Chin qalbdan biror ishga berilgan inson –

Biron tomonga yon bosmasdan, qonun yuzasidan haqqoniy ish tutadigan inson –

II. Qavslarni ochib gaplar tuzing.

Millat (qahramon), qudrat (munosib bo‘lmoq), qahramonlik (intilmoq) , mardlik ruhi (tarbiyalamoq), millat (namoyon qilmoq), maqsad (yetishmoq), ezgu

fazilatlar (ifoda topmoq), balo-qazo (asramoq), qilmoq (qodir), vatan qo‘riqlamoq (o‘rgatmoq), yomon ko‘z (asramoq).

III. Savollarga javob bering :

1. Afsonaviy qahramonlar biz uchun nimaning timsoli hisoblanadi?
2. Xalq o‘z farzandlarini qanday ruhda tarbiyalab kelgan?
3. “Alpomish” qanday doston?
4. Barchin alplarga qanday shartlar qo‘yadi?
5. “Alpomish” dostoni nimaga o‘rgatadi?
6. Alp o‘g‘lonlar deganda kimlarni tasavvur qilasiz?

IV. Gaplarni to‘ldiring.

1. Adolat o‘rnatish uchun.....
2. Maqsadga yetish uchun....
3. Yoy tortsa, men tegaman shul yoyondoz polvonga.
4. Kurash qilib,, men tegaman nor bilakli polvonga.
5. Bu asarda o‘z ifodasini topgan.
6. Alpomish timsolida biz..... -ni ko‘ramiz.

Tarjima qiling:

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ОЛИМПИЙСКИХ ИГР

По неоспоримым приметам появление Олимпийских игр относится к IX веку до н. э. В те времена тяжелые войны разоряли греческие государства.

Ифит – царь Элиды, небольшого греческого государства, на территории которого находится Олимпия – отправляется в Дельфы, чтобы посоветоваться с оракулом, как он, царь маленькой страны, может уберечь свой народ от войны и грабежа. Дельфийский предсказатель, пророчества и

советы которого считались непогрешимыми, посоветовал Ифиту: "Нужно, чтобы ты основал Игры,годные богам!"

Ифит без промедления отправляется на встречу со своим могущественным соседом – царем Спарты **Ликургом**. Очевидно, Ифит был хорошим дипломатом, так как Ликург решает, что отныне Элида должна быть признана нейтральным государством. И все маленькие раздробленные государства, бесконечно воюющие друг с другом, соглашаются с этим решением. Тотчас Ифит, чтобы доказать свои миролюбивые стремления и отблагодарить богов, учреждает "атлетические Игры, которые будут проходить в Олимпии каждые четыре года". Отсюда и название их – Олимпийские игры. Это произошло в 884 году до н. э. Так в Греции установился обычай, по которому раз в четыре года в разгар междуусобных войн все откладывали оружие в сторону и отправлялись в Олимпию, чтобы восхищаться гармонично развитыми атлетами и славить богов.

Олимпийские игры стали событием общегреческим, объединившим всю Грецию, в то время как до и после них Греция являла собой множество разрозненных, враждующих между собой государств.

Через некоторое время грекам пришла идея учредить единый календарь Олимпийских игр. Было решено проводить Игры регулярно каждые четыре года "между жатвой и сбором винограда". Олимпийский праздник, состоявший из многочисленных религиозных церемоний и спортивных состязаний, проводился сначала в течение одного дня, затем – в течение пяти дней, а позже продолжительность праздника достигала целого месяца. Когда праздник продолжался только один день, он обычно устраивался в восемнадцатый день "священного месяца", начинавшегося с первого полнолуния после летнего солнцестояния. Праздник повторялся каждые четыре года, которые и составляли "*олимпиаду*" – греческий олимпийский год.

O'tilganlar yuzasidan topshiriqlar:

1. Biror sport turi haqida matn yozing.
2. Sifatdoshlar qatnashgan xalq maqollari va iboralarga 10ta misol toping.

Namuna: Bilmaganni so'rab o'rgangan olim.



O'zingizni tekshiring

1. Nuqtalar o'rniغا kerakli sifatdosh qo'shimchasini qo'ying.

Yog'.... yomg'ir kechqurun qorga aylandi.

- A. – gan
- B. – yotgan
- C. – uvchi
- D. – ar

2. Harakat ning bajarilish sharti qaysi gapda ifodalangan?

- A. Mehmonlar bugun kelmasa kerak.
- B. Ko'p o'qisang, ko'p bilasan.
- C. Darsga kechikmang.
- D. Zulfiyaga ayt, menga qo'ng'iroq qilsin.

3. Qaysi qatordagi birikmalarda belgining darajasi orttirib ko'rsatilgan?

- A. oqish yuz, nim pushti mato, och yashil ro'mol
- B. top-toza xona, o'ta nafis tasvir, nihoyatda ta'sirli asar
- C. silliq soch, oriq echki, uyatchan qiz
- D. past ball, ezma odam, yalqov bola

4. Qaysi qatorda faqat insonni ta'riflovchi sifatlar keltirilgan?

- A. rahmdil, oliyanob, cho'rtkesar, qiziqqon

- B. halol, harom, qaysar, vahshiy
- C. erinchoq, shoshqaloq, ayyor, yuvosh
- D. baqaloq, oriq, erka, mitti

5. *Qaysi qatorda asosan hayvonlarga nisbatan ishlataladigan sifatlar keltirilgan?*

- A. muloyim, silliq, seryung
- B. urg‘ochi, pahmoq, momiq
- C. oriq, semiz, nozik, chaqqon
- D. mitti, beso‘naqay, yuvosh

6. *Qaysi gapda taxmin ma’nosi ifodalangan?*

- A. Sen rozi bo‘lsang, bu ishni birga bajaramiz.
- B. Derazadan qarasam, ko‘chada qor yog‘yapti.
- C. Soat 9 dan 20 ta o‘tdi. Endi Manzura darsga kelmasa kerak.
- D. Kirsam maylimi?

7. *Qaysi gapda shart ma’nosi ifodalandan?*

- A. Sen kelganda, men uyda emas edim.
- B. Men aytsam bo‘ladimi?
- C. Ertalab kelsam, hech kim yo‘q ekan.
- D. Kecha kelganingda edi, qiziq ma’ruza eshitar eding.

8. *Qaysi qatordagi gapda belginining kuchsiz darajasi berilgan?*

- A. Munavvarning yuzi oppoq, ko‘zлari katta-katta.
- B. Moviy osmonda bulutlar suzib yuribdi.
- C. Atrof qop-qorong‘i, hech narsani ko‘rib bo‘lmaydi.
- D. Lolaning sochlari sarg‘ish rangda.

9. *Nuqtalar o‘rniga mos qo‘sishimchalarni qo‘ying.*

Agar sen kecha kel..., bugun hech qanday muammo bo'l...

- A. -sang; -maydi;
- B. -sang edi; -masdi;
- C. -sang edi; -madi;
- D. -ganingda; -ardi;

10. *Qaysi qatorda shart ma'nosi ifodalangan?*

- A. Agar kelsa,..
- B. Kelsa kerak.
- C. Kelsa edi..
- D. Kelsa ekan..

11. *Berilgan gapning o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilingan shaklini toping.*

Этот мальчик, приходивший в библиотеку почти каждый день, казался всем странным...

- A. Deyarli har kuni kutubxonaga keladigan bu bola hammaga g'alati ko'rinardi.
- B. Kutubxonaga har kuni kelgan bu bola juda g'alati ko'rinardi.
- C. Deyarli har kuni kutubxonaga kelayotgan bu bola hammaga g'alati ko'rinardi.
- D. G'alati ko'ringan bu bola deyarli har kuni kutubxonaga kelardi.

12. *Berilgan gapning to'g'ri tarjimasini toping.*

Это первое сочинение, которое он написал на английском языке.

- A. Bu uning ingliz tilida yozgan birinchi inshosi.
- B. Bu birinchi insho, qaysiki u ingliz tilida yozgan.
- C. Bu birinchi insho u ingliz tilida yozdi.
- D. Ingliz tilida yozilgan bu insho uning birinchi inshosi.

13. Berilgan matnning to‘g‘ri tarjimasi berilgan qatorni toping.

«Однажды врач сказал одному больному: смотри, нас трое – я, ты, болезнь. Если ты будешь на моей стороне, нам двоим будет легче одолеть ее одну...»

- A. Bir kuni shifokor bir kasalga; “Qara, biz uchalamiz – men, sen va kasallik. Agar sen menin mening tomonimda bo‘lsang, biz ikkalamiz uni yengishimiz oson bo‘ladi”, debdi.
- B. Bir kuni shifokor bir kasalga dedi:”Ko‘rgin, biz uchtamiz – men, sen va kasallik. Agar sen men tomoniga bo‘lasan, uni yengish oson bo‘ladi.”
- C. Bir kuni shifokor bir kasalga dedi: “Qara, biz uchta – men, sen, kasallik. Agar sen men tomoniga o‘tding, uni yengish oson bo‘ladi”.
- D. Bir kuni shifokor bir kasalga: “Qara, biz uchalamiz – men, sen va kasallik. Agar sen menin mening tomonimda bo‘lganiningda edi, biz ikkalamiz uni yengishimiz oson bo‘lardi”, – debdi.

4-DARS

KUCH BILIM VA TAFAKKURDA

4A

Tayanch so‘z va birikmalar: xalqaro miqyosdagi o‘quv dargohi, bilimlar ramzi, oliy ta’lim, amaliy maktab, devonxona, ommaviy axborot vositalari, ko‘paymoq, obro‘ga ega bo‘lgan universitet, universitetlar birlashmasi, inqilob, ta’lim yo‘nalishi , ma’muriy, baravar, obro‘, obro‘ga ega bo‘lgan universitet

1. Quyidagi gap qoliplari ishtirokida gaplar tuzing:

1.nafaqat, balki.....
2. , deb hisoblanadi.

3. sababli,
4.-ga ega.
5.kabilarni o‘z ichiga oladi.
6.-shi / -gani bilan ajralib turadi.
7.-ning tarkibiga –lar kiradi.

Matnni o‘qing.

SORBONNA



“Sorbonna” nomi avvaldan boshlang‘ich bilimlar ramzi va nafaqat fransuz, balki butun Yevropa klassik ta’limotining etaloni hisoblanadi. U shunchaki oddiy bir universitet emas, bir necha universitetlar birlashmasidir.

Sorbonna – Yevropadagi qadimiy universitet. U 1215-yilda ochilgan. Sorbonna xalqaro miqyosdagi o‘quv dargohidir. Undagi to‘rtta ilohiyot, huquq, tibbiyot va san’at fakultetlarida fransuzlar va inglizlar bilan bir qatorda pikardiylar va normandiyaliklar ham tahsil olishgan.

Vaqt o‘tishi bilan Sorbonna kengayib borgan. XVII asrda kardinal Rishelye Sorbonna ni yangilagan va kengaytirgan, ammo 1789-yilgi Fransuz inqilobi sababli u 1791-yilda yopilgan. 1821-yilda universitet qayta ochilgan.

Sorbonna da turli yillarda Jozef Gey-Lyussak, Antuan Lavuarye, Lui Paster, Pyer va Maria Kyuri kabi mashhur olimlar ishlaganlar.

1972-yilda Sorbonna yoki Parij universiteti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bir-biridan farq qiluvchi o‘n uchta universitetga qayta bo‘lingan. Ularning to‘rttasi, asosan, Parij va Ilde-Fransda, Sorbonnaning tarixiy binolarida, qolganlari esa Parijning boshqa kvartallari va shaharchalarida joylashgan.

Tarixiy binolarda joylashgan universitetlar: Parij I yoki Panteon – Sorbonna; Parij III (Yangi Sorbonna), Parij IV (Parij Sorbonna) va Parij V (Rene Dekart nomidagi universitet)dir. Ular yagona infratuzilmaga ega(masalan, barchasi uchun

bir bo‘lgan universitetlararo kutubxonasi), shuningdek, umumiy ma’muriy va o‘quv birlklari – oliy ta’limning amaliy maktabi, xartiyalarining milliy maktabi, Parij universitetlarining devonxonasi va Akademik rektoratni ham o‘z ichiga oladi.

Panteon-Sorbonna. Uning ikkinchi nomi **Parij I** bo‘lib, Panteon maydonida joylashgan. Bu yerda 40 mingga yaqin talaba o‘qiydi. Universitet o‘z ichiga huquq, iqtisodiyot, san’at va arxeologiya tarixi, xalqaro va Yevropa munosabatlari, geografiya, tarix, falsafa, siyosat, ijtimoiy fanlar, matematika va informatika fakultetlarini oladi.

Yangi Sorbonna yoki bo‘lmasa, **Parij III** deb nomlanuvchi universitet Sorbonna ko‘chasida joylashgan bo‘lib, oldingilaridan kichkinaligi va ijtimoiy fanlarga yo‘nalganligi bilan ajralib turadi. U 1253-yilda tashkil topgan. Yigirma mingga yaqin talaba bu yerda fransuz va lotin tili va adabiyoti, umumiy va amaliy til va fonetika, umumiy va qiyosiy adabiyot, fransuz tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish, nemis tili, ingliz tili, ispanistika va Lotin Amerikasi davlatlari, Italiya va Ruminiya davlatshunosligi, sharqshunoslik va arabistika, teatrshunoslik, kinoshunoslik, ommaviy axborot vositalari kabi fanlarni o‘rganadilar.

Parij-Sorbonna universiteti, boshqacha aytganda, **Parij IV** Viktor Kuzen ko‘chasida joylashgan. Bu yerda 25 mingdan ortiq talaba o‘qiydi. Bu o‘quv maskanida fransuz adabiyoti, fransuz, lotin, grek, ingliz, italyan va rumin kabi tillar, shuningdek, slavistika, ispanistika, tarix, geografiya, musiqa va musiqashunoslik hamda amaliy gumanitar fanlar o‘qitiladi.

Va nihoyat, **Rene Dekart nomidagi universitet**, ya’ni **Parij V** Ekol de Medsin ko‘chasida joylashgan. Talabalar soni – 30 ming nafar. Universitet tarkibiga biomeditsina fakulteti va bo‘limlari, shuningdek, bolalar kasalliklari, tish xirurgiyasi, jismoniy tarbiya va sport, farmatsevtika va biologiya, matematika va informatika, gumanitar va ijtimoiy fanlar, psixologiya, huquq fakultetlari kiradi.

Sorbonna kutubxonasi birinchi marta 1770-yil 3-dekabrda ishga tushurilgan. O‘sha paytda uning fondida yigirma ming tom kitob bor edi. 1997-yilga kelib kitoblar soni uch baravar ko‘paydi.

Sorbonna universitetlari butun jahonda katta obro‘ga ega bo‘lgan universitetdir.

? Matn bo‘yicha topshiriqlar:

1. Savollarga javob bering.

- Sorbonna universiteti qachon tashkil etilgan?
- Sorbonna universitetida qanday fanlar o‘qitiladi?
- Universitet qachon qayta bo‘lingan?
- Sorbonnaning tarixiy binosida qaysi universitetlar joylashgan?
- Sorbonna kutubxonasi haqida qanday ma’lumotlarga ega bo‘ldingiz?
- Dunyoning yana qanday mashhur universitetlarini bilasiz?

2. Xato gaplarni to‘g‘rilang.

1. XVIII asrda kardinal Rishelye Sorbonnani yangilagan va kengaytirgan, ammo 1789-yilgi Fransuz inqilobi sababli u 1791-yilda yopilgan.
2. 1972-yilda Sorbonna yoki Parij universiteti 15 ta universitetga qayta bo‘lingan.
3. Panteon-Sorbonnada yigirma mingga yaqin talaba o‘qiydi.
4. Yangi Sorbonna o‘zining kattaligi va aniq fanlarga yo‘nalGANI bilan ajralib turadi.
5. Rene Dekart nomidagi universitet fondida hozir yigirma mingta kitob bor.
6. Parij IVda talabalar soni Parij IIIdagiga qaraganda 5000 marta ko‘p.
7. 1997-yilda Sorbonna kutubxonasi fondida oltmisht mingdan ziyod kitob bor edi.
8. 1215-yilda ochilgan Sorbonna universiteti qariyb 500 yildan ortiq faoliyatidan so‘ng inqilob sababli yopilgan.
9. Sorbonna da eng ko‘p talabalar Parij Ida ta’lim oladilar.
10. Parij III va IVda tilshunoslik sohasi bo‘yicha ta’lim beriladi.

GRAMMATIKA

O'ZBEK TLIDA NARSA-BUYUMMING SON-SANOQ'I

VA TARTIBINING IFODALANISHI

(Son)

Son predmetning miqdori va sanoqdagi tartibini bildiradi. Shunga ko‘ra 2 xil bo‘ladi: **sanoq sonlar va tartib sonlar.**

1- bir birinichi

Tartib son unlidan keyin *-nchi* va undoshdan keyin *-inchi* qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi.

Sanoq sonning turlari:

1. Miqdor son. Hech qanday qo'shimchalarsiz ishlatalib, narsaning miqdorini bildiradi: *ikki talaba, besh qavatli*. Miqdor sonlar hisob so'zlar bilan ham ishlataladi. Hisob so'zlar hajm-o'lchovni bildiruvchi ot turkumidagi so'zlardir. Masalan: *kilogramm, hovuch, tilim, bo'lak, dasta, bosh, chaqmoq, chimdim...*

2. Dona son. Narsaning donalab sanalgan miqdorini bildiradi. Hosil bo‘lishi: son+**ta** – *to ‘qqizta, yigirmata*

son + **dona**, *nafar* – *ikki dona*, *olti nafar*

3. Jamlovchi son. Jamlangan miqdorni bildiradi. Hosil bo‘lishi:

son+ ala; to 'rtala

son+ov; beshov

son+ovlon; ikkoylon

☞ **Eslab qoling:** ikki, olti, yetti sonlariga ushbu qo‘shimchalar qo‘shilsa, **i** tovushi tushib qoladi.

Illi, olti, yetti+-**ov**, -**ala**, -**ovlon**-*oltov*, *ikkala*, *yettovlon*

Bu qo'shimchalar qo'shiladigan sonlar: **1,2,3,4,5,6,7,10**

4. Chama son narsaning taxminiy middorini bildiradi.

Hosil bo‘lishi:

son+tacha: o'ntacha

son+lab: *yuzlab, minglab*

son+larcha: *milliardlarcha*

son+larda: *to ‘rtlarda*

sonlarni juftlash orqali: *uch-to ‘rt*

Chamasi, taxminan so‘zlari yordamida: *chamasi soat 4 da.*

5. Taqsim sonlar:

Miqdorni taqsimlab ifodalaydi:

Hosil bo‘lishi: son + **tadan:** *ikkitadan bo‘lib berdi.*

Dona-son takroridan: uchta-uchta

6. **Butun sonlar** bo‘linmagan miqdorni bildiradi: *o ‘n, yigirma besh*

7. **Kasr sonlar** butunning qismini bildiradi

Hosil bo‘lishi:

1. son+**dan – beshdan uch**
2. *son + taqsim + son – bir taqsim ikki (yarim)*
3. *maxsus so‘zlar orqali – yarim, chorak, nimchorak*

Namuna:

uchdan bir	yoki	bir taqsim uch	1/3
uchdan ikki	yoki	ikki taqsim uch	2/3
to‘rtadan uch	yoki	uch taqsim to‘rt	3/4
beshdan ikki	yoki	ikki taqsim besh	2/5

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga tegishli sonlarini qo‘ying.

1. Biz oilada.....kishimiz.
2. Dunyo xalqlaritilda so‘zlashadilar.
3. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiyilda tashkil qilingan.
4. Yer yuzining.....qismi suv bilan qoplangan.
5. Abdulla Qodiriyto‘laqonli o‘zbek

romani muallifidir. 6. Bugun ertalab soat nechada turganim esimda yo‘q, soat taxminan.....edi. 7. BMTning.....ishchi tili bor. 8. Buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy.....yilda tug‘ilgan. 9. O‘zbekiston... yilda mustaqillikka erishgan. 10. “Xamsa”.....dostondan iborat bo‘ladi. 11. 2009-yil Toshkentning ... yilligi nishonlandi. 12. . Bir kun ... soat. 13. marta o‘lchab... marta kes. 14. O‘zbekiston avtomobil ishlab chiqarish bo‘yicha dunyoda – o‘rinda turadi.

2-mashq. *Sonlarning yozilishidagi xatolarni toping va ularni to‘g‘ri shaklda yozing.*

1. Sorbonna ning to‘rta universiteti Parij va Ilde-Fransda, Sorbonnaning tarixiy binolarida joylashgan, qolganlari – Parijning boshqa kvartallari va shaharchalaridadir.
2. Do‘stim bilan ikkialamiz bolalikdan birga o‘sganmiz.
3. Testlar qiyin edi, lekin Katya, men va Rustam uchchalamiz yuqori ball oldik.
4. O‘zbekiston Milliy universiteti 1918 yilda tashkil qilingan.
5. O‘zbekiston oltin qazib chiqarish bo‘yicha dunyoda 7-nchi o‘rinda turadi.
6. Guruhimizdagи sakkizala talaba turli viloyatlardan kelgan.
7. Zalda ikki yuzlab talaba yig‘ildi.
8. Kutubxonadan har xil fanlarga oid o‘n ikki kitoblarni oldim.

3-mashq: *Sonlarni so‘z bilan yozing.*

1441, ¾, 4,5, 2016, 1534, 2171, 72, 62, 879, 1, 03.

4-mashq. *Nuqtalar o‘rniga mos hisob so‘zlarni qo‘ying.*

1. U qopdan bir..... pista olib, cho‘ntagiga soldi.
2. 20 talaba yozgi imtihonni muvaffaqiyatli topshirdi.
3. Bir non bilan uzum yedim.
4. Choyga bir limon solsangiz, juda xushb’oy bo‘ladi.
5. Bir burun sochsang, hafta burun o‘rasan.

6. Ming ... o‘yla, bir.... so‘yla.
7. Bir yigit qirq..... bino bo‘lur.
8. Bir tuz ichgan joyingga, qirq ... salom ber.
9. Qirq qirg‘in bo‘lsa, ajali yetgan o‘ladi.
10. Bir ... suv chumoliga daryo ko‘rinar.

5-mashq. Gapning mazmuniga mos sonlarni to‘g‘ri shaklda qo‘llang.

1. O‘g‘ri (bir), gumon (ming).
2. (Olti) ola bo‘lsa, og‘zidagini oldirar.
3. (Bir) qinga (ikki) pichoq sig‘maydi.
4. (Qirq) ga chidagan, (qirq bir) ga chidar.
5. (Ikki)ga birov botolmas, otliqqa yayov yetolmas.
6. (O‘ttiz ikki) tishning orasidan chiqqan gap, (o‘ttiz ikki) urug‘ elga tarqalar.

Tinglang. Oksford universiteti

I. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling:

Yetakchi akademik oliygoh, yuzaga kelgan kelishmovchilik, ko‘ngilsizlik, o‘nlikka kirmoq, chet elliklar bilan bog‘liq, umrbod lavozimni egallamoq, kundalik faoliyat, faoliyat yuritmoq, namoyishga qo‘ymoq.

II. Berilgan gaplardan matn mazmuniga mos keladigan gaplarni toping.

- ✓ Oksford universiteti Amerikada joylashgan.
- ✓ Oliyghohning taxminan X asrda tashkil etilgan deb sanalmoqda.
- ✓ Parij universitetida chet elliklar bilan bo‘lgan noxush holatlardan keyin ingliz olimlar o‘z yurtlariga qaytdilar.
- ✓ Oksforddan shimoli-sharqqa, Kembrijga ko‘chib ketgan bir nechta akademiklar u yerda yangi universitetga asos solganlar.
- ✓ Universitetni kansler boshqaradi.
- ✓ Eshmolin muzeyi dunyodagi eng katta muzey hisoblanadi.

- ✓ Oksford bitiruvchilari orasida 20 ta Britaniya bosh vaziri bor.
- ✓ Ikki Hindiston bosh vaziri (Manmohan Singh, Indira Gandhi), Zulfiqor Ali Bxutto, Benazir Bxutto Oksfordni tamomlagan.
- ✓ Bill Clinton, shuningdek, Obama ham shu universitetda o‘qigan.
- ✓ Hozirda Kembrij Oksfordning bo‘linmasi hisoblanadi.

III. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Kembrij universiteti qanday tashkil topgan?
2. Nima uchun bu universitetlar dunyoda juda katta mavqega ega?
3. Oksford universitetining tashkil topishiga asosiy sabab nima bo‘ldi?
4. Universitetda o‘qish tizimi qanday?
5. Bodlian kutubxonasi qanday mavqega ega?
6. Universitet muzeyida nimalar saqlanadi?

Tarjima qiling.



ГАРВАРД

Гарвард — старейший из университетов США, был основан 8 сентября 1636 года. Назван в честь английского миссионера и филантропа Джона Гарварда. Хотя он никогда официально не был связан с церковью, в колледже обучалось главным образом унитарное и конгрегационалистское духовенство. В 1643 году английская аристократка Энн Рэдклифф учредила первый фонд для поддержки научных исследований. В течение XVIII века программы Гарварда становились более светскими и к концу XIX века

колледж был признан центральным учреждением культуры среди элиты Бостона. После гражданской войны в США, президент Чарльз Эллиот после сорока лет правления (1869—1909) преобразовал колледж и зависимые от него школы профессионального образования в централизованный исследовательский университет и Гарвард стал одним из основателей Ассоциации американских университетов в 1900 году.

Дрю Джилпин Фауст была избрана 28-м президентом Гарварда в 2007 году и стала первой женщиной, руководящей университетом. Гарвард имеет самый большой эндаумент (целевой капитал) в мире, который составляет

27,4 млрд долларов по состоянию на сентябрь 2010 года.



Университет включает в себя 11 отдельных академических подразделений – 10 факультетов и Институт Перспективных Исследований Рэдклиффа – с кампусами по всему Бостону, 85 га

основного корпуса университета находится в так называемом “Гарвардском дворе” Harvard Yard (англ.) русск. в Кембридже, примерно в 5,5 км к северо-западу от центра Бостона. Бизнес-школы и спортивные объекты, в том числе Гарвардский стадион, расположены на реке Чарльз в Аллстоне, а объекты медицинского и стоматологического факультета находятся в Лонгвуде.



Mustaqil ta’lim uchun topshriqlar:

- 1.Jahondagi yoki vataningizdagи nufuzli universitetlardan biri haqida matn tuzing.
- 2.Matnda sonning barcha turlarini ishlatishga harakat qiling.

4B

Tayanch so‘z va iboralar: muassasa, andoza, izzat-ehtirom, homiylik, umuminsoniy taraqqiyot, asrlar osha, ma’rifat o‘chog‘i, maskan, ulamo, koshona, o‘tmish, ixtiyor, mashg‘ul bo‘lmoq, hissa qo‘shmoq, behisob, riyoziyot, falakiyot, handasa, mantiq, jug‘rofiya, shular jumlasidan, sahifa, peshtoq, asos solmoq, da’vat etmoq, guvohlik bermoq, sayqaliga aylantirmoq, xolis niyat, mo‘tadil munosabat, millat ravnaqi, tahsil olmoq, tubanda, taraqqiyot to‘lqini, tarmoq otmoq, o‘rta toifa, yuz bermoq, o‘qimishli, ma’muriyat, qaror topmoq, e’tirof etmoq, faoliyat yuritmoq, dalolat bermoq.

I. *Quyidagi gap qoliplari ishtirokida gaplar tuzing:*

1.-ligi tan olinmoq.
2., deb bejiz aytilmagan.
3. Qilingan ishlar tubandagilar:.....
4. sifatida tan olinmoq.
5. –ligi ma’lum.
6.-shiga hissa qo‘shmoq
7. shular jumlasidandir.
8. Tarixning guvohlik berishicha,..... yuz bergen.

 **Matnni o‘qing.**



O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

I. Oliy ta’lim muassasalari ilk bor madrasa shaklida Sharqda paydo bo‘lgan, keyinchalik ulardan andoza

olinib G‘arbda universitetlar tashkil etildi. Bu madrasa va universitetlar umuminsoniy taraqqiyot mezoni

sifatida asrlar osha oliy ta’lim, ilm-fan va texnika, madaniyat va ma’rifat o‘chog‘i, olim-u ulamolar, kashfiyot-u yangiliklar maskani bo‘lib keldi.

II. Prezident Islom Karimovning o‘tmish tariximizga yuksak baho berib: “Bizda buyuk tarix va buyuk ma’naviyat bor”, – deb aytishi bejiz emas, albatta. Haqiqatan ham, buyuk tariximiz buyuk o‘tmishimizdan dalolat berib turibdi. Buyuk o‘tmishimiz mobaynida jahon tan olgan uchta buyuk Uyg‘onish (Renessans) davri bo‘lganligi endigina to‘la tan olindi.

III. Birinchi Uyg‘onish qadim Turkistonda ilk bor IX-XII asrlarda yuz berdi. Xalifa Ma’mun davrida (IX asrning birinchi yarmi) Xorazm davlatida oliy ta’lim, ilm-fan va madaniyat rivojlandi, u olimlarga katta izzat-hurmat ko‘rsatib, homiylik qildi. U Abu Rayhon Beruniy taklifiga ko‘ra, Xorazm poytaxti Gurganch (hozirgi Ko‘hna Urganch) shahrida yangi qurilgan koshonalardan birini olimlar ixtiyoriga berib, uni “Bayt ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”) deb nomlaydi. Bu erda 70 dan ortiq olim va tolibi ilmlar, ustoz-u shogirdlar ilm bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Bular: Abu

Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy va boshqalar edilar. Bu olimlarning sa’y-harakatlari bilan falsafa, tarix, adabiyot, riyoziyot, falakiyot, handasa, mantiq, jug‘rofiya, tibbiyot fanlari rivojlanib, insoniyat uchun eng zarur ilmiy masalalar yechimiga behisob hissa qo‘shildi. Ibn Sino yaratgan tibbiyot ilmi bilan Xorazmiy tomonidan cheksiz sanoq soni “Al-jabr”ga asos solinishi shular jumlasidandir.

IV. “Ma’mun akademiyasi” Turkiston Uyg‘onish davrining yorqin namunalaridan hisoblanadi. Bu davr butun dunyoni, ayniqsa, Yevropani o‘ziga qaratgani va keyinchalik uning uyg‘onishiga asos solganligi jahon tarixidan yaxshi ma’lum.

Abdurauf Fitrat 1912-yilda yozgan “Hind sayyohi bayonoti” nomli asarida mazkur sayyoh nomidan Fransiya universiteti olimi Sharl Sanivyusning ushbu so‘zlarini keltirdi: “ovro‘paliklar musulmonlar taraqqiyotini xolis niyat bilan qabul qilib, kasb va ilm o‘rganish niyatida islam shaharlarida tahsil oldilar. Ovro‘pa musulmonlar bilan aloqa va munosabat o‘rnatish orqali taraqqiy

qilgan. ovro‘paliklarning islom olamidan qabul qilgan ishlari tubandagilar: ziroat, sanoat, al-jabr va al-muhobala (algebra va ehtimollar nazariyasi), handasa, chizmachilik, kimyo, hisob va hokazo...”

V. Keyingi ilmiy-madaniy taraqqiyot, ya’ni ikkinchi uyg‘onish davri Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida yuz berdi. Ilm-fan, madaniyat va ma’rifat homiysi buyuk Temur ulkan saltanat yaratish bilan birga, o‘z yurtining oqillari atrofiga yetti iqlimda tanilgan ilm va hunar egalarini to‘plab, Samarqandni yer yuzining sayqaliga aylantirdi.

Sohibqironning nabirasi Mirzo Ulug‘bek o‘z “Zij”i bilan ilm-fan tarixida yangi sahifa ochdi. Uning XV asr mo‘jizasi bo‘lgan mashhur rasadxonasi, Hazrat Navoiy ta’biri bilan aytganda, “Jahonning chiroyi” bo‘lib qoldi. Falakiyot ilmini rivojlantirgan Ulug‘bek shu ilmning eng yorug‘ yulduziga aylandi. O‘zi qurdirgan madrasalardan birining peshtog‘iga “Bilim olish har bir musulmon erkak va ayoil uchun farzdir”, – degan hadisni yozdirib, hamma musulmonlarni diniy va

dunyoviy ilmli bo‘lishga da’vat etdi. Tarixning guvohlik berishicha, din bilan dunyoviylik o‘rtasida mo‘tadil munosabat o‘rnatilgan davrda jamiyat taraqqiyoti, millat ravnaqi, ilm-fan va texnika rivoji yuz bergen.

VI. Madaniy taraqqiyotning yana bir to‘lqini Shayboniyxon va shayboniylar davri bilan bog‘liq. Uning tarixdagi xizmatlarini yuksak darajada baholab, Islom Karimov shunday deydi: "Shayboniyxon Buxoro madrasalarida tahsil ko‘rgan o‘qimishli odam bo‘lgan. Buxoroda olgan ilm-ma’rifatini hokimiyat tepasiga kelgach, yana yurtiga qaytarib bergan".

VII. Ona tariximizda milliy madaniy hayot yuksak darajada taraqqiy etgan davrlar ko‘p bo‘lgan. Dunyo sayqali Samarqand, Buxoroi sharif, buyuk alloma va shayxlar makoni Termiz, Toshkenti azim, Qo‘qondi latif va boshqa shaharlarda oliy hamda o‘rta toifadagi tabarruk ilm maskanlari – madrasalar keng tarmoq otgan. Birgina Buxoroda dunyoga mashhur 400 ta olim va ulamolar tarbiya topgani ma’lum.

1912 – yilda shaharda oliy, o‘rta va quyi toifalardagi ikki yuzga yaqin

madrasa bo‘lgan. O‘tmishdagi madrasalarda ta’lim va tahsil olib, o‘z ilmi, aql-zakovati, tafakkuri va kashfiyotlari bilan dunyoni lol qoldirgan olimu fuzalolarimizning ilmiy-ijodiy merosidan butun dunyo bahramand bo‘lib kelgan va kelmoqda. Buni atoqli qirg‘iz adibi Chingiz Aytmatovning ushbu so‘zlari isbotlab turibdi: “Qadim Gretsiya Yevropada sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida qanday o‘rin tutgan bo‘lsa, O‘zbekiston va o‘zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o‘lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o‘rin egallagan”.

VIII. Jadid ziyolilari millat va jamiyat taraqqiyotida tub burilish yasab, yangi, ya’ni jadid madaniyatini qaror toptirdi. Mumtoz adabiyot yangilanib, ijtimoiy-siyosiy mazmun kasb etdi. Millatdagi milliy uyg‘onish alomatlari paydo bo‘lganligini ilk bor e’tirof etganlar ham jadidlar bo‘ldi . Jadidlar milliy, dunyoviy oliy ta’lim g‘oyasini olg‘a surish bilan birga oliy o‘quv yurti tashkil etish uchun jiddiy tayyorgarlik va amaliy-tashkiliy ishlar ham olib bordilar. Bu jadid maktablarida matematika, geografiya,

tarix, ona tili va adabiyot, rus tili kabi dunyoviy ilmlarni o‘qitishdan boshlandi. Jadid maktablari ikki bosqichli to‘rt yillik boshlang‘ich va yetti yillik o‘rta ta’lim tizimidan iborat bo‘ldi. O‘qish pullik bo‘lib, hozirgi ta’lim marketingiga o‘sha paytlarda asos solingandi. Kambag‘allarning bolalari esa tekin o‘qitildi. Bundan tashqari jadidlar Toshkentda “Ko‘mak”(1909) va “Doril ojizin” (1923), Buxoroda “Tarbiyai atfol” (1910) deb nomlangan maxsus xayriya jamiyatlarini tashkil etib, millat farzandlarining dunyoviy oliy ta’lim olishlariga homiylik qildilar. 1917-yil arafasida Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jaev “Sadoyi Turkiston” gazetasida maqola bilan chiqib, o‘lka harbiy ma’muriyati oldiga Toshkentda musulmonlarga bir Oliy dorilmualimin (o‘qituvchilar instituti) va bir madrasasi Oliya (universitet) ochib berish masalasini qo‘yadi. Bundan tashqari 1916-yilda jadidlar guruhi talabiga ko‘ra Turkistonga A.F.Kerenskiy boshchiligidagi kelgan Rossiya davlat Dumasining maxsus komissiyasi oldiga ham Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev musulmonlar uchun universitet ochish

talabini qo'yadi. Rossiya imperiyasida 1917-yilning fevralida yuz bergan inqilobga qadar jadidchilik harakati vakillari dunyoviy oliv maktab (universitet) g'oyasini kun tartibiga qo'ydi. Bu esa o'sha paytda dunyoviy oliv ta'lim millat ehtiyojiga aylanganligidan dalolat bo'ldi.

IX. Markaziy Osiyodagi eng birinchi va eng katta universitet hisoblangan O'zbekiston Milliy universiteti 1918-yildan beri turli nomlar bilan faoliyat yuritib

kelmoqda. Milliy universitet talabalari o'z sohalarining mutaxassislari bo'lish bilan bir qatorda, shu yo'nalish bo'yicha pedagog ham bo'lib yetishishadi. Universitetda tarix, o'zbek filologiyasi, geografiya, geodeziya, kartografiya, kadastr, biologiya va boshqa yo'nalishlar bor. Ushbu yo'nalishlarda tahsil olishni xohlaganlar ona tili va adabiyot, tarix, matematika, fizika hamda chet tili fanlaridan test topshirishadi.

? Matn bo'yicha savol va topshiriqlar:

I. Savollarga javob bering:

1. Madrasalar qanday maskan hisoblangan?
2. "Bizda buyuk tarix va buyuk ma'naviyat bor", degan fikrda nima nazarda tutilgan?
3. Nima uchun IX-XII asr birinchi Uyg'onish davri deb ataladi?
4. "Ma'mun akademiyasi"ning ahamiyati nimada edi?
5. Temuriylar hukmronligidagi Uyg'onish davri ilm-fan taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega?
6. Jadidlar hukumat oldiga qanday talablar qo'yadi?
7. Jadidlar tomonidan universitet ochish uchun qilingan ilk qadamlar nimalardan iborat edi?
8. O'zbekiston Milliy universiteti haqida nimalar bilasiz?
9. Bu universitetda qanday ta'lim yo'nalishlari bor?

II. Matnning har bir qismidagi asosiy axborotni ajratib yozing.

III. Matnga reja tuzing.

IV. VIII va IX qismlarni qo'shimcha ma'lumot yordamida bog'lang.

V. Nuqtalar o'rniغا mos olmoshlarni qo'yib ko'chiring.

Namuna: O'zbekiston Milliy universiteti Toshkent shahrida joylashgan.

....O'zbekistondagi eng birinchi universitetdir. / U O'zbekistondagi eng birinchi universitetdir.

1. O'zbekiston Milliy universiteti 1918-yildan beri turli nomlar bilan faoliyat yuritib kelmoqda. Markaziy Osiyodagi birinchi eng katta universitet hisoblanadi.

2. Geodeziya yer resurslaridan oqilona foydalanishni o'rganadi.ta'minlash ushbu yo'naliш vakillarining vazifalari hisoblanadi. /.... anchagina aql va kuch talab qiladigan sohadir.

3. 2011-2012-o'quv yili boshida filologiya yo'naliшlariga 73 nafar abituriyent qabul qilingan.27 tasi davlat – granti asosida, 45 nafari – to'lov-shartnomaga asosida va bittasi harbiy yo'llanma bilan to'lov-shartnomaga asosida qabul qilingan.

4. Geofizika Yer tuzilishi va qattiq qismining fizik xossalariни o'rganuvchi soha sanaladi. kasb egalari yer qatlami, yadrosi, mantiyasi, okeanlarni o'rganadilar.

G R A M M A T I K A

O'ZBEK TILIDA NARSA-BUYUMGA, SHAXSGA, BELGIGA VA MIQDORGA ISHORANI BILDIRUVCHI SO'ZLAR

(Olmosh)

Olmoshlar ot, sifat, son o'rnida qo'llanadigan, aniq lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan so'zlardir. O'zbek tilida olmoshlarning quyidagi turlari bor:

1. Kishilik olmoshlari:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
1-shaxs	Men	Biz

2-shaxs	Sen	Siz
3-shaxs	U	Ular

Bu olmoshlar kelishik qo'shimchalarini oladi.

Masalan: *mening uyim, seni hurmat qilaman, unga salom ayt, bizdan ruxsat so'ra, sizga beraman, ulardan sotib oldim.*

Kelishik qo'shimchalari qo'shilganda bo'ladigan o'zgarishlar:

Men, sen + -ni va -ning = n tovushi tushib qoladi: mening, meni.

(Menning, menni emas).

U + n + -ga, -da, -dan = tovushi qo'shiladi: unga, unda, undan (uga, uda, uga emas).

Kishilik olmoshlariga egalik qo'shimchasi qo'shilmaydi.

Siz va ular olmoshi hurmat ma'nosida ham ishlatiladi.

Masalan: *O'qituvchi, sizga rahmat! Ular mening buvimilar.*

2. O'zlik olmoshi: o'z

Ma'nolari: a) shaxsga tegishlilik: *o'z uyi, o'zining xonasi.* Qaratqich kelishigi -ning bilan yoki -ning qo'shimchasiz ishlatiladi. Agar o'z so'zidan keyin egalik qo'shimchasi bo'lsa, -ning ishlatilishi kerak: *o'zimizning universitet (o'zimiz universitetimiz – noto'g'ri)*

Har uch shaxsni bildiradi: *o'zimning uyim, o'zingizning uyingiz;*

b) shaxsning yagonaligi: men o'zim, biz o'zimiz, siz o'zingiz

3. Ko'rsatish olmoshlari

Bu, shu, o'sha, ana u, mana bu, ana, mana, ushbu.

U olmoshi kishilik olmoshiga omonim. O'zbek tilida ularning ma'nosni gap ichida farqlanadi. Kishilik olmoshi *kim?* so'rog'iga, ko'rsatish olmoshi *qaysi?* so'rog'iga javob bo'ladi. Bu olmoshlar kelishik qo'shimchalarini oladi. Kelishik qo'shimchasi qo'shilganda bo'ladigan o'zgarishlar:

U, bu, shu, usbu + **n** -ga, -da, -dan = tovushi ortadi: unga, shunda,

4. So‘roq olmoshlari:

	So‘roq turi	Olmoshlar	Tarjimasi
	Shaxsga	Kim?	Кто?
	Narsaga	Nima?	Что?
	Belgi-xususiyatga	Qanday? Qanaqa? Qaysi?	Какой? Какая? Какое? Который?
	Miqdorga	Qancha? Necha ? Qancha?	Сколько?
	Tartibga	Nechanchi?	Какой?
	Sabab-maqsadga	Nega? Nimaga?	Почему?
	O‘ringa	Qayerda? Qayoqqa?	Куда?
	Paytga	Qachon?	Когда?
	Mavjudlikka	Qani?	Где?

5. Belgilash olmoshlari ikki xil ma‘noni bildiradi:

1. Jamlash: **hamma, barcha, bari, jami, jamiyki, butun, yalpi.**

2. Ajratib ko‘rsatish: **har bir, har kim, har nima, har qaysi.**

Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, ko‘plik qo‘sishimchalarini oladi.

Masalan: *Hammasi oldinda. Har kimning orzusi bor.*

a) **hamma, barcha, har qaysi** olmoshlari egalik qo‘sishimchalarini oladi.

b) Bu olmoshlar 1 – shaxs birliz egalik qo‘sishimchalarini olmaydi.

6. Bo‘lishsizlik olmoshlari: inkor ma‘nosini bildiradi.

Hosil bo‘lishi:

Hech so‘zi + so‘roq olmoshi

*Hech kim, hech nima, hech qanday,
hech qaysi, hech qachon, hech bir, hech narsa.*

7. **Gumon olmoshlari:** narsa, belgi, voqeaning noaniqligini bildiradi.

Ikki xil shaklda bo‘ladi:

a) Alla + so ‘roq olmoshi

*Allakim, allanima, allanarsa, allaqaysi,
allaqayer, allaqayoq, allaqancha,
allaqanday.*

b) So ‘roq olmoshi+dir

*Kimdir, nimadir, qandaydir,
qaysidir, qanchadir*

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Qavs ichidagi kerakli olmoshni qo‘ying.

Sen (qaysi?/qanday?) universitetda o‘qiysan? 2. Shartnoma asosida o‘qish (necha?/qancha?) turadi? 3. (U/kimdir) menga qo‘ng‘iroq qildi, lekin telefonimda raqami chiqmadi. 4. Ingliz tilini (men/o‘zim) mustaqil o‘rganganman. 5. Bu kitobni (hech qayerda/ hech qachon) topa olmayapman. 6. Lola Internet orqali O‘zbekistonidagi (hamma/har bir) universitet bilan alohida tanishib chiqdi. 7. Oksford universiteti o‘qitish sifatiga ko‘ra dunyodagi kuchli o‘nlikka kiradi, yana (shu/bu) o‘nlikka kiradigan (qanday/qancha) universitetni bilasiz? 8. Seni yana oldin uchrashgan (o‘sha/shu) joyda kutaymi?

2-mashq. Ajratilgan so‘z va birikmalarni olmoshlar bilan almashtiring.

1. **Dryu Jilpin Faust** Garvard universitetining 28-prezidenti qilib saylandi. ...universitetning birinchi ayol rahbari edi.
2. **O‘zbekistonda Vest minster universiteti, Singapur universiteti kabi oliygoхlar** faoliyat yurityapti.universitetlar soni ortyapti.

3. **Mansur** testni yaxshi topshira olmadi. Bungaaybdor, ko‘proq o‘qish kerak edi.
4. Majlis zalida **1-,2-,3 – kurs talabalari yig‘ildi**.bayram kayfiyatida, hursand edi.
5. **Kitob, lug‘at, daftar va uyali telefonlarni** qoldiring. Testga..... olib kirmang.
6. **Xyu Grant, Keyt Bekinseyl, Dadli Mur, Maykl Polin, Terri Jons** kabilar ham o‘z vaqtida Oksford talabalari hisoblanishgan.mashhur aktyorlardir.
7. Bo‘sh vaqtlarimda **kitob o‘qishni yaqshi ko‘raman**. Lekin hozir bo‘sh vaqt ni....o‘tkazadiganlar kam, deyishadi.
8. Abdulla Qodiriy noyob iste’dod egasi, serqirra shaxs edi, lekin, afsus,ajoyib inson zamonasiga sig‘madi.
9. Bu kitobni 2-3 kunga berib turishim mumkin. Lekin keyin shaxsan qaytaring.
10. Kecha stolingizda bir kitobni ko‘rgan edim, menga berib tura olasizmi?

3-mashq. *Nuqtalar o‘rniga mos olmoshlarni qo‘ying va maqollarning ma’nosini izohlab bering.*

1. O‘zga elning sultoni bo‘lguncha, elingning cho‘poni bo‘l.
2. O‘zganing toqu ravog‘idan, ning ayvoning yaxshi.
3. narsaning otasi – mehnat.
4. Qo‘shning tinch – tinch.
5. yuragingga sig‘magan sir, o‘zganing yuragiga sig‘maydi.
6. o‘z qilmishidan topar. Haromdan yig‘ilgan – haromga ketar.
7. O‘rinsiz g‘azab –ga azob.
8. suygan oshini ichadi.
9. himmatiga yarasha topadi.
10. o‘z aybini bilmas.

 **Tinglang”.** *Chingiz Aytmatovning “Birinchi muallim” asaridan parcha.*

I. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling:

Voqealro‘y bermoq, birovning qo‘lida o‘smoq (yashamoq), qishlov, domdaraksiz ketmoq, qo‘lidan kelgancha qilmoq, ko‘ngliga nima kelsa, shuni qilmoq,

behuda ketmoq, quloq eshitmagan gap, misli ko‘rilmagan voqea, uquv, tabarruk, baland ixlos, yer-ko‘kka ishonmaslik, kesadigan suv, jo‘jabirday jon, johillik, aqli kalta, xo‘rligi kelmoq, g‘azabi qaynamoq, biror narsaning payida bo‘lmoq, alahsitmoq.

II. Savollarga javob bering:

1. Voqea qaysi davrda bo‘lib o‘tyapti?
2. Voqea kimning tilidan hikoya qilinyapti?
3. Hikoyachi 16 yoshdami?
4. Duyshen juda bilimdon odammi?
5. Duyshen fidoyi insonmi?
6. Nima uchun odamlar uning ustidan kular dilar?

III. Gaplarni to‘ldiring,

1. Qischa 4 yoshida yetim qolgani uchun,
2. Duyshen shinelda bo‘lgani uchun, uni hamma
3. Dyushen qo‘lidan kelganicha bolalarga
4. Uning qilayotgan ishi haqiqiy qahramonlik edi, chunki.....
5. Qizchaning muallimga ixlosi baland edi,
6. Sovuq tushib, ariqning suvi oyoqni kesib yuboradigan bo‘lganda,....
7. Odamlar johilligidan.....
8. Dyushen bolalarni odamlarning mazax qilishidan alahsitish uchun,

Tarjima qiling. Matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning tarjimasiga e’tibor bering. Ular olmoshlarning qaysi turiga kirishini aniqlang.

КЕМБРИДЖСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

Кембриджский университет (англ. *University of Cambridge*, лат. *Universitas Cantabrigiensis*) — по времени основания второй университет в

Великобритании после Оксфордского и четвёртый в мире; один из «старинных университетов» Великобритании и Ирландии, один из наиболее известных университетов мира, член элитной Группы «Рассел».

Университет вырос из собрания ученых людей города Кембриджа, которое было образовано, судя по летописям, в 1209 году учеными, покинувшими город Оксфорд из-за того, что оxfordский студент убил жительницу города. В 1214 году были составлены формальные университетские правила. **По ним** назначался ректор и программа с экзаменами в конце. В средневековье **все знания** об окружающем мире получали в монастырях. Главным отличием от монастырей **в них** стало обучение наукам, философии, логике, математике. Университеты Кембриджа и Оксфорда часто вместе называют «Оксбридж». В добавок к прочному месту в истории британского общества, **у этих** университетов имеется долгая история соперничества друг с другом.

Среди людей, **так или иначе** связанных с Кембриджским университетом, 88 нобелевских лауреатов — **по этому показателю** он занимает одно из первых мест среди высших учебных заведений мира^[3].

Кембриджский университет представляет собой определенное объединение (конфедерацию) колледжей.

Учебная и исследовательская работа со студентами и аспирантами проходит в школах (их 6: *Arts and Humanities; Humanities and Social Sciences; Biological Sciences; Physical Sciences; Clinical Medicine; Technology*), которые состоят из факультетов и кафедр.

Жизнь и работа колледжей регулируется **их собственными уставами** и правилами. Каждый колледж имеет **своих представителей** в совете университета.

Среди подразделений университета — Кембриджская обсерватория, Кавендишская лаборатория, где было синтезировано более двухсот изотопов (одно из наибольших количеств среди лабораторий мира).

O‘tilganlar yuzasidan topshriqlar:

1. *Vatanimizdagi yoki biror xorijiy universitet haqida matn tayyorlang. (taqdimot bilan). Matnda olmoshlarning barcha turlarini qo‘llashga harakat qiling.*

2. *Matnni 1-shaxs tilidan so‘zlab bering va davom ettiring. Unga mos sarlavha qo‘ying.*

Oliy o‘quv yurti bu hayot maktabi ekanini unutma. Sen bu yerda har bir qadamning uchun o‘zing mas’uldirsani. Mustaqil ta’lim sening eng muhim faoliyatingga aylanishi kerak.

Maktabda o‘qituvchini diqqat bilan tinglab, to‘rtinchi betdan o‘ninchi betgacha bo‘lgan mavzuni o‘qib, konspektlashtirib, uni yoritib berolsang, berilgan vazifani to‘liq bajargan hisoblanar eding. Universitetda sen bilim olish bilan birga ilm dargohiga ham kirib kelding. U yerni o‘rganish, uni zabt etish faqat sening qo‘lingda. O‘qituvchining vazifasi senga yo‘llanma berish, ilmga olib kirish bo‘lsa, izlanish, o‘qish, o‘rganish, mushohada qilish esa faqat sening vazifang. Ha, to‘g‘ri o‘ylading, bu juda mashaqqatli mehnat.

Uqib ol: mustaqil ta’lim – oliy o‘quv yurti talabi.



O‘zingizni tekshiring

1. *Qaysi qatorda shaxsni ta’kidlash ma’nosi mavjud?*

- A. o‘z uyim, o‘z vatanim, barcha insonlar
- B. men o‘zim, sen o‘zing, u o‘zi
- C. otam-ku, sen-chi, menmi
- D. sengina, faqat u, bolagina

2. *Jamlash, umumlashtirish ma’noisini ifodalovchi so‘zlar qatorini toping.*

- A. hamma, bari, barcha, jami

- B. har kim, ba'zi, har nima
- C. hech kim, hech nima, hech qachon
- D. biz, o'zimiz, sizlar

3. *Qaysi qatorda guman, noaniqlik ma'nosini bildiruvhchi so'zlar keltirilgan?*

- A. birov, bir narsa, negadir
- B. hech narsa, allaqachon, allamahal
- C. kim, nima, qanday
- D. hamma, bari, yalpi

4. *Qaysi qatordagi gapda sonning taxminiy miqdori ifodalangan?*

- A. Nimagadir ishtaham yo'q.
- B. Necha ball olganimni hozir eslay olmayman.
- C. Oradan 5-10 daqiqa vaqt o'tdi.
- D. Saidaning taxmini to'g'ri chiqdi.

5. *Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchani qo'ying.*

Uch....ham testdan yuqori ball oldik.

- A. -alasi
- B. -talamiz
- C. -chalamiz
- D. -alamiz

6. *Gapning eng to'g'ri tarjimasini toping:*

Каждый колледж имеет своих представителей в совете университета.

- A. Har bir kollejning universitet kengashida shaxsiy vakillari mavjud.
- B. Har bir kollejning universitet kengashida xususiy vakillari bor.
- C. Har bir kollej universitet kengashida o'z vakillariga ega.
- D. Har bir kollej universitet kengashida xususiy vakilga ega.

7. *Nuqtalar o'rniga eng mos so'zni qo'ying.*

Bu yo'naliishga o'tgan yili 10abituriyent davlat granti asosida o'qishga qabul qilingan.

- A. dona

- B. nafar
- C. juft
- D. -tacha

8. *Nuqtalar o‘rniga eng mos so‘zni qo‘ying.*

Universitetning tashkil etilgan sanasi aniq bo‘lmasa-da, uXI asrda tashkil etilgan deb sanalmoqda.

- A. chamasi
- B. taxminan
- C. ehtimol
- D. qachondir

9. *Nuqtalar o‘rniga mos olmoshni qo‘ying.*

..... ishning chamasi bor, har daryoning chamasi bor.

- A. hamma
- B. har bir
- C. har qaysi
- D. barcha

10. *Nuqtalar o‘rniga mos olmoshni qo‘ying.*

Shunchasini ko‘rib chiqdim, lekini bizga to‘g‘ri kelmaydi.

- A. bironta
- B. hech bir
- C. hamma
- D. hech qaysi

11. *Qaysi qatordagi olmoshlarga kelishik qo‘sishimchalari qo‘silsa, n tovushi ortadi?*

- A. Bu, men, u; – **-da; -ning; -ga;**
- B. U; o‘sha; shu – **da; -dan; ga;**
- C. Sen; u, bu; – **-ni; -dan; -da;**
- D. Men, sen, bu, shu – **-da; -ga; -ning;**

12. *Chama-taxmin ma’nosini ifodalash uchun qanday shakllardan foydalanamiz?*

A. -tacha, -sa kerak, -lar, juft sonlar

B. -tacha, -tadan, taxminan, balki

C. -lab, ehtimol, balki, -moqchi

D. -sa kerak, -ta, nisbatan

13. Berilgan olmoshlarning to‘g‘ri tarjimasini toping.

O‘zingga, kimgadir, o‘zingdan, butun, har kimga, allakimdan

A. себе, кто-то, от себя, целый, каждому, кому-то

B. к себе, кому-то, из себя, полностью, любому, от кого-то

C. тебе, кому-нибудь, от себя, целый, к каждому, у кого-то

D. себе, кому-то, от себя, целый, каждому, у кого-то.

14. Nuqtalar o‘rniga qanday hisob so‘zlarini qo‘yish kerak?

Bir ...tuz, ikki... non, bir ... pista, besh yuz... odam, ikki.... joy

A. qoshiq, tilim, siqim, bosh, metr

B. chimdim, burda, hovuch, nafar, qadam

C. dasta, bo‘lak, chimdim, nafar, qarich

D. piyola, parrak, quchoq, dona, qadam

15. Ajratilgan so‘zning ma’nosini izohlang.

Bir **botmon** keladi-ya.

@ Uzunlik o‘lchovi (m.)

@ Og‘irlilik o‘lchovi (kg.)

@ Kattaligi nazarda tutilgan.

@ Tashqi ko‘rinishi haqida aytilgan.

Matnni o‘qib, unga o‘z fikringizni yozing.

HAYOTDA O‘Z O‘RNIGA EGA BO‘LISH...

Aziz talaba, mana bolaligingdan orzu qilgan (balki sen emas, sening ota-onang buni juda istagandir), shu dargohda o‘qish sharafiga muyassar bo‘lish uchun erta-yu kech test savollariga tayyorlanib, eng nufuzli oliyohlardan birining **TALABASI** bo‘lding. Uzoq vaqt sirli va go‘yoki hech qachon “qo‘ling yetmaydigan darvoza” eshiklari bugun sen uchun ochiq. Kechagina bu dargohda o‘qiydigan talabalarga havas qilib, ularning biriga aylanish uchun butun boringni berishga tayyor eding. Bugun esa ularning safidasan. Auditoriya eshiklarini ochar ekansan, qalbingdagи hayajon bo‘g‘zingga tiqilib, tushuntirib bo‘lmas bir tuyg‘u seni g‘alati ahvolga solib qo‘ysa, bilginki, sen o‘z o‘rningni topib kelding.

Ba’zida darsda o‘tirgan talabalar orasida loqayd, bo‘m-bo‘sh ko‘zlarni ko‘rib (gaplarimni ko‘nglingga qattiq olma), “bu yerda nima qilyapsan? O‘z o‘rningni topsang-chi. Axir butun hayoting shunday o‘tib ketishi mumkin-ku...” deyishni istaydi kishi... Agar sen ham shunday “adashganlar”ning biri bo‘lsang, hali ham kech emas. Butun umr achingandan ko‘ra hozir bu haqida jiddiy o‘ylab ko‘rib, layoqating, iste’doding, xohishingga mos kasbni tanla. Xatoni o‘z vaqtida tuzatish juda muhim, keyingi pushaymon esa, bilasan – o‘zingga dushman bo‘ladi.

Esingdami, bolaligimizda sevib o‘qigan ertaklarimiz qahramonlari ham o‘z baxtini izlab uzoq yo‘lga chiqqanlarida uch yo‘ldan birini tanlashlari kerak edi.

Agar sen ham o‘z kelajagingni ota-onang bilan maslahatlashib, o‘zing tanlagan bo‘lsang, u holda barcha qiyinchiliklarni yengib o‘tishingga ishonaman.

Hayotda to‘g‘ri kasb tanlash juda qiyin bo‘lsa, lekin o‘zing sevmagan, senga hech qanday zavq bermaydigan kasb bilan shug‘ullanish undan ham mushkuldir. Bu— haqiqiy baxtsizlik.

Hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lish... Aziz talaba, bu haqida jiddiy o‘ylab ko‘rdingmi? “Diplomni olvolay, keyin bir gap bo‘lar”, tarzida yo‘l tutmayapsan degan umiddaman... Ishon, “diplomli adashganlar” sensiz ham yetarli. Kelajagingni qanday ko‘ryapsan? Maqsading nima? Axir faqat Sen o‘z kelajaging va hayoting uchun mas’ulsan. Hozirgi befarqlik va beg‘amlik uchun keyinchalik o‘zing javobgar bo‘lishingni unutma.

5-DARS

MA’NAVIY KAMOLOT SARI

5A

Tayanch so‘z va iboralar:

Milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviyat, komil inson, urfodat, an’ana, taomil, unmoq, ramz, zorlanmoq, termulmoq, onaizor, g‘arib, rizq-ro‘z, taqdir, qayg‘u, zichlashmoq, nasiba, o‘z oti bilan, qozon osmoq, timirskilanmoq, ko‘ngli buzilmoq, taqdirdan kuymoq, ko‘zi tushmoq.

Savollarga javob bering.

1. Ma’naviyat deganda nimani tushunasiz ?
2. Ma’naviyatli inson qanday inson ?
3. Milliy qadriyatlarga nimalar kiradi ?
4. An’analar, udumlar milliy qadriyatmi ?

I. Quyidagi fe’l shakllarni to‘g‘ri tarjima qiling.

Qo‘yildi, yoyildi, undi, o‘sdi, yopib qo‘yildi, olib turildi, sepildi, sepib-sepib turildi, tushirildi, bermabdi, zorlanibdi, yoqibdi, qilib beray, bilmabdi, topolmabdi, uxbab qolishibdi, buzilibdi, so‘raydilar, tozalabdi, solibdi, paydo bo‘libdi.

II. Yuqoridagi fe'llar ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna : qo‘yildi – dasturxonga meva-cheva qo‘yildi, oldimizga muhim vazifalar qo‘yildi.

Matnni o‘qing.

SUMALAK

Sumalak qayerga qo‘yildi?

Sumalak odam nazari tushmaydigan joyga qo‘yildi. Zaxdan-zax joyga qo‘yildi. Nur-ziyosiz, shamol-havosiz joyga qo‘yildi. Qurt-qumursqasiz, kalamush-sichqonsiz joyga qo‘yildi.

Yerto‘la ana shunday joy bo‘ldi!

To‘rt-besh misqol (kilogramm) bug‘doy namlab yoyildi.

Bir haftalarda bug‘doy ko‘m-ko‘k maysa bo‘lib undi.

Ko‘m-ko‘k maysa bo‘lib o‘sdi.

Maysalar bir-biri bilan aralashib, bir-biri bilan zinchlashib qoldi. Maysalar betiga doka yopib qo‘yildi. Vaqtı-vaqtı bilan doka olib-olib turildi. Maysalarga suv sepib-sepib turildi. Maysalarga oftob nuri tushirib-tushirib turildi... Sumalak maysa Navro‘z ramzi bo‘ldi!

RIVOYAT

Emishki, fony olamda bir onaizor bo‘lgan ekan. Onaizor o‘z oti bilan zor ona bo‘libdi. Bechoradan-bechora ekan. Nihoyatda kambag‘al ekan.

Xudoyim xudovando onaizorning rizq-ro‘zini bermabdi-da, nasibasini bermabdi-da!

Ammo xudoyim xudovando onaizorga ko‘p farzand beribdi. Bir oqshom bolalari qo‘llarini cho‘zib:

- Ovqat, ona, ovqat, – deya zorlanibdilar. Onaizor yenglarini tugibdi (shimaribdi).

- Bolalarimga mazali taom qilib beray, – debdi.

O‘choqqa o‘t yoqibdi. Qozon osibdi. O‘t yona beribdi, qozon qiziy beribdi. Shunda onaizor qozonga nima solishni bilmabdi. Uy ichini qarabdi. Tevarak-atrofni qarabdi. Qozon qaynatish uchun biron-bir nima topolmabdi.

Bolalar esa ovqat so‘rashdan to‘xtamabdilar, ovqat-ovqat deya yig‘lay berib u xlabel qolishibdi.

Onaizor och-nahor xlabel yotgan go‘daklariga termulib o‘tiribdi. O‘tirib-o‘tirib, ko‘ngli buzilibdi. O‘z taqdiridan kuyibdi.

– Yo‘qchilik qurisin-a, yo‘qchilik! – deb qon – qon yig‘labdi.

Go‘daklar azonda uyqudan turadilar. Ochdan-och bo‘ladilar, yana ovqat so‘raydilar. “Ovqat!” –, deb yig‘laydilar.

Onaizor ana shu qayg‘uda timirskilanib yuribdi. Qozon qaynatish uchun tag‘in (yana) biron nima topolmabdi. Shunda, mayda-mayda toshlarga ko‘zi tushibdi. Shu toshlardan yettasini sanab olibdi. Tog‘orachaga solib, yuvib-yuvib tozalabdi. Tog‘orachadan qozonga solibdi.

Onaizor nahorda (erta tongda) qozon qopqog‘ini ochib qarasa, qozon to‘la taom paydo bo‘libdi!

Taom oti sumalak bo‘libdi!

Shu-shu, sumalak Navro‘z taomi bo‘lib qolibdi!

(Tog‘ay Muroddan)

? Matn bo‘yicha topshiriqlar

I. Savollarga javob bering:

- Sumalak qanday tayyorlanadi?
- Rivoyatdagi ona qanday ayol?
- Ona och bolalarining qornini to‘ydirish uchun nima qildi?
- Ona nima uchun yig‘ladi?
- Ona bolalarining qo‘rnini to‘ydirdimi?

- “Sumalak” so‘zi qanday ma’no anglatishini bilasizmi?

II. Matn haqidagi fikr xato yoki to‘g‘riligini aniqlang. Noto‘g‘ri fikrlarni to‘g‘risi bilan almashtiring.

- ✓ Sumalak , odatda yilning hamma fasllarida tayyoralanadi.
- ✓ Sumalak quyosh tushadigan joyga qo‘yiladi.
- ✓ Sumalak bug‘doyi bir haftada ko‘m-ko‘k bo‘ladi.
- ✓ Sumalak to‘qlik ramzi hisoblanadi.
- ✓ Rivoyatdagi onaizorning bolalari ko‘p edi.
- ✓ Onaning bolalari erka edi, ular onadan shirinlik berishni so‘rab yig‘ladilar.
- ✓ Onaizor taqdiridan xafa bo‘lgani uchun yig‘ladi.
- ✓ Ona bolalarini yupatish uchun o‘zini yolg‘ondan ovqat qilayotgan qilib ko‘rsatdi.
- ✓ Rivoyatda hech qanday mo‘jiza ro‘y bermadi.

III. Yuqoridagi matnni ushbu matn bilan bog‘lang va xulosalang.

“ ...Biz odatda ma’naviyat haqida, uning ma’no-mazmuni, hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati haqida ko‘p gapiramiz. Lekin negadir aksariyat hollarda ko‘pchilik ma’naviyat o‘zi nima, degan savolga aniq va lo‘nda javob berishga qiynaladi. ...ko‘p hollarda ma’naviyat haqida beriladigan savollarga har xil, ba’zan esa bir-biriga qarama-qarshi, qandaydir noaniq, sayoz javoblarni ham eshitishga to‘g‘ri keladi.

Albatta, “ma’naviyat” tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’rifini keltirish mumkin. Umuman, o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no-mazmunni mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi ma’rifatli inson o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodidan kelib chiqqan holda turlicha ta’rif va tavsfilar berishi tabiiy...

...Men bu boradagi fikrlarni inkor etmagan holda “ma’naviyat” tushunchasining mazmunini faqat “ma’ni” “ma’no” degan so‘zlar doirasida

chegaralanib qolmaydi, deb o‘ylayman. Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tutadi.

Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, *ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir*, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o‘z tasdig‘ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo‘lamiz…

(I.Karimov)

G R A M M A T I K A

O‘ZBEK TILIDA HARAKATNI BAJARUVCHINING HARAKAT-HOLAT JARAYONIDA QAY DARAJADA ISHTIROK ETISHINI KO‘RSATUVCHI SHAKLLAR

(Fe’l nisbatlari)

Fe’l nisbatlari harakat bilan bajaruvchi o‘rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

5 turi bor:

1. Bajaruvchisi aniq bo‘lgan harakat (Aniq nisbat).

Maxsus qo‘shimchasi yo‘q.

Men dam odim. Yomg‘ir to ‘xtadi. Biz ishlayapmiz.

2. Bajaruvchiga qaytgan, uning o‘zida qolgan harakat (O‘zlik nisbati).

QO‘SHIMCHALARI:

-l(-il), -n (-in):

Yuvindim, tarandi, kiyindi, qoqildi, sudraldi, berildi, ko ‘rindi, yozildi.

Bajaruvchisi noaniq bo‘lgan harakat (Majhul nisbat).

QO‘SHIMCHALARI:

-l(-il), -n (-in):

Eshik ochildi, xona tozalandi, mehmonlar taklif qilindi.

Grammatika bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Yuqoridagi matnlardan majhul va o‘zlik nisbati shaklidagi fe’l ishtirok etgan gaplarni topib, aniq nisbatga aylantirib yozing.

Namuna: Maysalarga oftob nuri tushirib-tushirib turildi. – Maysalarga oftob nuri tushib turdi (tushardi, tushdi).

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga fe’llarni aniq, o‘zlik yoki majhul nisbatlarda qo‘ying.

1. Sumalak Navro‘zda (pishirmoq).
2. Bola yig‘lay-yig‘lay (uxlab qolmoq).
3. JIDUDA iqtisod, huquq, siyosatshunoslik sohalariga oid fanlar (o‘qitmoq).
4. O‘zbek xalqi milliy an’analarni (qardlamoq).
5. Men yozda imtihonlarga qattiq (tayyorlamoq) va o‘qishga kirdim.
6. Bu lug‘atni sen qayerdan (topmoq).
7. Yo‘qolgan kitobing (topmoq)mi?
8. Oyi, bugun kechqurunga qanday ovqat (tayyorlamoq)?
9. O‘zbekistonda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga alohida (e’tibor qaratmoq).
10. O‘zbekistonda avtomobil (ishlab chiqarmoq).

3-mashq. Aniq nisbatdagi gaplardan majhul nisbatdagi gaplar hosil qiling.

Namuna: Dekan talabalarni majlislar zaliga yig‘di. / Talabalar majlislar zaliga yig‘ildilar.

1. Men o‘qituvchi bergen barcha topshriqlarni bajardim.
2. Sorbonnani faqat fransuzlarning emas, balki butun Yevropa klassik ta’limotining etaloni deb hisoblaydilar.
3. Men o‘qigan kitob juda qiziq ekan.
4. Zamira sekin pardani yopdi.
5. O‘zbekiston bu yil paxtadan mo‘l hosil oldi.

6. Yurtimizda kishilarimiz o‘z milliy qadriyatlari, udum va an’analarini hurmat qiladilar.

7. Tilni ham milliy qadriyat deb hisoblaydilar.

8. Xalq sumalak haqida turli rivoyatlar to‘qigan.

Tinglang. Beshuk.

I. Berilgan so‘z va birikmalarni tarjima qilib tushuntiring.

Xalq udumlari, beshik tebratmoq, g‘ichirlamoq, alla aytmoq, shirin qo‘zim, toychog‘im, munchog‘im, do‘ppi, gavrapo‘sh, joy solmoq, yo‘rgak, isiriq, yo‘rgaklamoq, avaylamoq, ko‘rpacha, tekkizmoq, bukmoq, mamnun, jilmaymoq, yig‘lab yubormoq, boyadan beri, indama, yotmoq, yo‘l olmoq.

II. Savollarga javob bering:

- Voqeani kim so‘zlab beryapti?
- Bolaning oilasida qanday yangilik bo‘ldi?
- Alla qo‘shig‘ida bola nimalarga o‘xshatildi?
- Beshik qanday yasatilgan edi?
- Lazokat xola nima qildi?

III. Quyidagi parchalardagi harakat sababini tushuntiring.

- “Ammam xokandozda tutab turgan isiriq ko‘tarib kirdi. Harsillab nafas olgancha allanimalar deb pichirladi, beshik atrofida xokandozni aylantirdi”.
- Ukamning chap oyog‘ini bukib, tizzasini o‘ng qo‘lining uchiga tekkizdi.
 - Yetdimi? – degan edi, uy to‘la xotinlar qiy-chuv qilib yuborishdi.
 - Yetdi! Yetdi!

IV.

1. Tinglangan matndagi udum haqida nimalarni bilasiz?
2. Udumlar, urf-odatlar deganda nimani tushunasiz?

3. Qanday o‘zbek urf-odatlarini bilasiz?
4. Urf-odatlar zararli ham bo‘lishi mumkinmi?

Berilgan matndagi asosiy axborotni tarjima qiling. Matnni o‘z so‘zlariningiz bilan so‘zlab bering.

Происхождение языка. Теории возникновения языка

Человеческий язык: возник ли он эволюционным путем из простых звуков, издаваемых животными, или был дан человеку богом? Все согласны с тем, что язык – главный признак, отличающий людей от других биологических видов. Наши дети овладеваются навыками устной речи, едва достигнув четырехлетнего возраста; если ребенок в четыре года не умеет говорить, то это – следствие врожденной или приобретенной патологии. Почему только человечество обладает способностью к речевой коммуникации и как мы обрели эту способность? Еще в Древнем Египте люди задумывались над тем, какой язык самый древний, то есть, ставили проблему происхождения языка. Основы современных теорий происхождения языка заложили древнегреческие философы. По взглядам на происхождение языка они разделились на две



научные школы – сторонников «фюсей» и приверженцев «тесей». Теория "фюсей" (fusei – греч. «по природе») отстаивала естественный, "природный" характер языка и, следовательно, закономерную, биологическую обусловленность его возникновения и структуры. Сторонники природного происхождения названий предметов, в частности, Гераклит, Эфесский (535–475 до н.э.), считали, что имена даны от природы, так как первые звуки отражали вещи, которым соответствуют имена. Имена – это тени или отражения вещей. Тот, кто именует вещи, должен открыть природой созданное правильное имя, если же это не удается, то он только производит шум.

Сторонники теории "тесей" (греч. «по установлению») среди которых были Демокрит из Абдер (470/460 – первая половина IV в. до н.э.) и Аристотель из Стагиры (384–322 до н.э), утверждали условный, не связанный с сущностью вещей характер языка и, следовательно, искусственность, в крайнем выражении – сознательный характер его возникновения в обществе. Имена происходят от установления, согласно обычаю, договоренности между людьми. Они указывали на многие несоответствия между вещью и ее названием: слова имеют по несколько значений, одни и те же понятия обозначаются несколькими словами. Если бы имена давались по природе, невозможно было бы переименование людей, но, напр., Аристокл с прозвищем Платон («широкоплечий») вошел в историю.

Учеными были выдвинуты десятки гипотез о том, как люди преодолели препятствия для появления языка; эти гипотезы в большинстве своем весьма умозрительны и существенно расходятся между собой.

Многие биологи и лингвисты из числа сторонников идеи эволюции от простейших к человеку считают, что язык постепенно развился из звуков и шумов, издаваемых животными. По мере развития человеческого интеллекта людям удавалось произносить все больше звуков; постепенно эти звуки превращались в слова, за которыми закреплялись значения. Так или иначе, звуки, призванные выражать эмоции, сильно отличаются от тех, которые используются для передачи понятий. Поэтому вероятность происхождения человеческого языка от звуков, издаваемых животными, крайне мала.

Некоторые ученые предположили, что люди неким образом создали язык благодаря своему разуму. Согласно их теории, по мере эволюции человека интеллектуальные способности людей непрерывно росли и в конце концов позволили людям начать общаться друг с другом. Это предположение также кажется весьма логичным, однако большинство ученых и лингвистов отрицают такую возможность. В частности, Дуайт Болингер (Dwight Bolinger), ученый и лингвист, исследовавший языковые способности

шимпанзе, говорит: «Стоит задаться вопросом, почему всем формам жизни, населяющим Землю, пришлось ждать миллионы лет, прежде чем человек сделал это. Неужели потому, что сначала должен был появиться определенный уровень интеллекта? Но как такое могло произойти, если интеллект всецело зависит от языка? Язык никак не мог быть предпосылкой для возникновения языка».

Уровень интеллекта невозможно измерить без помощи языка. Так что гипотеза о появлении языка вследствие развития человеческого разума необоснована и недоказуема.

Кроме всего прочего, ученые не могут доказать, что для языка необходим развитый интеллект. Таким образом, можно сделать вывод, что своей способностью к языковому общению мы обязаны отнюдь не нашему высокоразвитому интеллекту.

Некоторые ученые считают, что язык появился у людей внезапно, без видимых предпосылок к его зарождению. Они полагают, будто бы язык был изначально заложен в человеке, и люди на определенном этапе эволюции просто обнаружили в себе эту особенность и стали использовать для общения и передачи информации слова и жесты, постепенно расширяя словарный запас. Согласно этой теории, язык и все необходимое для общения существовали до того, как человек их обнаружил. Но это означает, что язык как таковой возник совершенно случайно и не задумывался как целостная система. Между тем, язык представляет собой сложную логическую систему, высочайший уровень организации которой просто не позволяет поверить в ее случайное возникновение. И даже если эту теорию можно рассматривать как модель появления языка, ее никак нельзя признать приемлемым объяснением происхождения такого, поскольку такая сложная структура, как язык, не могла возникнуть сама по себе, без творца.

Tayanch so‘z va iboralar: Holiqi olam, yaralmoq, bunyod bo‘lmoq, borliq, tovushga taqlid, shovullamoq, sharshara, qag‘illamoq, shu tarzda, to‘qillamoq, tuyeq, taqa, zangillamoq, rosmana, ibtidoiy ong egasi, chaqmoq, chaqin, chaqa, zakovat, gap chaqmoq, honumoniga o‘t qo‘ymoq, chaqimchilik, yostig‘ini quritmoq, xatarli, jafokash, holva, tengsiz qudrat sohibi, mag‘zini chaqmoq, bir chimdim haqiqat, gugurt, ayon bo‘lmoq.

I. *Quyidagi so‘zlarning ma’no farqlarini misollar yordamida tushuntirib bering:*

Bunyod bo‘lmoq /yaralmoq, odamzod/ insoniyat/ bashariyat, shovullamoq/ shivirlamoq, to‘qillamoq/ taqillamoq, chaqa / mayda, chaqimchilik / chaquv

 **Matnni o‘qing.**

ENG AVVALGI SO‘Z

Holiqi olamning “Bo‘l” degan birgina so‘zidan borliq **yaralgan**, inson bunyodga kelgan. Odamzod tilga kirib u aytgan birinchi so‘z nima edi? Bu savolga javob hech bir kitobda yo‘q. Olimlar, insoniyatning ilk so‘zлari tovushga taqliddan paydo bo‘lgan, deydilar. Darhaqiqat, qadimgi ajdodlarimiz tog‘dan shovullab tushgan suvni **shovva**, shar-shar to‘kilganini **sharshara** degan. Qushlarning churq-churq qilgani **chumchuq**, lak-lak qilgani **laylak** (aslida laklak), qag‘illagini **qarg‘a**, bul-bul deya yoqimli sayragani **bulbul**_bo‘lgan. Keyinchalik o‘zi yasagan buyumlargacha ham shu tarzda nom bergan. To‘qillab urilgani **to‘qmoq**, tuyeq ostida taqillagini **taqa**, **zangillagan** qo‘ng‘iroq **zang** deb atalgan. Bu ayon, lekin birinchi so‘z nima edi?

Yurtimizda yuz ming yil muqaddam yashagan neandertal odamning Tarix muzeyidagi qiyofasiga qarab o‘ylayman. Xayol qilamanki, rosmana insonga aylanmagan bu ibtidoiy ong egasi toshni toshga urib, chaq etgan tovushni eshitgan-u chaq, deya ovoz chiqarib, o‘zining birinchi so‘zini aytgan. Toshni toshga

chaqqan, keyinroq tosh bilan danak chaqqan, yong‘oq chaqqan, bolasiga ham “Chaq!” deb buyurgan.

Bora-bora toshdan o‘t chiqarib uni ham ”chaq” dedi. Ko‘kda “chaq” etib yongan olov ham chaq bo‘ldi. Keyinchalik **chaqmoq**, **chaqin**, **chaqmoqtosh** so‘zлari paydo bo‘ldi. Tosh bir-biriga urilganda uchgan yeri **chaqa**, toshga qoqliganning barmog‘i **chaqa**. Ko‘p gapirganning tili **chaqa**.

Tosh maydalab chaqa degan inson ming yillar o‘tgach, pul maydalab **chaqa** dedi. Mayda bolalarini ham **bola-chaqa** dedi.

Taraqqiyot insonga aql va zakovat berdi. Zakovatli inson tosh chaqishni qo‘yib gap chaqishga o‘tdi. Toshdan o‘t chiqargan bo‘lsa, gapdan alanga chiqardi. Gap chaqib o‘z qardoshining honumoniga o‘t qo‘ydi.

Gap chaquvchining oti ham chaqdan uzoqqa ketmadi. Uni **chaqimchi**, **chaqmachi** dedilar. Chaqimchining ishi ilonning tishidan og‘riqli va xatarli. Ari, ilon-u chayonning nashtar urishini ham besabab chaqish demaganlar. Demak, chaqimchi bilan gazandaning hunari bir.

Chaqmachaqaarning ham katta-kichigi bo‘lar ekan. Birovning gapini birovga aytsa, bu **chaqimchilik**, insonning gapini yuqoriga, podsholikka yoki hukumatga yetkazsa **chaquv** bo‘ladi. Chaquv oldida chaqimchilik holva bo‘lib qoldi. Chaqimchilikdan bir insonga ozor yetsa, chaquvdan yuz minglarning yostig‘i qurigan.

Chaquv davlat siyosati darajasiga yetib, chaquvchi tengsiz qudrat sohibi bo‘lgan zamonlarni ko‘rdi jafokash xalq. Bir imzosiz maktub insonning emas, butun bir avlodning, urug‘-aymoqning honumoniga o‘t qo‘yuvchi gugurt bo‘ldi. Inson gugurt yondirishni ham gugurt chaqish degan.

Bashariyat tosh chaqishdan so‘z mag‘zini chaqishgacha bo‘lgan masofani million yillar ichida bosib o‘tdi. Biz ham sizlar bilan **chaq** so‘zining achchiqqina mag‘zini chaqdik, “chaq” to‘g‘risida chaqchaqlashib oldik. Siz bu so‘zlarning hazil ekanini anglab turibsiz! Lekin ayonki, har qanday hazil ostida bir chimdim haqiqat yotadi.

?Matn bo‘yicha topshiriqlar

I. Savollarga javob bering.

1. Olimlar birinchi so‘z qanday paydo bo‘lgan deb taxmin qiladilar?
2. Chumchuq, to‘qmoq so‘zlari qanday paydo bo‘lgan?
3. Muallif fikricha, ibtidoiy odamning ilk so‘zi qanday paydo bo‘lgan?
4. “Ko‘p gapirganning tili chaqa” nima degani?
5. “Chaqimchi” so‘zining “chaq” so‘ziga qanday bog‘liqligi bor?
6. Ari chaqmoq va gap chaqmoq nima degani?
7. Chaqimchilik va chaquv so‘zlarining qo‘llanishida qanday farq bor?
8. “Mag‘zini chaqmoq” iborasining ma’nosni nima?

II. Quyidagi gaplarda fe’llarni majhul nisbatga aylantiring.

1. Keyinchalik o‘zi yasagan buyumlarga ham shu tarzda nom bergan.
2. Toshni toshga chaqqan, keyinroq tosh bilan danak chaqqan, yong‘oq chaqqan, bolasiga ham “chaq!” deb buyurgan.
3. Birovning gapini birovga aytsa, bu **chaqimchilik**, insonning gapini yuqoriga, podsholikka yoki hukumatga yetkazsa, **chaquv** bo‘ladi.
4. Inson gugurt yondirishni ham gugurt chaqish degan.
5. Bashariyat tosh chaqishdan so‘z mag‘zini chaqishgacha bo‘lgan masofani million yillar ichida bosib o‘tdi.

G R A M M A T I K A

Bir subyektning ikkinchi bir subyektga ta’siri natijasida yoki narsa-buyum vositasida yuzaga kelgan harakat (Orttirma nisbat).

QO‘SHIMCHALARI:

-t, -ir, -ar, -iz, -dir, -tir, -ir, -giz, -gaz, -kaz, -qiz, -g‘iz, -kiz, -sat

Uxlat, ichir, chiqar, yedir, kestir, tushir, yurgiz, o'tkaz, tekkiz, turg'iz

Bir necha shaxs tomonidan birgalikda bajarilgan harakat

(Birgalik nisbati).

QO'SHIMCHLARI:

-sh, -ish

*kulishdi, ishlashyapti, borishdi, kelishadi, so'rashyapti, qilishdi
-lar qo'shimchasiga sinonim tarzda ishlataladi.*

Ular sizni kutyaptilar – Ular sizni kutishyapti.

Grammatik mavzu bo'yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o'rniغا kerakli so'zlarni qo'ying:

*to 'xtamoq, to 'xtatmoq, uyg'onmoq, uyg'otmoq, tozalatmoq, tozalamoq,
tiktirmoq, almashtirmoq, almashmoq, kuldirmoq, kulmoq, kuttirmoq, kutmoq,
to 'lamoq, to 'latmoq, qilmoq, qildirmoq.*

1. Ertalab uydan chiqib ketayotgan edim, onam meni 2. Anvar qo'lini ko'targan edi, bir mashina kelib 3. Haydovchi ko'cha qoidasini buzgani uchun, DAN (Davlat avtomobil nazorati) xodimi unga jarima ... 4. Bizning oila gaz va ichimlik suv xizmatlari haqini vaqtida... 4. Qishki kiyimlarimni kimyoviy tozalash xizmatida... 5. Bugun dam olish kuni bo'lgani uchun, uyimni 6. Mening o'yoq kiyimim yirtildi, uni etikdo'zga kerak. 7. Kamola hazil gaplar gapirib, bizni ... 8 Lola do'kondan sotib olgan kiyim ukasiga to'g'ri kelmadi, shuning uchun u bu kiyimni do'konda boshqasiga.... 9. Horijda o'qiyotgan do'stim bugun Amerikadan telefon qilib meni juda erta ... 10. Men odatda har kuni ertalab 7da ... 11. Biz tomosha qilgan film juda kulgili ekan, biz maza qilib... 12. Men seni yarim soatdan beri....., nega kechikding? 13. U yana kechikdi va har doimgidek bizni...

2-mashq. Fe'llarni birgalik va orttirma nisbat shaklida yozing.

1. Yangi tug'ilgan chaqalojni beshikka (yotmoq). 2. Oyi, mehmonlar (kelmoq)! 3. O'zbeklarda yoshlар kattalarni hurmat (qilmoq), mehmonga

borganda yoshlar xizmatda (bo‘lmoq). 3. Navro‘zda ayollar sumalak (pishmoq). 4. Uchovlon universitetga qarab (yo‘l olmoq). 5. Biz shoir Muhammad Yusufning tavallud kuniga bag‘ishlangan tadbir (o‘tmoq). 6. Uning ovozi yaxshi bo‘lgani uchun bayramda unga alla (aytmoq). 7. Fikringizni isbotlash uchun misol (kelmoq). 8. Mehmonga shahrimizning go‘zal joylarini (ko‘rmoq), uni rosa (aylanmoq).

3-mashq. *Berilgan fe'llardan foydalanib, so‘zlarni tarjima qiling va gap tuzing.*

Namuna: **Возместить** (to‘lmoq) – **to‘ldirmoq.** Zararning o‘rnini to‘ldirdim.

Возмутить (nafratlanmoq, jahli chiqmoq), купать (cho‘milmoq, yuvinmoq), ликвидировать (bitmoq, tugamoq), будить (turmoq), диктовать (aytib yozmoq, aytganini qilmoq), надломить (sinmoq), обнадежить (ishonmoq), обобщить (umumlashmoq, birlashmoq), ободрить (ruhlanmoq, g‘ayratlanmoq), обозначить (ko‘rmoq), обучить (o‘qimoq), оставить (qolmoq), осовременить (zamonaviylashmoq).

Tinglang. Zebi, Zebona. (“Kecha va kunduz” romanidan parcha)

I. Savollarga javob bering:

- Voqeа qayerda bo‘lyapti?
- O‘lmasjon nimani taklif qildi?
- O‘lmasjonning maqsadi nima edi?
- Zebi boshqa qizlardan nimasi bilan ajralib turadi?
- Zebi nima uchun ashula aytishni xohlamadi?
- Saltanat Zebini nimaga ko‘ndirdi?

II. Noto‘g‘ri gaplarni to‘g‘rilang.

- ✓ Zebi juda sho‘x qiz.

- ✓ Saltanat juda yaxshi qo'shiq aytadi.
- ✓ O'lmasjon Saltanatni yoqtiradi.
- ✓ Zebi otasidan juda qo'rjadi, shuning uchun qo'shiq aytmaydi.
- ✓ Qizlar qo'shiq aytdilar, lekin Zebi aytmadi.
- ✓ Salti ayyorlik qildi.
- ✓ Zebining ovozi aravakashni rom qildi.

Tarjima. Matnning asosiy mazmunini tarjima qiling.

Теория языка жестов

Выдвигали эту теорию **Этьен Кондильяк**, **Жан Жак Руссо** и немецкий психолог и философ **Вильгельм Вундт** (1832-1920), который полагал, что язык образуется произвольно и бессознательно.

Согласно данной теории, по мере того как люди эволюционировали, они постепенно разрабатывали знаковую систему, поскольку обнаружили, что использование знаков может приносить пользу. Поначалу они не стремились донести до других какие-либо идеи; человек просто производил некоторое действие, другой видел это и затем повторял это действие. Например, один человек пытается сдвинуть с места какой-либо предмет, но сам не в силах сделать это; другой видит эти усилия и приходит ему на помощь. В итоге человек уяснил себе: для того чтобы ему помогли переместить что-либо, достаточно жеста, изображающего толкание.

Серьезнейший недостаток этой теории заключается в том, что, несмотря на бесчисленные попытки, никому из ее приверженцев так и не удалось предложить приемлемый сценарий прибавления звуков к жестам. Жесты, как вспомогательное средство общения, и сегодня продолжают использоваться современным человеком. Невербальные (несловесные) средства общения, в том числе жесты, изучает паралингвистика как отдельная дисциплина языкоznания.

Tayanch so‘z va iboralar: aloqa vositasi, tabiiy-ilmiy talqin, ilohiy kuch, hozirgi holicha, takomillashuv jarayoni, bosib o‘tmoq, inson miyasining mahsuli, ishga qodir, hal qiluvchi qadam, nutq qobiliyati, mudofaa, hamjihatlik ko‘rsatish, samarali, tobora boyimoq, mushtarak, kasb etmoq, jismonan taraqqiy etmoq, miqdoriy jihatdan, ilgarilab ketmoq, aql bovar qilmas darajada, jon berib, jon olmoq, sharofati bilan, xususiyat, yaqinlashuv, ilmiy faraz, vujudga kelmoq, ilohiyot tortig‘i, muvofiqlashtirish vositasi, chambarchas bog‘liq.

I. Quyidagi so‘zlardan fe’llar yasang.

Fikr, talqin, kuch, shakl, takomil, takror, asos, harakat, ifoda, foyda, ilgari, uzoq, yaqin, muvofiq.

Matnni o‘qing.

TILNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Til – insonlar orasidagi aloqa vositasi, jamiyat a’zolarining fikrni ifodalashi va o‘zaro fikr almashishi uchun xizmat qiladigan vosita. Tilning tabiiy-ilmiy, diniy-dunyoviy talqinlari bor. Diniy talqinga ko‘ra, til ilohiy kuch tomonidan yaratilgan va hozirgi holicha insonga berilgan. Dunyoviy talqiniga ko‘ra, til hozirgi ko‘rinishi darajasiga yetguncha juda uzoq evolutsion jarayonlarni, ya’ni insonning o‘zining shakllanishi va takomillashuvi jarayonlari bilan teng davrni bosib o‘tgan. Ilm-fan inson tiliining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rganishi natijasida shunday xulosaga keldiki, til aloqa vositasi, nutq sifatida, shubhasiz, faqat inson miyasining mahsulidir. Ayrim boshqa jonivorlar, masalan, shimpanze, to‘tiqush, chug‘urchiqlar ham insonga xos tovushlar chiqarib "gaplashadi", hatto, ayrim hollarda jumla va iboralarni takrorlaydi. Biroq ular inson kabi gaplashishga qodir emas.

Og‘zaki nutqqa o‘rganish – insoniyatning evolutsion taraqqiyotida hal qiluvchi qadam bo‘ldi. Nutq qobiliyati unga inson sivilizatsiyasi asoslarini qurish imkoniyatini yaratdi. Dastlabki inson jamoalari og‘zaki nutqni birgalikda harakat qilish, mudofaa, umuman, faoliyatning hamma turlarida hamjihatlik ko‘rsatish, hamkorlik qilish, buyruqlarni ifodalash maqsadiga qaratganlar va bundan uzoq vaqt samarali foydalanganlar. U paytlardagi inson tiliining so‘z boyliklari ko‘p miqdorda bo‘lmasa-da, davr o‘tishi bilan, ayniqsa, kishilar, jamoalar bir-birining tilini boyitish imkoniyatlari tufayli u tobora boyib, takomillashib bordi. Chinakam ommaviy nutq yuzaga keltiruvchi har bir kishining nutqiy tajribasi juda qisqa va o‘tkinchi bo‘lgan, ya’ni vafot etishi bilan uning tajribasi ham o‘lgan.

Bir kishining nutqi insoniyatning umumiy mushtarak nutqiy tajribasi sifatida avloddan-avlodga o‘tib, avval og‘zaki, keyinchalik yozma ko‘rinishini kasb etguncha juda uzoq zamonlar o‘tgan. Biroq til og‘zaki va yozma nutq sifatida to‘la shakllangach, u insonning ham jismonan, ham ijtimoiy jihatdan juda tez taraqqiy etishini ta’minladi. Til tufayli insoniyatning ijtimoiy hayoti, uning naslining miqdoriy jihatdan o‘sishi ham aql bovar qilmas darajada ilgarilab ketdi. Bir vaqtlar tropik o‘rmonlarda oddiy tirikchilik uchun jon berib, jon olib yurgan odamzod nutq sharofati bilan zaminning yakka-yu yagona egasiga aylandi. Ibtidoiy odamlarning dastlabki muomala vositalari va so‘zlaridan tortib, tilning bugungi darajasiga yetguncha insoniyat 3 mln. yildan kamroq masofani bosib o‘tdi. Shakllanish, taraqqiy etish va takomillashish jarayonlarida tillar, dastlab, ko‘proq mushtaraklik vazifasini bajargan, ya’ni bugungi kunda turli tillarda gaplashayotgan millat va elatlar, avvallari bir-birini tushunadigan bir tilda gaplashgan, vaqt o‘tishi bilan, turli-tuman obyektiv sabablar tufayli, ular bir-birlaridan uzoqlashib, tillari o‘zaro farqlanadigan shaklga kelgan. Tillarning bunday ajralish jarayoni (differensiatsiya) natijasida ko‘pchilik uchun mushtarak aloqa vositasi bo‘lgan bir tildan keyinchalik bir necha til yuzaga kelgan.

Hozir tilshunoslikda turkiy tillar deb yuritilayotgan tillar bir-biridan nafaqat uzoqlashish, ajralish xususiyatiga, balki bir-biriga yaqinlashish, bir-birini boyitish xususiyatiga ham egadir.

Tilning kelib chiqishi va evolutsiya bosqichlari haqida turli xil ilmiy farazlar ilgari surilgan. Ulardan ayrimlari, til tovush tili sifatida yuzaga kelgan desa, boshqalari til dastlab imo-ishora tili ko‘rinishida bo‘lgan deydi. Til odamlar orasida aloqa vositasi sifatida ehtiyoj tufayli tabiiy suratda vujudga kelgan (Aflatun), o‘zaro aloqa qilish uchun tilni odamlarning o‘zлari yaratganlar (Demokrit), til ilohiyot tortig‘i (“Injil”, “Qur’on”) kabi qarashlar ham bo‘lgan.

Til, shubhasiz, jamiyatda ijtimoiy mehnat, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelgan muayyan jamoa, odamlar guruhi yoki alohida shaxs faoliyatini muvofiqlashtirish vositasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Til va tafakkur o‘zaro ajralmas, chambarchas bog‘liq hodisalardir. Lekin ularning ikkovi bir narsa emas. Til tafakkurning ifoda shakli va yashash tarzi sifatida inson ongingin shakllanishida ham muhim o‘rin tutadi.

?Matn bo‘yicha topshiriqlar

I. Savollarga javob bering.

1. Diniy nuqtayi nazardan til qanday talqin qilinadi?
2. Ilm-fan tilning taraqqiyot bosqichlarini o‘rganib, qanday xulosaga keldi?
3. Til qanday yo‘l bilan takomillashib bordi?
4. Turli tillarning yuzaga kelishi qanday izohlanadi?
5. Tilning paydo bo‘lishi haqida allomalarining qanday fikrlari bor?
6. Til – bu tafakkurmi?

II. Matndan quyidagi gaplarning mazmuniga mos gaplarni toping.

1. Kishilar bir-birlari bilan til yordamida axborot almashadilar.
2. Til uzoq davr mobaynida rivojlanib, shakllanib kelgan.
3. Jamiyatning taraqqiy etishida tilning ahamiyati katta.
4. Qachondir mushtarak bo‘lgan bitta tildan paydo bo‘lgan tillar endi bir-birini boyityapti.
5. Til jamiyatda inson faoliyatini tartibga solib turadi.

**O‘ZBEK TILIDA BIR HARAKATNING TURLI SHAKLLARINI
KO‘RSATISH USULLARI**
(Ko‘makchi fe’llar)

O‘zbek tilida mustaqil fe’llarga qo‘shilib harakatning turli shakllarini bildiruvchi fe’llar *ko‘makchi fe’llar*, uning yordamida hosil bo‘lgan birlik *ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi* deyiladi. Maxsus ko‘makchi fe’llar yo‘q. Ba’zi mustaqil fe’llar mustaqil fe’l bilan birikib, o‘z ma’nosini qisman yo‘qotadi. Bunday qo‘shilma quyidagi shaklda bo‘ladi:

Mustaqil fe’l + **-b, -ib** + *ko‘makchi fe’l*

Mustaqil fe’l + **-a, -y** + *ko‘makchi fe’l*

Masalan: *kulib yubordi, ishlay boshladni, kuta berdi*

Ko‘makchi fe’l vazifasida quyidagi fe’llar kelishi mumkin: *boshlamoq, ko‘rmoq, bermoq, turmoq, yozmoq, qo‘ymoq, o‘tmoq, yubormoq, solmoq, kelmoq, bormoq...*

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi: *fe’l + a, -y + boshlamoq.*

Harakatning boshlanayotganligini bildiradi:

Ertalab soat to ‘qqizdan kitob o‘qiy boshladim.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi: **fe’l+ b, –ib + ko‘rmoq** – harakatni bajarishga urinish, sinash ma’nolarini bildiradi.

Men bu matnni tarjima qilib ko‘rdim, juda qiyin ekan.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi: **fe’l + -b/-ib + olmoq** – harakatni subyekt o‘zi uchun bajarishini bildiradi.

O‘zing uchun bilib olishing kerak.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi : **fe’l + -a/-y + olmoq** – harakatni bajarish imkoniyatiga egalik ma’nosini beradi.

Men sizga yordam bera olaman.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi : **fe’l + -b/-ib + bermoq** – harakatning boshqa odam uchun bajarilishi ma’nosini bildiradi.

Iltimos, menga telefon raqamingizni yozib bering.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi : **fe’l + -b/-ib + turmoq** – harakatning davomiyligi, takrorlanishini bildiradi.

Uni ko‘rib turaman (tez-tez ma’nosida).

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi : **fe’l + -b/-ib + qo‘ymoq** – harakatning tez va oson bajarishini bildiradi.

Ishni tugatib qo‘ying.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi: **fe’l+ – a , -y yozmoq** – harakatning sodir bo‘lish xavfini bildiradi:

U yiqilayozdi (ya’ni, yiqilishiga sal goldi).

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi: **fe’l + -b/-ib + yubormoq** – harakatning kutilmaganda bajarilganini, biror harakatni bajarishga ko‘maklashishni, iltimosni bildiradi:

Menga ko‘rsatib yuboring. U kulib yubordi.

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli fe’llarni qo‘ying: **kirib o‘tmoq, ko‘rib qolmoq, turib qolmoq, sevib qolmoq, qilib turmoq, harakat qilib ko‘rmoq, tushuntirib bermoq, tashlab o‘tmoq.**

1. Kecha kutubxonada eski tanishimni.....
2. Iltimos, darsdan qaytayotganingda dorixonaga, menga dori kerak.
3. Shohruh bugun darsga kelmadи. U kasal
4. Biz kecha u bilan uchrashishimiz kerak edi. Men ozgina kechikdim. U yomg‘ir tagida
4. Qayerga borasiz? Men mashinadaman. Yo‘limiz bir bo‘lsa sizni...5. Bu juda qiyin vazifa, lekin-sa bo‘ladi
6. Men faqat shu qiz haqida o‘layapman. Men uniganga o‘xshayman.
7. Nutqni

shakllantirish uchun muntazam ravishda mutolaa kerak. 8. Yangi mavzuni yaxshi tushunmaganim uchun o‘qituvchi yana bir bor menga.....

2-mashq. *Nuqtalar o‘rniga -b, -ib qo‘ymoq,-a yozmoq so‘zlarini qo‘ying.*

1. Iltimos, agar Shahnoza bilan uchrashsangiz, unga mana shu kitobni ber.... 2. E, sal bo‘lmasa unuta....., sizga bir odam berib qo‘ying degan edi. 3. Sen kechqurun hamma narsangni tayyorla....., ertalab soat 6 da seni olib ketish uchun mashinada kelaman. 4. Men suv havzasiga bormayman, suzishni yoqtirmayman. Bolaligimda suvga cho‘ka....., shundan keyin suvdan qo‘rqib qolganman. 5. U mening gapimga quloq solmayapti, iltimos, o‘zingiz gaplash..... 6. Ertaga dars bo‘lishini guruhga ayt..... 7. Kechirasiz, sizning suvingizni bilmasdan ich.... 8. Bil...., hamma ekkanini o‘radi.

3- mashq. *Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlani qo‘ying.*

1. Sumkangiz o‘g‘irmi, keling,..... 2. Yoningizdagi joy bo‘shmi, iltimos, ozgina..... 3. Bugun kechqurun bo‘shmisiz? Mening uyimga mehmonlar kelishmoqchi. Bir o‘zim ulgurmayapman. Agar vaqtingiz bo‘lsa menga... 4. Uxlab yotganimda birdan telefon qo‘ng‘irog‘i jiringladi, men.... 5. Iltimos, menga Samarqandda nima qilganingizni.... 6. Samolyotda bir ayol bilan tanishdim. U Toshkentda 5 yildan beri yashar ekan. Toshkentga yetib kelguncha u bilan..... 7. Siz qanday ovqatni yaxshi ko‘rasiz? Sizga nima 8. Shoshilmang, ovqatimiz pishdi, ozgina

yordamlashib yubormoq, ko‘tarishib yubormoq, surilib yubormoq, gapirib bermoq, gaplashib ketmoq, uyg‘onib ketmoq, pishirib qo‘ymoq, yeb ketmoq.

4-mashq. *Boshlamoq , kutmoq, turmoq yoki ko‘rmoq fe’lidan foydalananib, qavslarni oching.*

Namuna. Men uyning egasi bilan (gaplashmoq), balki u ijara narxini bir oz kamaytirar. – Men uyning egasi bilan gaplashib ko‘raman, balki u ijara narxini bir oz kamaytirar.

1. Men kechadan golf oynashni (o‘rganmoq).
2. Mana shu uzumni (yemoq).
3. Sendan olgan kitobni kecha (o‘qimoq).
4. Bugundan rus tilini (o‘rganmoq).

5. Toshkentda kunlar ancha salqin, sentabr oxiridan yomg‘ir (yog‘moq).
6. Mashina haydashni bilasizmi? Xohlasangiz, mening mashinamni (haydamoq).
7. Mana bu somsani yeb..., juda mazali. 8. Iltimos, menga ruchkangizni berib..., mening ruchkam yozmayapti. 9. Meni kutib..., men hozir do‘konga borib kelaman.
10. Men bu matnni tarjima qilib.... , juda qiyin ekan.

6 Tinglang. “*Qudalarni kutib olish*”. (*Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidan parcha*).

I. So‘z va birikmalarni tushuntiring: quda, savdogar, yo‘l ustiga ketmoq, ish boshida turmoq, hashar, joy-joyiga qo‘ymoq, yog‘ tushsa yalagudek holga keltirmoq, hozirlatmoq, ziyofat, bo‘g‘izlatmoq, g‘o‘non qo‘y, eski holicha, bitmoq, osh egasi bilan shirin, imlamoq, saranjom, xor tutmoq, bahs qilmoq, lom-mim demay, qars ikki qo‘ldan chiqadi, buzoq yaxshi bo‘lsa, ikki onani emadi, suyunchi bermoq, ko‘rmana bermoq, undirib olmoq, alang-jalang, g‘arq bo‘lmoq,

II. Savollarga javob bering:

1. Yusufbek hojining xonadonida nimaning taraddudi bo‘layotgan edi?
2. O‘zbek oyim nima maqsadda qo‘shni ayollarni hasharga chaqirdi?
3. Zaynab bu tayyorgarliklarni ko‘rib, qanday holatda edi?
4. O‘zbek oyim Zaynabga qanday ish buyurdi?
5. Nima uchun O‘zbek oyim Yusufbek hojini ichkariga chaqirdi?
6. O‘zbek oyim qudalari haqida nimani so‘radi?
7. O‘zbek oyim mehmonlarga yangi qudasi haqida nimalarni gapirdi?
8. Hasanali nima uchun suyunchi so‘radi?
9. Zaynab Kumushni qanday kutib oldi?

III. Fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilang:

- ✓ Savdogarlar marg‘ilonlik qudalarning kelishlari aniq bo‘lgani haqidagi xabarni olib kelishdi. – To‘g‘ri.

- ✓ O‘zbek oyim qo‘shti ayollarni chaqirib, hovlini yog‘ tushsa yalagudek holga keltirgan edi . –
- ✓ Zaynab ozgina xafa edi. –
- ✓ Zaynab dasturxonga asal qo‘yilmaganini aytди –
- ✓ O‘zbek oyim Zaynabga dasturxonni tuzatib bo‘lgach, kulcha yasashini buyurdi. –
- ✓ O‘zbek oyim mehmonlar kelmaguncha qo‘yni so‘ymaslikni so‘radi. –
- ✓ Yusufbek hoji Zaynabning otasi dalaga ketganini, onalari esa kelishmoqchi bo‘lganini aytди –
- ✓ Oybodoq tashqarini tozalardi, qolganlar non yasashga o‘tirdilar. –
- ✓ O‘zbek oyim ayollarga Oftob oyim (Kumushning onasi) Otabekning Toshkentdan uylanishiga qarshi bo‘lmaganini aytди –
- ✓ Oybodoq qudalar kelganini aytib, suyunchi oldi. –
- ✓ Hasanali ko‘rmanasini olmaguncha qudalarni ichkariga kiritmadi. –
- ✓ Hamma ko‘zi bilan Kumushni qidirishardi. –
- ✓ Oftob oyim Kumushning uyalayotganini aytganidan keyin, O‘zbek oyim uni o‘zi ichkariga chaqirdi. –
- ✓ Zaynabni ko‘rib Kumush hayron qoldi. –
- ✓ Yusufbek hoji Kumushning peshonasidan o‘pib, uni duo qildi. –
- ✓ Yusufbek kelgan mehmonlarni duo qildi. –

Tarjima qiling.

УТРЕННИЙ ПЛОВ

Одним из давних и обязательных узбекских обрядов является утренний плов. Он готовится в преддверии таких мероприятий как рождение ребенка, свадьба, помолвка, поминки и в других случаях. День утреннего плова определяется заранее, и организаторы рассылают приглашения своим родственникам, друзьям и соседям.

Накануне вечером проводится небольшой обряд «сабзи туграр», что переводится как «шинкование моркови». Морковь – один из основных

ингредиентов плова наряду с рисом и мясом, именно морковь придает плову сочность. После нарезки моркови подаются угощения, а старейшины распределяют обязанности между мужчинами, так как готовить, подавать, а также есть утренний плов, могут только мужчины.

Подается утренний плов сразу после утренней молитвы «бомдод намози», которая заканчивается с восходом солнца. Как только утренняя молитва будет закончена, на плов приходят первые гости. К столу подаются лепешки, сухофрукты, закуски и чай, а на улице начинают играть музыканты на узбекских национальных инструментах (карнай-сурнай), сообщая всем о начале утреннего плова.

На столы подаются большие блюда— ляганы с горячим пловом. Обычно, один ляган рассчитан на двоих человек. Перед трапезой гости читают фотиху (благодарственную молитву) хозяину и повторяют ее после утреннего плова. На поминальном утреннем плове вместо фотихи читаются суры из Корана, нет музыкантов и стол накрывают скромнее. Обычно утренний плов занимает от полутора до двух часов, а по окончании трапезы самым почетным гостям преподносят подарки.



O‘tilganlar yuzasidan topshiriqlar

Savollarga javob bergan holda “Badiiy asarning ahamiyati” mavzusida matn tuzing. Tayanch so‘zlardan foydalaning.

1. Badiiy asar o‘qiysizmi?
2. Kitoblardan nima olish mimkin?
3. Hozirgi kunda yoshlarda badiiy asarga ehtiyoj bormi?
4. Taraqqiyot kuchaygan sari “badiiy asarlar o‘z kuchini yo‘qotadi ” degan fikrga baho bering?
5. Asar qahramonlari yashashga o‘rgatadi, degan fikrga qo‘shilasizmi?

Tayanch so‘zlar: ma’naviy ozuqa, adabiyotning mavqeい, estetik zavq, qiziqish, qahramonlar taqdiri, eskicha qarashlar, ilm-fan taraqqiyoti, almashtirmoq, katta kuch (qurol), kitobxon, voqealar, tarixiy, sarguzasht asarlar, sevgi qissalari, sevimli, ma’naviy barkamollik, ma’naviyat asosi.

👉 **O’zingizni tekshiring**

1. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘s himchani qo‘ying.

Ishimni o‘zim bit... ib qo‘yaman.

- A. -ir
- B. -tir
- C. -qaz
- D. -il

2. Nuqtalar o‘rniga mos fe’llarni qo‘ying.

1. Men xatni unga 2. U taklifimni rahbarga 3. Matnni talabalarga 4. G‘olib talabalar ma’muriyat tomonidan..... .

- A. yozdirdim, yettirdi, tarjima qilishdi, mukofotladilar
- B. yozdim, yetkazdi, tarjima qildirdim, mukofotlashdi
- C. yozdirdim, tushuntirdi, tarjima qildirdim, rag‘batlantirildi
- D. yozdirdim, aytdi, o‘qildi, rag‘batlanishdi

3. “Men uchun qiling” ma’nosini ifodalovchi ko‘makchi fe’lni toping:

- A. fe’l + -b/-ib + olmoq
- B. fe’l + -b/-ib + bermoq
- C. fe’l + -b/-ib + yubormoq
- D. fe’l + -b/-ib + qo‘ymoq

4. Nuqtalar o‘rniga “olmoq” ko‘makchi fe’lini qo‘ying.

- A. Kechirasiz, shu kitobni o‘qituvchiga berib ...
- B. Havo juda sovuq, ustingizga issiqroq kiyim kiyib ...

- C. Hamma keldi, darsni boshlay ...
- D. Bu kitobni allaqachon o‘qib....

5. Qaysi qatorda ko‘makchi fe’l noto‘g‘ri qo‘llangan.

- A. Men sizni kuttirib qo‘ydimmi?
- B. Sizga berib turaman.
- C. Iltimos, menga u haqida ozgina gapirib qo‘ying.
- D. Bu kitobni bir kunda o‘qib chiqasiz.

6. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi noto‘g‘ri berilgan qatorni toping.

- A. Kulib yubordi
- B. Ko‘rib qoldi
- C. O‘qib berdi
- D. Boshlay boshladи

7. Nuqtalar o‘rniga mos qo‘shimchalarni qo‘ying.

“Ma’naviyat” tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodala...adigan ko‘plab ta’rifini kel...ish mumkin. “Ma’naviyat” tushunchasining mazmuni faqat “ma’ni” “ma’no” degan so‘zlar doirasida chegarala...ib qolmaydi. Nega de...ganda , ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tuta...di.

- A. –in, -tir, -0, -il, -il;
- B. –n, -tir, -n, -0, -0;
- C. –0, -tir, -t, -il, -il;
- D. –n, -tir, -0, -il, -0;

8. Quyidagi fe’llardan orttirma nisbat yasang.

Kelmoq, tasdiqlamoq, ochmoq, gapirmoq, ketmoq.

- A. –kaz, -tir, -dir, -tir, -qaz
- B. –tir, -t, -tir, -tir, -tir

- C. -tir, -t, -ir, -tir, -kaz
- D. -tir, -t, -tir, -tir, -giz

9. Mos ko‘makchi fe’lni qo‘ying.

Yuragi, tafakkuri, mafkurasi, niyati boshqa bo‘lgan kimsalar bundan buyog‘iga aravadan tushib qoladi.

- A. boshlamoq
- B. bermoq
- C. olmoq
- D. yozmoq

10. Mos ko‘makchi fe’lni qo‘ying.

Xomashyo zaxiralari nazorat qilinmaganligi natijasida ular tashib ket

- A. -ib boshlandi
- B. -a boshlandi
- C. -ila boshlandi
- D. -ishni boshladi

Mustaqil ta’lim

SAYYORA

Sayyora onasidan uch yuz ming so‘m olgan edi. Buni, albatta, Tursunali aka bilmasdi. Biroq Tursunali akaning o‘zi ham qiziga pul ayamasdi, ko‘p yuborardi, bundan tashqari deyarli har hafta meva-cheva, pista-bodom yuborib turardi. Balki shuninig uchun ham Sayyora kursdosh qizlar ichida eng yaxshi va chiroyli kiyinadigan qiz edi. Lekin, shu bilan birga, ba’zi qizlarga o‘xshab molparast emas edi. U narsa qidirmas edi, biror narsa kerak bo‘lsa, darrov yaqin o‘rtadagi do‘kondan topib kelardi. Lekin shu qiyinchiliksiz topib kelgan narsasi ham o‘ziga yarashar va hammaning havasini keltirar, dugonalari “ Qayerdan olding?” deb so‘ray boshlar edilar.

Sayyora odamlar bilan bo‘lishni, ular qizmi, yigitmi, bari bir bo‘sh vaqtini zavq bilan quvnoq o‘tkazishni yaxshi ko‘rardi. Buni bilib qolgan yigitlar uni doimo o‘zлari bilan birga olib yurishar, uni o‘z singillaridek ko‘rishardi. Qizlar bilan ham uning aloqasi yaxshi edi. Kursdosh qizlar tez-tez unikiga kelib turishar, sirlarini unga aytishar edi.

Sayyora dadasining xatini esladi: “Abdulla yaxshi yuribdimi? U bilan aloqalaring qalay? Mendan salom aytib qo‘y, yaqinda maqolasi chiqqan jurnalni yuboraman...”

Dadasining ilmoqli gapi uni birinchi marta turmush qurish haqida jiddiy o‘ylashga majbur qildi. U ko‘p yigitlarga yoqishini bilardi. Ular-chi? Ular unga yoqadimi? Sayyora o‘zi bilgan yigitlarni bir-bir eslab ko‘rdi. Yo‘q, ular unga yoqmasdi. Hammasi yaxshi yigitlar, lekin hech biri yuragini jizzillatmaydi. Abdulla-chi? U boshqa gap. Ko‘p o‘qiydi, aqlli, tartib bilan kiyinadi. Bolalar hazillashib uni “Bo‘lajak Eynshteyn” deyishardi. Lekin bu hazilda qandaydir haqiqat bor. Hech kim uning kurs ishi, juda yengillik bilan tayyorlagan kurs ishi, bunchalik muvaffaqiyatlari chiqadi, deb o‘ylamagan edi. Ba’zi uni ko‘rolmaydiganlar hasaddan yorilayozdi. Abdulla unga katta hurmat bilan qarar va uni doimo o‘zidan baland qo‘yar edi. Buni Sayyora bilardi. Shuning uchun ham u boshqa yigitlardan ko‘ra uni o‘ziga yaqin tutar, hatto ba’zan eng yashirin sirlarini ham unga aytib yuborar edi. Tanish-bilishlari ichida eng yaxshisi – shu. Lekin Sayyora uni sevadimi? Sevib qolishi mumkinmi? Agar sevmasa-chi? U sevgisiz hayotni istamaydi.

Bu xayollar Sayyoraning boshini g‘ovlatib yubordi.

(O‘lmas Umarbekovdan)

Matn bo‘yicha savollar

1. Matnni o‘qing va tarjima qiling.
2. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini toping, ko‘makchi fe’llarning vazifasini tushuntiring.
3. Sizningcha, Sayyora qanday qiz?
4. Sayyoraning hayot tarziga qanday baho berasiz?

5. Oila va muhabbatga munosabatingizni yozma ravishda bayon qiling.

6-DARS

O'ZBEKISTON VATANIM MANIM

6A

Tayannch so'z va iboralar:

geografik joylashuv, shimol, shimoli-sharq, sharq, janubi-sharq, chegaradosh, past tekislik, bepoyon, yerosti boyliklari, o'rtacha, dasht-u cho'llar, singib ketmoq, xomashyo, allaqachon, o'rtasida, geologik tuzilishi, foydali qazilmalar, zaxirasiga ega, o'zgaruvchan, quyilmoq, ta'min etib turuvchi, sun'iy ko'llar, o'rmon va tog'oldi

 **Matnni o'qing.**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

(HUDUDI VA IQLIMI)



O'zbekiston Respublikasi Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan, maydoni 447,4 ming kv.km. Respublika chegarasi g'arbdan sharqqa – 1425 km, shimoldan janubga qadar – 930 km. masofani tashkil etadi.

Respublika shimolda va shimoli-sharqda – Qozog'iston, sharqda va janubi-sharqda – Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda – Turkmaniston, janubda esa – Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Afg'oniston bilan davlat chegarasining uzunligi – 137 km., Qozog'iston bilan – 2.203 km., Qirg'iziston bilan – 1.099 km., Tojikiston bilan – 1.161 km. va Turkmaniston bilan – 1.621 kmdan iborat.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida juda qulay tabiiy-geografik sharoitlarga ega. Mamlakat hududi o‘ziga xos pasttekislik va tog‘ relyefini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston hududining katta qismini (4/5 qismi atrofida) pasttekisliklar tashkil etadi. Shulardan eng muhimi Turon pasttekisligidir. Mamlakat sharqi va shimoli-sharqida Tyan-Shan va Pomir tog‘ (mamlakatning eng yuqori nuqtasi (4643m.) tizmalari joylashgan. O‘zbekiston hududi markazida dunyoning bepoyon cho‘llaridan biri – Qizilqum yastanib yotadi.

Mamlakat yerosti boyliklari tabiiy gaz, qo‘ng‘ir va toshko‘mir, oltin, mis, volfram, vismut hamda ochiq neft konlari zaxirasiga ega.

O‘zbekiston iqlimi keskin o‘zgaruvchan kontinental (mo‘tadil) iqlimdir. Mintaqadagi kunduzgi va tungi, yozgi va qishki havo harorati keskin farqlidir. Yillik havo harorati farqi sezilarli darajada yuqori. Yanvar oyining o‘rtacha harorati -6⁰ gacha tushadi, iyul oyida o‘rtacha havo harorati +32⁰ gacha ko‘tariladi. Pasttekislik hududlarida yillik yog‘ingarchilik miqdori -120-200 mm., cho‘l hududlarida -1000 mm. gacha yetadi. Yog‘ingarchilik miqdori kam bo‘lgani sababli, qishloq xo‘jaligi sun’iy sug‘orish tizimiga bog‘liqdir.

Mamlakatning eng yirik daryolari Amudaryo va Sirdaryo. Amudaryo uzunligi -1437 km., Сирдарё -2137 км.га етади. O‘zbekistonning ko‘pgina ichki daryolari suvi oquvi davomida keng dashtu-cho‘llarga singib ketadi, faqatgina Amudaryo va Sirdaryo Orol dengiziga borib quyiladi. Respublikada mamlakatni yil davomida suv bilan ta’min etib turuvchi Chordara kabi bir necha sun’iy ko‘llar mavjud.

Tuproq va o‘simliklari. Pasttekisliklar – cho‘l o‘simliklaridan, tog‘lari esa dasht, o‘rmon va tog‘oldi yaylovları o‘simliklaridan iborat.

Hayvonot dunyosi. Mamlakat faunasi juda turli-tumandir. Cho‘llarda juda kamyob hisoblanadigan sayg‘oq va uzunligi 1,5 metrga keladigan echkiemar, baland tog‘larda esa ilvirs va tog‘ echkisining noyob turlari uchraydi.

Respublika hududining 1/5 qismini tog‘ va tog‘oldi hududlari tashkil etadi. Sharqiy hududi o‘rta va baland tog‘li relyefdani iborat: respublika hududi G‘arbiy Tyan-Shan (Ugom, Pskem, Chotqol va Qurama tog‘ tizmasi) va Pomir-Oloy

(Zarafshon, Turkiston, Hisor, Qo‘hitangtog‘ va Boysuntog‘ tog‘ tizmasi) tog‘ tizmalari yonbag‘rini o‘z ichiga oladi. Janubdan g‘arbga tomon ular qiyalab boradi va pasttekislikka qo‘shilib ketadi. Ushbu tog‘lar orasida ulkan Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon va Samarqand vohalari yastanib yotadi. Bularning eng kattasi hisoblangan Farg‘ona vodiysi bo‘ylamasiga – 370 kilometr, kengligi esa 190 kilometrga yetadi. U uch tomondan baland tog‘lar bilan o‘ralgan va faqat g‘arb tomonigina tekislikdir. Afg‘oniston bilan chegaradosh hududda Amudaryo deltasi yoyilib yotadi.

O‘zbekiston Respublikasi ulkan sanoat va minerallar xomashyo, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, qayta ishlash jarayonida olinadigan katta miqdordagi yarim tayyor mahsulotlar, tabiiy boylik zaxiralari va rivojlangan infratuzilma imkoniyatlariga ega.

Yerosti zaxiralarini zamонавиу ravishda izlab topish ishlari qimmatbaho, rangli va noyob metallar zaxiralari, turli organik yoqilg‘i mahsulotlari, neft, tabiiy gaz va gaz kondensati, qo‘ng‘ir va yarim koksga oid ko‘mir, slanes yoqilg‘isi, uran va ko‘pgina qurilish uchun zarur xomashyo turlariga boy konlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liqdir.

O‘zbekiston hududida taxminan yuzdan ortiq mineral xomashyonи o‘z ichiga olgan, binobarin bulardan oltmis turi xalq xo‘jaligida allaqachon foydalanilayotgan ko‘pgina foydali qazilmalar kompleksi aniqlangan.

O‘zbekiston oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy tuzi, fosforitlar, kaolin kabi foydali qazilmalar zaxirasi bo‘yicha nafaqat MDH davlatlari o‘rtasida, balki butun dunyoda yetakchi o‘rin egallashi tasdiqlangan. Jumladan, oltin zaxirasi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi, uni qazib olish bo‘yicha yettinchi, mis zaxirasi bo‘yicha o‘ninchи-o‘n birinchi o‘rnlarni, uran zaxirasi bo‘yicha yettinchi-sakkizinchi, qazib olishda o‘n birinchi-o‘n ikkinchi o‘rnlarni egallashi qayd etilgan.

? Matn bo‘yicha savol va topshiriqlar:

I. Savollarga javob bering.

- Xaritaga qarab O‘zbekiston joylashuvini tushuntiring.
 - O‘zbekistonning iqlimi haqida gapib bering.
 - O‘zbekistonda qanday tog‘lar bor?
 - O‘zbekiston hududida qanday vohalar bor?
 - Quyidagi fikri qaysi abzasga qo‘sish mumkin:
- Mintaqada suv tanqisligi mumammozi mavjud.*

II. *Gaplarning xato yoki to‘g‘riligini aniqlang:*

- Respublika shimolda va janubi-sharqda Qozog‘iston bilan chegaradoshdir.
- Respublika g‘arbda Turkmaniston, sharqda esa Afg‘oniston bilan chegaradoshdir.
- Respublika sharqda va janubi-sharqda Qirg‘iziston va Tojikiston bilan chegaradoshdir.
- O‘zbekiston iqlimi keskin o‘zgaruvchan nomo‘tadil iqlimdir.
- Respublika hududining yarmi tog‘oldi hududidir.
- Tog‘lar orasida ulkan Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon va Samarqand vohalari bor. Bularning eng kattasi – Surxondaryo vodiysi.
- O‘zbekiston oltin zaxirasi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchchi o‘rinda turadi.

G R A M M A T I K A

O‘ZBEK TILIDA HARAKAT VA HOLAT BELGISINING IFODALANISHI (*Ravish*)

Ravish harakatning belgisi, tarzi, miqdori, payti, o‘rni, sababi, maqsadi kabilarni, shuningdek, belgining belgisini bildiradi. Quyidagi ma’no turlari bor:

Holat – harakatning qay tarzda bajarilishini bidiradi: **astoydil, sekin, zo‘rga, to‘satdan, birdan, tasodifan, rostdan, yolg‘ondan;**

payt – harakatning bajarilish paytini bildiradi: **hozir, hamisha, hanuz, doim, sira, hech qachon, bemahal, vaqtida, oldin, keyin, so‘ng, ba’zida, hali, yana;**

o‘rin – harakatning bajarilish o‘rnini bildiradi: **atrofda, quyida, pastda, yuqorida, tepada, oldinda, orqada, tubida, yaqin, uzoq, har yerda;**

miqdor-daraja – harakatning bajarilish darajasi va miqdorini bildiradi: **picha, xiyol, ozgina, ko‘p, mo‘l, ancha, juda, o‘ta, sira;**

maqsad – harakatning maqsadini bildiradi: **ataylab, jo‘rttaga, qasddan;**

sabab – harakatning bajarilishi sababini bildiradi: **noilojlikdan, choraszlikdan, majburan.**

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Quyidagi ravishlar ishtirokida gap tuzing.

jindek, sal, sira, yaxshilab, yana, birdan, to‘satdan, asosan, qisman, zo‘rg‘a, ataylab, jo‘rttaga, qasddan, har safar, endi, italyancha.

2-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying:

tubi, piyoda, o‘ta, sal, atrofda, sira, yonida, yaqinda, tez, sekin, yaxshi, ko‘p, hozir.

1. Universitet uyimga juda yaqin, shuning uchun har kuni darsga boraman.
2. Bu yaxshililingizni.... unutmayman.
3. Test savollari....qiyin ekan, men juda past ball yig‘dim.
4. Bu shim menga....katta ekan, kichkinarog‘i bormi?
5. Bubiror kafe yoki oshxona bormi?
6. Dengiz suvi juda tiniq edi, shu sababli uningdagi toshlarni va baliqlarni bemalol ko‘rish mumkin edi.

Kichik matn . Matnni o‘qing va tarjima qiling.

JALOLIDDIN MANGUBERDI

Jaloliddin Manguberdi so‘nggi Xorazmshoh edi. Tarixiy manbalarda aytilishicha, u o‘rta bo‘yli, to‘ladan kelgan, bug‘doyrang kishi bo‘lgan. Tashqi

ko‘rinishidan haqiqiy turkiy edi. Turkiycha so‘lashar edi. Biroq forschani ham juda yaxhi bilar edi. Tabiatan bosiq kishi edi. Kamgap, jiddiy va mag‘rur edi. U hech qachon kulmas, kulimsirar, oz gapirar edi.

Jaloliddin tashkilotchiligi va qahramonligi sababli tarixda sira o‘chmas nom qoldirdi. Chunki u mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashdi va Iroq, G‘arbiy Eron va Ozarbayjonda yangi bir hokimiyat yaratdi.

Jaloliddin otasining vafotidan keyin taxtga o‘tirgan. Chingizzon hujum qilgach, unga qarshi kurashishga kuchi yetmagan va 300 ta odami bilan vatani Xorazmni tashlab ketgan. Uning 11 yillik hayoti janglarda o‘tdi.

Uning qahramonliklari haqida ko‘p ma’lumotlar bor. Eng katta va xavfli dushmani Chingizzon uning jasurligiga tan bergen. Sind daryosi bo‘yidagi jangda Jaloliddin yengiladi va daryoni kechib Hindistonga o‘tadi. Bu jangda Jaloliddinning 7 yoshli o‘g‘li Chingizxonga asir tushadi va vahshiyarcha o‘ldiriladi. Shundan keyin Jaloliddin hamma xotinlarini va hatto onasini ham mo‘g‘ullarga asir tushmasligi uchun Sind daryosiga cho‘ktiradi. Buni ko‘rgan Chingizzon o‘z hayratini yashira olmay: “Bir otaning ana shunday o‘g‘li bo‘lishi lozimi”, – deydi.

(“Tafakkur” jurnalidan)

3-mashq. *Nuqtalar o‘rniga ravishlarni qo‘ying: atrofda, forschha, choraszilikdan, astoydil, sira, ataylab, yana, har doimgidek, ozgina, turkcha*

1. Jaloliddin Manguberdiyaxshi bilar edi.
2. Jaloliddinning ona tili....edi.
3. O‘zbek xalqi Jaloliddinning qahramonliginiunutmaydi.
4. Ukechikdi va bizni kuttiradi.
5. Senharakat qilsang, maqsadingga yetasan.
6. Men bu gullarni....siz uchun terdum.
7. O‘qituvchi Davronga “Agar....kechiksangiz, men sizni darsga kirgizmayman”, – dedi.
8. Iltimos, ijodiy bayonni tugatish uchun menga yana.....vaqt bering.
9. Bu.....kitob do‘konibormi?
10. Jaloliddinning Chingizxonga kuchi yetmaganidan keyin,vatani Xorazmni tashlab ketdi.

4-mashq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Еще есть время, подождите чуть-чуть. 2. Все время я думаю о тестах. 3. Вокруг тихо, никого нет. 3. Он это нарочно сказал, чтобы обидеть меня. 4. Нигора притворилась, как будто спит. 5. Мы специально поехали в Самарканд, чтобы увидеть надгробие Ходжи Даниел. 6. Иногда я читаю узбекские газеты. 7. Все дела нужно делать в свое время. 8. Внизу дана важная информация, вы можете использовать эту информацию в своей работе. 9. Везде новые постройки, красивые новые здания. 10. Я никогда не был за рубежом.

5-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘ying: *ataylab, jindek, asosan, birdan, yaxshilab, jo‘rttaga*

1. Juda charchaganga o‘xshaysiz..., dam oling. 2. Onam men uchun... Koreyadan guruch pishiradigan asbob yubordi. 3. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida..... ijtimoiy fanlar o‘qitiladi. 4. Bugun ertalab havo ochiq edi. Lekin kunduzi osmonda bulut paydo bo‘lib..... yomg‘ir yog‘a boshladı. 5. Bu odamni yoqtirmayman. U bilan gaplashishni xohlamayman. Shuning uchun ko‘chada uni ko‘rganimda..... o‘zimni ko‘rmaslikka olaman. 6. Qaror qabul qilishdan oldin.... o‘yla.

⌚ Tinglang. Toshkent tarixi

? Savol va topshiriqlar:

I. *Gaplarni „ha“ yoki „yo‘q“ javoblari bilan tasdiqlang yoki inkor qiling.*

- Toshkent vohasining maydoni Tyan-Shan tog‘ining g‘arbiy yonbag‘irlaridan boshlanadi.
- Toshkent sharqida Ugom, Tyan-Shan va Chatqol tog‘lari bilan o‘ralgan.
- Ugom, Piskom va Chatqol daryolari Chirchiq daryosini hosil qiladi.
- Shosh – Toshkentning o‘rta asrdagi poytaxti.

- XVI asrda shahar chekkasida Anhor arig‘i bo‘lgan.

II. Savollarga javob bering.

- Toshkent shahri necha yoshda?
- Toshkentning qadimiy poytaxti qanday nomlangan?
- Toshkent vohasining joylashish o‘rnini tushuntiring.
- Toshkent shahrida qanday shahar xarobasi bor va u qayerda joylashgan?
- Kaykovus qanday ariq?

Matnni tarjima qiling.

SAMARKAND

According to Sanskrit texts, the original name of Samarkand was "Markanda", named after the Vedic saint of the same name – Markanda. The Greeks later referred to the city as Maracanda, which is a corruption of its former Sanskrit name.^[2] The city was known by an abbreviated name of Marakanda when Alexander the Great took it in 329 BC. There are various theories of how Marakanda evolved into Samarkanda/Samarkan. It is common to prefix "as" or "su" to names in Sankrit to denote its good nature, hence Sumarkanda. Another derives the name from the Old Persian *asmara*, "stone", "rock", and Sogdian *kand*, "fort", "town".

History

Samarkand was conquered by the Sassanians around AD 260. Under Sassanian rule the region became an essential site for Manichaeism, and facilitated the dissemination of the religion throughout central Asia.

After the Sassanian disaster against the Hepthalites who managed to conquer Samarkand, Samarkand was controlled by the Hepthalites until they were defeated by the Göktürks, in an alliance with the Sassanid Persians during the Battle of Bukhara. The Turks ruled over Samarkand until they were defeated by the

Sassanids during the Göktürk–Persian Wars. After the Islamic conquest of Iran the Turks conquered Samarkand and held it until Turkic qaghanate collapsed due to wars with the Chinese Tang Dynasty. During this time the city became a protectorate and paid tribute to the ruling Tang. The armies of the Umayyad Caliphate under Qutayba ibn Muslim captured the city in around AD 710.

During this period, Samarkand was a diverse religious community and was home to a number of religions, including Buddhism, Zoroastrianism, Hinduism, Manichaeism, Judaism and Nestorian Christianity. However, after the Arab conquest of Sogdiana, Islam became the dominant religion in Samarkand, with much of the population choosing to convert.

☒ O ‘tilganlar yuzasidan topshiriqlar:

1. O ‘zbekistonning biror viloyati haqida matn tuzig.

2. Matnda ravishlarning barcha turlarini qo ‘llang.

6B


Tayanch so‘z va iboralar:

viloyat markazi, charaqlab turmoq, boshqaruvi, iqtisodiy va madaniy markaz, savdo markazi, temuriylar sultanati, tarixiy va madaniy qiymati, tarixiy va madaniy yodgorliklar, saqlash, e’tibor qaratmoq, bir qator, xalqaro tashkilotlar, keng ko‘lamli, chorlamoq, konlar, yirik sanoat markazlari.

☰ Matnni o‘qing.

SAMARQAND VILOYATI

Samarqand viloyati O‘zbekiston
Respublikasining markazida, Zarafshon



vodiysida joylashgan bo‘lib, shimoli-sharqda Jizzax viloyati, sharqda Tojikiston Respublikasi, janubda Qashqadaryo viloyati, g‘arbda va shimoli-g‘arbda Navoiy viloyati bilan chegaradosh.

Viloyatning katta shaharlari: Samarcand, Kattaqo‘rg‘on, Urgut, Oqtosh, Bulung‘ur, Juma, Jomboy, Chelak, Ishtixon.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, yilning 300 ga yaqin kunida quyosh charaqlab turadi, yoz kunlarining uzunligi 15 soatgacha yetadi.

Viloyatning boshqaruv, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lgan Samarcand shahri eramizdan avvalgi VIII asrda tashkil topgan. Samarcand shahri O‘zbekistonda ikkinchi yirik shahar hisoblanadi. Shahar asrlar davomida Buyuk Ipak yo‘lining yirik savdo markazi sifatida tilga olingan.

XIV asrdan boshlab XV asrlargacha bu shahar temuriylar sultanating poytaxti vazifasini o‘tagan va o‘sha davrlarda yirik ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan.

Samarcandning tarixiy va madaniy qiymatini hisobga olib, O‘zbekiston hukumati ushbu qadimiy va hamisha navqiron shaharning tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlashga alohida e’tibor qaratmoqda.

Xususan, 2007-yilda YUNESKO boshchiligidagi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda nishonlangan Samarcand shahrining 2750 yilligi oldidan Shohi Zinda majmui, Hazrati Xizr masjidini qayta tiklash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borildi.

Samarcand shahrida 1997 – yildan buyon har ikki yilda bir marta o‘tkazib kelinadigan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali dunyoning barcha burchaklaridan yuzlab Sharq musiqasi sozandalari va ixlosmandlarini o‘z bag‘riga chorlaydi.

Samarcand viloyati tabiiy boyliklarga boy. Viloyat hududida, xususan, volfram, mis, ohak, marmar, gips, keramzit, aluminiy, granit va boshqa konlar mavjud.

Viloyat O‘zbekistonning yirik sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda "Samarcand avtomobil zavodi", "8-Mart" mas’uliyati cheklangan

jamiyati, "JV MAN AVTO", "BAT O'zbekiston", "Daka Teks", "Sam-Antep-Gilam", "Praga-Pivo", "Agromir Samarkand" qo'shma korxonalar, "Samarqandlift", "Sino", "Samarqandkimyo" aksionerlik jamiyatlari kabi ko'plab mamlakat ahamiyatiga molik sanoat korxonalar faoliyat yuritmoqda.

? Matn bo'yicha topshiriqlar

• Xaritadan Samarqand viloyatining geografik joylashish o'rmini tushuntirib bering.

- Viloyat iqlimi qanaqa?
- Ushbu gap matnning qaysi abzasi mazmuniga mos keladi?


Samarqandda hozirgi kunda har xil madaniyat va san'at tadbirlari o'tkaziladi.

- Samarqand shahrining 2750 yilligi qachon o'tkazilgan?
- 1997-yilda Samarqandda qanday tadbir o'tkazilgan?

G R A M M A T I K A

HARAKAT BELGISINING HARAKAT YORDAMIDA IFODALANISHI

(Ravishdosh)



- + -b,-ib, -a, -y
- + -gancha
- + -gach (-kach-qach), -guncha(-kuncha,-quncha)
- + -gani (-kani, -qani)

Harakatning belgisini bildiradi. Quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

Fe'l+-b, -ib, -gancha – harakatning qay tarzda bajarilishini ifodalaydi:

Kulib gapirdi, suyanib o'tirdi, gapiргancha kirib keldi.

Ishlay-ishlay charchadim.

Qo‘lida bir nimani ko‘targancha xonaga shoshib kirib keldi.

Fe‘l+-gach, (-kach, -qach), -guncha (-kuncha, – quncha, -kuncha) – harakatning bajarilish paytini bildiradi:

Dars tugagach, ketamiz. Ko‘chaga chiqqach, taksi to‘xtatamiz. Ko‘ylakni tikkach, dazmolladi. U kelguncha, biz uyni tozalaymiz.

Dars tugagach, biz uygashetdi.

Biz toza havoda nafas olgani ko‘chaga chiqdik.

Fe‘l+-gani (-kani, -qani) – harakatning maqsadini bildiradi:

Ko‘rgani keldi, tikkani o‘tirdi, chekkani chiqdi.

Sen dars tayyorlab bo‘lguncha, men ovqat pishiraman.

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. *Qavs ichidagi so‘zlarni kerakli shaklda qo‘ying.*

1. Dars (tugamoq) yana yigirma daqiqa bor. 2. Telefonda uning ovozi juda yomon eshitildi, shuning uchun men (baqirmoq) gapirdim. 3. Taksiga (o‘tirmoq) haydovchidan so‘radim: “Sheraton” mehmonxonasi gacha taksi haqi necha pul?” 4. Ertalab do‘sting seni (ko‘rmoq) keldi. Sen kech qaytding, u seni (kutmoq) zerikdi va ketib qoldi. 5. Eshik qo‘ng‘irog‘i jiringladi. Eshikni ochdim – bir guruhsiz kursdoshlarim katta guldaстani (ko‘tar) xonaga kirdilar. 6. Sen meni (kechirma) hech qayoqqa ketmayman.

2- mashq. *Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘ying:*

-gancha, -guncha, -gani.

1. U xonaga shoshib, qo‘lida kitob ko‘tar... kirib keldi. 2. Oxirgi raund tuga... hali 5 daqiqa bor. 3. Men kiycin..., sen choy ichib tur. 4. Zafarning maqolasi gazetada chiqdi, u xursand bo‘lib, gazetani qo‘lida ushla... do‘shtlariga ko‘rsatish uchun yugurdi. 5. Menga ruxsat bersangiz, qo‘limni yuv... chiqmoqchiman.

Tinglang

? Matn bo‘yicha topshiriqlar

I

- Xorazm qadimda qaysi hududda joylashgan?
- “Avesto”da bayon qilingan voqealar asosan, Arianam Vayja mamlakatida, mamlakatida bo‘lib o‘tadi” jumlasidagi “Arianam Vayja” qanday ma’noni bildiradi?
- “Avesto” qanday kitob?
- Qadimgi xorazmliklar qanday fanlar bilan shug‘ullanganlar?
- Qo‘yqirilgan qal’a ibodatxonami?
- Qo‘yqirilgan qal’ada qanday hujjat topilgan?
- “Mouru”, “Gava” nomlari qanday joy nomlarini anglatadi?

II. Gaplarni to‘g‘rilang.

- „Avesto“da faqat Eron haqida ma’lumot berilgan, chunki u Eronda topilgan.
- Xorazmda X asrdan boshlab matematika fani paydo bo‘lgan.
- Milodiy I ming yillikning boshlariga kelib, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida birinchi davlat uyushmalari paydo bo‘ldi.
- Xorazmnинг madaniy yodgorligi Qo‘yqirilgan qal‘asidir, u harbiy qo‘rg‘on bo‘lgan.
- Xorazmnинг yirik sug‘orish inshootlari XVII-XIX asrlada vujudga kelgan.

Tarjima. Matnni o‘z so‘zlarining bilan tarjima qiling.

**“А УМИРАТЬ ПОЕДЕМ В САМАРКАНД, НА РОДИНУ
ПРЕДВЕЧНЫХ РОЗ...”**

Странная строка: “Я не была здесь лет семьсот...”! Почему она так приковывает внимание? И дело здесь не в гиперbole – вряд ли гипербола способна так поразить сознание, как эта, ахматовская. В ней таинственность человеческой памяти узнавания чего-то давным-давно знакомого и позабытого. И сейчас, так же, как и семь веков тому назад,

льётся милость с непрекаемых высот азийского неба, ничего не изменилось в надёжной устойчивости природы Азии. Её покой нерушим. Отсюда и “Он прочен, мой азийский дом”. Отсюда и радость её домашнего азийского бытия, и желание вернуться – “Ещё приду”, и ахматовское благословение Востоку – “Цвети, ограда, будь полон, чистый водоём!”

Анна Ахматова:

**“А УМИРАТЬ ПОЕДЕМ В САМАРКАНД, НА РОДИНУ ПРЕДВЕЧНЫХ
РОЗ...”**

В ноябре 1941 года, поэтесса Анна Ахматова была перевезена из осажденного Ленинграда в Узбекистан. “Именно в Ташкенте, я впервые узнала, что такое палящий жар, древесная тень и звук воды. А еще я узнала, что такое человеческая доброта”, напишет она в мае 1944 года, когда сможет, наконец, вернуться домой.

Почти все стихи, написанные ею в Узбекистане были о Ленинграде, но Восток всё равно проступал сквозь все тяготы войны. С пристальным вниманием Анна Ахматова отмечала приметы Востока. Запоминала музыкальный строй арычных струй, вдыхала запах роз, как бы примериваясь к необычайной высоте синевы неба. В трудное для всех время, одинокой поэтессе помогали не только соседи, рядом с которыми она поселилась в тихом узбекском дворике, но и малознакомые люди. Они окружили ее вниманием, поддерживали – кто словом, а кто и ароматной горячей лепешкой, гроздью янтарного, душистого винограда. Щедрость и доброту узбекского народа Ахматова вспоминала еще долгие годы спустя, посвятила ей строки своих стихов:

Я не была здесь лет семьсот, напишет она про Узбекистан,

Но ничего не изменилось...

Всё так же льётся Божья милость

С непрекаемых высот...

O'tilganlar yuzasidan topshiriqlar:

1. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” mavzusida matn tuzing.
(O‘zbekistondagi o‘zingiz tashrif buyurgan biror joy – mehmonda, qarindoshlarnikida,... haqida taassurotlaringiz).
2. Matnda ravishdoshlarni qo‘llang va ma’nosini tushuntiring.



O’zingizni tekshiring

1. Maqsad ma’nosini ifodalashda qo‘llaniladigan vositalarni toping.

- A. -gani, -sin deb, -(i)sh uchun
- B. -tufayli, sababli, negaki
- C.-(b) -ib, -gancha, – gach
- D-a, -y, -ganda, -sa kerak

2. Maqsad ma’nosi ifodalangan gapni toping.

- A. Albert Eynshteyn o‘n to‘rt yoshga to‘lganda gimnaziyaga kiradi.
- B. Toza havodan nafas olgani ko‘chaga chiqdim.
- C. Ko‘p o‘qigani uchun ko‘p narsa biladi.
- D. Qo‘rqidan dag‘-dag‘ titrar edi.

3. Maqsad ma’nosini ifodalovchi so‘zlar berilgan qatorni topnig.

- A. ataylab, jorttaga, qasddan
- B. sababli, tufayli, maqsadda
- C. do‘srlarcha, qo‘rqlarcha, mardona
- D. uyalgandek, astoydil, samimiyl

4. Payt ma’nosi ifodalangan so‘zlar qatorini aniqlang.

- A. oldinda, orqada, olg‘a
- B. hamisha, hanuz, bultur
- C. piyoda, to‘satdan, daf‘atan

D. birga, birdan, ro‘parada

5. Harakatning bajarilish o‘rni ifodalangan gapni toping.

- A. Ertalab uydan chiqayotganimda havo ochiq edi.
- B. Sen qayerda bo‘lsang, men ham o‘sha yerda bo‘laman.
- C. Bugungi kunda terrorchilik zamonamizning global muammosiga aylandi.
- D. Olis zamonlarda ozod va obod bir yurtga dushman bostirib kiribdi.

6.O‘rin ma’nosini ifodalovchi so‘zlar berilgan qatorni aniqlang.

- A. hozir, kecha, hamisha
- B. picha, jindek, xiyla
- C. atrofda, har yerda, qarshida
- D. oldin, keyin, saharlab

7. Noto‘g‘ri tuzilgan gapni toping.

- A. Yakshanba kuni guruhimiz bilan Samarqandni aylangani boramiz.
- B. Durdona qo‘lida gulasta ko‘targuncha xonaga kirib keldi.
- C. Vaqtingni bekor o‘tkazguncha kitob o‘qi.
- D. Do‘sting seni kutib-kutib ketdi.

8. Qaysi gap sabab mazmunini ifodalaydi?

- A. Do‘stimning onasi bizni kulib kutib oldi.
- B. U darsga kelmaganining sababini tushuntirdi.
- C. Yosh Abdulla ham o‘qib, ham ishslash kerak bo‘lganidan u noiloj bittasini tanlashga majbur bo‘ldi.
- D. O‘qishni tugatgach qayerda ishlamoqchisan?

9. Qaysi qatorda daraja bildiruvchi so‘zlar keltirilgan?

- A. kam, mo‘l, jichcha, zig‘ircha
- B. o‘ta, sira, nihoyatda, g‘irt
- C. atrofda, quyida, olg‘a, har yerda

D. piyoda, mashinada, sekin, tez

10. Qaysi qatorda holat bildiruvchi so‘zlar keltirilgan?

- A. samimiy, badjahl, erinchoq, sergap
- B. mo‘l-ko‘l, o‘lgudek, hozircha, haftalab
- C. uyatsizlarcha, qahramonona, zo‘rg‘a, birga
- D. allamahal, hamisha, haligacha, bultur

7-DARS

INSON VA TABIAT

(Ekologiya masalalari)

7A

Tayanch so‘z va iboralar:

Ekologiya, qurshab turmoq, uzviy bog‘liq, millat salomatligi, me’yordagidek hayot, hayot kechirmoq, oziq-ovqat, aralashmalardan xoli, nazarda tutmoq, sanoat chiqindilari, yutmoq, birdek, dolzarb, ifloslanish, muntazam, to‘laqonli, do‘stona, dushmanlarcha, farovonlik, ruhiy va ijtimoiy xotirjamlik, to‘yingan, o‘pka.

I. Qavslarni ochib, birikmalar tuzing.

Xavfsiz (demoq) emas, biz (qurshab turmoq) dunyo, ekologiya (to‘g‘risida) bilimlar, zararli moddalar (xoli bo‘lmoq), (chiqindilar) zararlangan suv, havoni (tozalamoq), tabiiy mexanizmlar, (tozalik) bog‘liq, (sahahar tashqarisi) uy, (tozalamoq) majbur.

II. Ekologiya tushunchasiga ta’rif bering.

EKOLOGIYA

Ekologiya so‘zi ikki qismdan iborat: “oykos” – uy, “logos” – fan degani. Ya’ni ekologiya biz hammamiz yashayotgan “uy”, bizni qurshab turgan atrof-muhit haqidagi fandir. Mazkur atamani birinchi bo‘lib 1866-yilda biolog E. Gekkel taklif qildi. Ekologik bilimlar bu – atrofimizni qurshab turgan olamni tashkil qiluvchi barcha narsalar to‘g‘risidagi bilimlardir; hayvonlar va atrof-muhit o‘rtasidagi munosabatlarning jamini uzviy bog‘liq va alohida holda o‘rganish, eng muhim, ushbu munosabatlarning do‘stona yoki dushmanlarcha ekanligini aniqlashdir. XIX asrning 80-yillari oxiriga kelib, ekologiya mustaqil biologik fan sifatida shakllandi.

“Salomatlik – bu faqat biror-bir kasalga chalinmaganlik yoki jismoniy nuqsondan xoli ekanlik emas, to‘laqonli jismoniy, ruhiy va ijtimoiy xotirjamlik, farovonlik holatidir” (“Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti nizomi”dan). Salomatlikni organizm bilan atrof-muhitning dinamik muvozanati sifatida talqin qilish mumkin.

Atrof-muhitning holati ko‘p jihatdan millat salomatligi darajasini belgilaydi.

Barchamizga ma’lumki, me’yordagidek hayot kechirayotgan inson organizmiga quyosh energiyasidan tashqari havo, suv va oziq-ovqat zarur. Ushbu zaxiralar organizm uchun zararli bo‘lgan aralashmalardan xoli bo‘lishi kerak. Bunda biz zarur oziq-ovqat, suv, havoning ekologik tozaligini nazarda tutamiz. Hozirgi kunda ekologik jihatdan toza oziq bilan tarkibida natriy, salomatlik uchun xavfli emulgatorlar, bo‘yoqlar bo‘lgan oziq-ovqatlar, toza tabiiy yoki sifatli filtrlangan suv bilan sanoat chiqindilaridan zararlangan suv – ikkisidan birini tanlashga to‘g‘ri kelmoqda.

Odam havosiz 3 daqiqa ham yashay olmaydi. Inson bir kun davomida 24 kg.gacha havo yutadi, bu xuddi shuncha vaqt ichida ichilgan suvdan deyarli 16 marta ko‘pdir.

Afsuski, havoda organizm uchun zararli bo‘lgan aralashmalar tobora ortib bormoqda, ichkarida, xona ichida esa uning sifati bundan ham past; biz hayot uchun xavfli bo‘lgan moddalar bilan to‘yingan havodan nafas olishga majburmiz. Bu narsa uyimizning qayerdaligiga bog‘liq emas, shahar tashqarisidagi hovli uchun ham, shahardagi xonadon uchun ham ushbu muammo birdek dolzarbdir.

Hayotimizning asosiy qismini havoni tozalovchi tabiiy mexanizmlar bo‘lmanan uyda o‘tkazar ekanmiz, biz uni o‘pkamiz bilan tozalashga majburmiz, negaki ifloslanish muntazam davom etib turadi.

? Matn bo‘yicha topshiriqlar:

1. Savollarga javob bering.

- Ekologiya so‘zi qanday ma’noni angalatadi?
- Salomatlik nima?
- Inson yashashi uchun eng zarur narsalar nima?
- Atrof-muhit deganda nimani tushunasiz?
- Nima uchun biz havoni o‘pkamiz bilan tozalashga majburmiz?

2. Quyidagi fikr matnning qaysi abzasiga tog‘ri keladi?

Hozirgi kunda transgen mahsulotlarning iste’mol qilinishi olimlarni jiddiy tashvishga solyapti.

3. Matnda gaplarni bog‘lovchi vositalarni toping.

G R A M M A T I K A

SO‘Z YOKI GAPLARNI BIR-BIRIGA BOG‘LOVCHI VOSITALAR **(Bog‘lovchilar)**

Gapda so‘zlarni va qo‘shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiladigan so‘zlar bog‘lovchilardir.

O‘zbek tilida bog‘lovchilar ikki xil shaklda qo‘llaniladi:

1. **Yakka holda:** va, hamda, ammo, lekin, chunki, shuning uchun, negaki, agar, garchi.

2. **Takroriy holda:** bir...bir, xoh...xoh, dam...dam, goh...goh, yoki...yoki, yo...yo, ba’zan...ba’zan.

Bog‘lovchilar ma’nosи va vazifasiga ko‘ra ham ikki xil bo‘ladi:

1) **Teng bog‘lovchilar** so‘zlar va gaplarni teng asosda bog‘laydi. Ular quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

- a) biriktiruv bog‘lovchilari: *va, hamda, ham;*
- b) zidlov bog‘lovchilari: *ammo, lekin, biroq, holbuki;*
- c) ayiruv bo‘lovchilari: *dam...dam, goh..., goh, yoki...yoki, yo...yo,*
- xoh...xoh;*
- d) inkor bog‘lovchisi: *na...na;*
- e) *bo‘lsa, esa* bog‘ lovchisi.

⌚ **Eslab qoling:** 1) **-u, -yu** yuklamasi biriktiruv va zidliv bog‘lovchilari o‘rnida qo‘llanishi mumkin: *Nimadir demoqchi bo‘ldi-yu, indamadi. Nimadir demoqchi bo‘ldi, lekin indamadi.* – *Kutobni oldim-u, sening oldingga yugurdim.* – *Kutobni oldim va sening oldingga yugurdim.* 2) **-da** yuklamasi biriktiruv bog‘lovchisi o‘rnida qo‘llanishi mumkin: *Chiroqni o‘chirdi-da, sekin derazadan tashqarida qaradi.* – *Chiroqni o‘chirdi va sekin derazadan tashqarida qaradi.* 3) **bilan** ko‘makchisi biriktiruv bog‘lovchisi o‘rnida ishlatalidi: *Men bilan akamni chaqirishdi.* – *Men va akamni chaqirishdi.* 4) **balki** modal so‘zi bog‘lovchi bo‘lib kelishi mumkin: *Jahon moliyaviy inqirozining ta‘siri pasaymadi, balki yanada kengroq miqyosda tarqala boshladi.*

2) **Ergashtiruvchi bog‘lovchilar** tobe-hokim munosabatli fikr birliklarini bog‘laydi. Quyidagi turlari bor.

- a) Aniqlov bog‘lovchisi: **-ki**, ya’ni, toki. *Shuni bilamanki, haqiqat men tomonda.*
- b) Sabab bog‘lovchisi; **shuning uchun, chunki, negaki**: *Kecha juda kech uqlashga yotdim, shuning uchun bugun ertalab ko‘zimni ocha olmadim.*
- c) Shart bog‘lovchisi: **agar, basharti, modomiki, garchi, garchand, mabodo**. *Agar xohlasangiz, choy olib kelaman. garchi, garchand bog‘lovchilari to‘siqsizlik ma’nosini ham ifodalaydi.*

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga bog‘lovchilarni qo‘ying: va, hamda, lekin, -u, -yu, -da, yoki, goh...goh.

1. Fevral oyi ham boshlandi,... hali deyarli qor yog‘madi. 2. Bu uy ikkalamiz uchun kichkina. Bu uyda...men yashay, ...sen yasha. 3. Uyga kirib kiyimlarimni almashtirdim....kompyuter oldiga o‘tirdim. 4. Qiz menga qaradi, keyin nimadir demoqchi bo‘ldi..., hech narsa demadi. 5. Hozirgi kunda.... ekologik jihatdan toza oziqni....tarkibida natriy, salomatlik uchun xavfli emulgatorlar, bo‘yoqlar bo‘lgan oziq-ovqatlarni tanlashga to‘g‘ri kelmoqda. 6. O‘zbekistonnig tog‘li hudularida iqlim keskin kontinentaldir, ba’zan kunduzi juda issiq boladi, ...kechqurun havo harorati keskin pasayishi mumkin. 7. Biz doim do‘stim bilan uchrashib turamiz, bo‘sh vaqtimizni.....tabiatda,.....kino, teatrda o‘tkazamiz.

2-mashq. Gaplarni zarur bog‘lovchilar yordamida bog‘lang.

Namuna: Ko‘p oqi. Ko‘p bilasan. / Agar ko‘p o‘qisang, ko‘p bilasan.

<p>1. Tabiatni asrash – hammaning burchi.</p> <p>2. Orol muammosi haqida juda ko‘p gapirildi.</p> <p>3. Bu ishda faqat Rustam aybdor emas.</p>	<p>Inson tabiatning ajralmas qismi.</p> <p>Muammoning yechimi topilgani yo‘q.</p> <p>Hammamizning aybimiz bor.</p> <p>Bir oycha kasalxonada davolandim.</p>
--	---

<p>4. Bu semestrda yig‘gan ballarim uncha balang bo‘lmadi.</p> <p>5. Bu mevalar ko‘rinishidan uncha chiroyli emas.</p> <p>6. Genetik aralashmalari bo‘lgan meva va sabzavotlarning oddiyalaridan farqi shu</p>	<p>Ular mazali va turli genetik o‘zgartirishlardan xoli.</p> <p>Ular juda tekis, yirik va chiroyli bo‘ladi.</p>
--	---

🎧 *Tinglang. Orol dengizi*

I. *Matn mazmuniga mos gaplarni belgilang.*

- ✓ Orol Markaziy Osiyodagi eng katta berk soy.
- ✓ Orolning shimoli-sharqiy qismi O‘zbekistonda joylashgan.
- ✓ Orol dengizi atrofida aholi kam bo‘lgan.
- ✓ Orol dengizi bo‘yidagi aholi dehqonchilik bilan shug‘ullangan.
- ✓ Aralsk va Mo‘ynoq shaharlari va bu shaharlar atrofida ko‘p sonli baliq ovlash xo‘jaliklari bo‘lgan.
- ✓ Orol ko‘lida navigatsiya 4 oy bo‘ladi.

II. *Fikrni davom ettiring.*

- ✓ Orol dengizining maydoni
- ✓ Orol dengizi kattaligi jihatidan dunyoda.....
- ✓ Orol dengizining suv sathi o‘zgarib turadi, bu-ga bog‘liq.
- ✓ Suvdagи tuzlarning ko‘p qismi.....
- ✓ O‘zining kimyoviy tarkibiga ko‘ra
- ✓ Dengiz dekabr o‘rtalaridan boshlab.....
- ✓ Dengizning suvi uning markaziy qismida juda tiniq, lekin.....
- ✓ Aholisi kam bo‘lgan, asosan,
- dengizning suvi shuncha kamayib borgan.

- ✓ Dengiz har yili 1 km³ hajmdagi suvni yo‘qotishining sababi.....
- ✓ Hozirgi kunda esa Orol dengizi

Tarjima qiling.

Экология

Экология — наука о взаимодействиях живых организмов и их сообществ между собой и с окружающей средой. Термин впервые предложил немецкий биолог Эрнст Геккель в 1866 году в книге «Общая морфология организмов» («Generelle Morphologie der Organismen»).

Современное значение понятия экология имеет более широкое значение, чем в первые десятилетия развития этой науки. В настоящее время чаще всего под экологическими вопросами ошибочно понимаются, прежде всего, вопросы охраны окружающей среды. Во многом такое смещение смысла произошло благодаря всё более ощутимым последствиям влияния человека на окружающую среду, однако необходимо разделять понятия ecological («относящееся к науке экологии») и environmental («относящееся к окружающей среде»). Всеобщее внимание к экологии повлекло за собой расширение первоначально довольно чётко обозначенной Эрнстом Геккелем области знаний (исключительно биологических) на другие естественнонаучные и даже гуманитарные науки.

Классическое определение экологии^[1]: наука, изучающая взаимоотношения живой и неживой природы.

Второе определение дано на 5-м Международном экологическом конгрессе (1990) с целью противодействия размыванию понятия экологии, наблюдаемому в настоящее время. Однако это определение полностью исключает из компетенции экологии как науки аутэкологию (см. ниже), что в корне неверно.

Вот некоторые возможные определения науки «экология»:

Экология – познание экономики природы, одновременное исследование всех взаимоотношений живого с органическими и неорганическими

компонентами окружающей среды... Одним словом, экология – это наука, изучающая все сложные взаимосвязи в природе, рассматриваемые Дарвином как условия борьбы за существование. Экология – биологическая наука, которая исследует структуру и функционирование систем надорганизменного уровня (популяции, сообщества, экосистемы) в пространстве и времени, в естественных и изменённых человеком условиях.

Экология – наука об окружающей среде и происходящих в ней процессах.

7B

Matnni o‘qing.

Tayanch so‘z va iboralar: dushman, sayg‘oq, jayron , qaraganda, xartum, mavjud, tana og‘irligi, urg‘ochi, paydo bo‘lmoq, dunyoga kelmoq, o‘tsiz, taqir, yerli, kuchga to‘lmoq, ko‘chish, boshoqli o‘simpliklar, erman, oziqlanmoq, jonvor, sakramoq, suzib o‘tmoq, o‘ljasiga aylanmoq.

SAYG‘OQ



Sayg‘oq jayronga bir oz o‘xshab ketadi, ammo ular oq jayronga qaraganda balandroq (75sm.gacha yetadi) bo‘ladi. Oyoqlari kaltaroq, katta boshi doim pastga qaragan, bir oz xartumni eslatadigan burni ham mavjud. Nar sayg‘oqlar 50 kg.gacha yetadigan tana og‘irligiga ega bo‘lishadi, urg‘ochilari esa kamroq. O‘zbekistonda sayg‘oqlar oktabr-noyabr oylarida paydo bo‘ladi. Ular Ustyurt va Qizilqum shimalida keng yonbag‘irliklar bo‘ylab o‘tblab yurishadi. Dekabr oyi davomida ko‘payish davri bo‘ladi. May oyiga kelib 2 ta, kam hollarda 1 ta sayg‘oq dunyoga keladi. Urg‘ochi sayg‘oqlar yangi avlodni dunyoga keltirish

uchun o‘tsiz, taqir yerli hududlarni tanlaydi. U yerdagi yer rangi tufayli sayg‘oqlarni hatto bir necha metrdan aniqlash qiyin. Yosh sayg‘oqlar kuchga to‘lishgach, to‘dalar respublika hududidan chiqib ketadilar, shimol va sharqqa tomon ko‘chishni boshlashadi. Kuzda esa yana qaytib keladilar. Sayg‘oq boshoqli o‘simliklar, erman bilan oziqlanadi. Sayg‘oqlar to‘da bo‘lib yashaydi. Yakka holda uchramaydi. To‘dalar har xil, bir nechta jonivordan yoki bir necha ming sayg‘oqdan iborat bo‘ladi. Ammo ko‘pincha 30-40 boshdan iborat to‘dalar uchraydi. Kuzda, kurashlardan keyin nar sayg‘oqlar 5-10 ta urg‘ochi sayg‘oqdan iborat to‘da tuzadi. Kurashlar vaqtida kuchsiz sayg‘oqlar halok bo‘ladi. Sayg‘oqlar 70km/soat tezlikda yugura olgani uchun bo‘lsa kerak, hayvonlar ichida ularning dushmani kam. Bundan tashqari sayg‘oq suvga sakrab, Sirdaryodek daryolarni suzib o‘tadi. Faqatgina kuchsiz va kasal sayg‘oqlar bo‘rilar o‘ljasiga aylanadi.

? Matn bo‘yicha topshiriqlar:

I. Savollarga javob bering.

Sayg‘oqlar qanday jonivorlar?

Sayg‘oqlar bilan oq jayronlarning farqi nimada?

Sayg‘oqlar qayerda hayot kechiradilar?

Sayg‘oqlar qanday bolalaydilar?

Sayg‘oqlar qanday tezlikda chopadilar?

II. Xato gaplarni to‘g‘rilang.

Sayg‘oqlar oq jayronlardan farq qilmaydi.

Sayg‘oqlar faqat bittadan bolalaydilar.

Sayg‘oqlar yakka holda yoki ikkita yoki uchta bo‘lib yashaydilar.

Sayg‘oqlar juda nozik hayvonlar, ular suvda suza olmaydilar.

Sayg‘oqlarning hayvonlar orasida dushmanlari ko‘p.

**BIRGALIK, VOSITA, MAQSAD, O'RIN, JO'NALISH, DAVOMIYLIK
MA'NOLARINI IFODALOVCHI YORDAMCHI SO'ZLAR**

(Ko'makchilar)

Ko'makchilar quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- **Vosita:** Qalam *bilan* chizdi. Ko'priq *orqali* o'tdik.
- **Yo'nalish:** O'ng *tomonga* buriling. Uyga *qarab* yurdi.
- **O'rinn-joy:** Xona *ichi* bo'm-bo'sh.
- **Atalganlik:** Bu gullar – siz *uchun*.
- **Sabab:** Suvsizlik *tufayli* o'simliklar quridi.
- **O'xshatish, qiyoslash:** U ham siz *kabi* talaba.

Ko'makchilarni kelishik qo'shimchalari o'rnida qo'llash mumkin: Poyezdda keldim – Poyezd *bilan* keldim.– Bu uyni o'g'liga qurgan.– Bu uyni o'g'li *uchun* qurgan. **Seni** o'yladim – Sen *haqingda* o'yladim.

Ko'makchilar quyidagi kelishikdagi so'zlardan keyin qo'llanadi:

Bosh kelishikdagi so'zdan so'ng: *bilan, uchun, singari, kabi, sayin, sari, yoqalab, sababli, tufayli, orqali.* Talabalar *uchun* suv havzasini qurildi.

Qaratqich kelishigidagi so'zdan so'ng – *old, orqa, yon, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o'rinn, qosh, yoqa, ro'para.* Ko'cha o'rtasida to'xtadi.

Chiqish kelishigidagi so'zdan so'ng – *so'ng, avval, keyin, burun, ilgari, boshqa, tashqari, o'zga, bo'lak, boshlab, tortib.* Kechadan beri seni kutaman.

Jo'nalish kelishigidagi so'zdan so'ng – *ko'ra, qadar, qarab, qarata, asosan, yarasha, muvofiq.* Javobiga **yarasha** baho oldi. Buyrug'ingizga **binoan** keldim.

⌚ **-dek, -day** qo'shimchasi o'rnida ham ko'makchi ishlatish mungkin: Sizdekkog'lom – Siz **kabi** sog'lom. Shunday joylar – Shu **singari** joylar.

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli ko‘makchilarni qo‘ying: uchun, sari, orqali, haqida, bilan, oldiga, kabi

1.Men siz ...irodali vaadolatli bo‘lishni istayman. 2. Inson o‘z...maqsad qo‘yishi kerak va shu maqsad ...intilishi kerak. 3. Universitet ichkarisiga shu darvoza...kiriladimi? 4. Beruniyning yozishicha, zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”ning oltin suvi... yozilgan nusxasi podsho Doro ibn Doro kutubxonasida saqlangan. 5. O‘zingning taqdiring...o‘zing o‘ylashing kerak, chunki, shoir aytganidek, odam o‘z taqdirini o‘zi yaratadi. 6. Bu gullarni ataytlab siz... oldim.

2-mashq. Qo‘shimchalarni ko‘makchilar bilan almashtiring.

1. Inson baxtli yashashga intiladi.
2. Buni unga bur necha marotaba aytdim.
3. Men do‘stim bilan “chat”da gaplashaman.
4. Kitobdan hayot haqida ko‘p narsa o‘rganish mumkin.
5. Hayvonlar hayotini kuzatib, ba’zan ular insonlardek mehr tuyg‘usiga ega, deb o‘ylayman.
6. Tabiatda inson o‘zini uning bir bo‘lagidek his qiladi.

3-mashq. Gaplarni tarjima qiling.

1. Я ходил в общежитие к другу.
2. Вчера он ходил в поликлинику к глазному врачу.
- 3.Вы знакомы с ним?
- 4.Чем вы интересуетесь: музыкой или литературой?
- 5.Чем мы измеряем давление воздуха?
6. Я переводил этот текст с большим трудом.
7. Мы смотрим этот фильм с удовольствием.
- 8.Он зайдёт за книгой завтра?
9. Наш автобус остановился за музеем.
10. Что находится рядом со станцией метро?
11. Мы живем рядом с парком.
12. Он гулял по саду.
13. Я пойду обедать через час.
14. Он шел через лес.
15. Она посмотрела через окно.
- 16.Я сделал задание за час.

4-mashq. Gaplarni tarjima qiling, ko ‘makchilarning mosini qo ‘ying.

1. Он сидит под деревом (tagida, ostida). 2. Я смеялся над ним (ustidan, tepasidan). 3. Я поговорю с ним об этом деле завтра (to‘g‘risida, xususida, doir). 4. Пойдемте вдоль берега (bo‘ylab, bo‘yicha, uzra, ustida) . 5. Работа была разделена между четырьмя студентами (o‘rtasida,ichida). 6. Он работает над новым изобретением (ustida,tepasida,bo‘yicha). 7. Цены товаров указаны ниже (ostida, quyida, pastida). 8. Я прочел несколько статей по этому вопросу, кроме книг, которые вы мне дали (haqida, to‘g‘risida, bo‘yicha, muvofiq; boshqa, tashqarida). 9. Никогда не судите по внешнему виду (bo‘yicha, qaraganda, ko‘ra). 10. Он говорил о международном положении (to‘g‘risida, doir, bo‘yicha, xususida).

⌚ Tinglang . Yovvoyi yo‘rg‘a.

I. Savollarga javob bering:

- ✓ Voqea, sizningcha, qayerda bo‘lyapti?
- ✓ Yovvoyi yo‘rg‘a haqida odamlarning fikri qanday?
- ✓ Hikoyachining fikri-chi?
- ✓ Yo‘rg‘aning ko‘rinishi haqida gapirib bering.
- ✓ Yo‘rg‘a boshqa otlardan nimasi bilan farq qiladi?
- ✓ Yo‘rg‘aning xatti-harakatlarida insonlarni eslatadigan qanday xususiyatlar bor?
- ✓ “Shunday yo‘rg‘aning yaltiroq terisiga dog‘ tushirgim kelmedi” jumlasini izohlang.....
- ✓ Jek o‘zini qanday tutdi?

II.Gaplargani tasdiqlang yoki inkor qiling.

- ✓ Foster yo‘rg‘ani maqtadi.
- ✓ Qora yo‘rg‘a qari va kuchsiz ot.
- ✓ Hikoyachi bibrinchi martaa Jayron bulog‘ida yo‘rg‘ani ko‘rdi.
- ✓ Ertasi kuni Alamazo daryosi bo‘yida Jek yo‘rg‘ani ko‘rsatdi.

- ✓ Qora yo‘rg‘a odamlar unga qaraganini sezdi.
- ✓ Hikoyachi otga o‘q uzdi.
- ✓ Ot juda chirolyi edi, ovchi bu jonivorni o‘ldirishni xohlamadi.
- ✓ Ovchi otni o‘ldirdi.
- ✓ Jek hikoyachini urishdi.

Tarjima. Matnni lug‘at yordamida tarjima qiling.

ERNEST THOMPSON SETON

Ernest Thompson Seton (August 14, 1860 – October 23, 1946) was a British author, wildlife artist, founder of the Woodcraft Indians, and one of the founding pioneers of the Boy Scouts of America (BSA). Seton also influenced Lord Baden-Powell, the founder of Scouting. His notable books related to Scouting include *The Birch Bark Roll* and *The Boy Scout Handbook*. He is responsible for the appropriation and incorporation of what he believed to be American Indian elements into the traditions of the BSA.

Born **Ernest Evan Thompson** in South Shields, County Durham (now part of South Tyneside, Tyne and Wear), England of Scottish parents, Seton's family emigrated to Canada in 1866. Most of his childhood was spent in Toronto. As a youth, he retreated to the woods to draw and study animals as a way of avoiding his abusive father. He won a scholarship in art to the Royal Academy in London, England.

On his twenty-first birthday, Seton's father presented him with a bill for all the expenses connected with his childhood and youth, including the fee charged by the doctor who delivered him. He paid the bill, but never spoke to his father again.

Ernest changed his name to Ernest Thompson Seton, believing that Seton had been an important name in his paternal line. He became successful as a writer, artist and naturalist, and moved to New York City to further his career. Seton later lived at Wyndygoul, an estate that he built in Cos Cob, a section of Greenwich, Connecticut. After experiencing vandalism by the local youth, Seton invited them

to his estate for a weekend where he told them what he claimed were stories of the American Indians and of nature.

He formed the Woodcraft Indians in 1902 and invited the local youth to join. Despite the name, the group was made up of non – Indian boys and girls. The stories became a series of articles written for the Ladies Home Journal and were eventually collected in The Birch Bark Roll of the Woodcraft Indians in 1906.



Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. *Hozirgi kunga kelib ekologik muammolar qanday hal qilinmoqda?*

Davra suhbati uchun 5 ta savol tuzing.

2. *Agar ekologiya muammosi haqida maqola yozsangiz, qanday sarlavha qo'yardingiz. Maqolangizning rejasini tuzing.*

7D

Tayanch so‘z va iboralar:

Autekologiya, diqqat markazida, tirik zot, omil, tabiatni muhofaza qilish, biologik afzal ko‘rmoq, hayot sharoitini, tadbir, tur, maqbul, tirik organism, unsur, jonsiz tabiat, oqilona, oqibat, oxir-oqibatda, bardoshlilik, bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatish, zimmasiga vazifa yuklamoq, ta’sir ko‘lami, o‘zaro bog‘liq hodisalar zanjiri, kun ko‘rmoq, o‘tamoq, umumlashma ma’no, mo‘tadil hayot kechirish, namoyon bo‘lmoq.

I. *Qavslarni to‘g‘ri oching:*

(Ekologiya fani) tanishmoq, (diqqat markazi) bo‘lmoq, (sharoit) aloqadorlik, (ta’sir ko‘rsatmoq) muhit, (ekologiya) ta’sir ko‘rsatmoq, (salbiy oqibatlar) olib kelmoq,

EKOLOGIK OMILLAR

Ekologiya bilan tanishuvimizni eng chuqur ishlab chiqilgan va **tadqiq etilgan** bo‘limlardan biri autekologiyadan boshlaymiz. Autekologiyaning **diqqat markazida** tirik zotning yoki zotlar guruhining atrof muhit sharoitlari bilan o‘zaro **aloqadorligi** masalasi turadi. Shu sababli autekologiyaning asos tushunchasi ekologik omil, ya’ni organizmga ta’sir ko‘rsatuvchi atrof-muhit omilidir.

Shubhasiz, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan biror bir tadbirni muayyan omilning ma’lum biologik turga ta’sirini o‘rganmasdan turib **amalga oshirib** bo‘lmaydi. Chindan ham, **muayyan** turni u qanday hayot sharoitini **afzal ko‘rishini** bilmasdan turib, qanday qilib muhofaza qilib bo‘ladi? Hatto ongli inson kabi turning «muhofazasi» sanitariya-gigiyena me’yorlarini bilishni talab qiladi, shuning o‘zi insonga nisbatan qo‘llanadigan turli ekologik omillarning eng **maqbulidir**.

Atrof-muhitning inson organizmiga ta’siri ekologik omil deyiladi. Bu tushunchaning ilmiy ta’rifi quyidagicha:

EKOLOGIK OMIL – atrof-muhitning tirik **mavjudot** moslashishi mumkin bo‘lgan har qanday sharoitidir.

Ekologik omil muhitning tirik organizmlarga hech bo‘limganda ular rivojlanishining biror bosqichida bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi unsuridir.

O‘z tabiatiga ko‘ra ekologik omillar uch guruhga bo‘linadi:

abiotik omillar – jonsiz tabiatning ta’siri;

biotik omillar – jonsiz tabiatning ta’siri;

antropogen omillar – insonning oqilona va **oqibati** o‘ylanmagan faoliyati ta’siri («antropos» – inson).

Inson jonli va jonsiz tabiatni o‘zgartirib, o‘z **zimmasiga** ma’lum ma’noda geokimyoviy vazifani oladi (masalan, million yillarga ko‘mir va neft sifatida yer

ostiga qamalgan uglerodni ozod qilib, havoga is gazi sifatida chiqaradi). Shu sababli antropogen omillar o‘zining ta’sir **ko‘lami** va globalligi jihatidan geologik kuchlarga yaqin turadi.

Ko‘pincha muayyan guruh omillarini ajratib ko‘rsatish lozim bo‘lganida, ekologik omillar yanada **batafsilroq** tasnif qilinadi. Masalan, muhitning iqlimi (iqlimga oid), edafik (tuproqqa oid) omillari singari turlari bor.

Ekologik omillarning bavosita ta’siriga oddiy **misol tariqasida** qushlarning ulkan to‘dasi – *qush bozorini* keltiradilar.

Qushlarning yuqori darajadagi zichligi o‘zaro aloqador sabab-oqibatlar zanjirini hosil qiladi. Qushning tezagi suvga tushadi, organik moddalar suvda bakteriyalar tomonidan minerallarga aylantiriladi, mineral moddalarning katta miqdorda to‘planishi suv o‘simliklari sonining, uning ortidan esa zooplanktonlar sonining ko‘payishiga olib keladi. Baliqlar zooplanktonlarga kiruvchi tuban qisqichbaqasimonlarni yeydi, «qush bozori»dagi qushlar baliqlarni yeb **kun ko‘radi**. Shu tarzda o‘zaro bog‘liq hodisalar zanjiri **yuzaga keladi**. Qush axlati bavosita qushlar koloniyasi sonini oshiruvchi ekologik omil xizmatini **o‘taydi**.

Omillar sonining **behisobligiga** qaramasdan, ekologik omilning muhitning organizmga ta’sir ko‘rsatuvchi omili sifatidagi ta’rifidan umumlashma ma’no kelib chiqadi. Bu shuni **anglatadiki**, ekologik omillarning ta’siri doimo organizmlar faoliyatining o‘zgarishida **namoyon bo‘ladi**, oxir-oqibatda esa populyatsiya sonining o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa turli ekologik omillar ta’sirini **qiyoslash** imkonini beradi.

Ma’lum omil ta’sirining, uning doirasidan tashqarida zotlarning **mo‘tadil** hayot kechirishlari mumkin bo‘lмаган ко‘лами **bardoshlilik** chegarasi deyiladi.

?Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

- 1. Matnning har bir abzasiga savol tuzing.**
- 2. Matnga reja tuzing.**
- 3. Matndagi asosiy axborotni 5-6 ta gap bilan ifodalab, yozing.**

**SO‘Z YOKI GAPGA QO‘SHIMCHA MA’NO BERUVCHI
YORDAMCHI SO‘ZLAR**

(Yuklamalar va modal so‘zlar)

Yuklamalar so‘z yoki butun bir gapga qo‘shimcha ma’no beruvchi so‘z va qo‘shimchalardir. Yuklamalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1) so‘z yuklamalar: faqat, axir, hatto, ham;

2) qo‘shimcha ko‘rinishidagi yuklamalar: -ku, -mi, -chi, -a-, -ya, -u, -yu

! Ba’zi so‘zlar yuklama vazifasini bajaradi. Masalan, **yolg‘iz. Hamma keldi, yolg‘iz sen kelmading.** – *Hamma keldi, faqat sen kelmading.*

Yuklamalar quyidagi ma’nolarini anglatadi:

So‘roq va taajjub: *mi, -chi, -a, -ya.* Savol va hayratlanish ma’nolarini bildiradi. Sen ham borasanmi? Men-chi? Bu ishni bir o‘zing qilding-a? Seni tanlashdimi? Seni-ya?

Kuchaytiruv-ta’kid: *ham, hatto, axir, nahotki, -ku, -da, -u, -yu, -oq, -yoq.* Fikrni kuchaytirib ifodalaydi, so‘zni ta’kidlaydi: *Axir eng yaqin do‘ stimsan!* *Senga ishonaman-da.* Yetib borishing bilanoq, bizga xabar qil. Yakshanba kuni *ham* ishladik.

Ayiruv-chegegaralov: *faqat, -gina, -kina* (*k* tovushidan so‘ng), *-qina* (*q* tovushidan so‘ng). Bu yuklamalar o‘zi bog‘langan so‘zni boshqalaridan ajratib ifodalaydi: Faqat sizga ishonaman. Zuhragina meni qo‘llab-quvvatladi.

O‘xshatish-qiyoslash: *xuddi, go‘yo.* So‘zga o‘xshatish, qiyos ma’nolarini beradi: Bu bola *xuddi* otasining o‘zi.

Gumon: **-dir.** So‘zga noaniqlik, gumon, taxmin ma’nolarini beradi: Balki u uyda emasdир.

⌚ **Eslab qoling:** a) -mi, - gina, -oq, -yoq, -dir yuklamalari so‘zga qo‘shib yoziladi; b) -chi, -ku, -u, yu, -da, -a,-ya yuklamalari chiziqcha bilan ajratib yoziladi; d) *faqat, ham, axir, hatto* alohida yoziladi.

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli undovlarni va yuklamalarni qo‘ying:

-gina, hatto, ham, axir, -oq, faqat,-dir, -a, -ku;

1. ...nega darsga kelding, kasalsan-ku! 2. Yetib borishing bilan... menga darrov qo‘ng‘iroq qil. 3. Juda darslarim ko‘p. ...yakshanba kuni... bo‘sh vaqtim yo‘q, yarim kechagacha dars tayyorlayman. 4. Men bu sirni ...sizga... ishonib ayta olaman. 5. Men ikkinchi til sifatida fransuz tilini tanladim. Sen....? 6. Tabiatni muhofaza qilishga biz... burchlimiz. 7. Sardor nimaga darsga kelmad? Undan xabar oldingiz...? Balki kasal...9. Bu esseni o‘zing yozdingmi? Sen...? Axir oldin ko‘p xato qilar eding....? Bu ishda deyarli xato yo‘q. 10. Bu qizsenga o‘xshaydi. U singling emasmi?

FIKRGA SUBYEKTIV MUNOSABAT BILDIRISH UCHUN QO‘LLANUCHI SO‘ZLAR

(Modal so‘zlar)

Modal so‘zlar so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini ifodalaydi. Ular bildiruvchi ma’nolar:

1. **Ishonch:** darvoqe, aslida, shubhasiz, albatta, tabiiy, shaksiz.
2. **Tasdiq:** haqiqatan, darhaqiqat, haqiqatda.
3. **Gumon:** aftidan, balki, shekilli, ehtimol.
4. **Fikr tartibi:** avvalambor, qolaversa.
5. **Fikrni dalillash:** masalan, jumladan, xususan.
6. **Xulosa:** xullas, umuman, xullas kalom, demak.
7. **Achinish, afsuslanish:** esiz, attang, taassufki, afsus, afsuski.

8. **Quvonch:** hayriyat

Binobarin, zero, holbuki, vaholanki kabi modal so‘zlar ham mavjud bo‘lib, fikrning oldingisi bilan bog‘liqligi ma’nosini ifodalaydi.

Modal so‘zlar gap boshida, o‘rtasida, oxirida qo‘llanishi mumkin. Ular boshqa so‘zlardan vergul yordamida ajratiladi.

◊Eslab qoling: **shekilli** modal so‘zi gap oxirida qo‘llaniladi: Kimdir keldi, *shekilli*.

Grammatik mavzu bo‘yicha mashqlar

2-mashq. Quyidagi modal so‘zlar bilan gap tuzing: *aytganday, darhaqihat, ehtimol, shubhasiz, afsuski, albatta, aftidan*.

3-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli modal so‘zlarni qo‘ying: *mabodo, auytganday, shekilli, darvoqe, shubhasiz, darhaqiqat, afsuski, aftidan, holbuki*.

1. Nega ovqatdan yemayapsiz? Ovqat sizga yoqmadi..... 2.”ozodlik” nihoyatda shirin so‘z. 3.bu haqida oldin ham sizga gapirgan edim. 4.siz meni kutmayapsizmi? 5. Chekayotgan odam “cheksam asablarim yumshaydi”, deb o‘ylaydi,bu bir necha daqiqalik huzurdan keyin, bir necha baravar ko‘proq zarar yetkazadi.u ko‘pincha bu haqida o‘ylamaydi. 6.inson va tabiat o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. 7.uning hech narsadan xabari yo‘qqa o‘xshaydi. 8., esimdan chuqay debdi, o‘qituvchimiz aytdi, ertaga test bo‘lar ekan.

Tinglang. Ekotizim nima?

I. *Quyidagi fikrlarni “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” ga ajrating.*

✓ Albert Eynshteyn fikricha, muammolarimizni ularni yuzaga keltirgan vaqtimizdagi tafakkurimizni o‘zgartirmasdan hal qila olmaymiz.

- ✓ Ekologik ta’lim sifatini yaxshilashga kuchli ehtiyojning tug‘ilishiga asosiy sabab – shiddat bilan rivojlanayotgan texnika taraqqiyoti.
- ✓ Ekotizim – har xil turdag'i organizmlarning birgalikda hayot kechirishini o‘rganuvchi fan.
- ✓ Yer biosferasi ham ekotizimdir.
- ✓ Mezoekotizimga qit'a, davlat kiradi.
- ✓ *Tog‘ga bir to‘p kapalak qurti tushib qoldi.*
- ✓ *Bolalar oromgohiga bir to‘p kapalak qurti tushib qoldi.*
- ✓ *O‘rmon halokatga yuz tutdi.*
- ✓ *Bolalar bu halokatning sababchisi o‘zлari ekanliklarini tushunmasdilar.*
- ✓ *Bolalar taxina pashshasi yashaydigan gullarni uzib tashlaydilar.*
- ✓ *Taxina pashshasining tuxumlaridan paydo bo‘ladigan qurtlar kapalakqurtlarni yo‘q qilib tashlardilar.*

Savollarga javob bering:

2. Albert Eynshteyn nima degandi?
3. Tabiatni muhofaza qilish va maorif sohasidagi chora-tadbirlarni takomillashtirishning eng asosiy yo‘nalishlaridan biri nima?
4. Hozirgi kunda nima uchun ekologik ta’lim sifatini yaxshilashga ehtiyoj kuchaygan?
5. Texnika taraqqiyotining salbiy va ijobiy jihatlari nimada?
6. Ekotizim deganda nimani tushundingiz?

Tarjima. Matnni lug‘at yordamida tarjima qiling.

ЧТО ТАКОЕ ГЕНЕТИЧЕСКИ ИЗМЕНЕННЫЙ ПРОДУКТ?

Трансгенными могут называться те виды растений, в которых успешно функционируют ген (или гены), пересаженные из других видов растений или животных. Делается это для того, чтобы растение-реципиент получило

новые, удобные для человека свойства, повышенную устойчивость к вирусам, к гербицидам, к вредителям и болезням растений. Пищевые продукты, полученные из таких геноизмененных культур, могут иметь улучшенные вкусовые качества, лучше выглядеть и дольше храниться. Также часто такие растения дают более богатый и стабильный урожай, чем их природные аналоги.

Что такое генетически измененный продукт? Это когда выделенный в лаборатории ген одного организма пересаживается в клетку другого. Вот примеры из американской практики: чтобы помидоры и клубника были морозоустойчивее, им "вживляют" гены северных рыб; чтобы кукурузу не пожирали вредители, ей могут "привить" очень активный ген, полученный из яда змеи; чтобы скот быстрее набирал вес, ему вкалывают измененный гормон роста (но при этом молоко наполняется гормонами, вызывающими рак); чтобы соя не боялась гербицидов, в нее внедряют гены петунии, а также некоторых бактерий и вирусов. Соя – один из основных компонентов многих кормов для скота и почти 60% продуктов питания. К счастью, в России, как и во многих странах Европы, генетически измененные сельхозкультуры (в мире их создано больше 30-ти видов) пока не распространяются такими бешеными темпами, как в США, где официально закреплена идентичность "натуральных" и "трансгенных" продуктов питания. Поэтому у нас только самые "продвинутые" покупатели с подозрением относятся к импортным чипсам, томатным соусам, консервированной кукурузе и "ножкам Буша".

На данный момент в России зарегистрировано множество видов продуктов из модифицированной сои, среди которых: фитосыр, смеси функциональные, сухие заменители молока, мороженое "Сойка-1", 32 наименования концентратов соевого белка, 7 видов соевой муки, модифицированные бобы сои, 8 видов соевых белковых продуктов, 4 наименования соевых питательных напитков, крупка соевая обезжиренная, комплексные пищевые добавки в ассортименте и специальные продукты для спортсменов, тоже в немалом количестве. Также Департамент

государственного санитарно-эпидемиологического надзора выдал "сертификаты качества" одному сорту картофеля и двум сортам кукурузы.

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. *Quyidagi birikmalarga izoh bering va ularni qo'llab kichik matn tuzing.*

Ekologik falokatlar, ekologik xavf, ekologik muvozanat, qayta ishlanmagan chiqitlar, tozalash inshootlari, tabiiy boyliklar, ulkan havo kengliklari.

2. *Quyida berilgan reja asosida nutq tayyorlang .*

Dunyodagi ekologik vaziyat.

Reja :

- a. *Inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'siri*
- b. *Tabiiy resurslardan noto‘g‘ri foydalanishning oqibatlari.*
- c. *Atmosferaning ifloslanishi natijasidagi muammolar.*

! O`zingni tekshir:

1. *Berilgan ko‘makchilarining to‘g‘ri tarjimasini toping.*

О (об), для того чтобы, по (согласно), кроме, до

- A. to‘g‘risida, -ish uchun, muvofiq, tashqari, -dan avval
- B. haqida, uchun, bo‘yicha, boshqa, keyin
- C. uchun, -gani, ko‘ra, boshqa, oldin
- D. haqida,-gani uchun, doir, tashqari, -gacha.

2. *Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘ying:*

Chin shohi javohirlar qo‘yib, Iskandarni dasturxonga taklif qilibdi. Iskandar: ‘...bu ovqat emas-ku’, debdi. – Bo‘lmasa, sen nima yeysan? – Barcha inson yeydigan non yeyman. –....., Rumda non topish shunchalik mushkulmidi?shuncha mashaqqat chekib bu yerlarga kelding?

- A. axir, vojab, nahotki
- B. nahot, esiz, afsus
- C. axir, nahotki, afsus
- D. vojab, hoynahoy, nahot

3. Berilgan yordamchi so‘zlarning to‘g‘ri tarjimasini toping.

Garchi , shu bois, go‘yo, biroq, yoxud

- A. вопреки, поэтому, как, но, или
- B. не смотря на, потому что, если, но, иногда
- C. хотя, поэтому, якобы, а, хоть
- D. если бы, по причине, как, но, якобы

4. Qaysi qatordagi ko‘makchilar -ga kelishik qo‘srimchasi bilan keladi?

- A. doir, qaraganda, binoan, muvofiq
- B. bilan, ko‘ra, qarshi, qaraganda
- C. qaraganda, ko‘ra, orqali, tomon
- D. qaraganda, muvofiq, haqida, singari

5. Qaysi qatordagi ko‘makchilar -dan kelishigi qo‘srimchasi bilan keladi?

- A. ko‘ra, bo‘lak, avval, tashqari
- B. qaraganda, ko‘ra, orqali, tomon
- C. orqali, muvofiq, bilan, kabi
- D. doir, tashqari, beri, buyon

6.Qaysi qatordagi ko‘makchilar bosh kelishik bilan keladi?

- A. sayin, sari, uchun, singari

- B. orqali, tomon, doir, bilan
- C. kabi, beri, haqida, to‘g‘risida
- D. doir, tashqari, beri, buyon

7. *To‘g‘ri tarjimasi berilgan qatorni toping.*

Как, вдоль, согласно, вопреки, по

- A. singari, bo‘ylab, muvofiq, garchand, bo‘yicha
- B. kabi, uzra, doir, garchi, haqida
- C. yanglig‘, yuzida, ko‘ra, zero, bo‘yicha
- D. kabi, bo‘ylab, muvofiq, holbuki, yuzasidan

8. Garchi bog‘lovchisi qanday gaplar tarkibida qo‘llaniladi?

- A.-sa ham.....
- B.-sa.....
- C.-ganda.....
- D.-gani uchun.....

9. *Qiyoslash ma’nosini ifodalaydigan yordamchi so‘zlarni toping.*

- A. -dan ko‘ra, -ga qaraganda
- B. -ga nisbatan, -dan boshqa
- C. -ga qaraganda, -dan tashqari
- D. -dan, -roq, -ga doir

10. *Qaysi qatorda berilgan modal so‘zlar noaniqlikni ifodalaydi?*

- A. Ehtimol, hoynahoy, balki, shekilli, chamasi
- B. Shekilli, aftidan, qisqasi, afsuski
- C. Shubhasiz, aytganday, ma'lumki, menimcha
- D. Darhaqiqat, shekilli, hoynahoy, attang

11. Ajratilgan so‘zning so‘zlashuv uslubidagi shaklini toping :

Taassufki, biz bir tilda gapirsak ham, bir-birimizni tushuna olmadik.

- A. ajabo
- B. essiz
- C afsuski
- D baxtga qarshi

12. Qaysi qatordagi ko‘makchilar oldidan chiqish kelishigi (-dan)ni qo‘yish kerak?

- A. U o‘zbek va rus tillari.... tashqari yana bir qancha tillarni yaxshi biladi.
- B. Uning gaplari... qaraganda, majlisda jiddiy masalalar ko‘tariladiganga o‘xshaydi.
- C. Seminar topshiriqlari... bo‘yicha savollaringiz bormi?
- D. U men bilan xayrashib, metro..... tomon ketdi.

I ILOVA

Audiomaterial

1-DARS

1A

R: Assalomu alaykum!

N: Vaalaykum assalom!

R: Keling, tanishaylik! Mening ismim Rustam

N: Mening ismim Nargiza!

R: Siz bilan tanishganidan xursandman!

N: Men ham!

R: Nargiza, siz turmushga chiqqanmisiz?

N: Yo‘q. Siz-chi? Siz uylanganmisiz?

R: Yo‘q, uylanmaganman. Nargiza, oilangiz haqida gapirib bering.

N: Mening oilam katta emas. Onam, otam, singlim va men.

R: Dadangiz nima ish qiladi? Onangiz-chi? U ishlaydimi? Singlingiz mактабда о‘qiydimi?

N: Dadam – tadbirkor. Onam – uy bekasi. Singlim kollejda o‘qiydi.

R: Mening oilam esa katta. Otam, onam, akam, opam va bir ukam bor. Otam – O‘zbekiston Milliy universitetida professor. Onam – bolalalr shifokori. Akam bankda ishlaydi. Opam – hamshira. U turmushga chiqqan, ukam askar, armiyada xizmat qilyapti. Buvim va bobom ham bor.

N. Buvungiz va bobongiz siz bilan birga turadilarmi?

R. Ha.

N. Qanday yaxshi! Mening buvim va bobom boshqa shaharda yashaydilar. Men ularni juda sog‘inaman.

R. Ha, buving va bobong bilan birga yashah juda yaxshi. Ular doim dono maslahatlar beradilar.

N. To‘g‘ri.

1B

MUNAVVAR KELINOYI

Men har safar Munavvar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro‘y bergan bu og‘ir voqeani emas, dilimda sal ma’yus va iliq hislar uyg‘otgan yoz kuni esimga tushadi.

Buvimlarning sersoya bog‘i qarindosh-urug‘larimizga, tog‘amning yorbirodarlari (tanishlari va do‘stlari)ga to‘lgan: birov o‘choq quryapti, birov o‘tin yoryapti, birov hovliga suv sepib, so‘riga palos yozyapti. Kechqurun to‘y!

Tog‘am ertaga urushga ketadi. U kecha kechqurun kelinoyimni Toshkentdan “olib qochib kelgan”. Eshitishimcha, ular universitetda birga o‘qishar ekan. Kechasi uyimizda odam ko‘p bo‘lgani uchun kelinoyimni ko‘rolmagan edim, bugun ertalab buloq boshida ko‘rib qoldim.

Tog‘am buloq bo‘yida cho‘nqayib, yuzini yuvar, kelinoyim esa egnida atlas ko‘ylak, boshida chetlariga gunafsharang gul tikilgan ipak ro‘mol, yelkasida sochiq, qo‘lida chelak, uning yonida turardi.

Kelinoyim novcha, hatto tog‘amdan ham novcharoq – men buni tog‘am yuvinib bo‘lib, qaddini rostlaganda payqadim – uzunchoq yuzli nozikkina qiz edi. Menga, ayniqsa, uning xiyol ma’yus qora ko‘zlar yoqdi.

Men ularga sezdirmay o‘tib ketmoqchi edim, tog‘am ko‘rib qolib, oldiga chaqirib oldi.

– Mana, tanishib qo‘ying, Munavvarxon, – dedi u. – Boya sizga aytgan jiyanim Mansurjon shu yigitcha bo‘ladi. Men ketganda, birov sizni ranjitadigan (xafa qiladigan) bo‘lsa...shu yigitchaga aytib qo‘yasiz...

Kelinoyim chelakni chap qo‘liga olib, o‘ng qo‘lini menga cho‘zdi, qoshlarini chimirib, muloyim jilmaydi:

– Shunaqami? Tog‘angiz ketganda meni birov xafa qilsa himoya qilasizmi, Mansurjon?

Men qizarib nima deyishni bilmadim. Mening o‘rnimga tog‘am javob berdi.

– Himoya qilish ham gapmi, sizni xafa qilgan odamning kallasini oladi jiyanim, to‘g‘rimi?

Kelinoyim menga qarab ko‘zini qisdi:

– Qo‘ying, hammani o‘zingizga o‘xshagan zo‘ravon deb o‘ylamang!

Tog‘am qah-qah otib kului. Men esa, ko‘nglim ajib hislarga to‘lib, o‘zimni bog‘ga urdim (qochib ketdim). O‘shandan beri ko‘z oldimda kelinoyimning o‘ychan chehrasi, quloqlarimdan erkalab aytgan gaplari ketmas edi.

(Odil Yoqubovdan)

1D

SURAT

Men odatda doim ishga shoshilaman. Bugun ertalab nonushta qilayotganimda, onam menga dedi:

– O‘tir, og‘lim, birpas o‘tir.

– Bo‘ldi, ketdim.

– Shoshma , bolam, – dedi onam va menga juda g‘amgin qaradi.– Gap bor.

Men soatimga qaradim: hali benzin olishim kerak, ishga borish kerak, keyin nashriyotga o‘tish kerak...

– Nima gapingiz bor edi?

Onam ko‘zimga yana ma’yus qaradi.

– Rasmga(suratga) tushaylik, – dedi kutilmaganda.

Men hayron bo‘ldim.

– Nega (Nima uchun)? Nega birdan rasmga tushmoqchisiz?

– Yaqinda men o‘laman.

Onam bu gapni xuddi “Qo‘sнимнинг uyiga kirib chiqaman”, degandek aytdi.

Kuldim.

– Qo‘ysangiz-chi, oyи.

Shunday deb ko‘chaga chiqib ketdim.

Oradan ikki hafta o‘tgandan keyin esa onam... o‘ldi. Kechqurunlari uyg‘onaman va o‘ylayman: Sen ahmoq nima uchun o‘shanda kulding? Suratga tushish uchun vaqting yo‘qmidi? Agar kerak bo‘lsa, vaqt topish mumkin edi. Kitob uchun, jurnal uchun, ish vaqtida, bog‘da, ko‘chada... tushgan rasmlaring bor. Nima, sen kino yulduzimisan? Juda mashhur odammisan? Ana, stol ustida qancha rasmlaring bor. Bu rasmlar juda ko‘p va har xil. Lekin faqat... onang bilan birga tushgan rasming yo‘q.

(O‘tkir Hoshimovdan)

2-DARS

2A

AMIR TEMUR O‘GITLARI

Kengash ikki turli bo‘lur: biri – til uchida aytilgani, ikkinchisi-yurakdan chiqqani. Men til uchida aytilganini shunchaki eshitardim. Yurakdan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog‘iga quyardim va dilimga joylardim.

Do'st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohlarni hurmat qildim, chunki boqiy mato bo'lgan jonlarini fonyi dunyo moli uchun sotmaydilar. O'zlarini ma'raka-maydon, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar. Agar g'anim sipohidan biror kimsa o'z valine'matiga sidqidildan xizmat qilib, urush kunlarida menga qarshi qilich ko'targan bo'lsa ham, unday odamga nisbatan lutf-marhamatlar ko'rsatdim, qoshimga panoh izlab kelganda, uni qadrlab, ishonchini qozondim, vafodorligi va haqiqat bilan xizmat qilishiga ishondim.

Hech kimdan o'ch olish payida bo'lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni parvardigori olamga topshirdim. Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko'ngli buzuq qo'r quoqlarni majlisimdan quvib yubordim.

Maslahatim shuki, asli toza, nasli pok, ulug' zotlardan bo'lgan, yaxshi ravishli kishilardan topib, vazirlar qiling. Chunki asli toza kishi xatolikka yo'l qo'y maydi, badasl (ya'ni nasli toza emas ma'nosida) esa vafo qilmaydi.

2B

AMIR TEMUR SHAXSI HAQIDA

Sohibqironning muxlislari uni juda chiroyli inson sifatida tasvirlaydilar. Ammo dushmanlari, aksincha, yuzsiz, manfur va qutsiz (baxtsiz) deya ta'riflaydilar. Uning vatandoshlari orasida hozirgacha tildan tilga o'tib kelayotgan hikoyalarga qaraganda, Temur o'rta bo'yli, oqbadan kishi bo'lib, zahmatli umrini doimiy jang-u jadallarda o'tkazganiga qaramay, umrining oxirgi daqiqalariga qadar tanasining ko'r kamligini saqlay olgan. Garchi uning bir oyog'i oqsasa-da, urush paytida bu nuqson uncha sezilmas edi. Uning yangroq ovozi jang baqiriq-chaqiriqlari ichida juda uzoqqa eshitilardi. Faqat yoshi 70 larga yetgandagina ko'zları ozroq xira tortgan. U Samarcandda Ispaniya elchilarini qabul qilgan vaqtida, ular yaqin kelgachgina tanigan ekan.

U davrda turk irqi eron unsurlari bilan hali ko'p aralashmagani uchun Temurning yuzida mog'ullik belgilari kuchli edi. Temurning to'qnashuvlar paytida

qimmatbaho ipakdan keng kiyimlar kiyganini ko‘ramiz. Hozirgi vaqtida o‘rtा osiyoliklar shunday kiyinadilar. Bu kiyimlar o‘sha zamonda musulmon Osiyosida makruh sanalardi. U bosh kiyimda mo‘g‘ul, xitoy qiyofasiga taqlid qilib, Sharafiddin (Ali Yazdiy)ga yarashgan sallani o‘ramadi, balki uzun, uchli boshli kigiz bo‘rk kiyib yurdi. Bo‘rk uchiga cho‘zinchoq yoqut qadalgan, uning atrofi durlar va javohirlar bilan bezatilgan edi. Uning katta va qimmatbaho zirak taqish odati – mo‘g‘ullarga xos edi. U umuman tashqi ziynatlarga va ochiq kiborliklarga moyil bo‘lgan. U o‘zining uzoq davom etgan sohibqironlik hayotida juda ko‘p yo‘qotishlar, nochorliklarni boshidan kechirgan bo‘lsa-da, doimo spartaliklar kabi soddaligiga sodiq qolgan.

U yoshligida otasining va ruhoni imomlarning ta’sirida hayotga islom va tasavvuf nuqtayi nazaridan qaragan edi. Uning qat’iy jangovar ruhi va chegara bilmas hukmronlik hissi bu sifatlar bilan kurashda edi. Bu kurashda uning tabiatiga xos jangovarlik va hukmronlik hissi g‘olib kelgan bo‘lsa kerakki, u shunday deydi: “Hokimiyatni qo‘lda qilich bilangina ushlab turish mumkin”. U askarlariga Isfaxonni talon-toroj qilishga ruxsat berganda, ulamolar mahallasiga shafqat qilishni amr etgan. Hirot va Halab ulamolari bilan esa diniy munozaralar qurgan. O‘ziga o‘xshab fikr qilmaydigan kishilarga, ya’ni o‘zgacha fikrlaydiganlarga, shohona hadya*lar bergen. Ma’lumki, Temur alloma Sharafiddin Halabiy bilan nihoyatda keskin munozara qilgan. So‘ngra uni himoyasiga olib, o‘zi va muridlariga (ular 2000 ming nafardan ko‘p edi) qimmatli hadyalar berishga buyurgan. Amir Temur qaysi mamlakatni egallasa, uning noyob o‘ljasi – shu o‘lkaning rassomlari, mohir ustalari hisoblangan. U Bursa kutubxonasi dagi kitoblarni yuk tashiydigan hayvonlarga ortib, Samarqandga ko‘chirtirgan. Endi shu kishini marhamatsiz deb atash mumkinmi? Binobarin, Temurni Chingiz bilan bir safga qo‘yish xato. U avvalo Osiyo sarkardasi edi... Uning jazosi ham qattiq, lekin adolatli bo‘lgan.

(Herman Vamberi. “Buxoro yohud Movarounnahr tarixi”)

AMIR TEMUR MAQBARASI

Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etilgan Amir Temur maqbarasining qurilishi 1403 – yilda boshlanib, 1424 – yilda tugatilgan.

Maqbara Amir Temurning taxt vorisi deb e'lon qilingan nabirasi Muhammad Sulton uchun qurdirligan. Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyoga qilgan safari vaqtida, 29 yoshida bevaqt vafot etadi. Shahzoda Samarqandga keltirilib, dastlab masjidning xonaqosida dafn qilinadi.

Sakkiz burchakli gumbaz asosida barpo etilgan maqbara hozirgi zamon mutaxassislarini ham birmuncha o'ychanlik bilan fikrlashga undaydi.

Binoning mo'tadil haroratini saqlash, sharqona qurilish uslublari orqali el ardog'ida bo'lgan shaxslarni o'ziga xos hurmat bilan ulug'lash, ularning buyukligini bezaklar orqali ifodalash kabi xususiyatlari har qanday kishini lol qoldiradi.

Sohibqiron Amir Temur ham ushbu maqbarada (1405-yil) abadiy qo'nim topgan.

1409-yilda Amir Temurning kenja o'g'li, Xuroson hukmdori Shohruh Mirzo otasi – Amir Temurning vasiyatini bajarish uchun otasining ma'naviy piri Mirsaid Barakaning jasadi (turbati)ni Andxoydan olib keltirib, shu maqbaraga, Sohibqironning bosh tomoniga dafn ettiradi.

1424-yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan maqbara sahniga qabrtoshlar qo'yilib, atrofi nafis marmar toshdan qilingan panjara bilan o'raldi va ko'k gumbazli galereya qurilib, ziyyoratxonaga Sharq tomondankirilishi ta'minlandi.

Maqbaraning ichki tomoni tilla suvi yugurtirilgan bo'rtma qog'oz naqshi bilan bezatilgan.

Bezaklarda ishlatilgan kompozitsiyada Qur'oni karim oyatlari islomiy, handasaviy naqshlar hamda arabiy xattotlik san'atining kalligrafik naqshlari bilan bitilgan.

Maqbaraga, shuningdek, Mironshoh Mirzo va Shohruh Mirzo ham dafn etilib, shu tariqa mazkur inshoot temuriylar xilxonasiga aylangan.

1449-yilda Mirzo Ulug‘bek ham shu maqbaraga, bobosining poyiga dafn etilgan.

Mustaqillik yillarida, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi va Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan maqbarada katta hajmda ta’mirlash ishlari olib borildi. XIX asrning oxirida qulab tushgan minora va gumbazning zar qubbasi qayta tiklandi.

Bugungi kunda ushbu ziyoratgohni ko‘rish uchun dunyoning turli burchaklaridan sayohatchilar Samarqandga tashrif buyurmoqdalar.

3-DARS

3A

ABU ALI IBN SINO

Agar biror xorijlik Markaziy Osiyo madaniyati va ilm-fani bilan qiziqib, unung tarixiga murojaat qilsa, albatta, Ibn Sino degan nomni uchratadi. Kim tibbiyat bilan shug‘ullansa, u, albatta, Avitsena degan nomni biladi.

Buyuk daho Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino hijriy 370 – (milodiy 980) yilda Buxoroning Afshona, hozirgi Isfana qishlog‘ida tug‘ilgan. U yoshligidanoq o‘tkir zehni va ilmga qiziqiishi bilan hammani lol qoldirardi. Ibn Sino An-Notiliy qo‘lida tarbiya oladi. U astronomiya, falsafa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyat, mantiq, adabiyot, mineralogiya va boshqa fanlar bilan shug‘ullangan. 10 yoshida Qur’onni yod olgan, 16 yoshdayoq atoqli tabib bo‘lgan. U Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolab, saroyning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo‘lga kiritgan.

IbnSino 1002 – yilda Buxorodan chiqib ketadi, Urganch, Obivard, Naso, Nishapur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarda bo‘ladi. U 1037-yil (hijriy 428)da 57 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi.

Agar buyuk tabibning ijodiy merosini ko‘zdan kechirsak, uning naqadar serqirra iste’dod egasi ekanligining guvohi bo‘lamiz. Mutafakkirning turli fanlarga

oid 450dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligi ma'lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 tagina asari yetib kelgan, xolos. Shulardan 4 tasi – adabiyotga, 5 tasi musiqaga, o‘ndan ortig‘i astronomiyaga oid asarlardir va h.k.

Ibn Sino Sharqda “Shayxur-Rais”, G‘arbda esa “Avitsenna” nomi bilan mashhur. Lekin u agar buyuk tabib bo‘limganida edi, adabiyot va san’atga oid ishlari bilan ham madaniyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan bo‘lar edi. “Yusuf qissasi” ramziy-majoziy usulda yaratilgan bo‘lib, Qur‘on syujeti asosida yozilgan birinchi asardir. “Rasolat – at tayr” (“Qush risolasi”), “Uyg‘oq o‘g‘li Tirik” (“Hayy ibn Yaqzon”) kabi asarlari ham ramziy-majoziy uslubda, “Salomon va Ibsol” esa ishqiy-sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida doston, qasida, g‘azal, ruboiy, fardlar yaratgan. Uning she’rlari ilm-ma’rifatga da’vat qiladi; shoir dunyo sirlarini bilishga intiladi, yaxshi axloqiy xislatlarni egallashga chaqiradi. She’riyatning nazariy masalalari uning «Musiqa ilmida katta to‘plam» asarida ham tadqiq etilgan. U tibbiy yo‘l-yo‘riqlarni, ko‘rsatmalarni she’riy yo‘l bilan bayon etgan. Bular urjuzalar deb atalgan. Bunga sabab ularning rajaz vaznida yozilganidir.

3B

ILON QAYT QILGAN SUT

Abu Ali ibn Sino har kuni ertalab uyidan chiqayotganida, uning eshigi oldida bemorlar ikki tomonga tizilishib qator o‘tirishar ekan. Uydan chiqib ketayotgan vaqtida u bir tomonda o‘tirgan kasallarga qarab, ulardan hol-ahvol so‘rar va: “Siz falon narsa bilan kasalsiz, buning davosi falon narsa”, deb o‘tib ketar ekan. Uyga qaytayotganida esa ikkinchi tomondagilarga qarab, ularning kasallariga davo bo‘ladigan narsani aytib o‘tar ekan.

Bir kuni u bir bemorga juda diqqat bilan qarab turibdi-da, unga lom-mim ham demasdan, boshqalardan hol so‘raganicha o‘tib ketibdi. Bu holdan bemor juda xafa bo‘lib, hatto hayotdan ham umidini uzibdi. U uyga qaytib kelib: “Men shu kasalimdan o‘lar ekanman. Agar o‘lmaydigan bo‘lganimda edi, Ibn Sino sal e’tibor berib qarardi, u bo‘lsa so‘rashga ham loyiq ko‘rmadi. Endi o‘lsam kerak”, – debdi.

Shunday qilib bemor o‘zining o‘limini kutib yotibdi. Bir vaqt uyning burchagidagi teshikdan bir zaharli ilon chiqib, o‘rmalab kelaveribdi. Ilon uyning o‘rtasida turgan bir kosa sutga yaqinlashib, sutni o‘z ichiga tortibdi, bir ozdan keyin ichgan sutini qaytadan kosaga qayt qilib tashlabdi. Buni kuzatib turgan bemor ilon iniga qaytib ketgandan keyin, o‘zicha o‘ylab, bari bir o‘lar ekanman, tuzalishimdan-ku hech darak yo‘q, kel, shu zaharli sutni ichay-da, o‘lsam-o‘lib qo‘ya qolay, degan qarorga kelibdi. So‘ngra u sutni simirib ichibdi. Lekin bemor o‘lmay, aksincha, tobora tuzala boribdi. Kundan-kunga tuzalib borayotganini sezgan bemor o‘zining o‘lmanagini, balki sog‘lig‘i borgan sari yaxshilanayotganini aytib, e’tiroz bildirish niyatida Abu Ali ibn Sino oldiga boribdi. Ibn Sino uning ahvolini ko‘rib, juda hayron qolibdi va bemorga:

– Sen ilon qayt qilgan yegulikni qachon va qanday qilib topding? Kasalingning davosi zaharli ilonning qayti edi. Uni topishning iloji bo‘lmanidan u kuni men sening kasalingni ham so‘rab o‘tirmagan edim,— debdi.

Shunda kasal Abu Ali ibn Sinoga qoyil qolib, bo‘lgan voqeani bat afsil gapirib bergen ekan.

3D

QAHRAMONLIK QO‘SHIG‘I

Ma’lumki, bu dunyoda har qaysi millatning o‘z afsonaviy qahramonlari, o‘zi sevib ardoqlaydigan pahlavonlari bo‘ladi. Xalqimiz azaldan o‘z vujudi, o‘z tomirida mavjud ilohiy qudratga munosib bo‘lishga intilib, o‘z o‘g‘lonlarini mardlik va halollik, jasurlik ruhida, el-yurt uchun jonini ham ayamaydigan asl pahlavonlar etib tarbiyalab kelgan. Shu ma’noda, xalq og‘zaki ijodining noyob durdonasi bo‘lmish “Alpomish” dostoni millatimizning o‘zligini namoyon etadigan va avlodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan qahramonlik qo‘shig‘idir. Adolat o‘rnatish uchun botir bo‘lish zarur. Maqsadga yetish uchun kurashish kerak. “Alpomish” mardlik dostonidir. Sevimli yori Barchin to‘rtta shart qo‘yadi. Har kim

maydonga ot soladi, otini o‘zdirgan odam oladi. Bu to‘rt shart – botirlik, qahramonlik shartlaridir.

Boboxondan poyga qilib o‘zdirsa,
Oti ildam alp yigitga tegaman.
Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,
Men tegaman shul yoyondoz polvonga.
Ming qadamdan tanga pulni urganga,
Men tegaman shul qirag‘ay merganga.
Savash bo‘lsa bul shubonib chiqqanga,
Kurash qilib to‘qson alpni yiqqanga,
Men tegaman nor bilakli polvonga,
Otin toblab kira bersin maydonga...

Barchin tomonidan qo‘yilgan bu go‘zal shartlar haqiqatan qahramonlik shartlaridir.

Agarki xalqimizning qadimiylari va shonli tarixi tiganmas bir doston bo‘lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh bayti desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Bu mumtoz asarda tarix to‘fonlaridan, hayot-mamot sinovlaridan omon chiqib, o‘zligini doimo saqlagan el-yurtimizning bag‘rikenglik, matonat, oljanoblik, vafo va sadoqat kabi ezgu fazilatlari o‘z ifodasini topgan.“Alpomish” dostoni odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamizni qo‘riqlashga o‘rgatadi. Xalqimizning yengilmas bahodiri Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko‘zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda jonini ham fido qilishga tayyor bo‘lgan azamat o‘g‘lonlarimiz – bugungi alpomishlarning ma’naviy qiyofasini ko‘ramiz.

4-DARS

4A

OKSFORD UNIVERSITETI

Oksford universiteti Angliyaning Oksford shahrida joylashgan, ingliz tilida gaplashuvchi xalqlar orasidagi eng qadimiy universitet hisoblanadi. Universitet jahondagi yetakchi akademik oliygoh sanaladi. Oliygohning tashkil etilgan sanasi aniq bo‘lmasa-da, u taxminan XI asrda tashkil etilgan deb sanalmoqda. 1209-yilda talabalar va shaharlik aholi o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik tufayli Oksfordning bir nechta akademiklari shimoli-sharqqa, Kembrijga ko‘chib ketadi va u yerda yangi universitetga asos solishadi. Shu tariqa Kembrij universiteti tashkil topgan. Hozirga qadar bu ikki oliygoh o‘zaro raqobatdadir. Oksford universiteti Russell Group, Koimbri guruhi (Yevropa universitetlari guruhi), Yevropa universitetlari ligasi, Europaeum kabi tashkilotlarning a’zosi sanaladi. O‘qitish sifatiga ko‘ra dunyodagi kuchli o‘nlikka kiradi.

Oksford shahri XII asrning so‘ngiga kelib yirik ta’lim dargohiga aylangan edi. 1167-yilda Parij universitetida yuzaga kelgan chet elliklar bilan bog‘liq ko‘ngilsizliklar ingliz olimlarining Oksfordga qaytishiga sabab bo‘ldi. Aynan ular tufayli Universitet tashkil topgan. 1188-yilda tarixchi Jerald Uels ilk ma’ruzani o‘qigan bo‘lsa, chet elliklardan Emo Frisland 1190-yilda birinchi bo‘lgan.

Universitetni ko‘pgina Britaniya universitetlari kabi kansler boshqaradi. Umrbod bu lavozimni egallaydi. Barcha xodimlar va tashkilotlar universitet kundalik faoliyatini ta’minlaydi. O‘qish uch semestr davom etadi: kuzgi – oktabrdan dekabrgacha, qishki – yanvardan martgacha va yozgi – apreldan iyulgacha.

Oksford markaziy kutubxonasi Bodlian kutubxonasi deb ataladi. Unga 1598-yilda ser Tomas Bodli tomonidan asos solingan. Ommaviy foydalanishga esa 1602-yildan boshlab ruxsat berilgan. Bu yerda 8 million tomdan ortiq kitoblar mavjud. Kutubxona Buyuk Britaniyada kattaligiga ko‘ra Britaniya kutubxonasidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, universitet tarkibida muzey va galereya

faoliyat yuritadi. 1683-yilda asos solingen Eshmolin muzeyi Buyuk Britaniyadagi eng qadimiy muzey, jahondagi eng birinchi universitet tarkibidagi muzey hisoblanadi. Bu yerda san'at va arxeologiya buyumlari namoyishga qo'yilgan. Ular qatorida Mikelanjelo, Leonardo da Vinci, Pablo Picasso kabi mashhur rassomlar asarlarini ham uchratish mumkin.

Oksford bitiruvchilari orasida 25 ta Britaniya bosh vaziri (ular orasida Uilyam Gladstoun, Gerbert Askina, Klementa Ettli, Garold Vilson, Margaret Tetcher va Toni Bleyer kabilar bor), Norvegiya qiroli – Qirol Garold V, Iordaniya qiroli – Qirol Abdulla II, Avstralaliyaning uchta bosh vaziri (Jon Gorton, Malkom Freyzer, Bob Xouk), ikki Hindiston bosh vaziri (Manmoxan Singh, Indira Gandhi), Pokiston prezidentlari Zulfiqor Ali Bxutto, Benazir Bxutto va AQSH prezidenti Bill Clinton kabi jahonga mashhur kishilar bor. Nobel mukofoti laureati Entoni Jeyms Legett, aktyorlar: Xyu Grant, Keyt Bekinseyl, Dadli Mur, Maykl Polin, Terri Jons kabilar ham o'z vaqtida Oksford talabalari hisoblanishgan.

4B

BIRINCHI MUALLIM

Bu voqeal 1924 – yili ro'y berga edi. Ha, xuddi o'sha yili.

U vaqtarda on to'rt yoshli yetim qiz bola edim, amakimning qo'lida turardim.

O'sha yili kuzda chorvadorlar tog'ga qishlovga ko'chib ketgandan keyin ovulimizda askar shineli kiygan bir yigit paydo bo'ldi.

Oldin uni, o'zi komandir ekan, ovulda katta bo'lib kelibdi deyishdi, keyin bilishsa, komandir qayoqda deysiz, ocharchilik vaqtida ovuldan temir yo'lga ketib dom-daraksiz ketgan Tashtanbekning o'g'li Duyshen degan yigit ekan, uni ovulga o'q'ituvchi qilib yuborishgan ekanmish, maktab ohib, bola o'qitar ekan, deyishdi.

"Maktab", "o'qish" degan so'zlar u zamonda endi eshitilayotgan gaplar edi, ularning ma'nosini tushinadiganlar ham juda kam edi.

Duyshen bizni bilganicha, qo‘lidan kelganicha o‘qitardi, ko‘ngliga nima kelgan bo‘lsa, shuni o‘rgatardi. Uning sof ko‘nglidan chiqqan g‘ayrat-tashabbus behuda ketmadi, o‘z samaralarini berdi, bunga imonim komil. U qahramonlik ko‘rsatardi-yu, lekin bu qahramonligidan ozi ham bexabar edi. Ha, bu chin qahramonlik edi, o‘sha kezlarda qishloqdan boshqa yerni ko‘rmagan sodda bolalar ko‘z oldida, agar yoriq-teshiklaridan qorli tog‘ cho‘qqilar ko‘rinib turadigan shu kulbani maktab deb atash mumkin bo‘lsa, shu mактабда to‘satdan quloq eshitmagan, misli ko‘rilmagan yangi dunyo namoyon bo‘ldi.

Duyshenning shogirdlari ichida eng kattasi men edim. Shuning uchun ham boshqalardan uquvim yaxshroq edi, lekin nazarimda, boshqa sabablari ham yo‘q emas edi. Muallimning har bir so‘zi, ko‘rsatgan har bir harfi men uchun tabarruk, muallimga ixlosim zo‘r edi.

Duyshen bergen daftarini ayab-avaylab, uni yer-ko‘kka ishonmay, yurgan yerimda o‘roq uchi bilan yer chizib, ko‘mir bilan devorga, xivich bilan qor ustiga harf suratini solib, so‘z to‘qib yurardim. Nazarimda, dunyoda Duyshendan o‘tar olim, undan o‘tar aqli odam yo‘q edi.

Birinchi qor tushguncha tepaning etagida shaldirab oqib turgan ariqdan qo‘l ushlashib o‘tib yurdik. Keyin ariqning suvi oyoqni kesib yuboradigan bo‘lib, kichkina bolalarning ko‘zidan yosh ham chiqib ketdi. Endi bolalar turnaday tizilib turishardi. Duyshen ularni galma-galdan bittasini yelkasiga olib, ikkinchisini qo‘lida ko‘tarib ariqdan o‘tkazib qo‘yardi.

Odamlar o‘sha paytda johilligidanmi yoki aqli kaltalik qilibmi, Duyshendan kulishar edi.

—Manavi, bittasini qo‘liga, bittasini orqalab olgan jo‘jabirday kim o‘zi? — deb qamchsi bilan turtib o‘tmay qo‘ymas edi bittasi.

O‘shanda xo‘rligim kelib yig‘laguday bo‘lardim, g‘azabim qaynab, kuchum yetsa otning tizginini ushlab: “Muallimimizning sadag‘asi ketgur, uyatsiz, ahmoqlar!” — deb yuzlariga tik boqib qichqirgim kelardi.

Biroq norasida qizning gapiga kim ham quloq solardi. Achchiq-achchiq ko‘z yoshlarimni ichimga yutib qolaverardim. Duyshen bo‘lsa hech nima ko‘rmagan,

hech nima eshitmaganday, bu sassiq gaplarga parvo ham qilmasdi. Qaytaga, biron qiziq gap o‘ylab topib, bizlarni alahsitish payida bo‘lardi.

5-DARS

5A

BESHIK

Oyim beshikni sekin-sekin tebratadi. Beshik g‘ichirlaydi.

Oyimning aytishicha, bu mening beshigim ekan. Eski bo‘lgani uchun g‘ichirlarmish.

Bugun “Qora ammam” ukamga yangi beshik olib kelarkan .

Yangi beshikni olib kelish qiziq bo‘larkan. «Qora ammam», Parcha xola, yana uch-to‘rt xotin bezatilgan beshikni ko‘tarib, eshikdan alla aytib kirishdi.

Alla, bolam, alla-yo alla!

Shirin qo‘zim, alla-yo alla!

Bag‘rimdagi toychog‘im, alla!

Beshikdagi munchog‘im, alla!

O‘ziyam, beshikmisan, beshik! Ustiga cho‘g‘dek qizil gavrapo‘sh yopilgan, gavrapo‘sh chetlariga chaqaloqning ko‘ylakchalari, ukpar qadalgan do‘ppisi chatib qo‘yilgan.

Xotinlar alla aytib, uyga yo‘l olishdi. Abduvali ikkimiz ergashib kirdik. Birpasda mehmondorchilik boshlandi.

Taxmon oldida Lazokat xola yangi beshikka boshqatdan joy sola boshladi.

Avval tuvak-sumaklarni qo‘ydi. Keyin shildir-shildir qilayotgan qovusni (bilaman, chaqaloqning to‘sakchasi, ichida tariq po‘sti bor) yozdi. Ustiga oppoq yo‘rgak tashladi.

Ammam xokandozda tutab turgan isiriq ko‘tarib kirdi. Harsillab nafas olgancha allanimalar deb pichirladi, beshik atrofida xokandozni aylantirdi.

—Hoy, Robiyahon-u?! – dedi ayvon tomonga qarab. – Obkeling!

Qarg‘ashoyi ko‘ylak kiyib, yasanib olgan oyim yo‘rgaklangan ukamni ko‘tarib kirdi.

Ammam ukamni oyimning qo‘lidan olib, Lazokat xolaga avaylab uzatdi. Lazokat xola chaqaloqni ko‘rpachaga yotqizib, yo‘rgakni yechdi. Ukamning chap oyog‘ini bukib, tizzasini o‘ng qo‘lining uchiga tekkizdi.

— Yetdimi? – degan edi, uy to‘la xotinlar qiy-chuv qilib yuborishdi.

— Yetdi! Yetdi!

Lazokat xola endi ukamning o‘ng oyog‘ini bukib, chap qo‘lining uchiga tegizdi.

— Yetdimi?

— Yetdi! Yetdi!

Boyadan beri indamay yotgan ukamga bu qiliq yoqmadi shekilli, yig‘lab yubordi. Ammo xotinlar bemalol kulishar, ostonada turgan oyim ham mammun jilmayar edi.

5B

ZEBI, ZEBONA

Aravakash u yoqdan turib:

— Ha, barakalla, bor ekansizlar-ku! O‘rtaga olinglar ashulachini! – degandan keyingina Zebining tillari qaltiradi:

— Gaplashib ketaylik, shunday qorong‘ida!..

— Jin urarmidi? – dedi bittasi.

— Yaxshi emas, shunday zim-ziyo qorong‘ida... Gaplashib ketaylik...

Shirin-shirin gaplardan...

Aravakash uning so‘zini ilib oldi:

— Shirin-shirin gap o‘rniga shirin-shirin ashuladan bo‘lsin, opa.

Ta’rifingizni eshitib jiгарларимиз laxta-laxta qon bo‘lib ketgan...

Salti tegishdi:

– Voy tovba-yey! Laxta-laxta qon bo‘lganmi? Jabr bo‘lgan ekan...

Aravakash ham bo‘sh kelmadi:

– Qon bo‘lgan yuraklarni bir nafasda yozish sizlarning qo‘lingizda, opalar! Biz ham dunyoga kelib bir yayraylik-da.

Yana indamasdan o‘tirgan Zebiga endi bu safar Salti yalindi:

– O‘rtoqjon, bir narsa desangiz-chi? Hamma baravar tashna ekan...

Zebi o‘rtog‘ini astoydil koyib berdi:

– Sizdan kelgan gap shumi, hali? Otamning aytganlarini o‘z quloingiz bilan eshitib edingiz-ku! Eshitib-netib qolsa nima bo‘ladi? Bilib turib...

Salti o‘rtog‘ini to‘xtatdi:

– Bilaman, o‘rtoqjon, bilaman! Otangizning gaplarini bir emas, ikki qulog‘im bilan eshitdim. Odamlar ichida, ko‘pchilik orasida qistasam, mendan xafa bo‘ling. Bu yer dala joy bo‘lsa, odam asari bo‘lmasa, kechasi qorong‘i bo‘lsa, bir-ikki juft aytib bermaysizmi?

– Nomahramga eshitdirib-a?

Zebi bu so‘zni chin ko‘ngildan chiqarib va jerkib turib aytgan bo‘lsa ham, qizlar hammasi birdan kulishib yubordilar. Yana har xil ovozlar ko‘tarildi:

– Shu ham nomahram bo‘libdimi?

– Shu O‘lmasjon-a?

– Nomahram o‘la qolsin...

Zebi chinakam ranjigan edi. Yig‘lamsirashga yaqin bir ovoz bilan Saltiga:

– Munaqa qilishnngizni bilsam kelmas edim, – dedi.

Qizlar ishning bu tomonga aylanganiga hayron bo‘lishib jim qoldilar.

Aravakash:

– Ey tovba! Ey, tovba! – deb o‘z-o‘ziga so‘zlanib, otni qattiq-qattiq besh-olti qamchiladi. Ot qadamlarini ildamlatib aravani guldur-guldur g‘ildirata boshladi. Hamma jim bo‘ldi. Faqat Salti bilan Zebi ikkovi bir-birlari bilan pichirlashib so‘zlashardilar. Bu pichirlash natijasida Salti o‘rtog‘ini tinchlantirishga muvaffaq bo‘lgan, buning ustiga yana qizlar yor-yor boshlaganda uning qo‘shilishi

to‘g‘risida so‘z olgan edi. Bir marta boshlangandan keyin undan narisi o‘zi keta beradi, deb o‘ylardi Salti.

Darrov qizlarga tomon burildi:

- Qani, qizlar, o‘zimiz yor-yor boshlaymiz!
- Ha, balli! – dedi aravakash.

Qizlardan javob kutib o‘tirmasdanoq Salti o‘zi boshlab yubordi:

“Uzun-uzun arg‘amchi o...

Qizlar qo‘shilishdi:

... Halinchakka,

Chakan ko‘ynak yarashar

Kelinchakka.

Chakan ko‘ynak yengiga

Tut qoqaylik...”

Bir-ikki bayt o‘tgandan keyin Zebining tiniq, g‘uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o‘tkir ovozi qo‘shildi. Bu ovoz peshona ustida pirillagan eng yorug‘ yulduz singari boshqa ovozlardan ochiq ajralib turardi. Shu choqqacha yor-yorga quloq berib, indamasdan, asta-asta otini qamchilab ketayotgan aravakash bu ovoz chiqishi bilan “uh” tortdi, qo‘lidagi qamchisi daraxtdagi kuzgi yaproq singari zo‘rg‘a-zo‘rg‘a barmoqlariga osilib qoldi...

Saltining didi to‘gri chiqqan edi, endi Zebi yor-yorni o‘zi yolg‘iz aytardi. Aravakash bilan birga qolgan qizlar hammasi bir quloqqa aylangan edilar. Ot bu go‘zal ovozning shirin kuylari ostida boshini quyi solib, bo‘ynini asta-asta likillatib bitta-bitta qadam bosardi...

(Cho ‘lponnning “Kecha va kunduz” romanidan parcha)

QUDALARNI KUTIB OLISH

Kechagi kirgan savdogarlardan qudalarning bugun aniq kelish xabarlarini bilgan edilar. Nariroqdan kuzatib kirish uchun Hasanali yo‘l ustiga ketgan. Yusufbek hojining o‘zi ish boshida turib, Oybodoqqa tashqari hovlini tozalatar edi. Ichkarida bo‘lsa, O‘zbek oyim qo‘shni xotinlardan bir nechasini hasharga aytib, hammani joy-joyiga qo‘ydirgan, hovli yuzini ham yog‘ tushsa yalagudek holga keltirgan edi. Ammo o‘z uyini bo‘sattirib, gilam solib qo‘yaniga endi uch kunlar bor, qudalarning ziyofati uchun kerak bo‘lgan hamma narsalarni ham hozirlatgan, ular kelib tushdi deguncha bo‘g‘izlatish uchun deb, bir g‘o‘non qo‘y og‘ilning ustuniga bog‘lab qo‘yilgan edi.

Zaynab ham uncha xafa ko‘rinmas, qaynonasining buyruqlarini eski holicha bajarib yurar va hozirda uyga kirib olib, mehmonlar kelib tushdi deguncha oldilariga yozish uchun dasturxon yasatar edi.

O‘zbek oyim hasharchi xotindan biriga tandirga o‘t qo‘yishni buyurdi-da, o‘zi Zaynabning oldiga keldi:

Dasturxoning bitdimi, bolam? – deb so‘radi.

– Bitdi. Tashqarining asali kamga o‘xshaydir.

– Kam bo‘lsa, darrov ombordan keragicha olib chiq, undan keyin xamiringga o‘zing qara, Oybodoqning qo‘li tegmas, xamir gup berib ketibdi! – dedi va darichadan ko‘tarilib dasturxonlarni kuzatdi, – dasturxon tuzuk, varaqini esingdan chiqarma! – dedi va o‘rta yo‘lakda ko‘ringan Yusufbek hojini o‘ziga imladи. – Beri keling!

– Nima gap?

Dasturxonlarimizga bir qarab qo‘ying-chi? Hoji parvosizgina qilib qaragan bo‘ldi:

– O‘zingga yoqsa bo‘pti, – dedi.

– Qassob aytganmisiz, tag‘in ular kelgandan so‘ng shoshib qolmaylik.

– Qassob tayyor, hozir bo‘gizlatsak bo‘lmaydimi?

Yo‘q, – dedi O‘zbek oyim, – osh egasi bilan shirin! Ha, aytgandek, qudangiznikiga yuborgan kishingiz keldimi?

Asal uchun shoshib borgan Zaynab to‘xtab qaynotasining og‘ziga qaradi.

– Borib keldi, – dedi hoji, – Alimbek dalasiga ketgan ekan, xotin qudalar kelishmoqchi bo‘lishibdir.

Zaynab asalga ketdi. Hoji O‘zbek oyimning yoniga yurib keldi va sekin so‘radi:

– Zaynab xafa emasmi?

– Nimaga xafa bo‘lar edi.

– Axir, so‘rayman-da.

– Tappa-tuzuk, – dedi O‘zbek oyim, – tashqaringizdan Oybodoq qutulayozdimi?

– Qutulib qoldi. Mahalladan ham uch-to‘rt kishi aytdim, oshni ko‘proq qilish kerak. Oybodoq tashqarini yig‘ishtirib kirdi. Hoji mehmonxonaga chiqib ketdi. O‘zbek oyimning amricha, Oybodoq, Zaynab va hasharchi xotinlar kulcha yasashga o‘tirdilar.

Kun tushdan oqqanda hamma saranjom olingan edi. O‘zbek oyim to‘yga boradigan xotinlardek yasangan, egnida odimi xon atlas ko‘ylak, boshida oq shohi dakana, ko‘zida surma edi. O‘zbek oyimning “Kelinni xor tutar ekan, demasinlar, sen ham o‘zingni tuzat” , deb aytgani uchun Zaynab ham tamom ipaklarga ko‘milib yasangan... Zaynabning onasi – Mohira oyim, opasi – Xushro‘ybibi va yangasi Hanifanisolar ham kelishdilar. O‘n chog‘li xotin bo‘lishib sovutmachoq dasturxonga o‘tirishdilar. O‘zbek oyim majlisga – marg‘ilonlik qudaning odamgarchilikni bilishidan, Otabekni Toshkentdan uylantirishga qarshi lom-mim demay, qaytaga o‘zi kuyovi bilan birga kelib, to‘yni o‘tkazib ketganidan Marg‘ilondagi obro‘sidan va davlatidan bahs qilib aytar edi:

– Bechoraning bori-yo‘g‘i peshonasidagi bolasi bizning kelinimiz. Otabekni o‘z bolasidan ham yaxshi ko‘rib, “O‘g‘lim bo‘lsa, shundog‘ bo‘lar edi-da, mendan keyin hamma davlatim shuniki, ilohi omon bo‘lsin!” der ekan...

– Ha, aylanay quda... qars ikki qo‘ldan chiqadir, deganlar... Buzoq yaxshi bo‘lsa, ikki onani emar ekan... – dedi Mohira oyim.

...Oybodoq tashqaridagi guldur-guldurni eshitdi va chopib mehmonlar o‘tirgan uyning darichasi yoniga keldi: “Kelishganga o‘xshaydirlar” – dedi.

O‘zbek oyim boshliq xotinlar hovli yuzasidan tushdilar.

– Sevinchi bering, bek buvi, kennoyim keldila!

O‘zbek oyim cho‘nchagiga qo‘lini solib, besh-o‘n pul olib, bolaga berdi. Bola orqasidan Hasanali ko‘rindi:

Qani, oyi, ko‘rmanani bering-chi, men sizning qochqoq keliningizni tutib keldim! – dedi va yo‘lakka qarab:

– To‘xtang, to‘xtang, ilgari men sevinchimni undirib olay.

Yo‘lakdan Oftob oyim ko‘rindi. Paranjisi boshida, chashmbandi qo‘lida edi. Hasanali O‘zbek oyim bilan tanishtirdi:

– Bu kishi qudachangiz – Oftob oyim bo‘ladirlar.

O‘zbek oyim Oftob oyim bilan salomlashib quchoqlasha ketdilar, boshqa xotinlar uning bilan ko‘rishib chiqdilar. Hammaning ko‘zi alang-jalang keldi. Kumushni axtarishar edilar. Kumush hali ichkariga kirgan emas. O‘zbek oyimning ikki ko‘zi yo‘lakda. Hasanali bir yo‘lakka va bir O‘zbek oyimga qarab nima uchundir ko‘zini qisib qo‘yar edi. Oftoboyim qudasi yoniga keldi: “Uyalib turgandir” deb kuldi. O‘zbek oyim kulimsirab yo‘lak tomonga:

– Hoy, poshsha kelin! – dedi – Bizlar kutib qoldik-a, uyalmang, bolam! Hasanalining ko‘rmanasi bo‘lsa tayyor!

Hasanali yo‘lakka qarab imladi... Qip-qizargan holda Kumush ko‘rindi: paranjisi qo‘lida, qora atlas ko‘ylak egnida, zangor latta mursak ustida, oq shohiro‘mol boshida edi. Shahlo ko‘zlari kulimsirashga yaqin holda uyatli edilar.

Hasanali tanitdi:

– Mana bu kishi qayin onangiz – bek oyim bo‘ladirlar.

Kumush salom berdi va qo‘lidagi paranasini yerga tashladi, yugurib kelib o‘zini O‘zbek oyimning quchog‘iga oldi...

Qaynona–kelin bir daqiqa chamasi ko‘rishib qoldilar. So‘ngra Kumush boshqalar bilan bir-bir ko‘rishib chiqdi. Eng keyin orqadan Zaynab ko‘rindi. O‘zbek oyim kulib Kumushga qaradi:

– Qani, o‘zing tani-chi, kim ekan bu!

Kumush hayron bo‘lib qolmadi... ipaklar ichiga g‘arq bo‘lgan Zaynabga qarab olib, unga tomon odim tashladi:

– Zaynab opam! – dedi. Ikki kundosh “Esonmisiz, omonmisiz, eson-omon yuribsizmi...” so‘zлari bilan ozorsiz qilib bir-birining yelkasiga qo‘l yuborishdilar.

– Qani, bek otasi, ko‘rmanani bering-chi! – dedi O‘zbek oyim Kumushni imlab. Kumush uyalib zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo‘yin egdi. Hoji qo‘li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayiga tegizib olgan o‘z qo‘lini o‘pdi:

– Bizning Marg‘ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurgan ekanmiz-da! – deb tevaragiga qarab kulindi va qo‘lini duoga ochdi. – Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiliklaringiz bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin. Ollo taolo yoshlarga tinch va barakatli umr bersin... Ilohim qabul qilsin duolarimizni...

(*Abdulla Qodiriy. “O’tkan kunlar” romanidan*)

6-DARS

6A

TOSHKENT TARIXI

Toshkent vohasi Tyanshanning g‘arbiy yonbag‘irlaridan boshlanib Sirdaryo etaklariga tushadigan keng tog‘oldi tekisligining bir qismida joylashgan. Sharqda u uchta – Ugom, Piskom va Chatqol tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan bo‘lib, bu tizmalarni shu nomlar bilan ataluvchi daryolar oqib o‘tuvchi daralar ajratib turadi. Bu daryolar qo‘shilib Chirchiq daryosini hosil qiladi. Chirchiq daryosi Chorvoq

havzasining tor darasidan o‘tib, G‘azalkentdan quyiroqqa tushganda kengligi ba’zi joylarda 20 kmdan oshadigan qadimiy tekislik bo‘ylab oqadi.

Tamaddun sarchashmalarida

Taxminan uch ming yil ilgari Toshkent vohasida dastlabki dehqon jamoalari paydo bo‘lgan. Ular bir vaqtning o‘zida chorvachilik bilan ham shug‘ullanishgan. Tekisliklar, adirlar va tog yonbag‘irlari ho‘jalik asoslarini har tomonlama rivojlantirish uchun juda qulay sharoit yaratgan. Hozir Toshkent shahri joylashgan vohadagi tabiiy suv tarmoqlari tabiiy sug‘orishga asoslangan dehqonchilikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratgan.

Ilk shahar

Toshkent vohasida o‘troq dehqonchilik va ilk shahar madaniyati qadimiy bo‘lishiga qaramay, shaharning o‘z tarixini miloddan avvalgi I asr oxiridan yozma manbalar va hozirgi shahar ichidagi qadimgi shahar xarobasi (Mingo‘rik) saqlanib qolgan vaqtadan boshlaganini kuzatish mumkin. Mingo‘rik Salor kanali bo‘yida, hozirgi Shimoliy vokzal yaqinida joylashgan bo‘lib, uning nomi bu erda XIX asrda mavjud bo‘lgan katta o‘rikzordan olingan. O’sha davr haritalariga ko‘ra, qadimgi shahar o‘rni tahminan 35 ga joyni egallagan.

Binkat Toshkent – Shoshning o‘rta asrdagi poytaxti.

Kultepadan 8 km shimoli-g‘arbda, bir vaqtarda Shoshning ilk o‘rta asrdagi shahar dahasiga kirgan yangi yerda poytaxt qaytadan barpo etildi. Uning xarobalari Toshkentda XIX asr davomida olib borilgan qurilishlar natijasida ko‘milib ketdi.

Temuriylar sultanati tarkibida

Shunday qilib, XIV asr boshlariga kelib Toshkent o‘z aholisining avvalgi sonini tikladi. Shahar uning muzofotini tashkil qiluvchi qishloqlar bilan o‘ralgan edi. U musulmon madaniyati markazi sifatidagi avvalgi shuhratiga qayta ega bo‘ldi.

Suronli o‘zgarishlar davri

O’zaro urushlar, Amir Temur va temuriylar sultanatining parchalanib ketishi natijasidagi jarohatlarga qaramay, XVI asrda ham Toshkent obod shahar bo‘lib qolaverdi.

Shahar chekkasida, Kaykovus arig‘i yoqasidagi xushmanzara joyda shayboniy sultonlarining qarorgohi joylashgan bo‘lib, "Shoirlar bog‘i" deb atalgan bog‘ vujudga keltirilgandi. Bu yerda olimlarning bahs-munozaralari bo‘lib o‘tar, mushoiralalar tashkil qilinardi.

Yangilangan poytaxt

1991 yildan O’zbekiston va uning poytaxti Toshkent tarixida yangi davr boshlandi. Mustaqillik yillari mobaynida butun mamlakatning ham, uning poytaxtining ham qiyofasi tanib bo‘lmash darajada o‘zgardi.

6B

XORAZM

“Qadimgi Xorazm O’rta Osiyoning Misridir” – Insoniyat sivilizatsiyasining ko‘hna makonlarini o‘rganuvchi arxeologlar ulkan yutuqlarga ko‘hna Xorazm zaminidagi makonlar, qabriston, qal'a va qo‘rg‘onlarni izlab topish va o‘rganish jarayonida erishdilar. Xorazm tarixi, madaniyati va san'atini betakrorligiga yana bir marta amin bo‘ldilar ”.

S.P.Tolstov

Xorazm – Markaziy Osiyoning Turon pasttekisligida, Amudaryo deltasida joylashgan qadimiy tarixiy o‘lkadir. “Xorazm” so‘zi dastlab “Avesto”da uchraydi, “Avesto” Sharq yozma adabiyotimizning eng qadimgi manbasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. “Avesto”da qadimgi Turon o‘lkasi va Eronning o‘ziga xos tarixiy geografiyasi bayon etiladi. “Avesto” Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi qadimiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi, diniy qarashlari hamda jamiyatda ro‘y berayotgan tabaqalanish haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. O’sha

davrlarda jamiyat turli tabaqalarga bo‘linib, boylar va kambag‘allar sinflari paydo bo‘la boshlagan. “Avesto” ruhoniylar, jang aravalalarida yuruvchi harbiylar, dehqonchorvadorlar, hunarmandlar, qullar mavjudligi haqida xabar beradi. Jamiyatning sinflarga bo‘linishi natijasida dastlabki davlatchilik ham vujudga keladi. “Avesto”da bayon qilingan voqealar asosan, “Arianam Vayja” mamlakatida, ya’ni olimlar tomonidan “Katta Xorazm” deb atalgan davlatda ro‘y beradi. Bu davlat Prourata (Parfiya), Mouru (Marv), Gava (So‘g‘diyona), Xvayrezm (Xorazm)ni o‘z ichiga olgan.

Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga kelib, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo‘ldi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya va miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Amudaryoning o‘rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo‘lgan yerlarda (Shimoliy g‘arbiy O’zbekiston, Shimoliy g‘arbiy Turkmaniston) hududlarida Xorazm nomi bilan ataluvchi davlatlar vujudga kelgan.

Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari o‘rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o‘tgan. Xorazmning yirik sug‘orish inshootlari miloddan avvallgi VI-V asrlarga oiddir. O’lkada yashagan aholi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq rivojlangan. Qadimgi yozma va arxeologik manbalarni o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatadiki, qadimgi xorazmliklar ilm-fan sohasida o‘z davri uchun ilg‘or bo‘lgan yutuqlarga erishganlar va hayotga tatbiq qila olganlar. Xorazmliklar astronomiya va matematikadan yaxshi xabardor bo‘lib, burchak o‘lchovi uskunalarini yaratganlar va ulardan foydalanganlar. Osmon jismlarini o‘rganish, tabiat hodisalarini kuzatishga ixtisoslashgan falakiyot fani ko‘hna Xorazmda taraqqiy qilib, shu davrda qurilgan inshootlar bizning kunlarimizgacha yetib kelgan. Ana shu inshootlardan biri ko‘hna Xorazmning madaniy yodgorligi bo‘lmish Qo‘yqirilgan qal’asidir, eramidan avvalgi IV asrda bunyod etilgan bu qal'a To‘rtko‘ldan 22 km shimoli-sharqda joylashgan. Qal'a faqat ibodatxona sifatida emas, balki astronomik kuzatishlar olib borish uchun ham mo‘ljallab qurilgani, bu erda yana arxeologlar tomonidan eramizning uchinchi asriga oid dastlabki

taqvimnomalar hujjat, ya'ni "Xorazmliklarning kalendarasi" topilgan. Bu topilmalar qadimda xorazmliklarning o'z kalendarasi bo'lganligidan guvohlik beradi.

"Miloddan avvalgi VI asr va milodiy XIX asrlar oralig'ida Xorazm o'zining iqtisodiy, siyosiy, ma'daniy yuksalish jarayonida Markaziy Osiyo mintaqasida o'ziga xos o'rinnegallagan o'lka sifatida tanildi. Chunki Xorazm hududida qadimgi "Dasht yo'li" va "Buyuk Ipak yo'li"ning shimoli-g'arbiy tarmog'i, mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qadimgi Baqtriya va Xorazm, So'g'diyona va Xorazm savdo yo'llari orqali Eron va Hindistonga o'tadigan janubiy savdo yo'llari kesishardi. Xorazm bu yo'llarning chorrahasida joylashgan bo'lib, bu erga turli mamlakatlardan savdogarlar, hunarmandlar, olimlar va me'morlar tashrif buyurganlar. Natijada Buyuk Ipak yo'li bo'ylab keng miqyosdagi savdo-sotiq jarayonlari bo'lib o'tdi. Buyuk Ipak yo'li faqat karvon yo'li bo'lbagina qolmasdan, Yevroosiyo xalqlari sivilizatsiyasi tarixida o'chmas iz qoldirgan, uning har tomonlama taraqqiy etishida ulkan omil bo'lib xizmat qilgan yo'l ham edi.

7-DARS

7A

OROL DENGIZI

Orol dengizi – O'rta Osiyodagi eng katta berk sho'r ko'l. Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston (Qoraqalpog'iston), shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming kv.km ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevroosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi.

Orol dengizida suv sathining yil davomida o'zgarib turishi Amudaryo va Sirdaryoning bahor-yoz paytalarida toshishi bilan bog'liq. Bahorgi yomg'irdan ham

dengiz sathi ko‘tariladi. Suvi sathining yil davomida o‘zgarish amplitudasi o‘rtacha 25 sm. ga teng bo‘lgan. Suvining sho‘rligi o‘rtacha 10 –11 %. Suvdagi tuzlarning ko‘p qismini osh tuzi va sulfatli magniy tuzi tashkil etgan. Kimyoviy tarkibiga ko‘ra, suvi Kaspiy dengizi suviga o‘xshash. Orol dengizi suvining tarkibidagi tuz 11 mlrd. tonnaga yaqin deb baholangan. Bu tuzlar sanoat ahamiyatiga ega. Dengiz suvi, ayniqsa, markaziy qismida juda tiniq. Suvi, xususan, qishda tiniq bo‘ladi. Yoz oylarida ham 24 metr chuqurlikkacha dengizning tubi ko‘rinadi. Suvining rangi ko‘pgina qismida ko‘k, qirg‘oqlariga yaqini ko‘kintir tusda. Amudaryo bilan Sirdaryoning quyilish joyida suvi loyqa. Dengiz dekabr o‘rtalaridan mart oxirigacha muzlaydi. Yozda suvning yuqori qismidagi harorati 27° ga yetadi. Chuqurlik ortishi bilan harorat tez pasayadi. Yozda 1 m chuqurlikda harorat 8° ga o‘zgaradi. Dengiz ustida havoning o‘rtacha harorati yozda 24 – 26° , qishda -7° , $-13,5^{\circ}$ bo‘ladi.

Dengizda kema qatnovi mavsumi 7 oy davom etgan. Aralsk va Mo‘ynoq kabi yirik portlar faoliyat ko‘rsatgan. Orol dengizi atrofida aholi kam bo‘lgan. Aholi, asosan, baliqchilik bilan va, qisman, chorvachilik, ondatra urchitish va sabzavot-polizchilik bilan shug‘ullangan. O’tgan asrning 90-yillarigacha dengizdan baliq ovlangan. Aralsk va Mo‘ynoq shaharlari va bu shaharlar atrofida ko‘p sonli baliq ovlash xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatgan, Amudaryo deltasida, Avan posyolkasida (Ko‘korol o.), Bugun posyolkasida (sharqiy sohil), Uyali va Uzunqir orollarida baliq tuzlash zavodlari ishlab turgan.

Orol dengizini birinchi marta A. I. Butakov 1848-49 yillarda tadqiq etgan va xaritaga tushirgan.

Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog‘liq, shuning uchun bu ikki daryo suvi sug‘orishga qancha ko‘p sarflansa, dengizda suv shuncha kamaya borgan. Ayniqsa, o‘tgan asrning 60-yillaridan sug‘oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildan yilga kamaya bordi. Oqibatda dengizda suv sathi juda tez pasaya boshladi.

Orol dengizida suv sathi pasayishining uning suv yuzasi va suv sig‘imiga ta’siri Orol dengizida suv sathining pasayishi suv balansi elementlarining qiymatlariga ham keskin ta’sir ko‘rsatdi: 1911-60 yillarda dengiz sathi o‘rtacha 53,04 m ni tashkil etib (Boltiq sistemasida), daryolar dengizga quyadigan suv miqdori 56 km³, dengiz yuzasiga yog‘gan atmosfera yog‘inlari miqdori esa 9,1 km³ ga teng bo‘lgan. Sarflanish, ya’ni chiqim esa, asosan, bug‘lanishdan iborat bo‘lib, shu davrda o‘rtacha 66,1 km³ ni tashkil etgan. Shu davr ichida suv balansida salbiy farq qayd etilgan: dengiz har yili 1 km³ dan, 1911-60 yillar davomida 50 km³ hajmdagi suvni yo‘qotgan.

Hozirgi kunda Orol dengizi 3 bo‘lakka bo‘lingan: birinchisi – kichik va sayoz shimoliy qismi (sho‘rligi – 8-13g/l); ikkinchisi – nisbatan kattaroq maydonga ega bo‘lgan va sayoz sharqiy qismi (sho‘rligi – 69-72 g/l); uchinchisi – eng chuqur hisoblangan g‘arbiy qismi (sho‘rligi – 68-69 g/l).

7B

YOVVOYI YO‘RG‘A

Bu voqealarda 1893-yilning dekabrida bo‘ldi. Fermaga kelib tushdim-u, yo‘lovchi soyabon aravada Kanada daryosi bo‘yidagi Pinyavetitosga jo‘nadim.

Foster men bilan xayrashayotib, shunday dedi:

– Menga qarang, bordi-yu, la’nati yo‘rg‘aga duch kelib qolsangiz, ayamay otib tashlang.

Yovvoyi yo‘rg‘a haqida ilk bor eshitgan gapim shu bo‘ldi, yo‘lda esa yo‘lboshchim Bernsdan yo‘rg‘anining kechmishini bilib oldim. Dong‘i ketgan yo‘rg‘ani juda-juda ko‘rgim keldi. Ertasiga Jayron bulog‘iga borib, hafsalam pir bo‘ldi, sababi, u yerda yo‘rg‘anining ham, galanining ham daragi yo‘q ekan.

Ammo ertasi kuni Alamozo daryosi orqali yana tepalikdor yalanglikka kelganimizda, oldinda borayotgan Jek Berns birdan otining bo‘yniga engashib oldi, menga o‘girilib, shivirladi:

–Qurolingizni oling. Ana ayg‘ir.

Men qurolimni qo‘limga olib, oldinga intildim. Pastdagi soylikda otlar galasi o‘tblab yuribdi, ulkan qora yo‘rga gala yonida turibdi.

Qora yo‘rga bizning havomizni oldi, shekilli, segrak tortdi. Avval boshini, keyin dumini ko‘tardi, burun kataklari kengaydi.

Ko‘zimga yo‘rga otlarning oti, dashtlarda chopib yurgan jamiyki otlarning sarasi bo‘lib ko‘rindi, shunday noyob jonivorni nobud qilib, bir to‘da masalliqqa aylantirishga ko‘nglim bo‘lmadi.

Jek hadeb vaqtni boy bermasdan tezroq otishimni tayinladi, men atayin imillab turaverdim.

Serjahl hamrohim imillayotganim uchun meni koyidi. Zardali to‘ng‘illab: “Bu yoqqa bering qurolni!” – deya uni tortib olmoqchi bo‘ldi, men miltiqning og‘zini osmonga qaratdim, u go‘yo tasodif oqibatidek o‘q yeb ketdi.

Gala bir seskanib tushdi. Qora yo‘rga kishnadi, pishqirib, galani bir aylanib chopdi. Baytallar to‘dalashib, chang-to‘zonlar ichra ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Ayg‘ir galaning goh u goh bu yonidan chopib, baytallar keyinda qolib ketmasligini nazorat qildi.

Yo‘rga ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha undan ko‘z uzmadim, uning yo‘rga oyoqlari biron martayam chalkashmadi.

Turgan gap, Jek mening, qolaversa, miltig‘imning, yo‘rg‘anining nomiga ko‘p nordon gaplar aytdi, men uning gaplaridan zavq oldim, zo‘r quvonch bilan qora yo‘rg‘anining chiroyi va qudrati haqida xayol surib qoldim.

Yo‘q, qandaydir bir baytalni deb shunday yo‘rg‘anining yaltiroq terisiga dog‘ tushirgim kelmadi.

7D

EKOTIZIM NIMA?

Albert Eynshteyn shunday degan edi: “Biz to‘qnash keladigan o‘ta muhim muammolarni ularni o‘zimiz yuzaga keltirgan vaqtimizdagi tafakkur darajamiz bilan hal qilib bo‘lmaydi”.

Darhaqiqat, aholining ekologik ma'lumoti va tarbiyasi tabiatni muhofaza qilish va maorif sohasidagi chora-tadbirlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Texnika taraqqiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi sharoitda ekologik ta'lim sifatini yaxshilashga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Kishilar tafakkuri va xulqiga samarali ta'sir ko'rsatish uchun esa, albatta, zamonaviy ijtimoiy texnologiyalarni egallash kerak.

Ekotizim nimani anglatadi? Ekotizim – har xil turdag'i organizmlarning birgalikda hayot kechirishi va ularning o'zaro bir-biri bilan qonuniyatli aloqada bo'lgan yashash shartlarining birligi majmuidir. Eng katta ekotizim – Yer biosferasi bo'lib, so'ng (kichiklashib borishiga qarab) quruqlik, okean, tundra, to'qay, o'rmon, ko'l va hokazolar keladi. Barcha tirik jonzotlar ma'lum hududda ekotizimni vujudga keltiradi. Ekotizimning 3 turi mavjud:

1. Makroekotizim – qit'a, davlat ekotizimi;
2. Mezoekotizim – mintaqa, hudud ekotizimi;
3. Mikroekotizim – yerning kichik maydoni ekotizimi.

Barcha ekotizimlar o'zaro bog'liq va o'zaro aloqadordir.

Savollarga javob bering:

1. *Nima uchun o'rmon xavf ostida qoldi?*
2. *Nima sababdan bolalar ushbu falokatning sababchisiga aylandilar?*
3. *Taxina pashshasi qayerga tuxum qo'yardi?*
4. *Taxina pashshasining foydasi nimada edi?*

Tog' bolalar oromgohi yaqinida joylashgan o'rmonga bir to'p kapalak qurti tushib qoldi. O'rmon naq hammaning ko'zi o'ngida halokatga yuz tuta boshladi. O'romgohga kelgan bolalarning hech biri nima uchun shunday bo'layotganini sira tushunmas edi. Agar har yili shu oromgohda dam oladigan bolalarga birov, falokatning sababchisi sizsiz, deb aytsa, ular, shubhasiz, ishonmagan bo'lar edilar. Rostdan ham, nahotki bolalakar aybdorlar?

Aslida, mana bunday bo‘lgan edi: har yili bolalar oromgoh atrofida gul terardilar. Hamma narsani orqa-oldiga qaramay uzib olaverardilar. Gullarda esa taxina pashshasi yashar, nektar bilan oziqlanar, tuxum qo‘yar edi. Tuxumlardan o‘rmonga zarar keltirayotgan kapalakqurtga qiron keltiruvchi qurtlar paydo bo‘lar edi. Gullar yo‘qolishi bilan, yaqin o‘rtadagi taxina pashshalari ham yo‘qoldi...

Keyin nima bo‘ldi?

II ILOVA

- a** образует деепричастия настоящего времени от основ глаголов, оканчивающихся на согласные, напр., gapira “говоря” от gapirmoq “говорить”, ko‘ra “видя”, “смотря” от ko‘rmoq “видеть”, смотреть”
- ay** образует повелительное (желательное) наклонение **1** л. ед. числа глаголов с основами, оканчивающимися на согласные, напр., yozay “напишу-ка я!”, “дай-ка я напишу!” от yozmoq “писать” (см. -й II).
- aylik** образует повелительное (желательное) наклонение **1** л. мн. числа глаголов с основами, оканчивающимися на согласные, напр., boraylik “пой-дём-ка мы” от bormoq “идти”, o‘ynaylik “давайте поиграем” от o‘yamoq “играть”, yozaylik “напишем-ка мы”, “давайте напишем” от yozmoq “писать”, “написать”.
- ala** образует собирательные числительные от некоторых числительных (от **2** до **7**), напр., ikkala (гласный и в конце слова икки выпадает) “оба”, “вдвоём” от икки “два”, uchala”трое”, “втроём” отич “три”.
- alla-** образует неопределенные местоимения или наречия от вопросительных местоимений, напр., allakim “кто-то” от kim “кто”, allaqanday “какой-то” от qanday “какой”, allaqancha “сколько-то” от qancha “сколько”, allaqachon “когда-то”, “давно” от qachon “когда”, allaqayerda “где-то” от qayerda “где”.

- an** образует наречия от имен существительных, заимствованных из арабского языка, напр., asosan “в основном” от asos “основа”, qisman “частично” от qism “часть”, haqiqatan “действительно”, “поистине”, “на самом деле” от haqiqat “правда”, “истина”, “действительность”.
- aro** (слово-аффикс) 1. соответствует русскому “меж=” “между=”, напр., xalqaro “международный”, tumanlararo “межрайонный”;
- b** образует от основ глаголов, оканчивающихся на гласные, деепричастия прошедшего времени, которые в переводе часто передаются русскими деепричастиями настоящего времени, напр., ishlab “работая” от ishlamoq “работать”, o‘ylab “подумав” от o‘ylamoq “думать”, so‘zlab “говоря” от so‘zlamоq “говорить” (см. также -иб).
- be-** образует от имен существительных прилагательные и наречия со значением отсутствия чего-либо, напр., bерul “без денег”, “не имеющий денег”, “бесплатный”, “бесплатно” от pul “деньги”, beaql “неумный”, “неумно” от aql “ум”, behad “безграничный”, “безгранично” от had “граница”, besabr “нетерпеливый”, “нетерпеливо” от sabr “терпение”.
- bor** образует прилагательные со значением «годный, подходящий для чего-либо», напр., omtabor “массовый” от omma “масса”
- v** образует имена действия и отглагольные существительные от основ глаголов, оканчивающихся на гласные, напр., saylov (конечный гласный переходит в о) “выборы” от saylamoq, “выбирать”, sinov “испытание”, “проба” от sinamoq, “испытывать”, “пробовать”, o‘lchov “мера”, “мерка” от o‘lchamoq “мерить” o‘quv (конечный гласный и переходит в у) “чтение”, “учение”, “учёба” от o‘qimoq “читать”, “учиться”
- ver** (основа вспомогательного глагола бермоқ в интервокальной позиции) разе, образует от деепричастия на -а/-й формы глагола со значением продолжительности и многократности действия, напр., yozaver “продолжай писать”, “пиши себе” от yozmoq “писать”, gapiraver “продолжай говорить”, “говори” от gapirmoq

“говорить”, о‘qiyverdi “он продолжал читать”, “он читал себе (без всяких помех)” от о‘qimoq “читать”.

-ga показатель дательного падежа, напр., maktabga “в школу”, “к школе” от maktab “школа”, shaharga “в город”, “к городу” от shahar “город”, bolaga “ребёнку”, “к ребёнку” от bola “ребёнок”.

-gan образует от основ глаголов причастия прошедшего времени, напр., o‘qigan “читавший” от o‘qimoq “читать”, yozgan “писавший” от yozmoq “писать”, kelgan “пришедший” от kelmoq “приходить”.

-gani образует от основ глаголов деепричастия цели, напр., o‘qigani “чтобы учиться”, “ради учёбы” от o‘qimoq “учиться”, ko‘rgani “чтобы увидеть” от “видеть”, o‘unagani “чтобы играть” от o‘unamoq “играть”.

-gach образует от основ глаголов деепричастия совершенного вида, напр., yozgach “когда (как только) написал”, “написав” от yozmoq “написать”, kelgach “придя”, “едва придя” от kelmoq “приходить”, o‘qigach “прочитав” от o‘qimoq “читать” (см. также -kach; -qach).

-gacha образует наречия или обороты со значением «до», «вплоть до чего-либо», напр., ertagacha “до завтра” от erta “завтра”, kechgacha “до вечера” от kech “вечер”, hozirgacha “до сих пор”, “до сегодняшнего дня” от hozir “сейчас”, soat beshgacha “до пяти часов” от besh “пять” (см. также -qacha; -kacha).

-gi I образует имена существительные от основ глаголов, оканчивающихся на гласные и звонкие согласные, напр., supurgi “метла”, “веник” от supurmoq “мести”, kulgi “смех” от kulmoq “смеяться”, sevgi “любовь” от sevmoq “любить” (см. также -ki, -qi).

-gi II образует относительные прилагательные от имен существительных и некоторых наречий времени или места,

оканчивающихся на гласные и звонкие согласные, напр., kuzgi “осенний” от kuz “осень”, bugungi “сегодняшний” от bugun “сегодня”, kechagi “вчерашний” от kecha “вчера”, qadimgi “древний” от qadim “прежде”, keyingi “последний” от keyin “после” (см. также -ki II, -qi II).

-gi III от основ глаголов, оканчивающихся на гласные и звонкие согласные, в сочетании с притяжательными аффиксами и вспомогательным глаголом kelmoq, или словами bor “есть” и yo‘q ”нет” образует форму желания, передающую желание или нежелание что-либо делать, напр., yegim keldi “мне захотелось (хочется) есть” от yemoq “есть”, borgisi yo‘q, “у него нет желания идти (поехать)” от bormoq, “идти”, “ехать”, ishlaging bormi? “хочешь ли ты поработать?”

-giz образует понудительный залог глаголов с основами на гласные и звонкие согласные, напр., yegizmoq “заставить есть”, “кормить” от yemoq, “есть”, kirgizmoq “вводить”, “впускать”, “заставить войти” от kirmoq “входить” (см. также giz; -g ‘iz;-kaz;-qaz;-qiz).

-gin образует фамильярную форму повелительного наклонения 2 л. ед. числа глаголов с основами, оканчивающимися на гласные и звонкие согласные, напр., yegin “ешь!” от yemoq, “есть”, ishlagin “работай же!” от ishlamoq, “работать”, yozgin “пиши же!” от yozmoq “писать” (см. также -kin; -qin;).

-gina обозначает ослабление, смягчение или ограничение качества, соответствую русским окончаниям «-енъкий», «-онъкий», напр., soddagina “простенький” от soda ”простой”, yaxshigina ”хорошенький” от yaxshi “хороший”, yengilgina “лёгонький” от yengil “лёгкий”, 2. образует ласкательные имена, напр., bolaginam моё дитятко” от bola “ребёнок”, “дитя”, jonginam “душенька моя” от jon “душа”; 3. обозначает отграничение чего-либо, соответствует

русскому «только», «лишь», напр., qarilargina “только старики” от qarilar “старики”.

-guncha образует деепричастия со значением «до тех пор, пока», «вплоть до», «до того, как», напр., u kelguncha “до тех пор, пока он не придёт”, “до его прихода”, sovuq tushguncha “до того, как наступят холода”, “до наступления холодов”, poyezd jo‘naguncha “до отправления поезда”.

-da аффикс местного падежа, напр., institutda “в институте”, senda “у тебя” от sen “ты”, kitobda “в книге” от kitob “книга”; shu yerda “здесь” от shu yer “это место”.

-dagi образует прилагательные, обозначающие местонахождение предмета, напр., uydagi ”находящийся в доме (дома)” от uy “дом”, shkafdagı “находящийся в шкафу”, sendagi “находящийся у тебя” от sen “ты”, plandagi “стоящий в плане”, “плановый”, odatdagı “обычный” от odat “обычай”.

-day *то же, что -dek.*

-dan аффикс исходного падежа, напр., zavoddan “с завода”, “из завода”, “от завода”, “через завод”, kitobdan “из книги”, ariqdan “из арыка”, “через арык”, kasalligidan “по причине болезни”, besh so‘mdan “из пяти рублей”, “по пяти рублей”, besh kishidan “из пяти человек”, “по пять человек”;

-dek аффикс подобия (соответствует русским словам «как», «подобно», «словно», «точно», «как будто», «такие как» и т. п.), напр., тошдек “как камень”, сендек “подобно тебе”, “как ты”, одамдек “как человек”, “словно человек”.

-di аффикс спряжения 3 л. ед. числа: 1) настояще-будущего времени, напр., yozadi “пишет” от tozmoq “писать”, o‘qidi “читает”, “учится” от o‘qimoq “читать”, “учиться”; 2) прошедшего времени, напр., yozdi “он написал”, o‘qidi “он прочитал”.

- digan** образует причастие настояще-будущего времени глагола, напр., yozadigan “пишущий”, “ тот, который пишет или напишет” от уозмоқ “писать”, kelmaydigan “не приходящий”, “ тот, который не приходит или не придёт” от kelmoq “приходить”, beriladigan “даваемый” (вообще)” от berilmоq “даваться”, sinmaydigan “небьющийся” от sinmoq “биться”.
- dik** аффикс спряжения **1** л. мн. числа прошедшего времени, напр., keldik “мы пришли” от kelmoq, “приходить”, ko‘dik “мы видели” от ko‘rmoq “видеть”.
- dim** аффикс спряжения **1** л. ед. числа прошедшего времени, напр., уозdim “я писал” от уозмоқ “писать”, o‘qidim “я читал” от o‘qimoq “читать”
- ding** аффикс спряжения **2** л. ед. числа прошедшего времени, напр., o‘qiding “ты читал” от o‘qimoq “читать”, yozding “ты писал” от уозмоқ, “писать”.
- dingiz** аффикс спряжения **2** л. мн. числа прошедшего времени, напр., yozdingiz “вы писали” от уозмоқ “писать”, o‘qidingiz “вы читали” от o‘qimoq “читать”.
- dir** 1. аффикс сказуемости **3** л. ед. числа, выполняет роль связки, соответствуя русским словам «есть», «является», напр., ukam o‘quvchidir “мой младший брат-ученик, является учеником”; 2. выражает оттенок неуверенности или предположения, напр., o‘qituvchi kelgandir “учитель, должно быть, пришёл”, “учитель, возможно, пришёл”; 3. образует неопределенные местоимения и наречия, напр., kimdir “кто-то” от kim “кто”, nimadir “что-то” от nima “что”, qaterdadir “где-то” от qayerda “где”, qayerdandir “откуда-то” от qayerdan “откуда”.
- dir** образует понудительный залог глаголов, напр., kuldirmoq, “смешить” от kulmoq “смеяться”, sindirmoq “ломать” от sinmoq, “ломаться”, yedirmoq “кормить” от yemoq, “есть” (см. также -tir).

-dosh образует названия лиц со значением соучастия, содружества, общности, соответствуя русским существительным с префиксом «со=», или сложным словам с первым компонентом «едино=», «одно=», напр., vatandosh “соотечественник” от vatan “родина”, “отчество”, maktabdosh “товарищ по школе” от maktab “школа”, sinfdosh “одноклассник” от sinf “класс”, yo‘ldosh “спутник” от yo‘l “путь”.

-yotgan образует от деепричастия настоящего времени причастие настоящего времени данного момента, напр., uchayotgan “летящий” от uchmoq “лететь”, kelayotgan “приходящий” от kelmoq, /прийти”, уозайотган “пишущий” от уозмоq, “писать”, ishlayotgan “работающий” от ishlamoq “работать”.

-yotir образует от деепричастия настоящего времени настоящее время глагола, напр., borayotir “он идёт” от bormoq “идти”, (см. также -ур).

-jon (слово-аффикс, букв, «душа») присоединяясь к названиям, обозначающим родственные отношения, и именам собственным, придает им ласкательный оттенок, напр., otajon “батюшка”, “папенька”, “папочка” от ota “отец”, oraion “сестрица”, “сестричка” от ora “старшая сестра”

-i притяжательный аффикс 3 л. для слов, оканчивающихся на согласные, напр., kitob+i “его (её) книга”— kitob “книга” (см. -si).

-y образует повелительное (желательное) наклонение I л. ед. числа глаголов с основами, оканчивающимися на гласные, напр., ishla+y “ну-ка поработаю я!” от ishlamoq “работать”, boshlay “нач-ну-ка я!” от boshlamoq “начать” (см. -ay).

-ib образует от основ глаголов, оканчивающихся на согласные, деепричастия прошедшего времени, напр., berib “дав” от bermoq, “давать”, ichib “выпив” от ichmoq “пить” (см. также -b).

- il** образует страдательный, реже возвратный залог глаголов от основ, оканчивающихся на согласные, кроме л, напр., berilmoq, “отдаваться”, “предаваться кому-чему-либо”, “даватьсь”, “быть даваемым” от bermoq, “давать”, ochilmoq, “раскрываться”, “распускаться (о цветах)”, “открываться”, “быть открываемым” от ochmoq “открывать”, yozilmoq, “подписаться”, “записаться”, “быть написанным, записанным” от yozmoq “писать”
- illa** образует глаголы от звукоподражательных слов, напр., vizillamoq “жужжать”, “свистеть” от viz-viz “звукоподражание жужжанию, свисту”, qarsillamoq (кирсилламоқ) “трещать”, “хрустеть” от qars “треск”, “хруст”
- im** притяжательный аффикс 1 л. ед. числа для слов, оканчивающихся на согласные, напр., kitobim “моя книга” от kitob “книга” (*см. также -m I*).
- imiz** притяжательный аффикс 1 л. мн. числа для слов, оканчивающихся на согласные, напр., maktabimiz “наша школа” от maktab “школа” (*см. также -miz*).
- imtir** образует от имен прилагательных, обозначающих цвет, новые формы, выражающие неполноту качества и соответствующие русским прилагательным с окончанием «-оватый», «-еватый», напр., oqimtir “беловатый” от oq “белый”, ko‘kimtir “синеватый” от ko‘k “синий” (*см. также -ish, -mtir*).
- in** образует возвратный, реже страдательный залог глаголов от основ, оканчивающихся на согласные, кроме н, напр., yuvinmoq “умываться” от yuvmoq, “мыть”, kiyinmoq “одеваться” от kiymoq, “одевать”, qilinmoq “делаться”, “быть делаемым” от qilmoq “делать” (*см. также -il, -1, -n*).
- ing I** притяжательный аффикс 2 л. ед. числа для слов, оканчивающихся на согласные, напр., kitobing “твоя книга” от kitob “книга”, qalaming “твой карандаш” от qalam “карандаш” (*см. также -ng*).

-ing II образует от основ глаголов, оканчивающихся на согласные, вежливую форму повелительного наклонения **2** л. ед. числа, напр., yozing “пишите”, keling “приходите” (*см. также -ng*).

-ingiz I притяжательный аффикс **2** л. мн. числа для слов, оканчивающихся на согласные, напр., kitobingiz “ваша книга” от kitob “книга”, qalamingiz “ваши карандаш” от qalam “карандаш” (*см. также -ngiz*).

-inchi образует порядковые числительные от числительных количественных, оканчивающихся на согласные, напр., beshinchi “пятый” от besh “пять” (*см. также -nchi*).

-ish I образует от основ глаголов, оканчивающихся на согласные, имена действия, т. е. отлагольные существительные, напр., yurish “хождение”, “походка” от urgtoq “ходить”, ko‘rinish “вид”, “зрелище” от ko‘rimeoq “виднеться” (*см. также -sh I*).

-ish II образует совместный, взаимный и взаимно-совместный залог глаголов, напр., ko‘tarishmoq “совместно поднимать” от ko‘tarmoq “поднимать” (*см. также -sh II*).

-ylik образует повелительное (желательное) наклонение **1** л. мн. числа глаголов, оканчивающихся на ғласные, напр., `ishlaylik “поработаем-ка!” от ishiamoq “работать”, boshlaylik “давайте начнём!” от boshlam • q, “начать” (*см. также -iylik*).

-l образует страдательный, реже возвратный залог глаголов от основ, оканчивающихся на гласные, напр., o‘qilmoq “читаться”, “быть читаемым” от o‘qimoq “читать”, so‘ralmoq “спрашиваться”, “быть спрашиваемым” от so‘ramoq “просить”, “спрашивать” (*см. также -il, -in, -i*).

-lab образует наречия от различных имен, напр., savatlab “корзинами” от savat “корзина”, minglab “тысячами” от ming “тысяча”

- lar** образует множественное число, напр., kitoblar “книги” от kitob “книга”, odamlar “люди” от odam “человек”.
- lashtirish** образует имена действия (отглагольные существительные), соответствующие русским существительным, образованным с помощью окончаний «фикация», «гизация», напр., elektrlashtirish “электрификация”.
- li** образует от имен существительных относительные прилагательные со значением наличия, обладания, напр., aqli “умный” от aql “ум”, kuchli “сильный” от kuch “сила”, tushunarli “понятный” от tushunmoq “понимать”.
- lik** 1. образует имена существительные, преимущественно выражающие отвлеченные понятия, действия, состояния, названия качества или конкретного предмета, напр., do’stlik “дружба” от do’st “друг, tinchlik “мир” от tinch “спокойный” 2. с топонимическими именами собственными образует имена существительные, указывающие на происхождение из данного места, напр., toshkentlik “ташкентец”;
- m I** притяжательный аффикс 1 л. ед. числа, напр., otam “мой отец” от ota “отец”, bolam “моё дитя” от bola “дитя”, “ребёнок” (см. также -im I).
- ma I** образует отрицательную форму глагола, напр., yozma “не пиши” от yozmoq “писать”, yozmadim “я не писал”.
- man** аффикс спряжения и аффикс сказуемости 1 л. ед. числа, напр., yozaman я пишу”, уозмайман “я не пишу”, yozyarman “я пишу (в данный момент)”, уозганман “я писал”
- masdan** образует отрицательную форму деепричастия на -b, -ib (см. -b), напр., ko’rmasdan “не увидев”, “не видя” от ko’rmoq/видеть”, o’tirmasdan “не сидев”, “не сидя” от o’tirmoq “сидеть.”

-maslik образует отрицательную форму имени действия, напр., *bilmaslik* “незнание” от *bilmoq* “знать”.

-miz аффикс спряжения и аффикс сказуемости **1** л. ед. числа, напр., *yozamiz* “мы пишем”, “мы напишем” от *yozmoq* “писать”.

-moqda образует основу настоящего длительного времени глагола, напр., *o‘qimoqdaman* “я учусь” от *o‘qimoq* “учиться”.

-moqchi в соединении с основой глагола образует форму, выражающую желание, намерение, напр., *yozmoqchiman* “я намерен (предполагаю) писать, написать”, *o‘qimoqchi* “(он) намерен читать (учиться)”.

-ni аффикс винительного падежа, напр., *kitobni* “книгу” от *kitob* “книга”.

-niki от местоимений образует самостоятельные притяжательные местоимения, а от имен существительных — притяжательные прилагательные, напр., *u+ni* “его”, “принадлежащий ему от и”, *sizniki* “ваш”, “принадлежащий вам” от *siz* “вы”, *davlatniki* “государственный”, “принадлежащий государству” от *davlat* “государство”.

-ning аффикс родительного падежа, напр., *Ahmadning kitobi* “книга Ахмеда”, *universitet talabasi* “студент университета”.

-roq образует сравнительную степень прилагательных и наречий, напр., *qizilroq* “более красный”, “краснее” от *qizil* “красный”, *sovuoqroq* “более холодный”, “холоднее” от *sovuoq*, “холодный”, “холодно”. Этот аффикс служит также для выражения ослабления (ограничения) качества или признака, напр., *sovuoqroq* “холодноватый” от *sovuoq* “холодный”.

-sa аффикс **3** л. ед. ч. условного наклонения, напр., *yozsa* “если он (на)пишет” от *yozmoq*, “писать”, *o‘qisa* “если он читает”, “если он будет читать” от *o‘qimoq* “читать”.

- san** аффикс спряжения и аффикс сказуемости **2** л. ед. числа, напр., yozasan “ты (на)пишешь”, yozyapsan “ты пишешь (в данный момент)”, yozgansan “ты писал”, studentsan “ты студент”.
- si** притяжательный аффикс **3** л. для слов, оканчивающихся на гласные, напр., otasi “его отец” от ota “отец”.
- siz I** аффикс спряжения и аффикс сказуемости **2** л. мн. числа, напр., yozasiz “вы (на)пишете”, yozyapsiz “вы пишете”, yozgansiz “вы писали”, talabasiz “вы студенты”.
- siz II** образует прилагательные, обозначающие отсутствие чего-либо, выраженного основой, соответствую русским «без=», «не=», напр., kuchsiz “бессильный”, “слабый” от kuch “сила”, tussiz “несоленый”, “без соли” от tuz “соль” В некоторых случаях не образует новой части речи и переводится русским предлогом «без».
- sin** образует повелительное (желательное) наклонение **3** л. ед. числа глагола, напр., o‘qisin “пусть он читает” от o‘qimoq “читать”, kelsin “пусть он приходит (придёт)” от kelmoq “приходить”.
- ta** образует штучные числительные от числительных количественных, напр., beshta “пять штук” от besh “пять”.
- tadan** образует разделительные числительные от числительных количественных, напр., beshtadan “по пяти (штук)” от besh “пять”.
- tacha** образует неопределенные числительные от числительных количественных, напр., mingtacha ”около тысячи”, “примерно с тысячью”.
- uv** образует имена действия и отглагольные существительные от основ глаголов, оканчивающихся на согласные, напр., uozuv “письмо”, “написание”, “запись”, “почерк” от uozmoq “писать” (см. также -v).
- cha I** образует имена существительные уменьшительно-ласкательные, напр., qushcha “птичка” от qush “птица”, uycha “домик” от uy “дом”.
- cha II** образует наречия и прилагательные от различных имен и местоимений, напр., o‘zbekcha ”по-узбекски”, “узбекский” от o‘zbek “узбек”. После имен с аффиксом мн. числа -lar образует

наречия (прилагательные), напр., qahramonlarcha “героически”, “геройски”, “по-геройски”, “геройский” от qahramon “герой”, bolalarcha “по-детски”, “детский” от bola “ребёнок”. **-chak**
то же, что -ча I.

-chi образует от имен существительных и отглагольных имен имя деятеля или представителя определенной профессии, а также имена, выражающие положение или состояние лица, напр., ishchi “рабочий” от ish “работа”, o‘quvchi “читатель”, “ученик” от o‘quv “чтение”, “учёба”.

-shunos (тадж.-перс. происхождения со значением «знающий», «знаток») образует названия профессий, напр., tilshunos “языковед” от til “язык”, tuproqshunos “почвовед” от tuproq “почва”, tarixshunos “историк” от tarix “история”.

-yap образует настоящее время данного момента глагола, напр., boryapman “я иду” от bormoq “идти”, ishlayapsan “ты работаешь” от ishlamoq “работать”.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Otamirzayeva S., Yusupova M. , O‘zbek tili. – t.: JIDU, 2003.
2. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi. - T.: O‘zFA, 2003.
3. Nurmonov A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - T.: O‘zFA, 2005.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili imlo lug‘ati. - T.: O‘zMU, 2003.
5. U.P. Lafasov, A.Q. Ismoilov,. A.P. Madvaliev. O‘zbek tili. Universitet va institutlarning bakalavr mutaxassisligi rusiyabon guruhlari uchun darslik. 1-qism. T., Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti, 2008
6. Rahmatullayev Sh. “Hozirgi adabiy o‘zbek tili”.-T.;2010
7. Normatova Sh. “O‘zbek tili”. T., JIDU nashriyoti, 2010.
8. Abdurahmanova M. “O ‘zbek tilida eng ko ‘p qo ‘llanadigan so ‘zlar lug ‘ati”. – T., JIDU, 2011.
9. Normatova Sh. “O‘zbek tili” fanidan ta’lm texnologiyasi (morfologiya). – T., JIDU, 2013
10. Lafasov O‘. “O‘zbek tili”. T., 2013.
11. English Grammar in Use. Raymond Murphy. Oxford, 2016.